

PEDAGOGIK MAHORAT



D.U.XOLBO'TAYEVA

XOLBO‘TAYEVA DILFUZA USMON QIZI

PEDAGOGIK MAHORAT

**60110100 – Pedagogika. Tarbiya fani o‘qituvchisi yo‘nalishi talabalari
uchun o‘quv qo‘llanma**

Toshkent - 2024
“Science and Innovation” nashriyoti

UO`K 37.02**KBK 74.0****X 10**

D.U.Xolbo'tayeva. Pedagogik mahorat. – Toshkent: “Science and Innovation”, 2024. – 244 b.

O'quv qo'llanma oliy ta'limning 60110100- Pedagogika. Tarbiya fani o'qituvchisi ta'lim bakalavriat yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, uning mazmunida pedagogik mahorat, pedagogik texnika va madaniyat nazariyasi hamda amaliyotiga oid ma'lumotlar, pedagogik fikr tarixi va maktab amaliyotida o'qituvchi mahorati, pedagogik mahoratni o'qituvchi faoliyatida tutgan o'rni, o'qituvchi kasbiy faoliyatida muloqot madaniyatining shakllanishi xususida batafsil ma'lumotlar yoritilgan.

O'quv qo'llanma o'qituvchilarga, xususan pedagogik faoliyatni endigina boshlagan va boshlayotgan o'qituvchi - tarbiyachilar, pedagogik faoliyatga tayyorlanayotgan talabalarga mo'ljallangan bo'lib, kasbiy pedagogik mahoratni egallash hamda takomillashtirish haqida ma'lumot beradi.

Taqrizchilar:

Masharipova Nasiba Ro'zmatovna - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Mardonqulov Jasur Amirddinovich- Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 25-iyundagi 218 - sonli buyrug'i asosida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-8868-5-0

© B.U.Xolbo'tayeva.Pedagogik mahorat, 2024

© “Science and Innovation” nashriyoti, 2024

KIRISH

Bugun ilmiy-pedagogik bilimlar banki tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Axborotlar oqimining keskin o'zgarishi, tinimsiz rivojlanib turishi mavjud bilimlarni ma'naviy "eskirish"ga olib kelishi shubhasiz, pedagogik mehnat tabiati esa o'z vaqtida kasbiy mahoratni yangilashni, rivojlantirishni talab etadi.

"Pedagogik mahorat" fani bo'lajak pedagoglarda kasbiy mohirlik, ijod, ko'nikmalarini hosil qilish, muomala madaniyati, pedagogik texnika malakalarini shakllantirish, o'qituvchilik, tarbiyachilik mahoratining dastlabki malakalarini tarkib toptirishni asosiy maqsad qilib belgilaydi.

"Pedagogik mahorat" fanini o'rganish jarayonida talabalar pedagogik kuzatuvchanlik, ijodkorlik, ilg'or pedagogik tajribalarni mustaqil o'zlashtirishga o'rgatiladilar. O'qish, o'qitish, tarbiyalash jarayonida diqqatlarini aniq taqsimlash, bilim, ko'nikmalari, psixik holatlarini boshqara olish va pedagogik texnika madaniyatini mustaqil o'zlashtirish malakalarini shakllantirishga e'tibor qaratilmog'i kerak.

Ilm dargohida bilim olib, egallanajak kasb-korga tayyorlanayotgan har bir mutaxassis nafaqat o'z ixtisosligi bo'yicha ma'lumotlarga ega bo'ladi, balki pedagogik – psixologik tayyorgarlikni qo'lga kiritib, ma'naviy va jismoniy jihatdan kamol topadi, ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyotda faol ishtirokchi bo'lib voyaga yetadi. O'zining aql – zakovati, ilmiy salohiyati, ma'naviyati, madaniyati bilan milliy istiqlool g'oyalarini mustahkamlashda, ozod va obod Vatanni qurishda yonib yashaydigan shaxs bo'lib shakllanadi va ta'lim islohotlari hujjatlarida belgilangan vazifalarini bajarishga o'z hissasini qo'shadi.

Shunday qilib, insonning ma'naviy yuksalishi, hayotiy tajribasi, bilimi, xatti – harakati, odob – axloqi, kasb mahorati, uning mazmundorligi va nihoyat uni qanchalik takomillashtirib borishi bilan farqlanib turadi.

Inson faoliyatining ko'lami keng, anglash, tushunish, qo'llay olish malakasi serqirra va mahoratli inson baxtli ekan, avvalo, uning

mohirligini takomillashtirish uchun kasbiy mahoratni tarbiyalashni to‘g‘ri tashkil etmoq talab qilinadi. Shuningdek, eramizdan oldingi 551 – 479 yillarda yashab o‘tgan Xitoy faylasufi va davlat arbobi Konfutsiy ham **“Men eshitaman va men esdan chiqaraman. Men ko‘raman va men eslab qolaman. Men bajaraman va men tushunaman!!!”** deganida, mahoratni, bajarish mahoratini nazarda tutgan edi.

Ma’lumki, umumiy mehnat bilan kasb ixtisosligi o‘rtasida bevosita bog‘liqlik mavjud. Chinakam kasbiy mohirlik darajasi shaxsning umumiy rivojlanishi bilan to‘g‘ridan – to‘g‘ri bog‘liqlikda, aloqada bo‘ladi. Zero, kasbni aniq tanlash, unga bo‘lgan qiziqishni orttirish, mahoratli bo‘lishni uyg‘otadi. Mahoratli kasb egasining ma’naviy dunyosi boy, ishlash qobiliyati teran bo‘ladi va u o‘z kasbi yordamida o‘ziga ham, boshqalarga ham katta foyda keltiradi. Shuning uchun kasbiy mahoratni shakllantirish, tarbiyalashga va nihoyat uni takomillashtirishga intilish, uni kerakli ma’lumotlar, axborot(bilim)lar, malakalar bilan to‘ldirib borish shu kunning, qolaversa ta’lim islohotlarining dolzarb masalasidir.

Har bir yosh mutaxassisni puxta ilmiy – nazariy bilimlar bilan qurollantirish, egallagan ilmiy bilimlarni amaliy faoliyatda qo‘llash, ko‘nikma va malakalarga ega qilish, tarbiyalash albatta oson ish emas. O‘qishga ilmiy, ongli munosabat bilan qaraydigan, mustaqil fikrlaydigan, mukammal ma’lumotlarni egallashga ehtiyojli, bilish faolligi va aqliy mehnat madaniyatini o‘zida mujassamlashtirgan yoshlarni voyaga yetkazish - muhim va davlat ahamiyatidagi vazifadir.

Buning uchun:

1. Pedagogik ishning mohiri bo‘lishga intiluvchan, ya’ni kasbiy faoliyatning pedagogik yo‘nalishlarini aniq belgilay oladigan shaxs bo‘lish lozim. Shunga asosan o‘quv qo‘llanmaning birinchi bobida pedagogik mahoratning nazariy – metodologik asoslari, mohiyati, mazmuni, funksiyasi, tarkibiy qismlari, ularning vazifalarini ochib berishga harakat qilindi. Bu esa o‘z navbatida jamiyatning talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, pedagogik mahorat asoslarining zamonaviy

pedagogikaning ilg'or ideallari zaminida shaxsga insonparvarlik nuqtayi - nazaridan yondashish imkonini beradi.

2. Pedagogik mahorat – bu pedagogik jarayonni aniq tashkil qilish, boshqarish, kutilayotgan natijalarni oldindan loyihalash va uni ro'yobga chiqarish texnologiyasi, shuningdek, pedagogik jarayonda vujudga kelishi mumkin bo'lgan nizoli vaziyatlarni oldindan ko'ra bilish va ularni bartaraf etish uchun tayyor bo'lish metodikasidir. O'quv qo'llanmaning ikkinchi bobida mana shu masalalar to'g'risida so'z yuritilib, pedagogning o'quv – tarbiya jarayonidagi mahorati, ijodkorligi, tamoyilliligi, o'z hissiyotlarini tartibga solish yo'llari haqida so'z yuritiladi.

3. Pedagogik faoliyatning mohir ustasi bo'lish – bu, ilg'or tajribalarning hayotiyligi, davr bilan hamnafasligi, aniq tavsiyalarni belgilash va ularni takomillashtirish yoki rad etish demakdir. Shunga ko'ra o'quv qo'llanmaning uchinchi bobida o'quv – tarbiya jarayonini boshqarish va buning uchun pedagogik mehnatni ilmiy asosda tashkil qilish, o'z – o'zini tarbiyalash, shaxsiy pedagogik tajriba to'plash, umumlashtirish, pedagogning innovatsion faoliyatini shakllantirish texnologiyalari xususida fikr yuritiladi.

1-§. TA'LIM TIZIMINI MODERNIZATSIYALASHNING TASHKILIY-METODIK ASOSLARI

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida pedagogik faoliyatni tashkil etishga qo‘yilgan talablar. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni 11 bob, 75 ta moddadan iborat bo‘lib, amaldagi qonunning 34 ta moddasidan 33 tasiga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritilgan. Qonunning asosiy maqsadi, ta’lim sohasidagi faoliyati, jumladan ta’limning turlari, shakllari, tizimni boshqarish, sifatni nazorat qilish, ta’lim-tarbiya ishtirokchilarining samarali hamkorlik qilish mexanizmlarini ta’minlashdan iboratdir. Qonunning asosiy jihatlaridan yana biri shuki, mamlakatimizda ta’limni tashkil etishda alohida e’tibor qaratib kelinayotgan ta’lim va tarbiyaga, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilishi, shu paytgacha asosiy prinsip sifatida belgilanmagan edi. Endilikda ushbu prinsip qonun bilan belgilandi.

Davlat ta’lim sohasini, ta’lim tashkilotlari faoliyatini rivojlantirishga, shuningdek investorlarning, shu jumladan chet ellik investorlarning ushbu sohadagi huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan investitsiyalarni jalb etish uchun qulay ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy-huquqiy sharoitlar yaratilishini ta’minlaydi.

Ijtimoiy mavqeyidan qat’iy nazar, har kimga ta’lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi. Ta’lim turlari quyidagilardan iborat:

- maktabgacha ta’lim va tarbiya;
- umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim;
- professional ta’lim;
- oliy ta’lim;
- oliy ta’limdan keyingi ta’lim;
- kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- maktabdan tashqari ta’lim.

Maktabgacha ta’lim va tarbiya bolalarni o‘qitish va tarbiyalashga, ularning intellektual, ma’naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o‘rta ta’limga

tayyorlashga qaratilgan ta'lim turidir. Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim umumta'lim o'quv dasturlarini, zarur bilim, malaka hamda ko'nikmalarni o'zlashtirishga qaratilgan. Umumiy o'rta ta'lim I–XI sinflarni o'z ichiga oladi. O'rta maxsus ta'lim akademik litseylarda 9 yillik tayanch o'rta ta'lim asosida 2 yil mobaynida amalga oshiriladi va ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatlarining jadal rivojlanishini, shuningdek chuqur, tabaqalashtirilgan, kasb-hunarga va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim olishni ta'minlaydi. Professional ta'lim, boshlang'ich professional ta'lim, o'rta professional ta'lim va o'rta maxsus professional ta'lim darajalariga ajratiladi. Boshlang'ich professional ta'lim kasb-hunar maktablarida IX sinf bitiruvchilari negizida kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha umumta'lim fanlarining va mutaxassislik fanlarining 2 yillik integratsiyalashgan dastur asosida bepul amalga oshiriladi.

O'rta professional ta'lim kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida davomiyligi 2 yilgacha bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim hamda boshlang'ich professional ta'lim negizida amalga oshiriladi.

O'rta maxsus professional ta'lim texnikumlarda davlat buyurtmasi yoki to'lov shartnoma asosida davomiyligi kamida 2 yil bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshiriladi. Oliy ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlashini ta'minlaydi. Oliy ma'lumotli kadrlarni tayyorlash oliy ta'lim tashkilotlarida (universitetlar, akademiyalar, institutlar, oliy maktablar) amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim ikki bosqichga-bakalavriat va magistratura bosqichiga ega. Bakalavriat oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha chuqurlashtirilgan bilim, malaka va ko'nikmalar beradigan, o'qish davomiyligi kamida 3 yil bo'lgan tayanch oliy ta'limdir. Magistratura tegishli bakalavriat negizidagi aniq mutaxassislik bo'yicha o'qish davomiyligi kamida 1 yil bo'lgan oliy ta'limdir. Oliy ta'limdan keyingi

ta'limni oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlarda olish mumkin. Oliy ta'limdan keyingi ta'lim doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur o'rganishni va ilmiy izlanishlar olib borishni nazarda tutadigan tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchanlik asosida ilmiy darajaga ega ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashni ta'minlaydi. Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish. Kadrlarni qayta tayyorlash tayanch mutaxassisliklar va kasblarga muvofiq bo'lgan yo'nalishlari bo'yicha faoliyatni amalga oshirish uchun qo'shimcha kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarning zarur hajmi egallanishini ta'minlaydi. Kadrlar malakasini oshirish kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarning chuqurlashtirilishi hamda yangilab borilishini ta'minlaydi, kadrlarning toifasi, darajasi, razryadi va lavozimi oshishiga xizmat qiladi.

Ta'lim olish shakllari. Ta'lim olish shakllari quyidagilardan iborat:

- ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olish (kunduzgi);
- ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta'lim olish (sirtqi, kechki, masofaviy);
- dual ta'lim;
- oilada ta'lim olish va mustaqil ta'lim olish;
- katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish;
- inklyuziv ta'lim;
- eksternat tartibidagi ta'lim;
- mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlar tayyorlash.

Qonunga ko'ra, davlat oliy ta'lim, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalari va ularning filiallari, shuningdek davlat ishtirokidagi oliy, o'rta maxsus, professional ta'lim tashkilotlari va ularning filiallari Prezident yoki Hukumat qarorlari bilan tashkil etiladi. Nodavlat ta'lim muassasalarini tashkil etish ularning ta'sischi tomonidan amalga oshiriladi. Nodavlat ta'lim tashkilotlariga litsenziya Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan beriladi.

Ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilish barcha talabgorlar uchun ta'lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta'minlanishi prinsipi asosida amalga oshiriladi, shaxslarning ayrim toifalari bundan mustasno, ularga qonun hujjatlariga muvofiq imtiyozlar berilishi mumkin. Ta'lim tashkilotlari talabgorlarni va (yoki) ularning ota-onasini yoki boshqa qonuniy vakillarini ustav, litsenziya (nodavlat ta'lim tashkilotlari uchun), davlat akkreditatsiyasi to'g'risidagi sertifikat, o'quv dasturi hamda ta'lim faoliyatini tartibga soluvchi boshqa hujjatlar, ta'lim oluvchilarning huquqlari va majburiyatlari bilan tanishtirishi shart. Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar o'qishga o'z ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining roziligiga va tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyaning xulosasiga binoan qabul qilinadi. Ayrim ta'lim tashkilotlariga (oliy ta'lim muassasalariga, akademik litseylarga, Prezident, ijod, ixtisoslashtirilgan maktablar va boshqalarga) o'qishga qabul qilish tanlov asosida amalga oshiriladi. Davlat oliy ta'lim va professional ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish davlat granti va (yoki) to'lov-shartnoma asosida amalga oshiriladi. Chet ellik fuqarolarni O'zbekiston Respublikasining davlat ta'lim muassasalariga qabul qilish to'lov-shartnoma asosida (bundan davlat granti ajratilgan hollar mustasno) amalga oshiriladi.

Davlat ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Nodavlat ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilish tartibi ushbu ta'lim tashkilotlari tomonidan belgilanadi. Oliy ta'lim muassasalariga davlat granti asosida o'qishga qabul qilish parametrlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadi. Oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish chog'ida imtiyozli kontingent uchun qo'shimcha qabul parametrlari belgilanadi. Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi. Tegishli ma'lumoti, kasbiy tayyorgarligi bo'lgan va ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega. Magistraturani tamomlagan shaxslar va diplomli mutaxassislar o'z mutaxassisligi bo'yicha

pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega. Pedagog xodimlarning maqomi va ular faoliyatining kafolatlari. Pedagog xodimlarning maqomi jamiyat va davlat tomonidan tan olinadi. Pedagog xodimlar ijtimoiy qo'llab-quvvatlanadi, o'z kasbiy faoliyatini amalga oshirishi, ularning ijtimoiy maqomi va obro'sini oshirish uchun tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratiladi, shuningdek o'z huquq va qonuniy manfaatlarini amalga oshirish uchun kafolatlar beriladi. Ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarning huquqlari, sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'si davlat himoyasi ostida bo'ladi.

Oliy ta'lim tizimi o'quv-jarayonini modernizatsiyalashning ustuvor yo'nalishlari. O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida davlatimiz rahbarining 2019 yil 8 oktyabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda. Modernizatsiya - (lotincha – “modeme” – eng yangi) – takomillashtirilgan, yaxshilangan, yangi talabalarga javob bera oladigan degan ma'noni bildiradi. Ushbu so'z borgan sari hayotning barcha jabhalarida keng qo'llanilib bormoqda. Mazkur modernizatsiya shaxsni o'qitish va tarbiyalashga oid eng yaxshi an'analarni saqlab qolgan va boyitgan holda majmuaviy xarakter kasb etib, ta'lim tizimining barcha sohalarini to'la qamrab oladi va jamiyatda qaror topgan malakali mutaxassislarni tayyorlash borasidagi ehtiyojni qondirishga xizmat qiladi.

Ta'lim tizimining modernizatsiyalashda quyidagi ustuvor vazifalar hal qilinadi:

- har bir shaxsning to'laqonli ta'lim olishida boshqalar bilan teng huquqliligi va ta'lim olishning ochiqligini ta'minlash;
- uzluksiz ta'lim tizimida yangi sifat ko'rsatkichlariga erishish;

- yangi ta'lim resurslarini jalb qilish va ulardan samarali foydalanish asosida uzluksiz ta'lim tizimida samarali me'yoriy-huquqiy va tashkiliy - iqtisodiy mexanizmlarni shakllantirish;

- davlat va jamiyatning qo'llab-quvvatlashi negizida ta'lim tizimi xodimlarining ijtimoiy maqomi va kasbiy kompetentligini rivojlantirish;

- ta'lim tizimining davlat va jamoatchilik boshqaruviga asoslanganlik tamoyiliga muvofiq ta'lim jarayoni ishtirokchilari – talabalar, pedagoglar, ota onalar va ta'lim muassasalarining rolini oshirish.

XX asrning 50-yillarida ta'lim jarayonida texnik vositalarni qo'llash "ta'lim texnologiyasi" yo'nalishini belgilab beruvchi omil deya e'tirof etildi, asosiy e'tibor talabalar auditoriyasini kengaytirish texnik vositalardan foydalanish evaziga amalga oshirilishi, texnik vositalarning imkoniyatlarini yanada takomillashtirish, ularning axborot sig'imini kengaytirish, axborotlarni uzatish xizmatini sifatli tashkil etish, ta'lim olishni individuallashtirish kabi masalalarga qaratildi. Bu borada olib borilgan tadqiqotlarning obyekti, tayanch nuqtasi sifatida texnik vositalar imkoniyatlari, ularni takomillashtirish jarayoni qabul qilindi. Davlatimiz rahbarining 2015 yil 12 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bu boradagi ishlarni yangi bosqichga ko'tarishga, oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilarining kasb darajasi va malakasini muttasil oshirib borish, ularni zamonaviy talablarga muvofiq muntazam qayta tayyorlashning takomillashtirilgan tizimini joriy etish asosida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yuksaltirishni ko'zda tutgani bilan nihoyatda ahamiyatlidir. Hamda 2011-2016 yillarda oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini modernizatsiyalash va mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash bo'yicha Dasturning amalga oshirilishi ustidan tizimli monitoring o'rnatish aytib o'tildi. Prezidentimizning 2011-yil 20-maydagi «Oliy ta'lim muassasalari

moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori Oliy ta'lim muassasalarini modernizatsiyalash, ularning zamonaviy o'quv va ilmiy laboratoriya jihozlari bilan ta'minlash, ta'lim jarayonlarini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, ilg'or pedagogik texnologiyalar hamda o'qitish shakllarini joriy etish, o'qituvchi kadrlar mehnatini rag'batlantirishni kuchaytirish asosida iqtisodiy soha va tarmoqlarida talab qilinadigan oliy ma'lumotga ega mutaxassislarni tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash maqsadlarini qamrab olgan. Xulosa qilib aytganda davlatimizda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar yurtimiz kelajagini yaxshilash uchun qo'yilgan poydevordir. Shu sababdan ta'limning ma'naviy-axloqiy mazmunini oshirish, talaba-yoshlarga mustaqillik g'oyalariga, yuksak ma'naviyat va insoniylikning milliy an'analariga sodiqlik ruhini chuqur singdirish, ularda yot g'oya va mafkuralarga nisbatan immunitet va tanqidiy tafakkurni mustahkamlash bo'yicha keng ko'lamli ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni olib borish; ta'lim muassasalari moddiy-texnika bazasini o'quv va ilmiy-laboratoriya bino va korpuslari, sport inshootlari, ijtimoiy-muhandislik infratuzilmasi obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash, ilm-fanning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha o'quv-ilmiy laboratoriyalarini zamonaviy asbob va uskunalar bilan jihozlash orqali yanada mustahkamlash; ta'lim muassasalarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari bilan jihozlash, muassasalar talabalari, o'qituvchilari va yosh tadqiqotchilarining jahon ta'lim resurslari, zamonaviy ilmiy adabiyotlarning elektron kattaloglari va ma'lumotlar bazalariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish ishlari olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrleydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini

rivojlantirish maqsadida davlatimiz rahbarining 2019 yil 8 oktyabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda.

Modernizatsiya - (lotincha – “modeme” – eng yangi) – takomillashtirilgan, yaxshilangan, yangi talabalarga javob bera oladigan degan ma’noni bildiradi. Ushbu so‘z borgan sari hayotning barcha jabhalarida keng qo‘llanilib bormoqda. Mazkur modernizatsiya shaxsni o‘qitish va tarbiyalashga oid eng yaxshi an’analarni saqlab qolgan va boyitgan holda majmuaviy xarakter kasb etib, ta’lim tizimining barcha sohalarini to‘la qamrab oladi va jamiyatda qaror topgan malakali mutaxassislarni tayyorlash borasidagi ehtiyojni qondirishga xizmat qiladi. Ta’lim tizimining modernizatsiyalashda quyidagi ustuvor vazifalar hal qilinadi: - har bir shaxsning to‘laqonli ta’lim olishida boshqalar bilan teng huquqliligi va ta’lim olishning ochiqligini ta’minlash;

- uzluksiz ta’lim tizimida yangi sifat ko‘rsatkichlariga erishish;
- yangi ta’lim resurslarini jalb qilish va ulardan samarali foydalanish asosida uzluksiz ta’lim tizimida samarali me’yoriy-huquqiy va tashkiliy- iqtisodiy mexanizmlarni shakllantirish;

- davlat va jamiyatning qo‘llab-quvvatlashi negizida ta’lim tizimi xodimlarining ijtimoiy maqomi va kasbiy kompetentligini rivojlantirish;

- ta’lim tizimining davlat va jamoatchilik boshqaruviga asoslanganlik tamoyiliga muvofiq ta’lim jarayoni ishtirokchilari – talabalar, pedagoglar, ota onalar va ta’lim muassasalarining rolini oshirish.

XX asrning 50-yillarida ta’lim jarayonida texnik vositalarni qo‘llash “ta’lim texnologiyasi” yo‘nalishini belgilab beruvchi omil deya e’tirof etildi, asosiy e’tibor talabalar auditoriyasini kengaytirish texnik vositalardan foydalanish evaziga amalga oshirilishi, texnik vositalarning imkoniyatlarini yanada takomillashtirish, ularning axborot sig‘imini kengaytirish, axborotlarni uzatish xizmatini sifatli

tashkil etish, ta'lim olishni individuallashtirish kabi masalalarga qaratildi. Bu borada olib borilgan tadqiqotlarning obyekti, tayanch nuqtasi sifatida texnik vositalar imkoniyatlari, ularni takomillashtirish jarayoni qabul qilindi. Davlatimiz rahbarining 2015-yil 12-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bu boradagi ishlarni yangi bosqichga ko'tarishga, oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilarining kasb darajasi va malakasini muttasil oshirib borish, ularni zamonaviy talablarga muvofiq muntazam qayta tayyorlashning takomillashtirilgan tizimini joriy etish asosida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yuksaltirishni ko'zda tutgani bilan nihoyatda ahamiyatlidir.

Mamlakatimizda bugungi kunda yuzdan ortiq davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyat yuritmoqda. Shu ma'noda mazkur ta'lim muassasalarini modernizatsiyalashda quyidagilarga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- a) qo'shma ta'lim dasturlarini joriy etish;
- b) masofaviy ta'lim ko'lamini kengaytirish;
- v) oliy ma'lumotli shaxslarni kafolatlash.

Oliy ta'lim muassasalarida xorijiy mamlakatlar oliy ta'lim muassasalari bilan birgalikda qo'shma ta'lim dasturlarini keng joriy etish muhim ahamiyatga ega. Bu bilan oliy ma'lumotli shaxslarning xalqaro miqyosda mehnat faoliyati bilan shug'ullanishi imkoniyatiga ega bo'linadi. Bundan tashqari mamlakatimizda tayyorlanayotgan oliy ma'lumotli shaxslarning diplomlarini xorijiy mamlakatlarda tan olinishiga erishiladi. Mamlakatimizning eng chekka hududlarida iqtidorli yoshlar istiqomat qilmoqda. Ularning oliy ma'lumotli bo'lishi uchun oliy ta'lim muassasalarida masofaviy ta'lim texnologiyasini kengaytirish lozim bo'ladi. Unga ko'ra, yoshlar masofadan turib oliy ma'lumot olish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. Chunki bugungi kunda mamlakatimizda masofaviy ta'lim texnologiyasi bo'yicha milliy tajriba mavjudligini eslatib o'tish joiz. Jamiyatimizning hozirgi

rivojlanish jarayoni oliy ma'limotli shaxslarni kafolatlashni taqozo etadi. Unga ko'ra, davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalarining bitiruvchilari teng ish bilan ta'minlanishi, ularning lavozim bo'yicha o'sib borishi kafolatlanishi, mehnat, dam olish huquqlarining aniqligi va sog'liqni saqlash imtiyozlariga ega bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi. E'tibor berilsa, oliy ta'lim muassasalari faoliyatini modernizatsiyalashning o'ziga xos asoslari mavjud. Ularni amalga oshirish oliy ta'lim muassasalari faoliyatini kuchaytirish imkonini beradi. Shunday qilib mamlakatimizda maktabgacha va maktab ta'limi, ixtisoslashtirilgan va ijodiy ta'limni hamda o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim jarayonini yangilash muhim ahamiyatga egadir. Bu bilan mazkur ta'lim muassasalarining faoliyati kuchayadi va mutaxassislar tayyorlash jarayoni takomillarningningshadi.

Pedagogik fikr tarixi va maktab amaliyotida o'qituvchi mahorati masalalari.

Hozirgi o'zbek xalqining ajdodlari bundan bir necha ming yillar oldin yashagan bo'lib, ular yuksak va o'ziga xos madaniyatni vujudga keltirishda juda katta va mashaqqatli yo'lni bosib o'tishgan. Dastlabki tosh qurollaridan tirikchilik uchun foydalanishda ancha takomillashgan mehnat qurollari yasashgach, undan urug'chilik, qabilachilik davrlariga kelib, xo'jalik va madaniy taraqqiyotda erishilgan yutuqlargacha bo'lgan tariximiz ota-bobolarimizning boy qadimgi madaniyatga ega bo'lganligidan dalolat beradi.

Ajdodlarimizning qadimiy madaniyatiga ta'lim-tarbiyaga oid boy merosi ham kiradi. Zero, hozirgi turkiy va forsiyzabon xalqlarining bizgacha yetib kelgan muhim arxeologik topilmalari, tarixchilar adabiyot va san'at namunalari buning dalilidir.

Tadqiqotchilar tomonidan qayd etilgan ma'lumotlarga qaraganda, eng qadimgi tarbiya haqidagi yodgorliklar bizgacha bevosita yetib kelmagan. Turkiy va forsiyzabon xalqlarning "hayot kechirish san'ati, donolik majmuasi sifatida yuzaga kelib, borliqqa amaliy munosabatda bo'lish namunasi" ifodalangan ma'naviy-madaniy yodgorliklari, qadimgi grek tarixchisi Gerodotning "Tarix", Strabonning

“Geografiya” asarlari, Maxmud Qoshg‘ariyning “Devonu-lug‘atit turk”, Urxun-Enisey bitiklari va boshqa shu kabi adabiy-tarixiy manbalarda saqlangan va ular orqali bizgacha yetib kelgan. Bu yodgorliklar inson rivojlanishida moddiy va ma’naviy madaniyat qay darajada katta rol o‘ynaganligidan dalolat beradi. Xususan, tarbiya insonning aqliy va axloqiy jihatdan tarkib topa boshlashiga ta’sir etgan bo‘lsa, insonning shakllana borishi ham, o‘z navbatida, insoniyat jamiyatining tarkib topa borishiga yordam bergan. Xullas, insonning o‘z-o‘zini anglashi va jamiyat taraqqiyoti bir- biri bilan uzviy aloqada bo‘lgan. Bu tarixiy jarayonni bilish inson tafakkurining qadimgi davrlardan boshlab bosqichma-bosqich rivojlanishi va shu bilan birga insonning ham tobora shakllanib borganligi haqida to‘la tasavvur hosil qilishga imkon beradi.

Ma'lumki, kishilar va kishilik jamiyati vujudga kelishi jarayonida inson ham biologik jihatdan, ham inson sifatida takomillarningningshib borgan. Dastlabki diniy e'tiqodlar, oddiy ixtirolarning takomillarningningshib borishi, inson ongining shakllanib borishiga turtki bo‘ladi. Bu jarayonning ming- ming yillar davom etib, inson ongi shakllanishining asosi bo‘lgan xulq- odob qoidalari tarkib topgan.

Eng qadimgi kishilarning dastlabki oddiy istaklari, orzu-umidlari, xislatlari qadimgi eposlarda, ulardagi afsonaviy obrazlar qiyofasida o‘z ifodasini topgan, ruhga sig‘inish - onimizm, ajdodlar ruhiga sig‘inish - totemizm, sehrgarlik kabi diniy e'tiqodlar va marosimlar aks etgan afsonalar, rivoyatlarda eng qadimgi avlodlarimizning tafakkur dunyosi aks etgan. Ammo bu rivoyatlar, afsonalar massagetlar, saklar, xorazmiylar, so‘g‘dlar, parfiyanlar yashagan davrlarga borib taqaladi.

Biz yuqorida keltirgan tarixiy, falsafiy, pedagogik adabiyotlarda tadqiqotchilar, umuman, eng qadimgi madaniy boyliklarimizni o‘rganishda uch asosiy manbaga tayanganligini ko‘ramiz:

1. Xalq og‘zaki ijodi materiallari.
2. Buyuk adiblar, allomalarning ijodiy merosi.
3. Arxeologik qazilmalar natijasida topilgan oshyolar.

Ma'lumki, o‘tmishda kishilar mehnat faoliyati jarayonida o‘z

ehtiyojlarini qondirgan va bu jarayon yosh avlodga mehnat ko'nikma va malakalarini hosil qilishga yordam bergan.

Pedagoglar, tarixchi pedagoglarning ko'rsatishicha, kishilarning mehnat faoliyati yosh jihatidan uch guruhga bo'lingan:

1. Bolalar va o'smirlar;
2. Hayot va mehnatda to'la ishtirok etuvchilar;
3. Keksalar.

Ibtidoiy jamiyat davrida bola o'zi uddalay oladigan faoliyatga bevosita qo'shilib, u hayot kechirish va mehnat qilishga o'rgangan. O'g'il bolalar erkaklar bilan bajariladigan ov qilish, qurol yasash kabi ishlarni bajarsa, qizlar ayollar mehnati bilan tanishar edi. Bola ma'lum tayyorgarlikdan so'ng sinovlardan o'tib, keyin amaliy faoliyatda ishtirok eta boshlaydi.

Urug'chilik jamoasi bosqichida bolalar mehnati, kasb-hunarga intilishi faollashib bordi. Tajribali kishilar bolalarni tarbiyalash bilan birga ularni yozishga ham o'rgata boshlaydilar. Asta-sekin tarbiya tizimiga harbiy vatanparvarlik tarbiyasining boshlang'ich turlari kirib kela boshlaydi.

Jamiyat taraqqiyoti bilan birga bolalarga dalalarni o'lchash, suv toshqinlarining oldini olish, odamlarni davolash usullariga oid bilimlar berish ishlari avj oladi. Natijada maktablarga va yozuvga ehtiyoj sezila boshlaydi. Dastlab suratkashlik rivojlanib, piktografik xat paydo bo'lgan bo'lsa, keyinchalik qo'shni mamlakatlardan kirib kelgan harf bilan yozish usuli paydo bo'ladi va tez tarqala boshlaydi.

Tadqiqotchilar eramizdan oldingi birinchi ming yillik o'rtalarida oromiy yozuvi, Aleksandr Makedonskiy istilosidan so'ng esa Yunon yozuvi va shu bilan birga forsiy mixxat ham ma'lum vaqtlarda qo'llanib kelinganini ta'kidlaydilar. O'sha davrda Xorazm, So'g'd, Kushon, Rum (Urxun-Enisey), Uyg'ur va boshqa yozuvlar paydo bo'lgan va bu yuksalish ta'lim-tarbiyaning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Chunki, inson ibtidoiy jamoa bo'lib yashash tarzini asta-sekin rivojlantirib borib, jahon madaniyatida katta kashfiyotlar yaratdi.

Chunonchi, Xitoyda qog‘ozning ixtiro qilinishi, Hindistonda hisoblash o‘nlik sistemasining paydo bo‘lishi, Mesopatamiyada yer kurrasini graduslarga sutkani soat, daqiqa va soniyalarga bo‘lishning joriy etilishi, Markaziy Osiyoda O‘rta dengiz bilan Hindistonni bog‘lovchi karvon yo‘lining vujudga kelishi, keyin Markaziy Osiyo orqali Xitoydan O‘rta dengizga “Buyuk ipak yo‘li”ning ochilishi kabi muhim voqealar madaniyatning taraqqiy etishi va yozuvning tarqalishiga sabab bo‘ldi.

Demak, eramizning boshlarida hozirgi Markaziy Osiyo hududida biz yuqorida sanab o‘tgan, Yunon va Oromiy alifbosi asosida Xorazm, So‘g‘d, Baqtriya yozuvlari shakllangan.

Eramizdan oldin taxminan 484 (480)-431 (425) yillarda yashagan Yunon tarixchisi Geradotning “Tarix” kitobida qadimgi forslar, saklar va massagetlarning ta’lim-tarbiyaviy qarashlariga oid muhim ma’lumotlar berilgan:

Forslarning eng sharaflaydigan narsasi jasurlikdir, - deydi olim, - shunga ko‘ra ular ko‘proq o‘g‘illarga ega bo‘lishdan faxrlanishgan. Podshoh ham kimning o‘g‘li ko‘p bo‘lsa, unga har yili sovg‘a-salomlar yuborgan. Bundan tashqari, bolalarning yoshiga ham e’tibor berishgan. O‘g‘il bolalarni besh yoshdan yigirma yoshgacha faqat uch narsaga: otda yurish, kamondan otish, to‘g‘rilikka o‘rgatishgan. Bolani besh yoshgacha otasiga ko‘rsatmaganlar, u ayollar tarbiyasida bo‘lgan mabodo o‘g‘il vafot esa, otasining qayg‘urmasligi uchun shunday qilganlar. O‘g‘il hech qachon ota-onasini behurmat qilmagan. Ular ota-onaga hurmatsizlikni nikohsiz tug‘ilgan yoki tashlandiq bolalardangina kutish mumkin, deb hisoblaganlar.

Undan tashqari, Gerodot forslar uchun yolg‘onchilik va qarzдор bo‘lish sharmandalik hisoblangan, deydi... yana ular daryo suviga tupurmaganlar, hatto qo‘l yuvmaganlar. Ular daryolarni muqaddas sanaganlar.

Gerodotning bu ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, bizning ajdodlarimiz farzandlarini jasoratli, o‘z vatanining haqiqiy himoyachisi, kuchli va botir etib tarbiyalashga katta e’tibor berganlar.

Erkaklarga emas, hatto ayollar ham jasorat ko'rsatgani Yunon faylasuflari tomonidan yozib qoldirilgan. Masalan, Plutarx fors ayollari haqida gapirib, shunday voqeani keltiradi: Podshoh Kir forslarni shoh Astiyak boshliq midiyaliklarga qarshi kurashga otlantirganda, ular jangda mag'lub bo'ladilar. Fors jangchilari shaharga qarab qocha boshlaydilar. Dushman ularni quvib shaharga bostirib kirishga yaqin qolganda ularga qarshi darvozadan ayollar chiqib keladilar va shunday xitob qiladilar: “Ey noinsof bandalar, qayoqqa qochmoqchisizlar? Endi siz dunyoga kelgan joyingizga qaytib yashirina olmaysiz-ku!”. Forslar ayollarning bu hayqirig'idan ta'sirlanib, qaytib jangga tashlanadilar va dushmanni orqaga chekinishga majbur etadilar.

Bu voqeaga xotira sifatida Kir shunday qonun ta'sis etadi: bu shaharga agar qaysi shoh qadam qo'ysa, har bir ayolga bittadan oltin sovg'a qilsin.

Yana shu Plutarxning yozishicha, Aleksandr yerli xalqlarga yaqinlashish maqsadida makedoniyaliklar bilan mahalliy aholi urf-odatlarini aralashtirishga harakat qilgan. Shu maqsadda u o'ttiz ming bolani ajratib olib, yunon tili va harbiylik san'atini o'rgatish uchun murabbiylar tayinlashga buyruq bergan.

Keyinchalik Yunon alifbosining bu yurtda qabul qilinishi, o'sha davrda ko'plab maktablar ochilgani hamda unda yerli aholi farzandlari ham o'qitilganidan dalolat beradi. Yoki So'g'd yozma yodgorliklari orasida “Eski xatlar” nomi bilan yuritiladigan va V.B.Xayning tomonidan aniqlangan qimmatli manbalar bor. Bu xatlar eramizning boshlaridagi so'g'd yozuvi haqida ma'lumot beradi. “Eski xatlar” Dunxuan shahri (Sharqiy Turkiston) yaqinidagi savdo qishlog'ida yashagan so'g'dlik tijorat savdo ahlining Samarqandga - o'z ona yurtiga yozgan shaxsiy xatlaridir.

Imperator Yan Di (615-617)ning elchisi Vey Szi hisobotlarida ham Samarqandda ta'lim-tarbiya haqida ma'lumotlar mavjud. “Aholisi (Samarqandning demoqchi) - mohir savdogarlardir. O'g'il bola besh yoshga to'lar ekan, unga savdo o'rgata boshlaydilar; o'qishni o'rganishi bilan savdo ishlariga o'rgata boshlaydilar”. Boshqa bir Xitoy

tarixchisi Syuan-Szin esa Samarqand aholisining axloqiy va xulq-odob qoidalariga rioya etishdan boshqalarga o'rnak bo'lganligini aytib o'tgan. Bu ma'lumotlar qadimda bolalar o'qitiladigan savdo maktablari bo'lganligi va maktablardan tashqari bolalar maxsus murabbiylar tomonidan harbiy- jismoniy mashqlarga va hunarga o'rgatilganligi, ta'limdan maqsad bolalarni hayotga tayyorlash ekanligi haqida ma'lumot beradi.

Shuning bilan birga eng qadimgi davrlarda ta'lim-tarbiyaga oid qimmatli ma'lumotlarni biz xalq og'zaki ijodi namunalari - afsonalar, qahramonlik eposlari, qo'shiqlari, maqol va iboralarda ham ko'ramiz. Chunki xalq donishmandligining ko'zgusi bo'lgan xalq og'zaki ijodida xalq pedagogikasiga xos bo'lgan tarbiya tajribalari umumlashgandir.

Ayniqsa, ibtidoiy kishilarning tabiat va jamiyat haqidagi tasavvurlar, odatlari, munosabatlari, xalq og'zaki ijodining eng qadimgi janrlaridan sanalgan afsonalarda ifodalangan. Afsonalar qahramonlari yaxshilik uchun yomonlik bilan, nur uchun zulmat bilan kurash olib boradilar, yaxshilik va baxt saodat o'lkalarini yaratadilar. Ular eng qadimgi yodgorliklar "Avesto", Firdavsiyning "Shohnoma" asari orqali bizgacha yetib kelgan namunalardir.

Miflar asosida yaratilgan afsonalar qahramonlik eposlari uchun zamin tayyorladi. Bu qahramonlik eposlarida vatan va erkinlikka bo'lgan muhabbat, o'z yurti va jonajon qabilasi uchun jonini fido etish, shon-sharaf, or-nomus uchun kurash tuyg'ulari ifodalanadi.

Bizgacha yetib kelgan epik rivoyatlarda ajdodlarimizning vatanparvarlik kurashi o'z ifodasini topgan. Vatanni, xalqni sevish, or-nomus va do'stlariga, vatandoshlariga sadoqat kabi insoniy tuyg'ular, burch hissi vatanni va xalqi uchun o'z jonini qurbon etish, har qanday mashaqqatlarga bardosh berish - ularning asosiy xislatlaridir.

Jasurlik, kuchlilik, mardlik - qadimiy kishilarda tarkib topishi zarur bo'lgan fazilat sanalgan.

Ayniqsa, tarixiy shaxslar bilan bog'liq rivoyatlar buning dalilidir. Chunki ularda muayyan shaxs faoliyati, donishmandligi, qahramonliklari, tarixiy shaxs ega bo'lgan axloqiy fazilatlar: nazokat,

aql-idrok, vafo va muhabbat, sadoqat, adolat, odamiylik kabilar ulug‘langan.

Eposlarda xotin-qizlarning fidoyiligi, jasorati, aql-idroki erkaklar bilan teng sharoitda faoliyat ko‘rsatganliklari ayniqsa yorqin ifodalangan.

Tarixdan ma‘lumki dastlab Amudaryo asosiy tarmog‘i Uzboy orqali Kasbiy dengiziga quyilgan. Uning o‘ng qirg‘og‘idagi yerlar Turon, chap qirg‘og‘idagi yerlar esa Eron deb yuritilgan. Eramizdan oldin ahamoniylar, saklar va massaget qabilalariga ketma-ket hujum qilib turgan. Ana shu tarixiy voqealar sak va massagetlarning eposlarida o‘z ifodasini topgan.

Eron shohi Kir ko‘chmanchi sak, massaget qabilalariga qarshi mag‘lubiyatga uchraydi va 529 yilda halok bo‘ladi. Tarixchilar sak va massagetlar Kir va uning qo‘shinlarini avval o‘z hududlarining ancha ichkarisiga bostirib kirishiga imkon berib, keyin uning qo‘shinining katta qismini qirib tashlaganliklari haqida ma‘lumot beradi.

Poliennning “Harbiy hiylalar” asarida shunday rivoyat keltiriladi:

Saklarga qarshi Doro bosqinchilik yurishini boshlaydi. Qabila boshliqlari Saksfard, Omard, To‘marislar dushmanga qarshi chora ko‘rish yuzasidan maslahatlashib o‘tirganda yilqichi Shiroq kirib keladi va Eron qo‘shinini yo‘q qilish rejasini bayon qiladi; u o‘z jonidan kechib, o‘z rejasini amalga oshirishi kerak edi. Shuning uchun u saklar boshliqlaridan u halok bo‘lgandan so‘ng, uning bolalariga g‘amxo‘rlik qilishini so‘raydi. Ular rozi bo‘lgach yonidagi tig‘ini olib, o‘zining quloq burnini kesadi, badanlarini yaralaydi. So‘ng Doro qoshiga borib, o‘zini saklardan jabr ko‘rgan qilib ko‘rsatadi va saklardan o‘ch olish uchun ularga yordam berishga, Doro qo‘shinini faqat o‘zi biladigan so‘qmoq yo‘l bilan saklar qarorgohiga boshlab borishga eng muqaddas o‘t va suv nomidan qasamyod qiladi. Doro uning qasamyodiga ishonadi. Shiroq qo‘shinni boshlab ketadi. Yetti kun o‘tganidan keyin Doro qo‘shini oziq-ovqatsiz, suvsiz qolib, cho‘lga qaytishga, na oldinga yurishga majoli qolmagan edi. Shoh yo‘l boshlovchini ushlashga buyuradi. Shiroq esa qah-qah otib kuladi va

“Men sizlarni ochlik va tashnalikda qoldirib, g‘alabaga erishdim, o‘z hamyurtlarimni boshidan kulfatni daf etishga muvaffaq bo‘ldim” - deydi. Shiroq halok bo‘ladi. Lekin o‘z qabilasini bosqinchilar hujumidan saqlab qoladi. Tasodifan yoqqan yomg‘ir tufayligina shoh lashkarining bir qismi jon saqlab qoladi va orqaga chekinadi.

Bu rivoyatdagi Shiroq vatanparvarlik va qahramonlik, o‘z yurtini benihoya sevuvchi timsoli sifatida ko‘z oldimizda gavdalanadi.

Gerodotning “Tarix” kitobida keltirilgan massagetlar hukmdori To‘maris va Eron shohi Kir haqidagi rivoyatlar ham o‘ziga xosdir.

Demak, xalqimizning ta’lim-tarbiyaga oid qarashlari, xulq-atvoriga oid xislatlari bu kabi rivoyatlarda, eng qadimgi epik yodgorliklarda, mif va afsonalar, “Avesto”, “Shohnoma” kabi asarlarda saqlanib, bizgacha yetib kelgan.

Qadimgi ajdodlarimiz insonda juda qadrlaydigan xislatlar jasurlik, adolat, sadoqat, insoniylik bo‘lgan. Bu xislatlar o‘z-o‘zidan shakllanmagan. Tabiat va jamiyatdagi o‘zgarishlar, ibtidoiy urug‘chilik, qabilachilik turmush tarzi buni taqozo etgan. Ikki katta kuch - yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi ayovsiz kurash insondagi bu xislatlarning bevosita shakllanishiga turtki bo‘lgan.

Buni biz eng qadimgi kishilarning qo‘shiq va lirik she’rlarida ham ko‘ramiz. Bu qo‘shiq va lirik she’rlar XI asrda yashagan ulug‘ olim Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asari orqali bizgacha yetib kelgan.

Eramizdan oldingi minginchi yillarning o‘rtalarida eng qadimgi ajdodlarimiz tomonidan qahramonlik mazmunidagi juda ko‘p afsonalar, rivoyatlar aytilgan bo‘lib, ular zardushtiylik dinining muqaddas kitobi “Avesto”ga kiritilgan.

“Avesto”ning o‘zi kim tomonidan yaratilgani haqida turli taxminlar mavjud. Jumladan, sharqshunos olim E.E.Bertelsning fikricha, 1278 yilda Rayd-Zardusht ibn Bahrom ibn Pajdu degan kishi tomonidan yozilgan “Zardushtnoma” dostonida Avesto va Zendani Zardusht dunyoga keltirilganligi, uning tug‘ilgani va keyingi hayoti haqida kitob ekanligi bayon etiladi.

Quyida biz buyuk sharq mutafakkirlarining pedagogik mahoratga doir ayrim fikrlarni keltiramiz.

Buyuk mutafakkir Al-Xorazmiy “Al-jabr val muqobala” nomli asarida pedagoglar faoliyatiga baho berib quyidagilarni yozgan edi: ulardan biri o‘zidan avvalgilar qilgan ishlarni amalga oshirishda boshqalardan o‘zib ketadi va o‘zidan avvalgilarning asarlarini sharhlaydi, tabiat sirlarini ochadi, yo‘lini yoritadi va uni tushunarliroq qiladi. Yoki bu ayrim kitoblarda nuqsonlar topadigan va sochilib yotganini to‘playdigan odam bo‘lib, u o‘zidan avvalgilar haqida fikrda bo‘ladi, takabburlik qilmaydi va o‘zi qilgan ishdan mag‘rurlanmaydi”. Bu bilan olim pedagogning qiyin muammolarini oson qilib tushuntira olish, ijodkorlik kabi mahoratlarini qo‘llab-quvvatlaydi.

Abu Nasr Forobiy o‘zining “Baxt saodatga erishuv” nomli asarida ta’lim-tarbiya berish usulini ikki turga bo‘ladi:

Rag‘batlantirish va jazolash(majbur qilish). U mazkur usullarni izohlar ekan, o‘qituvchining pedagogik mahoratiga to‘xtalib o‘tadi: “Bolalar ustida turgan odam muallim bo‘lib, u tarbiya berishda turli tarbiya usullaridan foydalaniladi. Mana shundan ma’lum bo‘ldiki, hukumat va muallim har ikkovi bir yo‘lda, bolalar yoki xalqqa tarbiya beruvchilar ustoz va muallimlardir. Ulardan biri bolalarga mehribonlik va yaxshi so‘zlar bilan tarbiya bersa, ikkinchisi majburiy ravishda tarbiyalaydi”. Uningcha, pedagoglik kasbi bilan o‘zida 12 tug‘ma xislatni mujassamlashtirgan kishilar shug‘ullanishi lozim.

1. Barcha organlari mukammal taraqqiy etgan;
2. Barcha masalani tez va to‘g‘ri tushuna oladigan;
3. Xotirasi kuchli bo‘lgan;
4. Zehni o‘tkir bo‘lgan;
5. Nutqi ravon bo‘lgan;
6. Bilish va o‘qishga muhabbati kuchli bo‘lgan;
7. Ko‘zi to‘q, pokiza bo‘lgan;
8. Haqiqatparvar bo‘lgan;
9. G‘urur va vijdonli bo‘lgan;
10. Pulni sevmaydigan;

11. Adolatli;
12. Qat'iyatli, qo'rqmas va jasur kishilar.

Shu bilan birga u “Ta'lim-tarbiya ahillari ham o'z bilimlari darajasiga qarab” bir-biridan farq qilishlari, ortiq-kam bo'lishlari, ba'zi birlarida kashf, ixtiro quvvati bo'lmasligi, ba'zilar esa bu quvvatning kamroq bo'lishini ta'kidlaydi. Forobiy shogirdga nisbatan o'ta qattiq yoki o'ta yumshoq munosabatda bo'lishning zararli ekanligini ham ta'kidlab o'tadi. Buyuk mutafakkir Abu Rayhon Beruniy ta'lim va tarbiyaning tabiatga mosligi ta'lim-tarbiyada mo'tadillik prinsiplarini asoslagan buyuk pedagogdir. Beruniy insonni tabiatning bir qismi deb biladi. Tabiat va jamiyat ilmini o'rganishda “O'zini tekshirib ko'rmaguncha ishonmayman degan” shiorga amal qiladi. U mohir pedagog sifatida pedagogik mahorat masalasida o'zining qator tavsiyalarini ishlab chiqadi. “O'qituvchini hamma narsaga o'rgatish” san'ati, tabiatga moslik, bolalarning shaxsiy xususiyatini hisobga olish shular jumlasidandir. Beruniy: “Maqsad vaqtni cho'zish emas, balki o'quvchini zeriktirmaslik. Chunki doimo bir xil narsaga qarayverish malollik va sabrsizlikka olib keladi. O'quvchi fandan fanga o'tib tursa, turli bog'larda yurganga o'xshaydi. Birini ko'rib ulgurmay boshqasi boshlanadi va o'quvchi “Har bir yangi narsada o'ziga yarasha lazzat bor” - deyilganidek, ularni ko'rishga qiziqadi va ko'zdan kechirishni istaydi. Bir xil narsa charchatadi. Xotiraga malol keladi”, deb yozgan edi.

Beruniy o'qish jarayonida quruq yodlashni qoralaydi. U “Tushunish yodlashdan afzaldir”... “Kuzatishning ko'pligi narsalarni eslab qolish qobiliyatini yaratadi”, deb o'qitadi. U o'zining “Osor al-boqiya” asarida “butun kuchimni yig'ib bor imkoniyatni ishga solib, goh eshitish, goh ko'rish va qiyos qilish orqali bilimim yetganicha u narsani bayon etishga bog'ladim”, deb yozgan ekan. Har bir pedagogning ham ana shunday sifatlarga ega bo'lishini orzu qiladi.

Buyuk mutafakkir Abu Ali ibn Sino o'zining “Tadbiri manzil”, “Tib qonunlari” kabi asarlarida pedagogik mahoratga doir o'z qarashlarini yozib qoldirgan. Masalan, u “Tadbiri manzil” asarida

bolaga ta'lim berishni o'qituvchining pokiza, adolatli, farosatli, sog'lom, notiq va o'z kasbining ustasi bo'lishligini ta'kidlaydi. "Tib qonunlari" asarida esa o'qituvchining nutq gigiyenasiga doir masalalarni bergan. "Uzoq muddat davomida qattiq tovush bilan baqirish juda xavflidir. Chunki baqirish havoni ko'p miqdorda tashqariga chiqarishni talab qiladi(bularning har ikkisi ham xavflidir)". "Ovozni yo'qotmaslik, nafas olish organini ishdan chiqarmaslik uchun, avvalo o'qishni past ovoz bilan, keyinchalik asta-sekin kuchaytirish lozim, lekin kuchli ovoz bilan o'qish uzoq vaqt davom etmaslik kerak" (316-bet)

Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" asarida o'g'il-qizga ta'lim-tarbiya beruvchining shaxsi haqida quyidagilarni yozadi:

- murabbiyni yaxshi kishilardan olgin;
- o'g'il-qiz pok o'sadi (noma'qul ishlardan) farq turadi;
- o'g'il-qizga bilim va odob o'rgat;
- ikki olam mulki, uning manfaati yetarli bo'ladi;
- o'g'ilga barcha san'at hunarini tugal o'rgat;
- bu san'at hunarlar bilan u mol-dunyo yig'averadi(163-bet).

Burxoniddin Zarnudjiy (1150-y.) "O'quvchiga ta'lim yo'lida qo'llanma" asarida bilimlarni tez va puxta o'zlashtirish usullarini ishlab chiqdi, uningcha: "O'rgatuvchilar hammasiga barcha fanlar orasidan eng muhimlarini tanlash vazifasi turadi,... bilimlarga bo'lgan qiziqish shuni talab etadiki, u o'qituvchiga va o'rganayotgan faniga kitobiga nisbatan to'la qanoatli bo'lsa, toki muvaffaqiyatsizligini o'zidan yiroqlashtirish, bilimning maxsus bo'limiga nisbatan ham shunday ish tutmoq kerak".

Bilimlarni chuqur o'zlashtirishning olti sharti mavjud:

- aql-farosat;
- kuchli istak;
- chidam;
- oziq-ovqat;
- o'qituvchi ta'limi va bilim olishi uchun yetarli vaqt;
- mashg'ulotlar davomida o'quvchilar muallimdan "bir o'q-yoy"

masofada o'tirishsin, shunda o'quvchining o'z o'qituvchisiga hurmati namoyon bo'ladi... O'qib o'rganish uchun eng yaxshi vaqt - yoshlik davri, erta tong va qosh qoraygan payt. Bilim oluvchi ana shu vaqtni samarali tashkil etishga odatlantirilsin, bordi-yu unga bir fan zerikarli bo'lsa, boshqasi bilan mashg'ul bo'lsin.

Eramizdan avvalgi V asr boshlarida Yunonistonda shakllana boshlagan notqlik san'ati o'sha davrdagi maktablarni tezda rivojlanib ketishiga o'z ta'sirini o'tkazdi. Davlat ishlarini boshqarishda, maktabda notqlik mahoratiga ega bo'lgan kishilargina faoliyat ko'rsatganlar. Masalan, o'qituvchi(notiq) sinf bilan mustahkam aloqada bo'lganida, uning nutqi o'quvchilarning, xalqning maqsadlarini ifoda etgandagina muvaffaqiyatlarga erisha oladi. Shuningdek, notqlik nutqi subyektiv fazilatlari bilangina emas, balki nutq so'zlanayotgan obyektiv shart sharoitlar bilan ham belgilanadi. Madaniy saviya, mavzuni chuqur bilish va yetarlicha nutq so'zlash malakalari ham notiqning (o'qituvchining) muvaffaqiyatga erishuvini ta'minlaydigan omildir.

Namunali notiq (o'qituvchi) nutqi deyilganda ko'p sonli tinglovchilarga qaratilib, til vositalarini sifatli va keng qo'llash hamda ovoz balandligini aniq bir zaylda saqlashga, shuningdek maxsus sintaktik qurilishi kabilarni ta'minlashga qaratilgan nutq tushuniladi.

Mashhur olim Aflotunning shogirdi bo'lgan Aristotel chiroyli so'zlash, notqlik maktablarini ochilishida bosh-qosh bo'lgan notqlardan biridir. Bu maktablarda so'z san'ati ustalari etishib chiqadi. Aristotel ularga atab qo'llanmalar yozadi. Shunday asarlaridan biri Aristotelning "Ritorika" asaridir. "Ritorika" uch kitobdan iborat bo'lib, uning birinchi va ikkinchi kitoblari asosan, chiroyli so'zlash, ishontirish metodlari haqidagi fikr va mulohazalardan iborat bo'lsa, uchinchi kitobida nutq madaniyatiga katta ahamiyat beriladi. Olimning fikricha, notiq (o'qituvchi) tilidagi turli "qorishmalar", ya'ni so'zlarning noto'g'ri va noo'rin talaffuz qilinishi, jumlaning mantiqan har xil tuzilishi so'zlovchining (o'qituvchining) katta xatosidir. Aristotel har bir jumlaning asl fikrini ifoda etishga qaratilishi ravon va tinglovchi tushunadigan darajada sodda bo'lishini talab qiladi. U

soʻzlovchining hissiyot bilan soʻzlashi mulohaza yuritayotgan fikrning tinglovchi(oʻquvchi) qalbiga tez yetishida muhim omil boʻlishini alohida uqtiradi. Bundan tashqari, Aristotel notiqning(oʻqituvchining) hazil-mutoyiba soʻzlar bilan lirik chekinishga qarab oʻquvchilarni hayajonlantira bilishi zarurligini, shuningdek, koʻrgazmali qurollardan foydalansa, har xil epitet, chogʻishtirish va metaforalarni qoʻllasa, nutqning taʼsirchanligi yanada oshishini, ammo keltirilgan misollar koʻpayib ketib, oʻquvchining zeriktirib qoʻymasligi kerakligini ham taʼkidlaydi.

Umrini ona Vatanining gullab yashnashiga bagʻishlagan davlat arbobi va mashhur notiq Demosfen faoliyatida biz uchun pedagogik mahoratning eʼtiborli tomoni shundaki, u hech qachon tayyorgarliksiz nutq soʻzlamas, oldindan oʻziga matn yozib olardi, natijada uning nutqining har bir soʻzi puxta va jozibali, tinglovchini oʻziga jalb etadigan boʻlar edi.

Eramizdan avvalgi 103-143 yillarda Rimda yashagan Siseron yunon murabbiylari qoʻlida tahsil oladi. Notqlikning sir asrorlarini mukammal oʻrganib, mashhur notiq boʻlib yetishadi. Biz uning notqlik faoliyatini koʻzdan kechirar ekanmiz, shuni alohida taʼkidlashimiz kerakki, u notliqlarning turli mimika va harakatlar bilan soʻzlayotganini koʻrib, notiq boʻlish uchun aktyorlikdan ham xabardor boʻlish kerak ekan degan fikrlari biz pedagoglar uchun ham xosligini aytib aytmoqchimiz. Uning aytishicha, kimki joʻn narsalar haqida oddiygina, kundalik voqealar haqida oʻrta darajada, ulugʻ hodisalar haqida zavq-shavq bilan gapirsa, shu odam soʻz sanʼatining chinakam ustasi boʻlishini aytib oʻtadi.

Nazorat savollari:

1. Pedagogik mahorat nima?
2. Pedagogik mahoratning shakllanish bosqichlari qanday boʻladi?
3. Pedagogik faoliyat deganda nimani tushunasiz?
4. Oʻqituvchi faoliyatining asosiy yoʻnalishlari nimalardan iborat?

2-§. PEDAGOGNING KASBIY MAHORATI UNING O‘QITUVCHI FAOLIYATIDA TUTGAN O‘RNI VA AHAMIYATI

“Pedagogik mahorat” tushunchasi va asosiy tarkibiy qismlari. Pedagogik mahorat asoslari fanining paydo bo‘lishi buyuk pedagog A.S.Makarenko (1889-1939) nomi bilan bevosita bog‘liq. U bolalar kalonnasidagi faoliyatida, ya’ni faqat tarbiyasini emas, ma’naviy qiyofasini ham yo‘qotgan bolalar bilan ishlab, ularning benihoyat hurmati va ishonchiga sazovor bo‘ldi. Shaxsiy tarbiyaviy usuli bilan butun olamga mashhur bo‘lganligining o‘zi ham A.S.Makarenkoning yuksak pedagogik mahorat cho‘qqisiga erishganligining yaqqol dalilidir. YUNESKO qarori bilan uning 100 yilligiga 1988 yil - «Makarenko yili» deb e’lon qilindi.

A.S.Makarenko bo‘lajak pedagog talabalik davridayoq pedagogik mahorat sirlarini o‘rganishi zarurligini ta’kidlab, shunday deydi: “Tarbiyachi tashkil etishni, yurishni, hazillashishni, quvnoq, jahldor bo‘lishni bilishi lozim, u o‘zini shunday tutishi lozimki, uning har bir harakati tarbiyalasin”.

Buyuk pedagogning bu fikriga Ukraina pedagogika instituti olimlari katta mas’uliyat bilan qarashdi. Ular bir necha yillar davomida Makarenko pedagogik mahorati maktabini, mavjud bo‘lgan ilg‘or nazariya va amaliyotni atroflicha tahlil qilishdi. Natijada 1979 yili “Pedagogik mahorat asoslari” fani yaratildi va u barcha pedagogika oliy o‘quv yurtlarida o‘qitila boshlandi. Bu fanning tuzilish prinsipining o‘ziga xosligi shundaki, u pedagogda shaxs va jamoaga ta’sir eta olishni ta’minlaydigan va turli fanlarga bog‘liq bo‘lgan bilimlarni tanlab, ularni o‘zida mujassamlashtiradi. Shuning uchun ham fan dasturiga pedagogik mahorat mohiyati, o‘quvchiga ta’sir etish vositalari va usullari kabi pedagogik mahoratning odatdagi masalalaridan tashqari, teatr pedagogikasi va notiqlik san’ati haqidagi ma’lumotlar ham kiritilgan. Bu fanni o‘rganish pedagogika, psixologiya, metodika va boshqa pedagogik fanlardan egallangan bilimlarga asoslanadi.

Pedagogik faoliyat bu mazmunini o‘quvchilarni o‘qitish, tarbiyalash, rivojlantirish tashkil qilgan faoliyatdir.

Shuni yodda tutish kerakki, pedagogik faoliyat bu bir tomonlama emas, balki ikki tomonlama (hamkorlikdagi) faoliyatdir. Unda ikkita faol tomon ishtirok etadi: o‘qituvchi – o‘quvchi (o‘quvchi). Maqsad – o‘quvchi, o‘quvchi shaxsi, uning rivojlanishidir.

Mohir pedagog deb ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkillay oladigan, buning uchun o‘quvchi psixologiyasini yaxshi bilgan, o‘zida pedagog uchun zarur bo‘lgan kasbiy fazilatlarni mujassam etgan, ta’lim jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar qonuniyatlari asosida samarali tashkillay oladigan va olib boradigan pedagogga ayta olamiz (shu sababli pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat fanlari bir o‘quv faniga birlashtirilgandir).

Mahorat faoliyatda namoyon bo‘ladi. Pedagogika fanida “pedagogik mahorat” tushunchasining turli ta’riflari mavjud:

- pedagogik mahorat pedagogik faoliyatning yuqori darajasi bo‘lib, u pedagogning belgilangan vaqt ichida optimal natijalarga erisha olishida namoyon bo‘ladi. (N.V.Kuzmina., N.V.Kuxarev);

- “o‘qituvchining ilmiy bilimlari, ko‘nikmalari, metodik san’ati va shaxsiy fazilatlari sintezi” (A.I.Sherbakov);

- “pedagogik faoliyatni egallanganlikning yuqori darajasi, ixtisoslikka doir bilim, ko‘nikma va malakalar hamda kasbiy ahamiyatli sifatlar majmui” (Pedagogik lug‘at);

- “kasbiy faoliyatning yuqori darajada tashkillanishini ta’minlovchi shaxs xususiyatlari kompleksi (o‘qituvchi faoliyatining gumanistik yo‘naltirilgani, kasbiy bilimlari, kasbiy qobiliyatlari va pedagogik texnikasi” (I.A.Zyazyun);

- **“pedagogik mahorat** deganda o‘qituvchining pedagogik–psixologik bilimlarni, kasbiy malaka va ko‘nikmalarni mukammal egallashi, o‘z kasbiga qiziqishi, rivojlangan pedagogik fikrlashi va intuitsiyasi, hayotga axloqiy–estetik munosabatda bo‘lishi, o‘z fikr-mulohazasiga ishonchi va qat’iy irodasi tushuniladi” (I.P. Rachenko).

- **pedagogik mahorat** – pedagogik jarayonni bilish, uni tashkil eta olish, harakatga keltira olish, pedagogik jarayonning yuqori samaradorligini belgilovchi shaxsning ish sifati va xususiyatlari sintezi (N.N.Azizxo‘jayeva);

- **pedagogik mahorat** – o‘qituvchilarning shaxsiy (bolajonligi, xayrixohligi, insonparvarligi, mehribonligi va h.k.) va kasbiy (bilimdonligi, zukkoligi, fidoyiligi, ijodkorligi, qobiliyati va hokazo.) fazilatlarini belgilovchi xususiyat bo‘lib, o‘qituvchilarning ta’lim-tarbiyaviy faoliyatida yuqori darajaga erishishini, kasbiy mahoratini doimiy takomillashtirib borish imkoniyatini ta’minlovchi faoliyatdir (A.Xoliqov);

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, “pedagogik mahorat” tushunchasiga quyidagi tarzda umumlashgan ta’rifni berish mumkin:

Pedagogik mahorat – bu o‘quv jarayonining barcha shakllarini eng qulay va samarali holatda tashkil etish, ularni shaxs kamoloti maqsadlari tomon yo‘naltirish, talabalarda (o‘quvchilarda) dunyoqarash, qobiliyatni shakllantirish, ularda jamiyat uchun zarur bo‘lgan faoliyatga moyillik uyg‘otishdir.

Pedagogik mahorat o‘qituvchi faoliyatida tutgan o‘rni. Pedagogik mahorat-bu o‘quv jarayonining barcha shakllarini eng qulay va samarali holatda tashkil etish, ularni shaxs kamoloti maqsadlari tomon yo‘naltirish, o‘quvchilarda dunyoqarash, qobiliyatni shakllantirish, ularda jamiyat uchun zarur bo‘lgan faoliyatga moyillik uyg‘otishdir. Pedagogik mahorat yaxlit tizim sifatida quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo‘ladi:

-pedagog shaxsini insonparvarlik yo‘nalishiga ega bo‘lishi, uning qiziqishlari, qadriyat yo‘nalishlari va ideallarining oliy maqsad-barkamol avlod tarbiyalashga yo‘naltirilganligi;

-mutaxassislik fanlari, o‘qitish metodikasi, pedagogika-psixologiyadan mukammal bilimga ega bo‘lish;

-pedagogik qobiliyatga ega bo‘lish (muloqotga moyillik, ishchanlik, kelajakni tasavvur qila olish, kasbiy mustaqillik, sensor axborotlarni tezlik bilan anglash (yuzidan uqib olish);

-pedagogik texnikani egallash, ya'ni o'z-o'zini boshqara olish, o'zaro ta'sir etish va hamkorlikda ishlashni uddalash. Pedagogik mahorat o'z ichiga bolalar haqidagi, ularning psixologiyasi to'g'risidagi, maktab haqidagi, ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va uning mazmuni, metodlari haqidagi keng bilimlarni qamrab oladi. Bu bilimlar umumiy pedagogik madaniyatni tashkil etadi, o'qituvchi, tarbiyachi bu madaniyatni egallamasa, hech vaqt o'z ishining chinakam ustasi bo'la olmaydi, yomon, eski usuldan, bir qolipdagi tayyor andozalarni ishlatishdan nariga o'tmaydi. Biroq, zamonaviy o'qituvchiga birgina umumiy madaniyatning o'zi kifoya qilmaydi, maxsus bilimlar va malakalar - bolalarni kuzatish, ularning o'sishidagi muhim narsalarni aniqlay olish, ularni rivojlantirish yo'llari va usullarini aniqlash, pedagogik izlanishlar va yutuqlarni ilmiy jihatdan bir tizimga solish malakalari zarur bo'ladi.

Pedagogik faoliyatning o'ziga xosligi quyidagilarda namoyon bo'ladi. Inson tabiatning jonsiz moddasi emas, balki o'zining alohida xususiyatlari, ro'y berayotgan voqealarni idrok qilishi va ularga o'zicha baho beradigan, takrorlanmaydigan faol mavjudotdir. Psixologiyada ta'kidlanganidek, har bir shaxs takrorlanmasdir. U pedagogik jarayonning o'z maqsadi, ishtiyoqi va shaxsiy xulqqa ega bo'lgan ishtirokchisi hamdir. Pedagog doimo o'sib-o'zgarib boradigan inson bilan ishlaydi. Ularga yondashishda bir xil qolip, shakllanib qolgan xatti-harakatlardan foydalanish mumkin emas. Bu esa pedagogdan doimo ijodiy izlanib turishni talab qiladi. O'quvchilarga pedagogdan tashqari, atrof-muhit, ota-ona, boshqa fan o'qituvchilari, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy hayot ham ta'sir etadi. Shuning uchun ham pedagog mehnati bir vaqtning o'zida jamiki ta'sirlarga va o'quvchilarning o'zida paydo bo'lgan fikrlarga tuzatishlar kiritib borishni nazarda tutadi. Pedagogik maqsadning o'ziga xosligini quyidagilarda bilish mumkin: Pedagogik faoliyatning maqsadi jamiyat tomonidan belgilanadi, ya'ni pedagog faoliyatining natijasi jamiyat manfaatlari bilan bog'liqdir. Uning mehnati yoshlar shaxsini har tomonlama kamol toptirishga yo'naltirilgan. Pedagogik faoliyat

avlodning ijtimoiy uzviyligi (ketma-ketligi)ni ta'minlaydi. Bir avlod tajribasini, ikkinchi avlodga o'tkazadi, ijtimoiy tajriba orttirish uchun insondagi tabiiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqaradi. Pedagog faoliyati doimo shaxs faoliyatini boshqarish bilan bog'liq. Bunda pedagogik maqsad o'quvchi maqsadiga aylanishi muhimdir. Pedagog o'z faoliyati maqsadini va unga erishish yo'llarini aniq tasavvur qilishi va bu maqsadga erishish o'quvchilar uchun ham ahamiyatli ekanligini ularga anglata olishi zarur. Gyote ta'kidlaganidek: «Ishonch bilan gapir, ana shunda so'z ham, tinglovchilarni mahliyo qilish ham o'z-o'zidan kelaveradi». Pedagogik (ta'lim-tarbiya) jarayonda o'quvchi faoliyatini boshqarish shuning uchun ham murakkabki, pedagog maqsadi doimo o'quvchi kelajagi tomon yo'naltirilgan bo'ladi. Buni anglagan holda, mohir pedagoglar o'z faoliyatini mantiqan o'quvchilar ehtiyojlariga muvofiq holda loyihalaydilar. Hamkorlik pedagogikasining tub mohiyati ham ana shundan iborat. Shunday qilib, pedagogik faoliyat maqsadining o'ziga xosligi o'qituvchidan quyidagilarni talab qiladi: - jamiyatning ijtimoiy vazifalarini to'la anglab, o'z shaxsiga qabul qilishi. - muayyan harakat va vazifalarga ijodiy yondashishi; - o'quvchilar qiziqishlarini e'tiborga olish, ularni pedagogik faoliyatning belgilangan maqsadlariga aylantirish;

O'quvchi shaxsiga doimo ijobiy-axloqiy ta'sir ko'rsata oladigan kishigina haqiqiy tarbiyachidir. Bunga erishish uchun pedagog o'zining axloqiy sifatlarini doimo takomillashtirib borishi zarur. O'quvchilarni mehnat, muloqot, o'yin, o'qish kabi faoliyat turlarida ishtirok etishlari tarbiyaning asosiy vositasi hisoblanadi. Har bir mohir pedagog o'zining individual pedagogik tizimiga ega bo'lishi kerak. Ayrim pedagoglar kasbiy mahorat sirlarini egallash uchun, avvalo ta'lim-tarbiya metodlarini takomillashtirishga intiladilar. Bu tabiiy hol, chunki aynan metodlar yordamida pedagog o'z o'quvchilarini turli o'quv faoliyatiga jalb qiladi. Shu bilan birga o'quvchilarni bilim olishga qiziqtirishda o'qituvchi tomonidan tanlangan metodlar, usullar va topshiriqlardan boshqa sabablar ham ta'sir etadi.

Pedagogik faoliyat yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun jamiyat oldida, davlat oldida javob beradigan, ta'lim-tarbiya berishda maxsus tayyorlangan o'qituvchilar mehnati faoliyatidir.

Pedagogik jarayonning mohiyatini anglamagan, bolaga nisbatan chuqur hurmatda bo'lmagan o'qituvchi ta'lim-tarbiya samaradorligi va inson kamolotini ta'minlovchi fikrga ega bo'lmaydi. Pedagogik jarayonning vazifasi bilim berish, tarbiyalash, rivojlantirish bo'lib, o'qituvchilarning faoliyat mezonini belgilab beradi. O'qituvchilarning faoliyati pedagogik jarayonning harakat vositasidir. Pedagogik jarayonning obyektlari bo'lmish tarbiyalanuvchi insonga, o'quvchi va o'quvchilar guruhiga hamda alohida o'quvchiga, pedagogik jarayonning subyektlari — ota-onalar, o'qituvchilar, tarbiyachilar, sinf jamoasi, pedagogik jamoa mas'uldirlar va ular jamiyat talablari asosida ta'lim va tarbiya berish faoliyatini bajaradilar. A.Xoliqov tomonidan e'tirof etilganidek, o'qituvchining pedagogik faoliyatida ijobiy natijalarga erishishi, mehnat malakasini, ya'ni egallagan bilimlarini o'zining hayotiy va amaliy faoliyatida nechog'lik qo'llay bilishi bilan belgilanadi.

Pedagogik faoliyatning maqsadi asrlar davomida yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirishning umuminsoniy g'oyasi sifatida xizmat qilib kelayotgan tarbiyaviy ishni amalga oshirish bilan bog'liq. Pedagogik faoliyatning asosiy turlari sifatida tarbiyaviy ish va o'qitish aks etadi. Tarbiyaviy ish — bu tarbiyaning tizimlili, to'raligi, uzviyligi va uzluksizligidir. Tarbiyaviy ish tarbiyalanuvchilarning muayyan faoliyatini tashkil etuvchi va amalga oshiruvchi shakldir. Tarbiyaviy ishning asosiy xususiyati — zaruriylik, foydalilik va tatbiq etish imkoniyatidan iborat.

Tarbiyaviy ishlar asosida ikkita: faol va majmuaviy yondashuvlar yotadi. Yondashuvlarning birinchisi, faoliyatning bilish, mehnat, ijtimoiy, badiiy, sport va erkin muloqot kabi turli ko'rinishlarini tashkil etishni talab etadi. Ikkinchi majmuaviy yondashuv esa, faoliyatning barcha ko'rinishlarining yagona jarayonga ta'siri bilan tabiiy "qo'shib" ketishida namoyon bo'ladi. Tarbiyaviy ishlar, ayni paytda,

o'ziga axloqiy, estetik, hissiy va aqliy (intellektual) ta'sirlarni qamrab oladi. Faoliyatga oid yondashuv tarbiya yo'nalishiga ishora qilsa, majmuaviy yondashuv – uning mazmun tabiatini (pedagogik maqsad (vaziyat, tarbiyaviy maqsadning asosiy va bog'liq tomonlarini shakllantirish)ni; rejalashtirish; tashkil etish va tayyorlashni; ishni bevosita amalga oshirishni; erishilgan natijalar tahlilini) belgilaydi.

O'qitish – qo'yilgan maqsadga erishishga yo'naltirilgan pedagog bilan o'quvchilarning tartiblangan o'zaro harakatidir. O'rgatish – o'qitish maqsadini amalga oshirish bo'yicha pedagogning tartiblangan faoliyatini aks ettirsa, o'rganish anglash, mashq qilish va egallangan tajribalar asosida xulq-atvor va faoliyatning yangi shakllarini egallash jarayoni bo'lib, avval egallanganlari o'zgaradi.

N.V.Kuzmina pedagogik faoliyatning o'zaro bir-biri bilan aloqador quyidagi uch tarkibiy qismini ajratib ko'rsatadi: konstruktiv, tashkilotchilikka doir va kommunikativ. Konstruktiv faoliyat mazmunli (o'quv materialini tanlash va tizimlashtirish, pedagogik jarayonni rejalashtirish va tashkil etish), konstruktiv operativ (o'zining va o'quvchilarning harakatlarini rejalashtirish); konstruktiv-moddiy (pedagogik jarayonning o'quv-moddiy bazasini loyihalash) jihatlarni o'zida aks ettiradi. Tashkilotchilik faoliyati – o'quvchilarni faoliyatning xilma-xil turlariga jalb etish. Kommunikativ faoliyat – pedagogning ta'lim oluvchilar, o'qituvchilar jamoasi, jamoatchilik, mahalla va ota-onalar bilan munosabatini yo'lga qo'yish.

Pedagogik faoliyatning o'ziga xosligi quyidagilarda namoyon bo'ladi.

1. Inson tabiatning jonsiz moddasi emas, balki o'zining alohida xususiyatlari, ro'y berayotgan voqealarni idrok qilishi va ularga o'zicha baho beradigan, takrorlanmaydigan faol mavjudotdir. Psixologiyada ta'kidlanganidek, har bir shaxs takrorlanmasdir. U pedagogik jarayonning o'z maqsadi, ishtiyoqi va shaxsiy xulqqa ega bo'lgan ishtirokchisi hamdir.

2. Pedagog doimo o'sib-o'zgarib boradigan inson bilan ishlaydi. Ularga yondashishda bir xil qolip, shakllanib qolgan xatti-

harakatlardan foydalanish mumkin emas. Bu esa pedagogdan doimo ijodiy izlanib turishni talab qiladi.

3. O'quvchilarga pedagogdan tashqari, atrof-muhit, ota-ona, boshqa fan o'qituvchilari, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy hayot ham ta'sir etadi. Shuning uchun ham pedagog mehnati bir vaqtning o'zida jamiki ta'sirlarga va o'quvchilarning o'zida paydo bo'lgan fikrlarga tuzatishlar kiritib borishni nazarda tutadi.

Pedagogik maqsadning o'ziga xosligini quyidagilarda bilish mumkin:

1. Pedagogik faoliyatning maqsadi jamiyat tomonidan belgilanadi, ya'ni pedagog faoliyatining natijasi jamiyat manfaatlari bilan bog'liqdir. Uning mehnati yoshlar shaxsini har tomonlama kamol toptirishga yo'naltirilgan. Pedagogik faoliyat avlodning ijtimoiy uzviyligi (ketma-ketligi)ni ta'minlaydi. Bir avlod tajribasini, ikkinchi avlodga o'tkazadi, ijtimoiy tajriba orttirish uchun insondagi tabiiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqaradi.

2. Pedagog faoliyati doimo shaxs faoliyatini boshqarish bilan bog'liq. Bunda pedagogik maqsad o'quvchi maqsadiga aylanishi muhimdir. Pedagog o'z faoliyati maqsadini va unga erishish yo'llarini aniq tasavvur qilishi va bu maqsadga erishish o'quvchilar uchun ham ahamiyatli ekanligini ularga anglata olishi zarur. Gyote ta'kidlaganidek: "Ishonch bilan gapir, ana shunda so'z ham, tinglovchilarni mahliyo qilish ham o'z-o'zidan kelaveradi".

3. Pedagogik (ta'lim-tarbiya) jarayonda o'quvchi faoliyatini boshqarish shuning uchun ham murakkabki, pedagog maqsadi doimo o'quvchi kelajagi tomon yo'naltirilgan bo'ladi. Buni anglagan holda, mohir pedagoglar o'z faoliyatini mantiqan o'quvchilar ehtiyojlariga muvofiq holda loyihalaydilar. Hamkorlik pedagogikasining tub mohiyati ham ana shundan iborat.

Pedagog faoliyatining muvaffaqiyatli kechishi uning shaxsi, xarakteri, o'quvchilar bilan muomalasiga ham ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Odatda bularning ta'lim-tarbiya jarayoniga ta'siri ahamiyatsizdek tuyuladi. Ammo tajribali pedagog, uning xatti-harakati

o'quvchilarga qanday ta'sir ko'rsatayotganligiga ahamiyat berib, unga kerakli tuzatishlar kiritib, takomillashtirib boradi. Shuning uchun ham pedagogik mahoratni o'qituvchi shaxsi sifatlarini majmui sifatida qaralib, uni o'qituvchi yuqori darajada psixologik-pedagogik tayyorgarlikka ega bo'lishi bilan bog'liq bo'lishini unutmaslik lozim. Shunday qilib, pedagog-muallim o'z mahoratiga quyidagi bosqichlarda erishishi mumkin: Pedagogika-psixologiya fanlarini chuqur o'rganish. Maxsus fanlar, ularni o'qitish metodikasini chuqur bilish. Pedagogik amaliyotda faol ishtirok etish va uni samarali o'tkazish. O'z faoliyatini doimo tahlil qilib, unga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'lish. O'z ustida mustaqil ishlash, malaka oshirish kurslarida o'qib borish. O'qituvchilik –inson jamiyati tarixi boshlangandan e'tiboran davom etib, shu bilan birga hamma vaqt jamiyat va jamoatchilik tomonidan e'tiborga loyiq e'zozlab kelingan kasbdir.

“...O'qituvchi, –deydi Al Forobiy, -aql-farosatga, chiroylik nutqqa ega bo'lishi va o'quvchilarga aytmoqchi bo'lgan fikrlarini to'la va aniq ifodalay olishni bilmog'i zarur”. U o'z fikrini davom ettirib: “O'qituvchi va rahbarning vazifasi dono davlat rahbari vazifasiga o'xshaydi, shu sababli o'qituvchi eshitgan va ko'rganlarining barchasini eslab qolishi, aql-farosatga, chiroyli nutqqa ega bo'lishi, o'quvchilarga aytmoqchi bo'lgan fikrlarini to'la va aniq ifodalab berishni bilmog'i lozim. Shu bilan birga o'z or-nomusini qadrlashi, adolatli bo'lmog'i lozim. Ana shundagina u insoniylikning yuksak darajasiga ega bo'ladi va baxt cho'qqisiga erishadi”,-deb ta'kidlaydi. Abu Ali ibn Sinoning fikricha “...O'qituvchi matonatli, sof vijdonli, rostgo'y va bolani tarbiyalash metodlarini, axloq qoidalarini yaxshi biladigan odam bo'lmog'i lozim. O'qituvchi o'quvchining butun ichki va tashqi dunyosini o'rganib, uning aql qatlamlariga kira olmog'i lozim”. Nosiriddin Tusiy o'zining “O'qituvchilarni tarbiyalash to'g'risida” degan asarida shunday deydi: “...O'qituvchi munozaralarni olib borishni, rad etib bo'lmaydigan darajadagi isbot qilishni bilishi, o'z fikrlarining to'g'riligiga ishonishi, nutqi esa mutlaqo toza, jumalari mantiqiy ifodalanadigan bo'lishi lozim... O'qituvchi nutqi hech qachon

va hech qayerda zaharxandali, qo‘pol yoki qattiq bo‘lishi mumkin emas. Dars paytida o‘qituvchining o‘zini tuta olmasligi ishni buzishi mumkin...”

Qoshg‘ariy: “...Men a‘zolar kasalligini davolashdan oldin odamlarning ruhiyatini davolashni zarur deb topdim. Bunga men o‘qituvchilik yo‘li bilan erishaman, bunga mening ishonchim komil. Chunki a‘zolar kasalligi bilan yuzlarcha, minglarcha odamlar halok bo‘lsalar, nodonlik, bilimsizlik tufayli o‘n ming va yuz minglarcha odamlar halok bo‘ladilar...”.

Hozirgi zamon ilm-fan taraqqiyotini buyuk allomalarimiz yaratgan bir necha qimmatli asarlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Bu nodir asarlar bir necha asrlar ilgari yaratilgan bo‘lsada, o‘z qimmatini yo‘qotmagan. O‘qituvchining o‘rni va uning vazifalari o‘sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash ishiga jamiyat va jamoatchilik tomonidan e‘tibor qaratilishining naqadar muhim ahamiyatga egaligi bilan aniqlanadi. Zamonaviy maktab o‘qituvchisi qator vazifalarni bajaradi. O‘qituvchi sinfdagi o‘quv jarayonining tashkilotchisidir. O‘qituvchi o‘quvchilar uchun dars payti, qo‘shimcha darslarda va shu bilan birga darsdan tashqari paytlarda ham kerakli maslahatlar berishda bilimlar manbaidan biridir.

Ko‘pchilik o‘qituvchilar sinf rahbari vazifasini bajarib, tarbiya jarayoni tashkilotchilari bo‘lib hisoblanadilar. Ma’lumki, pedagogik faoliyat-kishi mehnatining eng murakkab sohalaridan biridir. Jamiyat tomonidan qo‘yiladigan talablardan eng muhimi o‘qituvchining shaxsi va uning kasbi bilan bog‘liq xislatlarga qaratilgan.

O‘qituvchining eng muhim shaxsiy xislatlari quyidagilar:

-o‘qituvchining o‘z Vataniga sodiqligi, bolalarni sevishi, ularni insonparvarlik ruhida tarbiyalash istagi, o‘z yurti, ona tili, o‘z xalqining tarixi va uning madaniyatini sevishi, davlatning mustaqilligi g‘oyasida yashashidan iboratdir; -ijtimoiy javobgarlikni yuksak darajada his etishi;

-oliyjanoblighi, aql-farosatli, ma'naviy pok–ma'naviyat va ma'rifat bo'yicha yuksak maqsadlarga mos kelishi, bunday xislatlarni jamiyat xohishi bo'yicha bolalarga singdirib borishi;

-o'zini qo'lga ola bilishi, sabr-toqatli, bardamlilik, matonatilik va boshqalar.

Pedagogning kasbiy mahorati, pedagogik imkoniyatlari va ularning tarkibiy asoslari. Pedagogik faoliyatning maqsadi, obyekti, subyekti va vositasi kabi tarkibiy qismlari mavjuddir. Pedagogik faoliyatning maqsadi jamiyat tomonidan aniqlab, belgilab beriladi. Ya'ni, aynan shu jamiyat uchun zarur, uning yuksalish va taraqqiyotini, har tomonlama rivojlanishini ta'minlay oladigan, istiqlol g'oyasiga sodiq, vatanparvar, zamonaviy bilimlarni egallagan komil insonlarni tarbiyalab berish - pedagogning bosh vazifasidir.

Jamiyat a'zolarining asrlar davomida to'plagan bilim va tajribalarini o'qituvchi bolalarga yetkazadi.

Ammo o'qituvchi va o'quvchi faoliyatida ba'zan ziddiyat, qarama-qarshilik kelib chiqdi. Chunki, o'quvchi faoliyatini boshqarish, unga ta'sir etishning murakkab tomoni shundaki, o'quvchining faoliyati kelajakka yo'naltirilgan bo'lsa, o'quvchi odatda hozirgi kun bilan yashaydi.

O'qituvchi mehnatining obyekti: bu inson, bola, o'quvchi bo'lib, u tinimsiz ravishda rivojlanib, o'zgarib turadi. U doimo jismonan va aqlan faol, u o'ziga o'xshagan faol, tinimsiz, izlanuvchan o'qituvchini yoqtiradi. Shuning uchun bo'lsa kerak yosh o'qituvchilar bolalar bilan tez til topib ketadilar. O'quvchilar ularni yoqtiradilar. Demak, bu fikrdan shunday xulosa chiqadi: o'qituvchi o'quvchiga sevimli bo'lishi, uning hurmatini qozonishi uchun doimo izlanish va o'z ishiga ijodiy yondashishi, yoshlarning ichiga kira bilishi, yoshlar dunyosi bilan yashashi lozim.

O'qituvchi faoliyatining subyekti: bular - o'quvchilarga doimo ta'sir etib turuvchi ota-onalar, tarbiyachilar, o'qituvchilar va sinf jamoasidir. O'qituvchilarga eng kuchli ta'sir etuvchi kuch o'qituvchining shaxsiy xususiyatlari, uning bilim va malakasi,

mahoratidir.

Asosiy tarbiyaviy vositalar - bu o'quvchilarni har xil faoliyat jarayonlari: mehnat, o'yin, o'quv va muloqotda turli yo'llar bilan tarbiyalash va ta'lim berishdir.

O'qituvchi pedagogik mahoratining ham to'rtta tarkibiy qismlari mavjud:

- a) O'qituvchi shaxsiyatining insonparvarlik yo'nalishi;
- b) Kasbiy bilimlar;
- c) Pedagogik qobiliyat;
- d) Pedagogik texnika.

A) O'qituvchi shaxsiyatining insonparvarlik yo'nalishi.

O'qituvchi shaxsiy sifatlarida, faoliyatida yetakchi o'rinni insonparvarlik, sofdillik, poklik va halollikni egallashi mumkin. Bolalar, yoshlar tarbiyasi uchun Vatan oldida, millat va kelajak oldida javobgarlikni his etmas ekan, biz uni haqiqiy o'qituvchi deya olmaymiz. O'qituvchi o'z shaxsidagi eng yaxshi, oliy sifatlarni, bilim va tajribasini o'quvchilarga rejali ravishda singdirib boradi. Shuning uchun bo'lsa kerak, ba'zan bir o'qituvchi bir necha yil davomida bir guruhga rahbarlik qilsa shu guruhdagi o'quvchilarning xatti-harakatlarida, xulq-atrofida, gap so'zlarida bu o'qituvchining ayrim xususiyatlarini ko'rish mumkin. Avtoritar shaklda ish yurituvchi o'qituvchilarning guruhlarini uzoq vaqt kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, bu guruhdagi o'quvchilar orasida qattiqqo'l, shafqatsiz shaxslar o'sib chiqishi aniqlangan.

B) Kasbiy bilimlar. Ilg'or o'qituvchilarning ikki xil qiziqishlari bo'ladi:

1. O'z sohasini – ya'ni o'z predmetini chuqur bilimlar yoki bilishga intilish. Psixologiya va pedagogika fanining eng yangi yutuqlarini egallash.

2. Bolalar bilan muloqot ehtiyoji.

Bu ikkala qiziqish ham o'zaro juda yaqindan bog'liq bo'lib, agar o'qituvchi o'z sohasini bilsa-yu, o'quvchilarni yoqtirmasa, muloqot ehtiyoji bo'lmasa, bunday o'qituvchining maktabda ishlashi qiyin

bo'lad.

Shuningdek, o'qituvchi bolalar va yoshlar psixologiyasini va pedagogikasini, yoshlar va pedagogik-psixologiya fanini yetarli darajada bilishi shart. Demak, o'qituvchi kasbi uchun zarur bo'lgan bilim va tajribalardan tashqari, pedagogik vazifa va pedagogik vaziyatni hal etishiga foydalanish mumkin bo'lgan pedagogik vositalardan samarador foydalana olishi uchun unda pedagog vazifa va vaziyatni chuqur tahlil eta olish uchun har tomonlama mustahkam bilim bo'lishi talab qilinadi. Ayniqsa, o'qituvchi o'zi berayotgan bilimlarini jonli, obrazli qilib berish qobiliyatini chuqur egallagan bo'lishi kerak.

Kasbiy bilimlarning mukammal bo'lishi uchun quyidagilar talab etiladi:

1. Fan metodologiyasi - jamiyatning ta'lim va tarbiya sohasidagi talab va vazifalarining falsafiy asoslarini bilish.

2. Nazariy bilimlar - pedagogika-psixologiya fani va o'z fanining qonun va qonuniyatlari, qoida va tamoyillarini bilish.

3. Metodik bilimlar - o'quv ta'lim jarayoni konstruksiyasining modelini amaliy va nazariy jihatdan tuza olishi kerak (ta'lim jarayonini modellashtira olishi).

4. Ta'limning texnologik tomoni - konkret sharoitda ta'lim va tarbiya sohasidagi amaliy vazifalarni samarali hal eta olishi.

V) Pedagogik qobiliyat.

Pedagogik faoliyatda 6 ta yetakchi qobiliyat mavjud:

1. **Kommunikativ qobiliyat:** kishilarni (o'quvchilarni) o'ziga ishontira olish, muloqotga tez kirishish, ochiqlik (ekstrovertlik). Muloqot ehtiyoji. Agar o'qituvchida kommunikativ qobiliyat zaif bo'lsa, u bilan o'quvchilar orasida to'siq paydo bo'lishi mumkin.

2. **Perseptiv qobiliyat:** kasbiy hushyorlik, empatiya (boshqa shaxslarning his-tuyg'u va kayfiyatiga sherik bo'lish) pedagogik intuitsiya qobiliyati.

Agar o'qituvchi o'quvchining ichki ruhiy holatini tashqi ko'rinish, xatti-harakatidan seza olmasa, o'quvchilarni boshqarish

qiyin bo'ladi. O'qituvchi o'quvchilarning xatti-harakati va xulq-atvorining motivlarini aniqlay olishi kerak. O'quvchilarning xatti-harakatini, xulq-atvorini, kayfiyatini tez va aniq sezish, idrok etish (perseptiv qobiliyat) u o'zida kuzatuvchanlik qobiliyatini tarbiyalashi zarur. Kuzatuvchanlik - kuzatilayotgan obyekt(ni o'quvchini, katta kishini) ko'rish, eshitish emas, balki uni qiziqish bilan, diqqat bilan kuzatish va shu kuzatuv natijasida to'plagan ma'lumotlarni fikran qayta ishlay olishdir.

Kuzatuv jarayonida (kuzatuvchi) shu narsani unutmasligi kerakki, ba'zan kuzatuvchi - kuzatayotgan kishilarda o'zi istagan narsasini ko'radilar(ya'ni, o'qituvchi o'quvchiga qanday munosabatda bo'lsa, shu o'z shaxsiy fikrining tasdig'ini ko'rishi mumkin). Bu esa noo'rin va noto'g'ri xulosaga olib kelishi mumkin.

Kuzatish - bu tahlildir. Kuzatilayotgan pedagogik hodisani o'qituvchi doimo odilona-betaraf holda tahlil qilish va xulosa chiqarish kerak. Tajribali o'qituvchi pedagogik jarayonning borishini, kechishini, natijalarini oldindan seza oladi. O'qituvchi empatik bo'lishi bilan birga, u o'zini o'quvchining o'rniga ham qo'ya olishi zarur bo'ladi(identifikasiya qobiliyati).

3.O'qituvchining shaxsiy harakatchanligi. O'qituvchida ichki kuch (energiya) yetarli bo'lishi, u dars va darsdan tashqari jarayonda harakatchan, tashabbuskor, o'quvchilarni o'z izidan ergashtira oladigan bo'lishi kerak. Faqat shunday o'qituvchi o'quvchilarni o'ziga ishontira oladi. Ularga ta'sir eta oladi. Buning uchun o'qituvchida o'ziga ishonch, tajriba va bilim bo'lishi kerak.

Shu bilan birga o'qituvchi vaziyatga qarab egiluvchan, qayishqoq va faol bo'lishi, uning faoliyatini yengillashtiradi.

4.Hissiy tuyg'ular.

O'qituvchi, o'z-o'zini (kayfiyatini, his-tuyg'usini, asab va ruhiy holatini) boshqara olishi zarur. O'z-o'zini boshqarishni doimo va tinmasdan o'rganish natijasida o'zlashtirish mumkin. O'qituvchi o'zini tashqaridan ko'ra olish qobiliyati bo'lsa, o'z yutuqlarini oshirish va kamchiliklarni kamaytirish ustida ishlay oladi. Zarur sharoitda pedagog

psixologik ta'sir eta olish usullarini o'rgansa, uning o'quvchilar jamoasini boshqarishi ham yengillashadi.

5. O'quvchining kelajagiga ishonch. O'qituvchi o'quvchilarning ijobiy tomonlarini, yaxshi sifatlarini, kelajagini ko'ra olish va uni shu kelajakka to'g'ri yo'naltira olishi va tarbiyalashi kerak. Buning uchun o'quvchilarning ijobiy sifatlarini izlash, topish va rivojlantirish zarur bo'ladi.

O'quvchini kamsitish; "Sendan yaxshi odam chiqmaydi", "Sen odam bo'lmaysan" kabi haqoratlar bolaning shaxs sifatida shakllanishiga salbiy ta'sir etishi, pedagogik va psixologik tadqiqotlarda isbotlangan.

6. Kreativlik - o'qituvchi voqealikka narsa va hodisalarga, darsga noan'anaviy yondashishni o'rganishi zarur bo'ladi. XXI asr yangiliklar, ixtirolar asri bo'lib, o'qituvchidan doimo izlanishni talab etadi.

S) Pedagogik texnika.

Pedagogik texnika - bu o'qituvchi faoliyatining (xatti-harakatining) tashkiliy shaklidir.

Pedagogik texnika ikkita katta guruhda farqlanadi:

Birinchisi - o'z-o'zini boshqarish malakasi(gavdasini, gavda a'zolarini boshqarish), hissiy holatini boshqara olishi, nutq texnikasi va madaniyatini o'zlashtirishi.

Ikkinchisi - bu asosan didaktik malaka va ko'nikmalar, tashkilotchilik, kommunikatsiya, dars konstruksiyasi va boshqa qobiliyatlarning majmuasidan tashkil topgan.

Pedagogik vazifa - bu ongli ravishda yuzaga keltirilgan pedagogik vaziyat bo'lib, uning bosqichlari oldindan rejalashtiriladi.

Pedagogik vaziyat to'satdan yuzaga keladigan pedagogik vazifa yoki vaziyat, o'zaro munosabatlarning muammoli holatidir.

Pedagogik faoliyat jarayonida o'qituvchi yuzaga kelgan pedagogik vaziyatni chalkash "zanjirlarini" tartibga keltiradi. Masalan: Dars boshlanadi. Lekin sinfda o'quvchilar janjallashib qoldilar - bu pedagogik vaziyat. Bir necha o'quvchi uy vazifasini bajarmasdan

kelgan - bu ham pedagogik vaziyat. O'qituvchining vazifasi: shu vaziyatlarning yechimini rejali, bosiqlik bilan hal eta olishdir. Guruhda yuzaga kelgan muammolarning yechimini topish o'qituvchining vazifasidir.

Pedagogik vazifaning yechimini topishning bir nechta bosqichlari mavjud:

1. Vaziyatni tahlil etish va muammoni chuqur fikrlash orqali yechish. Tajribasiz o'qituvchi yuzaga kelgan vaziyatning(nizoning) kelib chiqish sabablarini aniqlamasdan, uni tahlil etmasdan darhol vazifani hal etishga kirishadi. Vaholanki, nizoning asl sabablari aniqlanmadi, demak vazifani hal etish uchun qabul etilgan qaror ham ko'pincha xato bo'ladi.

2. Kelishmovchilikni, nizoni keltirib chiqargan butun pedagogik jarayon keng va chuqur tahlil etiladi. O'quvchining asab va ruhiy holatini, oilaviy sharoiti, o'rtoqlarining ta'siri va boshqa omillarningning, ayniqsa o'qituvchi o'zining xatti-harakatini chuqur tahlil etishi kerak. Natijada yuzaga kelgan pedagogik vaziyatning sabablari, motivlari ayon bo'ladi.

3. Pedagogik vaziyat va pedagogik vazifa haqida gipoteza, taxmin ilgari suriladi. Qanday pedagogik chora va vositalardan, usul va metodlardan foydalanish haqida qaror qabul qilinadi va asta-sekinlik bilan amalga oshiriladi. Ammo, vazifani hal qilishda, biror bir uslubdan foydalanish imkoniyati bo'lmasa, bu uslub boshqasi bilan almashtiriladi. Shuni unutmaslik kerakki, o'quvchida yuzaga kelgan pedagogik vaziyatning asl sababini o'qituvchi avvalambor o'zidan axtarishi kerak.

Albatta, quruq axborotlar hech kimni qiziqitirmaydi. Shuning uchun ham o'qituvchi o'z darsini qiziqarli o'tishga, materialni his-tuyg'u bilan berish uchun ovozidan, yuz qiyofasidan, xatti-harakati bilan berib, darsning ta'sirchanligini oshirishga harakat qiladi. O'quvchilarda ijobiy his-tuyg'u, uyg'otgan axborot mustahkam bo'ladi. Psixologiya fanida ko'pincha his-tuyg'uni, axloqiy, intellektual, mehnat va estetik his-tuyg'ular farqlanib uni chaqiruv

omillarningning bo'yicha turlarga ajratadilar.

Kan-Kalikning fikricha "estetik his-tuyg'u"dan boshqa his-tuyg'u yo'q. Yuqorida keltirilgan sohalar: mehnat, san'at, intellektualli ish va boshqalar faqat estetik his-tuyg'uni paydo qiladi. Albatta, his-tuyg'u yuqoridagi sohalarining go'zalligi, yuksakligi, ajoyibligi bilan ijobiy his-tuyg'uni yuzaga keltiradi. Agar mehnat, san'at va boshqalar arziyasiz, ko'rimsiz, xunuk bo'lsa salbiy his-tuyg'udan boshqa hech narsani chaqirmaydi.

Bu his-tuyg'ular tashqarida namoyon bo'lganda qaddi-qomatimizda, nafas olishimizda, ovoqimizda, qo'l harakatimizda va boshqa joylarda kuchayadi. Ichkarida esa ichki bezlarning kuchli ishlashi natijasida qonda adrenalinning miqdori oshadi, yurak, qon tomirlari va boshqa a'zolarining ishi kuchayadi. O'qituvchi faqat inson fiziologiyasini bilib qolmasdan, balki o'zining his-tuyg'usini rivojlantirish bilan shug'ullanishi ham kerak.

3-§. SHAXSDA IJODIY TAFAKKUR RIVOJLANISHI. IJTIMOIYLASHUV JARAYONIDA SHAXS SIFATLARINI TUTGAN O‘RNI

“Shaxs” tushunchasi va shaxs rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari. Shaxs tushunchasi insonga taalluqli bo‘lib, psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo‘lgan jamiyatning a‘zosini ifodalashga xizmat qiladi. Odam shaxs bo‘lishi uchun psixik jihatdan rivojlanishi, o‘zini yaxlit inson sifatida his etishi, o‘z xususiyatlari va sifatleri bilan boshqalardan farq qilmog‘i kerak. Kadrlar tayyorlash milliy modelida shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekt va obyekti, ta’lim sohasidagi xizmatlarining iste’molchisi va ularni amalga oshiruvchi sifatida ta’riflanadi. Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, uning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida namoyon bo‘lishiga erishishni nazarda tutadi. Mazkur ijtimoiy talabning amalga oshirilishi har bir fuqaroning bilim olish, ijodiy qobiliyatini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanishi hamda muayyan kasb yo‘nalishi bo‘yicha mehnat qilish huquqini kafolatlaydi. Shaxs rivojlanishi. Odamning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxsga aylanishi uchun ijtimoiy muhit sharoitlari va tarbiya kerak bo‘ladi. Ana shular ta’sirida odam inson sifatida rivojlanib boradi va shaxsga aylanadi. Rivojlanish shaxsning fiziologik va intellektual o‘zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayondir. Rivojlanish mohiyatan oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga, eski sifatlardan yangi holatlarga o‘tish, yangilanish, yangining paydo bo‘lishi, eskining yo‘qolib borishi, miqdor o‘zgarishining sifat o‘zgarishiga o‘tishini ifodalaydi. Rivojlanishining manbai qarama-qarshiliklarni o‘rtasidagi kurashdan iboratdir. Bola shaxsining rivojlanishi inson ijtimoiy mavjudotdir degan falsafiy ta’limotga asoslanadi. Ayni vaqtda inson tirik, biologik mavjudot hamdir. Demak, uning rivojlanishida tabiat rivojlanishining qonuniyatlari ham muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, shaxs bir butun mavjudot sifatida baholanar ekan, uning rivojlanishiga biologik va ijtimoiy qonuniyatlar birgalikda ta'sir etadi, ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Chunki shaxsning faoliyati, hayot tarziga yoshi, bilimi, turmush tajribasi bilan birga boshqa fojiali holatlar, kasalliklar ham ta'sir etadi. Inson butun umri davomida o'zgarib boradi. U ham ijtimoiy, ham psixik jihatdan kamolga etadi, bunda bolaga berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq bo'lsa, u jamiyat a'zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o'ziga munosib o'rin egallaydi. Chunki rivojlanish tarbiya ta'siri ostida boradi. Shaxsning fazilatlarini to'g'ri ko'rish va bexato baholash uchun uni turli munosabatlar jarayonida kuzatish lozim. Demak, shaxsni rivojlantirish vazifasini to'g'ri hal etish uchun uning xulqiga ta'sir etuvchi omillarningning hamda shaxs xususiyatlarini yaxshi bilish zarur. Tarbiya bolaga samarali ta'sir etishi uchun o'sish va rivojlanish qonuniyatlarini bilish va hisobga olish maqsadga muvofiq. Shunday qilib, rivojlanish va tarbiya o'rtasida ikki tomonlama aloqa mavjud.

Shaxs rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarningning. Fanda, odamning shaxs sifatida rivojlanishiga biologik va ijtimoiy omillarning ta'siri o'rtasidagi munosabatni belgilashga oid munozara ko'pdan buyon davom etmoqda. Insonning shaxs sifatida, rivojlanishida ijtimoiy hodisalarning ta'siri kuchli bo'ladimi? Yoki tabiiy omillarningning yetakchi o'rin tutadimi? Balki tarbiyaning ta'siri yuqoridir? Ular o'rtasidagi o'zaro munosabat qanday? Fanda biologik yo'nalish deb nomlangan nuqtayi nazar yetakchi o'rinlardan birini egallab, uning vakillari Aristotel, Platonlar tabiiy- biologik omillarni yuqori qo'yadi. Ular tug'ma imkoniyatlar, taqdir, tole har kimning hayotdagi o'rnini belgilab bergan, deydilar. XVI asr falsafasida vujudga kelgan preformizm oqimi namoyandalari esa shaxs rivojlanishidagi naslning roliga katta baho berib, ijtimoiy muhit va tarbiyaning rolini inkor etadi. Xorij psixologiyasidagi yana bir oqim - bixeviorizm XX asr boshlarida yuzaga kelgan bo'lib, uning namoyandalari, ong va aqliy qobiliyat nasldan-naslga o'tib, insonga u tabiatan berilgan, deyiladi. Mazkur ta'limot vakili amerikalik olim

E.Torndaykdir. Pragmatizm oqimi va uning vakillari D.Dyui, A.Kombe ham shaxs rivojlanishini biologik nuqtayi nazarda asoslaydilar. Ular rivojlanishni faqat miqdoriy o'zgarishdan iborat, deb qaraydilar. Naslning rolini absolyutlashtirib, uni inson taqdirida hal qiluvchi ahamiyatga ega deb biladilar. Demak, bir guruh xorijiy olimlar rivojlanishni biologik (nasliy) omilga bog'laydilar. Biologik oqimga qarshi falsafiy oqim vakillari rivojlanishni ijtimoiy omil bilan belgilaydilar. Bu oqim vakillari bola shaxsining jismoniy, psixik rivojlanishi u yashaydigan muhitga bog'liq deb ko'rsatadilar. Muhit deganda odam yashaydigan sharoitdagi barcha tashqi ta'sir tushuniladi. Shu nuqtayi nazardan tarbiya tufayli bolani o'zi yashaydigan ijtimoiy sharoitga moslashtirish mumkin, degan xulosa kelib chiqadi. Ular ijtimoiy muhitning rolini hal qiluvchi omil deb hisoblaydilar. Demak, odam bolasining shaxs sifatida rivojlanib, taraqqiy etib borishi, uning shaxs bo'lib kamolga etishida nasl (biologik omil), ijtimoiy muhit (bola yashaydigan sharoit), shuningdek, maqsadga muvofiq amalga oshadigan tarbiya ham birdek ahamiyatga ega. Bu omillarning ta'sirini aniqlashda ilg'or pedagogik olimlar, psixolog va faylasuflar ta'limotiga suyaniladi. Falsafada shaxsni jamiyat bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy hayotdagi murakkab voqelik deb qaraladi. Ular individning ma'naviy boyligi uning munosabatlariga bog'liq, deb hisoblaydilar. Falsafiy-antropologik yondashuv o'zining tadqiqotchilik va tarbiyaviy funksiyasiga ko'ra o'quvchining ma'naviy dunyosiga yo'naltirilgandir. Ana shu sababli mazkur yondashuv pedagogikadagi mavjud boshqa ilmiy yoki gnoseologik yondashuvlardan farqli ravishda muloqot va o'zaro bir-birini tushunish asosida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni talab etadi. Mazkur yondashuvning o'ziga xosligi ta'lim-tarbiya jarayonining barcha subyektlariga nafaqat dunyoqarash ko'rinishida, balki mavjudlik usuli tarzida qarashni talab etadi. Mazkur mavjudlik usulini birinchi navbatda borliqni anglab etish sifatida tushunish lozim. Ikkinchidan, mazkur mavjudlik usulini uzluksiz ravishda o'z-o'zi, boshqalar va boshqa madaniyatlar bilan muloqot tarzi sifatida aniqlashtirish maqsadga muvofiqdir. Shaxsga

ijtimoiy muhitning ta'siri ham muhim. Bu tarbiya orqali amalga oshiriladi. Birinchidan, tarbiya ta'sirida muhit bera olmagan bilim, ma'lumot egallanadi, mehnat va texnik faoliyat bilan bog'liq ko'nikma va malakalar hosil bo'ladi. Ikkinchidan, tarbiya tufayli tug'ma kamchiliklar ham o'zgartirilib, shaxs kamolga etadi. Uchinchidan, tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'sirini ham yo'qotish mumkin. To'rtinchidan, tarbiya kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi. Demak, tarbiya bilan rivojlanish bir-biriga ta'sir etadi, bu tarbiya doimiy va uzluksizdir. Shunday qilib, bola shaxsining rivojlanishida tarbiya ham yetakchi o'ringa ega bo'lib, tarbiya tufayli nasl-nasabi, oila muhiti, ijtimoiy muhit ta'sirida har tomonlama rivojlanishga qodir, degan xulosani chiqarish mumkin

Shaxs shakllanishiga oid turli yondashuvlar.

Zamonaviy pedagogikada shaxs shakllanishiga doir to'rt yondashuv qaror topgan:

1. Biologik yondashuv - inson tabiiy mavjudot bo'lib, uning butun xatti-harakatlari tug'ma instinkt va ehtiyojlar natijasidir. Inson jamiyat talablariga bo'ysunishga majbur, shu bilan birga tabiiy ehtiyojlarini ham namoyon qilib boradi.

2. Ijtimoiy yondashuv - inson biologik mavjudot sifatida tug'iladi, faqat hayotiy faoliyati davomida boshqalar bilan doimiy muloqot va ijtimoiy guruhlarining ta'siri ostida ijtimoiylashadi.

3. Psixologik yondashuv - insondagi psixik jarayonlar (sezgi, idrok, fikrlash kabilar) tabiiy tavsifga ega, insonning yo'nalganligi - qiziqishlari, qobiliyatlari ijtimoiy hodisa sanaladi.

4. Yaxlit yondashuv - shaxs yaxlit tavsifga ega bo'lib, uning rivojiga nafaqat uning faoliyatidagi o'ziga xosliklar, balki turmush tarzi ham ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga ijtimoiy hayot natijalari - motiv, maqsad, qiziqish kabilar ham uning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy pedagogikada shaxs shakllanishiga doir to'rt - biologik, ijtimoiy, psixologik va yaxlit yondashuv qaror topgan.

5. Rivojlanishning yosh va o'ziga xos xususiyatlari. Muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik

xususiyatlar yosh xususiyatlari deb ataladi. Ana shu yosh xususiyatlarni hisobga olgan holda ta'lim va tarbiya ishi tashkil etiladi. Shunda bola rivojlanishiga tarbiya ta'siri kuchli bo'ladi. Muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar yosh xususiyatlari deb ataladi. Bolalarning tarbiyasiga to'g'ri yondashish, uni muvaffaqiyatli o'qitish uchun bola rivojlanishidagi turli yoshdagi davrlariga xos xususiyatlarni bilish va uni hisobga olish muhimdir. Chunki bola organizmining o'sishi ham, rivojlanishi ham, psixik taraqqiy etishi ham turli yosh davrlarida turlicha bo'ladi. Abu Ali Ibn Sino, Yan Amos Komenskiy, Abdulla Avloniylar ham bolani tarbiyalash zarurligini uqtirib o'tganlar. Bolaning o'ziga xos xususiyatini hisobga olish juda murakkab. Chunki bir xil yoshdagi bolalar ham psixik jihatdan turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, ko'rish va eshitish qobiliyati, faolligi, tez anglash, sust fikr yuritishi, hovliqma yoki vazminligi, sergap yoki kamgapligi, serg'ayrat yoki g'ayratsizligi, yalqov yoki tirishqoqligi, palapartish va chala ishlaydigan, yig'inchoqligi yoki ishga tez kirishib ketishi kabilar nerv faoliyati tizimining ta'siri bo'lib, o'qituvchi yoki tarbiyachi ularni bilishi zarur. Bolaning individual - o'ziga xos xususiyatini bilish uchun temperamentning umumiy tiplari va bolaning o'ziga xos xususiyatini o'rganish, metodikasini bilish muhim. Temperament (lot. "temperamentum" "qismlarning bir-biriga munosabati" ma'nosini anglatib, shaxsning individual psixologik xususiyatlari majmuidir. Shuningdek, turli yosh davrlarining o'ziga xos rivojlanish qonuniyatlari ham mavjud. Bolaning jismoniy va psixik kamoloti quyidagi davrlarga bo'linadi:

1. Go'daklik davri - chaqaloqlik (1 oy) davri tugagandan to bir yoshgacha bo'lgan davr.
2. Bog'chagacha bo'lgan yosh davri - 1 yoshdan 3 yoshgacha.
3. Maktabgacha bo'lgan yosh davri - 3 yoshdan 7 yoshgacha.
4. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar (bolalar) - 7 yoshdan 11-12 yoshgacha.

5. O'rta va katta maktab yoshidagi o'quvchilar (o'smirlar, ilk o'spirinlar) - 12-17 yosh.

Maktabgacha yoshdagi bolaning jismoniy va psixik kamoloti shartli ravishda quyidagi davrlarga bo'linadi:

1. Go'daklik (1 yoshgacha);
2. Ilk yosh (1-2 yosh);
3. Ilk yosh guruhi (2-3 yosh);
4. Kichik yosh (3-4 yosh);
5. O'rta yosh (4-5 yosh);
6. Katta yosh (5-6 yosh);
7. Maktabga tayyorlov davri (7 yosh, majburiy ta'lim).

Kichik maktab yoshida o'yin faoliyatining o'rnini endi o'qish faoliyati egallaydi. Bu juda qiyin o'tish davri bo'lib, bolaning bo'yi, og'irligi jihatdan uning tashqi ko'rinishi kam farq qiladi. Suyaklari qotmagani tufayli tez shikastlanadi. Muskullari tez o'sishi tufayli serharakat bo'ladi. Bosh miyasi tez rivojlanadi. Jismoniy o'sishiga xos bu xususiyatlar tarbiyachidan ehtiyotkorlikni talab etadi. Bu yoshda bola bilim olish va o'rganishga qiziquvchan bo'ladi. O'rta va katta maktab yoshi (o'smirlik, ilk o'spirinlik 12-17 yosh). O'smirlikning murakkabligi anotomikfiziologik va psixologik xususiyatdagi kuchli o'zgarishlar bilan bog'liqdir. Bolaning o'sishi tezlashadi. Bu davrni o'tish davri ham deyiladi. Bu davrda jinsiy yetilish davri boshlanadi. Bu bolaning fe'l-atvoriga ta'sir etadi. O'smir hayotida mehnat, o'yin, sport va jamoat ishlari katta rol o'ynaydi. Ba'zilarining o'zlashtirishi pasayadi, intizomi bo'shashadi. Bu davr o'spirinlarning ilk balog'atga yetgan davridir. Mazkur davrda jinsiy yetilish tugaydi. Ularda mustaqillik sezila boshlaydi. O'spirin yoshlar hayotga kelajak nuqtayi nazaridan qaray boshlaydilar. Madaniy darajasini orttirishga intilish kuchaya boradi, his-tuyg'ularida ham o'zgarish yuz beradi. O'z-o'zlarini tarbiyalashga kirishadilar. Ideal tanlash va unga ergashish kuchayadi. Bu davrda, ular o'rtasida munozaralar o'tkazish yaxshi natija beradi. O'spirinlar o'z guruhiga intiladi. Shuning uchun ham o'spirinning barcha intilishlari ma'lum maqsadga yo'naltirilgan

bo'lishi zarur. Ularda o'quv fanlarini tanlashga nisbatan ehtiyoj kuchaya boradi. O'spirinlik - bu aqliy faoliyatning ham rivojlanish davri sanaladi. Ular o'z fikrlarini mustaqil ifodalashga harakat qilib, shaxslik xislatlarini namoyish eta boshlaydilar. Shunda o'qituvchilar va katta yoshlilar ularning hali g'o'r fikrlari va dunyoqarashlarini to'g'ri yo'naltirishlari muhim. Zero, bu davrda o'z-o'zini anglash, ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy xislatlari tez shakllanadi. Bunga uning faoliyati, jamoada va jamoat joylarida o'zini tutishi, odamlar bilan tez muloqotga kirishishi ham turtki bo'ladi. O'zini kattalardek his etish, o'ziga xosligini namoyon etish, boshqalarning diqqatini o'ziga qaratishga harakat qiladi. Axloqiy muammolarni o'z qarashlari nuqtayi nazaridan hal eta boshlaydi. Hayot mohiyati, baxt, burch, shaxs erkinligini o'z qiziqishlari bilan o'lchaydilar. Shu bois ularga katta yoshlilarning beg'araz, to'g'ri yo'nalish berishlari o'ta muhim. Mazkur davrda yoshlar xulqi ham tarkib topa boshlaydi. Bunda shaxsning jamoadagi mavqeyi, jamoa shaxslari bilan muomala-muloqoti muhimdir. Albatta, bu borada, ta'lim muassasasida faoliyat ko'rsatayotgan yoshlar ijtimoiy harakati ta'siri katta ahamiyatga ega. Chunki o'spirin-yoshlar mustaqil hayot ostonasida bo'lib, ularning bu hayotga to'g'ri qadam qo'yishi uning jamiyatning faol fuqarosi bo'lishining muhim shartidir.

Shaxs sifatlarini tuzilishi. Shaxs tushunchasi esa “yuz”, “soxta qiyofa” so'zlaridan kelib chiqadi. Qadimgi rus tilida “soxta qiyofa” so'zi “rol”, ya'ni odam boshqalar bilan muloqotda bo'lganida kiyib oladigan biror-bir ijtimoiy niqob ma'nosini anglatuvchi “rol”ni bildiradi. Lotincha persone so'zi ham shu ma'noni anglatadi. Personare – niqob ortidan so'zlashish. Qadimgi yunon, keyinchalik esa qadimgi rim teatrlarida aktyor sahnaga u yoki bu – yovuz, laganbardor, payg'ambar, qahramon xarakterlari chizilgan niqobda chiqishgan. Niqobning bo'yoqlari ijtimoiy vazifani bajaruvchi, u yoki bu rolni ijro etayotgan insonning axloqiy belgilariga ishorat edi. Qadimgi Yunonistonda shaxs tushunchasiga mos keluvchi atama ishlab chiqilmagan edi. Chunki uning o'rnini ruh egallagan edi. Arastuning

“Jon” haqida asari hozirgi zamon psixologiyasiga yo‘l ochib berdi. Sharqda umuman boshqacha holat edi. Induizm va buddizmda shaxs inkor etilib, faqatgina o‘zlik e’tirozsiz tan olinadi. K.Yungning psixoanaliz nazariyasiga asosan shaxs tushunchasi odamning jamiyatdagi ijtimoiy roli bilan bog‘liq. Hayoti jarayonida u ijtimoiy talablarga mos ravishda o‘zini tutishni o‘rganadi. Har bir kasb uchun, masalan, jamiyat a’zosi taqib yuradigan ma’lum niqob xosdir. Shaxs xarakterni tashkil etuvchi bo‘lib hisoblanmaydi, lekin u bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ichki “Men”ning himoyasi sifatida faoliyat yuritadi. Sharqda, shuningdek xitoy va yapon tillarida shaxs tushunchasi odamning yuzi bilan emas, balki butun tanasi bilan bog‘lanadi. Pedagogika, psixologiya va falsafa fanlarida shaxsga o‘xshash ko‘plab qarama qarshi ta’riflangan ilmiy tushunchani uchratish amri mahol. Mashhur psixolog V.P.Zinchenko fikriga ko‘ra: “Inson tushunchasi bilan faqat shaxs tushunchasi raqobatlashishi mumkin”. Olim D.B.Elkonin adabiyotlarda shaxsning yigirmaga yaqin ta’rifini ko‘rib chiqqandan so‘ng inson tushunchasi shaxs emasligini xulosa qildi. E.V.Ilenkovning yozishi bo‘yicha, narx tushunchasini tilla tanga yoki qimmatli qog‘ozning fizik kimyoviy tarkibini tadqiq qilish bilan tushuntirish qiyinchilik tug‘dirgani kabi, shaxs sir-sinoatini inson miyasi xususiyatlariga tenglashtirib bo‘lmaydi. Uning fikricha shaxs miya tuzilishi bilan emas, balki, insonning insonga bo‘lgan ijtimoiy munosabatlar tizimi bilan belgilanadi. Jamiyatda shaxs o‘zini umumiy natijalar nomini olgan ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan faoliyatlarni yaratishda anglaydi. Aflotun va Spinoza, Betxoven va Napoleon, Tolstoy va Mikelandjelo – bunday, odatiy holatlarni sindiradigan ijtimoiy ahamiyatga molik ishlar mujassam bo‘lgan shaxslarni boshqalar bilan adashtirib yuborish mumkin emas. Shaxslar ko‘lami, E.A.Ilenkovning odilona fikriga ko‘ra, faqat ularnigina emas, boshqalarni ham qiziqtiradigan o‘zlarining faoliyatlari ko‘lami bilan o‘lchanadi. Ko‘pgina psixolog olimlar individning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini shaxsning asosiy belgilari, deb hisoblaydilar. A.G.Kovalyevning fikricha, shaxs—bu ijtimoiy munosabatlarnig ham

obyekti ham subyektidir. Chet el psixologiyasida inson shaxsi sifatida barqaror belgilar majmuasini tashkil etuvchi temperament, sezgirlik, motivlar, layoqatlar, mayllar, turli hayotiy vaziyatlarga moslashayotganida aynan shu insonga xos bo'lgan fikrlar oqimi va xulq-atvorini belgilab beradigan ma'naviyat tushuniladi. J. Godfruaning fikricha, "shaxs umumiy holda ham irsiy, ham ijtimoiy-madaniy ta'sirlar bilan belgilanadi".

Shaxs tushunchasi o'z ichiga tabiiy xossalar, ya'ni jinsi, temperament, xarakteri asosida ijtimoiy muhit, jumladan oila, maktab, mahalla kabi tashqi muhit va faoliyat turlari bo'lgan o'yin, bilish, mehnat qilish bilan faol o'zaro ta'sirlar jarayonida hosil bo'lgan individga xos ijtimoiy sifatlar yig'indisini birlashtiradi. Inson shaxsi, keng tarqalgan tasavvurlarga qarshi o'laroq, 30-yoshga yetgunicha o'zgarmasdan qolmaydi. Misol keltiradigan bo'lsak, Kaliforniya Universitetining bir guruh olimlari 130 mingdan ortiq odamlarning "Katta Beshlik", ya'ni vijdoniylik, murosaga kelish layoqati, nevrotizm va ekstravertlik nomi bilan ma'lum shaxsiy sifatlarini tahlil qilganlar. Bu sifatlar kayfiyatga bog'liq emas, shuning uchun yetarlicha ishonchli tarzda namoyon bo'ladi. Odamlar yosh o'tishi bilan hayotiy ixtiloflarni tezda bartaraf etishga o'rganadilar, xususan, shafqatliroq va mehribonroq bo'lishga intiladilar. Aniqlanishicha, ayollarda, erkaklardan farqli o'laroq, yosh o'tishi bilan nevroz holatlari kamayadi. Ikki jins vakillarida samimiylilik bir oz kamayadi.

Olimlarning fikriga ko'ra, 20–30 yoshlilarda murakkab vazifalarni bajarishda va tashkilotlar tuzishda ko'mak beradigan vijdoniylikning kuchayishi kuzatiladi. Murosaga kelishga moyillik, aksincha, ko'pchilik holatlarda 30 yoshdan so'ng yorqin namoyon bo'ladi. Shunday qilib, faylasuflar, tarixchilar, pedagoglar va psixologlarda "shaxs" tushunchasining turlicha talqinlari mavjud. Keltirilgan ta'riflardan shuni xulosa qilish mumkinki, muayyan jamiyatda o'z o'rniga ega, maqsadli va ongli faoliyatning biror turi bilan shug'ullanuvchi, kishilar bilan normal til orqali munosabatga kirishib, mustaqil fikrlovchi individga shaxs deb aytiladi. Individ

sifatida dunyoga kelgan odam ijtimoiy muhit ta'sirida keyinchalik shaxsga aylanadi, shuning uchun bu jarayon ijtimoiy-tarixiy xususiyatga egadir.

Shaxsning eng muhim xususiyatli jihatlaridan biri - bu uning individualligidir. Individuallik deganda insonning shaxsiy psixologik xususiyatlarining betakror birikmasi tushuniladi. Individuallik kishining o'ziga xosligini, uning boshqa odamlardan farqini aks ettiruvchi psixologik fazilatlar birikmasidir. Individuallik tarkibiga xarakter, temperament, psixik jarayonlar, holatlar, hodisalar, hukmron xususiyatlar yig'indisi, iroda, faoliyat motivlari, dunyoqarashi, iqtidori, har xil shakldagi reaksiyalar, qobiliyatlari va shu kabilar kiradi. Individuallik individning boshqalardan farqlaydigan ijtimoiy xususiyatlari va psixikasining o'ziga xosligi hamda uning qaytarilmasligidir. Zikr etilgan psixologik xususiyatlarning bir xildagi birikmasini o'zida mujassamlashtirgan odam yo'q, inson shaxsi o'z individualligi jihatidan betakrordir.

Shaxs asosini uning tuzilishi tashkil etadi, bu esa shaxsning yaxlit hosila sifatida har taraflama nisbiy barqaror aloqa va o'zaro ta'sirga ega bo'lishidan iborat. Psixologlar shaxs tuzilishida turli tarkibiy qismlarni ajratadilar. S.L.Rubinshteyn temperament, xarakter, layoqatlarda; bilimlar, malakalar va ko'nikmalarda; yo'nalganlikda namoyon bo'ladigan individual-tipologik xususiyatlarni ko'rsatib o'tadi. A.G.Kovalev yo'nalganlik, xarakter, imkoniyatlar va mashqlar tizimini ajratadi. M.I.Enikeev temperament, yo'nalganlik, layoqatlar va xarakterni sanab o'tadi. Mashhur psixolog K.K.Platonov yo'nalganlik tarkibini, ijtimoiy tajriba tarkibini, psixologik tarkibni va biologik asoslangan tarkibni ajratib ko'rsatadi. Shunday bo'lsada, shaxs tuzilishida tarkibiy qismlarni ajratishdagi tafovutlarga qaramay, mualliflar o'z yondoshuvlarida yetakchi tarkibiy qism sifatida yo'nalganlikni alohida ajratib ko'rsatadilar. Bu tushuncha turlicha, masalan, S.L.Rubinshteyn fikricha: "o'sish sur'ati tendensiyasi, A.N.Leontev bo'yicha: "ma'no kasb etuvchi motiv", V.N.Myasishev bo'yicha: "dominantlik munosabati", B.G.Ananov bo'yicha: "asosiy

hayotiy yo`nalganlik”, A.S.Prangishvili bo'yicha esa: inson mohiyatli kuchlarini dinamik tarzda tashkil etish sifatida talqin etiladi.

Sobiq sovet psixologiyasida bu yo`nalishda qator manbalar keltirilga. Bular qatorida K.K. Platonovning yondoshuvi e'tiborga loyiq. U shaxs tuzilishini quyidagilarga ajratadi:

1.Yo`nalganlik osttuzilishi - fikrlar, dunyoqarash, ehtiyoj, mayllar, istaklar, qiziqishlar, ideallar, e'tiqodlar faoliyati, xulqning ustuvor motivlari kabi shakllarni o'z ichiga oladi va shaxsning axloqiy qiyofasi va munosabatlarini birlashtiradi. Bu osttuzilish tarbiya yo'li bilan shakllanadi.

2.Ijtimoiy tajriba osttuzilishi- ta'lim olishda shaxsiy tajriba vositasida orttirib bo'lingan, lekin shaxsning biologik va hatto, irsiy belgilangan xossalarining sezilarli ta'siri ostidagi bilimlar, malakalar, ko'nikmalar va odatlarni birlashtiradi.

3.Psixologik aks ettirish shakllari osttuzilishi – ijtimoiy turmush jarayonida shakllanuvchi bilish jarayonlarining individual xususiyatlari.

4.Biologik shartlanganlik osttuzilishi–miya morfologik va fiziologik xususiyatlariga muayyan darajada bog'liq bo'lgan patologik o'zgarishlarni, shaxsning yosh, jins xususiyatlarini va uning tipologik holatlarini birlashtiradi. S.L.Rubinshteyn bo'yicha shaxs tuzilishi quyidagi ko'rinishga ega.

1.Yo`nalganlik – ehtiyojlar, qiziqishlar, idealar, e'tiqodlar faoliyati va xulqning ustuvor motivlari hamda dunyoqarashlarda ifodalanadi.

2. Bilimlar, ko'nikmalar, malakalar – hayot va faoliyat jarayonida egallanadi.

3.Individual tipologik xususiyatlar – temperament, xarakter, qobiliyatlarda aks etadi.

A.S.Kovalyov talqiniga ko'ra shaxs quyidagi tuzilishga ega:

1.Yo`nalganlik – voqelikka nisbatan inson munosabatini aniqlaydi, unga o'zaro ta'sir etuvchi har xil xususiyatli g'oyaviy va amaliy ustanovkalar, qiziqishlar, ehtiyojlar kiradi.

2.Imkoniyatlar – faoliyatning muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta'minlovchi tizim, o'zaro ta'sir etuvchi va o'zaro bog'liq bo'lgan turlicha qobiliyatlar.

3.Xarakter – ijtimoiy muhitda shaxsning xulq-atvor uslubini aniqlaydi. Odamning ruhiy hayoti shakli va mazmuni unda namoyon bo'ladi. Xarakter tizimi irodaviy va ma'naviy sharoitlarga ajraladi.

4.Mashqlar to'plami – hayot va faoliyat, harakat va xulq-atvorni tuzatish (korreksiyalash), o'zini o'zi nazorat qilish, o'zini o'zi boshqarishni ta'minlaydi.

Psixologiyada shaxs tuzilishiga oid bir qator nazariyalar mavjud bo'lib, bu nazariyalar inson shaxsini tadqiq qilishga tirli xil nuqtayi nazardan yondashadi va muammoning mohiyatini turlicha yoritadi. Shaxs psixologiyasi bir qator psixolog olimlarning, shu jumladan Zigmund Freyd va Erik Erikson kabi taniqli psixologlar psixologiya nazariyalarining markazidir. Ushbu nazariyalarning ba'zilar shaxsning o'ziga xos sohasi bilan kurashishsa, boshqalari esa shaxsiyatni yanada kengroq tushuntirishga xizmat qiladi. Bular: Biogenetik nazariya, sotsiogenetik nazariyasi, psixogenetik nazariya, psixo-analitik nazariya hamda gumanistik nazariyalar. Biogenetik yondashuv tarafdorlari shuni ko'rsatadiki, shaxsning biologik taraqqiyoti asosiy omil sifatida qabul qilinib, shaxs uchun javobgardir. Biogenetik nazariyaga ko'ra, shaxs shakllanishining asosida biogenetik determinantlar yotadi, shuningdek, ijtimoiy-psixologik xususiyatlar ham ularga bog'liq holda rivojlanadi. Shu bilan bir qatorda va tarbiyaviy munozaralarda shaxsning biologik nazariyalari tabiat bilan yonma-yondir. Irsiyat bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, genetika va shaxs xususiyatlari o'rtasida bog'liqlik mavjud. Ikki 21 tadqiqot ko'pincha qaysi xususiyatlarni genetikaga va ijtimoiy-muhit ta'siriga bog'liq bo'lishi mumkin bo'lgan xususiyatlarga aloqadorligini tekshirish uchun ishlatiladi. Masalan, tadqiqotchilar egizaklarning bir-birlari bilan ajralib turadigan shaxslarga nisbatan farqlari va o'xshashliklarini ko'rib chiqishi mumkin. Eng taniqli biogenetik yo'nalish vakillaridan biri Xans Ayzenk o'z tadqiqotlarida shaxs xususiyatlarini biologik

jarayonlar bilan bog‘lagan holda tadqiq qilgan. Ayzenk shaxsiyat kortizol stress gormoni ta’sirida ekanligini ta’kidladi. Uning nazariyasiga ko‘ra, introvertlarning kortikal qo‘zg‘alishi yuqori va stimulyatsiyadan qochishadi, ekstrovertlarda esa kortikal qo‘zg‘alishi va istak stimulyatsiyasi past bo‘ladi. Biogenetik nazariyaga qarama-qarshi nazariya bu sotsiogenetik nazariyadir. Sotsiogenetik yondashuvga ko‘ra, shaxsda ro‘y beradigan o‘zgarishlarni jamiyat tuzilishi va ijtimoiylashuv usullari hamda atrofdagi odamlar bilan o‘zaro munosabat vositalari asosida tushuntiriladi. Bu nazariyaga ko‘ra, inson biologik tur sifatida dunyoga kelib, hayotdagi ijtimoiy shart-sharoitlarning bevosita ta’siri natijasida shaxsga aylanishi tadqiq qilingan. Ijtimoiy yo‘nalishdagi nazariyalaridan biri sifatida g‘arbda yuzaga kelgan eng muhim yondashuvlardan biri bu rollar nazariyasi bo‘lib, unga ko‘ra jamiyat o‘zining har bir a’zosiga status deb nomlangan xatti-harakatlarning barqaror usullari majmuasi yaratgan bo‘lib, bunda inson ijtimoiy muhitda bajarishi shart bo‘lgan maxsus rollari orqali jamiyatda namoyon qilayotgan xulq-atvori va boshqalar bilan munosabatida uning qanday shaxs ekanligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ijtimoiy yo‘nalishdagi nazariyalardan biri sifatida AQSHda individual tajriba va shaxs ijtimoiylashuvida bilimlarni o‘zlashtirish nazariyasi keng tarqalgan bo‘lib, mazkur yondashuv vakillari shaxsning hayoti va atrof muhitdagi voqelikka nisbatan munosabati, ko‘nikmalarni egallashi va olgan bilimlarini o‘zlashtirishiga ta’sir etuvchi omillarning barqarorligiga bog‘liqligini ta’kidlashgan. Sotsiogenetik nazariya vakillari shaxs taraqqiyotini u yashab turgan ijtimoiy muhitning bevosita ta’siri natijasi deb hisoblaydilar. Sotsiogenetiklar ham biogenetiklar kabi rivojlanayotgan insonning shaxsiy aktivligini oqlamaydilar. Ular insonni atrofdagi ijtimoiy muhitga moslashadigan hamda passiv rol o‘ynaydigan mavjudot deb qaraydilar. Ya’ni chet el psixologi K.Markning so‘zi bilan aytganda, inson shaxsining mohiyati barcha ijtimoiy munosabatlar yig‘indisidan iboratligiga e’tiroz bildirib bo‘lmaydi. Shaxs ijtimoiy mavjudot

bo'lishi bilan birga, o'zida tabiiy, biologik tuzilish belgilarini saqlab qoladi.

Psixologiyada shaxs shakllanishiga doir nazariyalardan yana biri bu – psixogenetik yo'nalish bo'lib, bu yondashuv biogenetik hamda sotsiogenetik 22 yondashuvlarni kamsitmagan holda, shaxs psixik jarayonlarining rivojlanishini birinchi darajali ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Bu yondashuv vakillarining fikricha, ijtimoiy munosabatlarga kirishuvchi va ijtimoiy taraqqiyotda faol qatnashuvchi odamni shaxs deb atashimiz mumkin. Ammo inson individ sifatida dunyoga keladi va ijtimoiy munosabatlar ta'sirida shaxsga aylanadi.

L.S.Vigotskiyning fikr bildirishicha, bolaning psixik rivojlanishida hamda o'z o'zini anglashining taraqqiy etishida nasliy omillarning ham roli mavjuddir, ammo asosiy tamoyil sifatida psixikaning rivojlanishida muayyan hayot tarzining roli ham kattadir. Har bir psixik funksiyalar ba'zi o'rinlarda biologik organizm hayoti bilan birga rivojlanib boradi. L.S.Vigotskiy nazariyasiga ko'ra yuqori funksiyalarga qaraganda elementar funksiyalar ko'proq naslga bog'liq bo'ladi. Yuqori funksiyalarga ixtiyoriy xotira, mantiqiy tafakkur, nutq kirs, elementar funksiyalarga sezish, his qilish kabilar kiradi. Shunday ekan, shaxs psixikasining rivojlanishida ham biologik, ham ijtimoiy omillarning ta'sirini e'tiborga olish maqsadga muvofiqdir.

Psixoanalitik nazariyalariga Zigmund Freydning tadqiqotlari katta ta'sir ko'rsatadi va ongosti va bolalik tajribalarining shaxsiyatga ta'sirini ta'kidlaydi. Psixoanalitik nazariyalarga Zigmund Freydning psixoseksual bosqich nazariyasi va Erik Eriksonning psixosotsiyal rivojlanish bosqichlari kiradi. Z.Freyd shaxsiyatning uchta tarkibiy qismi id, ego va superego ekanligini ta'kidlaydi. Id ehtiyojlar va da'vatlar uchun javobgardir, superego esa ideallar va axloqni tartibga soladi. Ego, o'z navbatida, id, superego va haqiqat talablarini mo'tadil qiladi. Z.Freyd bolalarning id energetikasi turli xil erogen zonalarga yo'naltirilgan bir necha bosqichlarda rivojlanishini taklif qildi. Z.Freyd tadqiqotiga ko'ra, Id – ushbu yondashuvda shaxsda o'z ehtiyojlarini

qondirish talabi vujudga keladi. Natijada uning qiladigan ishlari faqatgina shu fikr ostida bajariladi.

Ego – ushbu yondashuvda real narsalar asosida tashkil topgan bo‘lib, u insonga faqat foyda keltiradi. 4-5 yoshdan boshlab bolada nafaqat real, balki ideal narsalar tushunchasi shakllana boshlaydi. Bu narsa esa Super-ego shakllanishiga olib keladi. Bu davrda bola nima qilish kerak ekanligini kattalarga o‘rgatishni boshlaydi.

E.Erikson shuningdek, shaxsiyat bir necha bosqichlar orqali rivojlanib boradi, har bir bosqichda muayyan qarama-qarshiliklar kelib chiqadi deb hisoblagan. Har qanday bosqichdagi muvaffaqiyat ushbu ziddiyatlarni muvaffaqiyatli yengib chiqishga bog‘liq deb ta’kidlaydi. Gumanistik nazariyalar shaxsni rivojlantirishda iroda erkinligi va individual tajribaning muhimligini ta’kidlaydi. Bu yondashuv vakillari Karl Rogers va Abraham Masloular ushbu nazariyaga olim sifatida emas, balki inson sifatida yondashganlar. Mazkur nazariya vakillari o‘z-o‘zini anglash Konsepsiyasini ilgari surib, shaxsiy rivojlanishga tug‘ma ehtiyoj va shaxsiy xulq-atvorni rag‘batlantirish usullarining ta’sirini o‘rganganlar. Karl Rogers fikricha, insonlar mehr-muhabbatli bo‘lishlari bilan bir qatorda, mustaqil tarzda shakllana oladilar. Har bir inson o‘simlikka qiyoslanib, ya’ni tashqi muhitga qaramasdan o‘sib hamda rivojlana oladi. K.Rogers insonning rivojlanishi va shakllanishiga 3 narsa, ya’ni bular, samimiylik, qayg‘ura olish va g‘amxo‘rlik ta’sir qiladi deb fikr bildiradi. Shaxs muammosini keng ko‘lamda ko‘pgina mutaxassislar o‘rganganlar. Har bittasi o‘ziga xos ta’rif bergan.

Shaxs xususiyatlarimiz bizni kimligimizni anglatadi. Shuning uchun u ilmda ham, kundalik hayotda ham qiziq va kerakli manba bo‘lganligi ajablanarli emas. Psixologlar tomonidan ilgari surilgan shaxs xususiyatining turli xil nazariyalari har bir insonni o‘ziga xosligi nimada ekanligini chuqurroq va kengroq anglashga yordam beradi. Demak, shaxs va uning tuzilishi xususiyatlarini o‘rganuvchi nazariyalar haqida ko‘proq bilib, tadqiqotchilar shaxs psixologiyasini qanday yoritganligini yaxshiroq tushunib, kelajakda tadqiqotlarni olib

borishda psixologiya fanidagi shaxs tuzilish xususiyatlarini o'rganuvchi nazariyalarga murojaat qilish maqsadga muvofiqdir. Chunki shaxsning alohida xususiyatlarini tahlil qilsak, ularning o'ziga xos jihatini yoritib bera olmaymiz.

Nazorat savollari:

1. "Qobiliyat" tushunchasiga ta'rif bering.
2. Pedagogik qobiliyat deganda nimani tushunasiz?
3. Pedagogik qobiliyat qanday tuzilishga ega?
4. Pedagogning kasbiy bilimlar darajasining tuzilishini bayon eting.
5. Pedagogning kasbiy va shaxsiy fazilatlariga nimalar kiradi?
6. Pedagogik salohiyatning tarkibiy qismlarini sanab bering.
7. Innovatsion salohiyat deganda nimani tushunasiz?
8. Innovatsion salohiyatning tuzilishini bayon eting.
9. Pedagogik mahorat tizimida akmeologik qobiliyatlar qanday ahamiyatga ega?

4-§. PEDAGOGNING KASBIY KOMPETENTLIGI VA KREATIV RIVOJLANISHI

“Kompetentlik” tushunchasining mohiyati. “Kompetentlik” tushunchasi ta’lim sohasiga psixologlarning ilmiy izlanishlari natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtayi nazardan kompetentlik “noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi.

“Kompetentlik” (inglizcha: “competence”-“qobiliyat”) faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olishni ifodalaydi. Xar bir pedagog faoliyati davomida olib boradigan ishlarini tartibga solish loyihalash, hamda loyihalash madaniyatiga e’tibor qaratish kerak. “Pedagogning loyihalash madaniyati”: pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kursi talabalarini loyihaviy faoliyatga doir bilimlarini takomillashtirish, pedagogik loyihalash bosqichlari va shakllarini o‘zlashtirishga doir zamonaviy yondashuvlarni o‘zlashtirish, joriy etish, ta’lim amaliyotida qo‘llash ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirish. Pedagog kadrlar kasbiy kompetentligini oshirish o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, kadrlar salohiyati, ta’lim muassasalari moddiy texnika bazasi, mavjud ichki imkoniyat - ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma obyektlarining mavjudligi va joylashishiga bevosita bog‘liq bo‘ladi. Bu esa, mazkur yo‘nalishni ustuvor rivojlantirishga nisbatan alohida yondashuvini taqozo etadi.

“Kompetensiya” so‘zi tarjimada “layoqatli”, “munosib bo‘lmoq” kabi ma’nolarni anglatuvchi lotincha “competere” so‘zi asosida hosil bo‘lgan. “Kompetensiya” deyilganda, shaxsning biror-bir sohadan xabardorlik, shu sohani bilish darajasi tushuniladi. Ushbu maqolani yozishdan maqsad – talabalarni pedagogik kompetentlikning ilmiy-nazariy asoslari, kompetentlik tushunchasining mazmun-mohiyati va

ta'limdagi innovatsion jarayonlar tizimida o'qitish va tarbiyalashda kompetentlikka nisbatan chuqur pedagogik-psixologik tayyorgarlikni shakllantirishdan iborat. Vazifalari quyidagilardan iborat - talabalarga pedagogik kompetentlikka doir manbalardan foydalana olishga o'rgatish va ularda pedagogik kompetentlik haqidagi tasavvurlarni hosil qilish; - bo'lajak o'qituvchilarni zamonaviy kishilik jamiyati oldida turgan eng muhim muammolardan biri – ta'lim-tarbiya jarayonini modernizatsiya qilishga oid istiqbolli yo'nalishi bo'lgan pedagogik kompetentlik yuzasidan nazariy bilimlar bilan tanishtirish; - pedagogik kompetentlikka qo'yilayotgan zamonaviy talablar bilan qurollantirish; - ta'lim-tarbiya jarayonini bola ruhiyati, uning neyropsixologik, neyropedagogik imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish uchun zarur bo'lgan bilim ko'nikmalarni egallashlarini ta'minlash; - pedagogik faoliyatni amalga oshirishda ijodiy va metodik savodxonlikni hamda kompetentlikka nisbatan chuqur pedagogik-psixologik tayyorgarlikni shakllantirishdan iborat. Pedagogik kompetentlik bir qator ya'ni pedagogika nazariyasi va tarixi, pedagogik konfliktologiya, neyropedagogika, pedagogik imidjalogiya, innovatsion pedagogik texnologiyalar, yosh davrlar psixologiyasi, ijtimoiy pedagogika, pedagogik aksiologiya, pedagogik psixologiya fanlari bilan o'zaro aloqada shakllanadi. Murakkab, mashaqqatli, kutilmagan holatlarga boy, ammo jamiyatning zaruriy ehtiyoji hisoblangan ta'lim-tarbiya tizimini yangicha ko'rinish va yangicha mazmunda amalga oshirish, dars jarayonida innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarni samarali qo'llash orqali ta'lim samaradorligiga erishish davr talabidir. Ta'lim muassasasi bitiruvchisi o'z hayotida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o'z o'rnini egallashi, duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi o'z sohasi, kasbi bo'yicha raqobatbardosh bo'lishini ta'minlashda asosan pedagog kadrlar salohiyati hal qiluvchi omil hisoblanadi. Jamiyatdagi barcha yangilanishlarni uyg'unlashtirish uchun shaxsiy yetuklik bilan birga kasbiy kompetentlik ham muhim ahamiyat kasb etadi. Oliy ta'lim

muassasalarida talabalarning bilim samaradorligini oshirish, dars va ta'lim jarayonini yanada sifatli tashkil etish: tizimda yuqori malakali pedagoglar kadrlarni tayyorlash, ularning malakasini uzluksiz va sifatli ravishda oshirib borishga; Ikkinchidan, ta'lim muassasalarida o'qituvchilar kasbiy qiyinchiliklari va ehtiyojlariga asoslangan uzluksiz sifatli metodik xizmatni tashkil etishga; Uchinchidan, mavjud fan xonalari, o'quv laboratoriya asbob-uskunalar, jihozlar va kompyuter texnikasidan, umuman olganda, barcha shart-sharoitlardan samarali foydalanishga; To'rtinchidan, sifatli ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda, oliy ta'lim muassasalari, malaka oshirish institutlari va umumta'lim maktablari hamkorligida ilg'or ish tajribalarini amaliyotga joriy etishga; xalq ta'limi tizimida faoliyat olib borayotgan o'qituvchilarning kasbiy kompetentligi va mahoratiga bevosita bog'liqdir. Zamonaviy o'qituvchi o'zining bilim, ko'nikma va malakalarini amaliyotda, ya'ni ta'lim-tarbiya jarayonini sifatli tashkil etishda samarali qo'llay olishi - kasbiy kompetentligining eng asosiy komponentidir. Jumladan:

- dunyo va mamlakatda ta'lim taraqqiyoti bosqichlarini bilishi, xalq ta'limi tizimida o'quv-tarbiya jarayoni mazmunini ta'minlashga, uzviylik va uzluksizligiga amal qilish;
- kompyuter, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish va pedagogik faoliyatida qo'llay olish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- talabalarning ruhiy, jismoniy rivojlanishi va yosh xususiyatlari qonuniyatlarini bilishi, ta'lim-tarbiyada pedagogik-psixologik yondashuvga asoslanish;
- o'quv-tarbiya jarayonini sifatli tashkil etishda darsning aniq bosqichi uchun samarali zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari hamda metodlarni to'g'ri tanlash va qo'llay olish ko'nikmasiga ega bo'lish;
- o'quv-tarbiya va darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida bolalar hayoti va sog'ligi, texnik hamda axborot xavfsizligini ta'minlashga tayyor bo'lish;

– dars jarayonida mediaresurslar va elektron tarmoq imkoniyatlaridan samarali foydalanish hamda mediavaxfsizlik me'yorlariga amal qilish;

Pedagoglar umumta'lim fanlarini o'qitish darsining mazmuniga mediamadaniyat va mediavaxfsizlik tushunchalarini singdirib borishi, ularga axborot texnologiyalarining cheksiz ijobiy imkoniyatlari, afzalliklari bilan bir qatorda salbiy ta'siri va oqibatlaridan o'zini himoyalash yo'llarini ham o'rgatish lozim. Bunda talabalarda axborot bilan ishlash kompetensiyasini quyidagilarni inobatga olgan holda rivojlantirish maqsadga muvofiqdir:

– talabalarda axborot texnologiyalarining hayot va jamiyatdagi roli, imkoniyatlari va qo'llash doirasi, shuningdek, uning salbiy oqibatlari va ulardan himoyalash haqidagi tushunchalarni shakllantirish;

– ta'lim olish va shaxs sifatida rivojlanish jarayonida elektron resurslar, o'quv dasturlari va boshqa o'quv-metodik mahsulotlarning afzalliklarini anglash va qo'llashni o'rgatish;

– masofadan ma'lumot almashish lokal va global tarmoqda ma'lumot qidirishni va bu jarayonda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatardan saqlanish hamda mediamadaniyat qoidalariga rioya qilish. Yoshlarimizda yangi zamonga mos hayotiy mo'ljallarini belgilashda chalg'imaslik, axborot makonida o'zlariga kerakli manzilni aql-idrok, halollik va mehnatsevarlik bilan topish, Vatan taraqqiyoti va yurt farovonligiga o'z hissasini qo'shish kabi fazilatlarni tarbiyalash biz pedagoglarning burchidir.

Tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, pedagog kadrlar kasbiy kompetentligini oshirish masalalari turli davrlarda xorijiy va mamlakatimiz olimlari tomonidan har xil yo'nalishlarda o'rganilgan.

Umuman, "kompetentlik" va "kompetensiya" tushunchalari mazmun-mohiyati o'rganilar ekan, ushbu tushunchalarni aynan o'xshash, o'zaro bog'liq bo'lgan tushunchalar sifatida qo'llanilishi hamda differensial va integral xususiyatlari bilan farqlanishi pedagog olimlar tomonidan ta'kidlab o'tilgan. Bir qator ilmiy ishlarda

“kompetentlik” va “kompetensiya” tushunchalarining psixologik, pedagogik mohiyati, kompetentli yondashuv, professional kompetentlikni rivojlantirish masalalari atroflicha o‘rganilgan. “Uzluksiz ta’lim tizimining chet tillar bo‘yicha davlat ta’lim standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaror qabul qilinishi mamlakatda olib borilayotgan ushbu yo‘nalishdagi islohotlarning mantiqiy davomi sifatida qarashimiz mumkin. Olimlar ilmiy izlanishlarida o‘qituvchining shaxsiy sifatlari, faoliyati maqsad va vazifalarini belgilash, o‘quv faoliyati motivatsiyasi, axborot kompetentligi, kasbiy faoliyat dasturlarini ishlab chiqish va o‘quv jarayonini tashkil qilish kabi sifatlarni kiritgan holda kompetentlik tushunchasiga yondashish masalalariga keng e’tibor qaratilgan, I.A.Zimnyaya esa kompetentlikning asosiy uchta guruhini ajratib ko‘rsatadi:

- hayot faoliyati subyekti hisoblanuvchi shaxsning o‘ziga taalluqli bo‘lgan kompetentligi;
- insonning boshqalar bilan o‘zaro aloqalariga taalluqli bo‘lgan kompetentligi;
- inson faoliyatining barcha turlari va shakllarida namoyon bo‘ladigan kompetentlik.

Pedagoglar o‘zi yashab turgan mamlakat xalqlarining an’ana va urf-odatlaridan xabardor bo‘lishi, ishlab chiqarish taraqqiyoti va xususiyatlari to‘g‘risidagi axborotlarga ega bo‘lishi va ularni bilishi, shu bilan birgalikda ushbu axborotlardan o‘zining ta’lim-tarbiyaviy ishlarida foydalanishi zarur. Ta’limda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yutuqlaridan foydalanish, o‘z navbatida mavjud to‘plangan ma’lumot, axborotlar ustida ishlash, ularni tahlil qilish, tushuntirish hamda undan foydalanishni bilishi kerak. Kompetentli yondashuvning yana bir muhim tomoni globallashuv jarayonida o‘qituvchining o‘z ustida har doim mustaqil ishlashi, axborot kommunikatsiya texnologiyalarining so‘nggi yangiliklarini muttasil o‘zlashtirib borishi kerak bo‘ladi. Ta’limda zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etilishi: fan sohalarini axborotlashtirishni, o‘quv faoliyatni

intellektuallashtirishni, integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirishni, ta'lim tizimi infratuzilmasi va uni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga olib keladi. Ta'limni axborotlashtirish deganda – ta'lim-tarbiyaning psixologik-pedagogik maqsadlarini amalga oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, ta'lim tizimida elektron axborot-ta'lim muhitini tashkil etish, ta'lim sohasining elektron axborot-ta'lim resurslarini yaratish, kompyuter texnologiyalarini joriy qilish amaliyoti va metodologiyasi bilan ta'minlash nazarda tutiladi. Pedagoglar kasbiy kompetentligini hozirgi zamon talablari darajasida rivojlantirish, ularda zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarni, zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalangan holda shakllantirish muhim vazifalardan biridir. Til o'qituvchilari kasbiy kompetentligini rivojlantirishning uzluksiz axborot-metodik ta'minotini ishlab chiqish muammolariga doir tadqiqotga murojaat etish uzluksiz ta'lim tizimi sharoitida o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish yo'llarini izlab topish shuningdek, o'qituvchilarga uslubiy yordam ko'rsatish yo'lida axborot-kommunikatsion texnologiyalari rolining o'sib borayotganligi bilan izohlanadi. Hozirgi vaqtda o'qitishning zamonaviy texnik vositalari (kompyuterlar, multimediali o'qitish dasturlari, internet resurslar)ni axborot ma'lumotlari ehtiyojlariga mos ravishda qo'llanilishi ta'lim samaradorligini oshirishga hamda uni yangi sifat darajalariga olib chiqishga imkoniyat yaratib bermoqda. Zamonaviy ta'lim tizimi talablari asosida o'qituvchilar faoliyatini tashkil etish shakl va metodlarini takomillashtirishda axborot-kommunikatsion texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Axborot-kommunikatsion texnologiyalari vositalari asosida masofaviy ta'limni tashkil etish kabi o'qitishning yangi shakllari shular jumlasidandir. Ta'lim muassasalarini yangi zamonaviy texnika vositalari bilan ta'minlanishi va ta'lim tizimini axborotlashtirilishi pedagogik kadrlarni tayyorlash hamda ularning mazkur texnik vositalardan Ta'lim va fan sohasida yuqori darajalarga erishish, shu

yo‘nalishda islohotlar samaradorligini oshirish ko‘p jihatdan va ta‘lim muassasalari intellektual salohiyatdan unumli foydalanish bo‘yicha kompetentligini oshirishga ham alohida yondashishni talab etadi. XXI asrning boshlarida mehnat bozorida o‘z faoliyatida axborot-kommunikatsion texnologiyalar imkoniyatlarida yuqori darajada foydalana oladigan, kompetentli “masofaviy ta‘lim o‘qituvchisi” kasbga talab juda yuqori bo‘lishi bashorat qilinadi. Biroq, masofaviy ta‘lim tizimi uchun pedagog kadrlar tayyorlash masalasi bugungi kunning asosiy muammolaridan biri hisoblanadi. Uzlüksiz pedagogik ta‘lim tizimi uchun mutaxassislar tayyorlash yo‘llaridan biri bu, o‘qituvchilarning Internet tarmoqlararo kasbiy muloqotlarini tashkil etish deb qarash mumkin. Shu bois, bugungi kunda jamiyat uchun kasbiy kompetentlik darajasi yuqori va ayniqsa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo‘yicha bazaviy kompetensiyaga ega bo‘lgan mutaxassislar zarur bo‘ladi. Internet harbiy pedagoglariga mamlakatimiz va chet el ta‘lim tizimiga doir har xil ma‘lumotlar, masofaviy kurslar, virtual konferensiyalar, kasbiy muloqot, tajriba almashish kabi ta‘lim-tarbiya jarayoni bilan bog‘liq ma‘lumotlarni olish hamda ular ustida ishlash imkoniyatlarini beradi. Lekin, ko‘pchilik o‘qituvchilar kerakli ma‘lumotlarni qanday, qaysi yo‘l bilan topish va internet resurslaridan kasbiy faoliyatida qanday foydalanishni bilmaydilar. Shuning uchun internet tarmoqlaridan foydalanish bo‘yicha ko‘pgina tadbirlar ba‘zi hollarda tarqoq va tizimlashtirilmagan xarakterga ega bo‘ladi. Umuman, harbiy pedagoglarning tarmoqdagi faoliyati, ularning yaratilgan axborot-metodik resurslaridan foydalanish ishlari hali yetarli tashkil etilmagan. Jamiyatning bugungi asosiy talablaridan kelib chiqib, harbiy pedagoglarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishga yo‘naltirilgan axborot-metodik tizim shakllanmagan va ilmiy-metodik jihatdan asoslanmagan. Shu bois, uzluksiz ta‘lim tizimida AKT imkoniyatlaridan foydalangan holda harbiy pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish zaruriyati hamda ularning kasbiy kompetentligini takomillashtirishga yo‘naltirilgan va ilmiy-metodik

jihatdan asoslanmaganligi bilan bog‘liq muammolarni hal etish maqsadida xorijiy til o‘qituvchilarining tarmoqdagi axborot-metodik tizimini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda axborotlar ta’sir doirasining tezlik bilan o‘sishi, insonlarning har tomonlama o‘z ustida ishlashi hamda ularning raqobatbardosh, ko‘nikuvchan va talabchan kadrlar bo‘lishini o‘z-o‘zidan talab etmoqda. Xulosa o‘rinda dunyodagi rivojlangan mamlakatlar singari mamlakatimiz ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan kadrlar ham ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotda yuqori bilimga ega bo‘lishlari hamda har tomonlama kompetentli bo‘lishlari zarur.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yutuqlaridan foydalanish, o‘z navbatida mavjud to‘plangan ma’lumot, axborotlar ustida ishlash, ya’ni ularni tahlil qilish, tushuntirish hamda undan foydalanish yoki foydalanmaslik haqida qaror qabul qilishni bilish xorijiy til o‘qituvchisi kompetentligini rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillardan hisoblanadi. Kompetentli yondashuvining yana bir muhim tomoni globallashuv jarayonida o‘qituvchining o‘z ustida mustaqil ishlashi, axborot kommunikatsiya texnologiyalari so‘nggi yangiliklarini muttasil o‘zlashtirib borishi kerak bo‘ladi. Yuqorida ta’kidlangan fikrlarni tahlil qilsak, kasbiy kompetentlik – o‘qituvchining shaxsiy sifatlari, faoliyati maqsadi va vazifalarini belgilash, o‘z navbatida ularning qatoriga zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarni qo‘llay olish, o‘ziga xos tadqiqotchilik qirralari ham qo‘shilishi tushuniladi. Pedagoglarning kasbiy kompetentligi – uning kasbiy bilim ko‘nikmasi, shaxsiy sifatlari, zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llay olish qobiliyati va professional tayyorgarligini belgilovchi sifat ko‘rsatkichidir” – deb, ifodalash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Pedagogik kasbiy kompetentlik va unga xos sifatlar. Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishi. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning

egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi.

Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etadi.

Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi:

- murakkab jarayonlarda;
- noaniq vazifalarni bajarishda;
- bir-biriga zid ma’lumotlardan foydalanishda;
- kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo‘la olishda

Quyida kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlarning mohiyati qisqacha yoritiladi.

1. Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatish ko‘nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish.

2. Maxsus kompetentlik – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish bo‘lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko‘zga tashlanadi. Ular o‘zida quyidagi mazmunni ifodalaydi:

1) psixologik kompetentlik – pedagogik jarayonda sog‘lom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va ta’lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o‘z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;

2) metodik kompetentlik – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta’lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to‘g‘ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo‘llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo‘llash;

3) informatsion kompetentlik – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma'lumotlarni izlash, yig'ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o'rinli, samarali foydalanish;

4) kreativ kompetentlik – pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondashish, o'zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

5) innovatsion kompetentlik – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta'lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish;

6) kommunikativ kompetentlik – ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, talabalar bilan samimiy muloqotda bo'lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta'sir ko'rsata olish.

3. Shaxsiy kompetentlik – izchil ravishda kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.

4. Texnologik kompetentlik – kasbiy-pedagogik BKMni boyitadigan ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

5. Ektremal kompetentlik – favqulodda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik. Bir qator tadqiqotlarda bevosita pedagogga xos kasbiy kompetentlik va uning o'ziga xos jihatlari o'rganilgan. Ana shunday tadqiqotlar sirasiga A.K.Markova va B.Nazarovalar tomonidan olib borilgan izlanishlarni kiritish mumkin.

O'z tadqiqotlarida A.K.Markova pedagogning kasbiy kompetentligi quyidagi tarkibiy asoslardan iborat ekanligi aytiladi:

Pedagogik kompetentlikning muhim tarkibiy asoslari.

Kasbiy (shu jumladan, pedagogik) kompetentlikka ega bo'lishda o'z ustida ishlash va o'z-o'zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O'z-o'zini rivojlantirish vazifalari o'zini o'zi tahlil qilish va o'zini o'zi baholash orqali aniqlanadi.

O‘z ustida ishlash quyidagilarda ko‘rinadi:

- kasbiy BKMni takomillashtirib borish;
- faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondashish;
- kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish;
- ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish;
- salbiy odatlarni bartaraf etib borish;
- ijobiy sifatlarni o‘zlashtirish.

Pedagogning mutaxassis sifatida:

- aniq maqsad, intilish asosida pedagogik jarayonni takomillashtirish;
- pedagogik jarayon samaradorligini, o‘zining ishchanlik faolligini oshirish;
- izchil ravishda yangilanib borayotgan pedagogik bilimlarni o‘zlashtirish;
- ilg‘or texnologiya, metod hamda vositalardan xabardor bo‘lish;
- faoliyatiga fan-texnikaning so‘nggi yangiliklarini samarali tatbiq etish;
- kasbiy ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish;
- salbiy pedagogik nizolarning oldini olish, bartaraf etish choralarini izlash yo‘lida olib boradigan amaliy harakati uning o‘z ustida ishlashini ifodalaydi.

Pedagoglarning o‘z ustilarida izchil, samarali ishlashlarida faoliyatga loyihali yondasha olishlari qo‘l keladi. Ularning loyihali yondashuv asosida quyidagi modelni shakllantira olishlari maqsadga muvofiqdir. Modelda o‘z ustida ishlash bosqichlari va har bir bosqichda amalga oshiriladigan vazifalar qayd etiladi. Har bir bosqich uchun belgilangan vazifalarning samarali hal etilishi navbatdagi bosqichga o‘tish imkonini beradi.

Pedagogning kasbiy kompetentlikka ega bo‘lishida o‘zini o‘zi tahlil qila olishi ham ahamiyatli sanaladi.

O‘zini o‘zi tahlil qilish pedagog tomonidan kasbiy faoliyatda tashkil etayotgan o‘z amaliy harakatlari mohiyatining o‘rganilishidir.

O‘zini o‘zi tahlil qilish orqali pedagog o‘zini o‘zi obyektiv baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Zero, pedagoglarning kasbiy kompetentlik sifatlariga ega bo‘lishida ularning o‘z-o‘zini baholash malakalariga egaligi ham muhimdir. O‘zini o‘zi baholash (O‘O‘B) – shaxsning o‘z-o‘zini tahlil qilishi orqali o‘ziga baho berishi. O‘zini o‘zi baholash subyekt uchun shaxsiy imkoniyatlarini hisob-kitob qilish, o‘ziga obyektiv baho berish, o‘zidan qoniqishni ta’minlaydi.

O‘z-o‘zini baholash shaxsning qobiliyatini o‘z kuchi bilan yuzaga chiqishiga yordamlashishi zarur. O‘z-o‘zini baholash qiyin, lekin shaxsni bunga bevosita tayyorlash mumkin. Har qanday mutaxassisda bo‘lgani kabi pedagogning ham o‘zini o‘zi samarali baholay olishiga bir qator omillarningning ta’sir ko‘rsatadi. **O‘zini o‘zi samarali baholash omillari:**

1. O‘zini tushunish (o‘zi haqida aniq ma’lumotlarga ega bo‘lish).
2. Shaxs sifatida o‘z qadr-qimmatini anglash (o‘zi to‘g‘risidagi ijobiy ma’lumotlarni to‘plash).
3. O‘zini-o‘zi nazorat qilish (o‘zi to‘g‘risidagi shaxsiy fikrning atrofdagilar tomonidan unga berilayotgan bahoga mos kelishi).

O‘z-o‘zini baholash darajasi shaxsning o‘z-o‘zidan qoniqishi yoki qoniqmasligini belgilab beradi. Bunda o‘z-o‘zini baholash ko‘rsatkichlari shaxs imkoniyatlariga mos kelishi lozim. O‘zini o‘zi oshirib yoki pasaytirib ko‘rsatish o‘z-o‘zini baholash ko‘rsatkichlarining noto‘g‘ri bo‘lishiga olib keladi.

Ko‘plab manbalarda shaxs tomonidan o‘z-o‘zini baholash quyidagi formula asosida aniqlanishi ko‘rsatilgan:

$$\text{O‘O‘B} = \text{yutuqlar} / \text{o‘zini yuqori baholashga intilish} \\ (\text{Yoki O‘O‘B} = \text{YU} / \text{UYUBI})$$

Formulaga ko‘ra, qandaydir yutuqqa erishgach, shaxs tomonidan o‘zini o‘zi yuqori baholash (yutuqlar hissasini oshirish) yoki o‘ziga nisbatan qo‘yayotgan talablarni pasaytirish ro‘y beradi.

Bizning fikrimizcha, O‘O‘B da xolislikka erishishda quyidagi formula ham qo‘l keladi:

$$\text{O‘O‘B} = \text{YUTUQLAR O‘z-o‘zini rivojlantirish vazifalari} \\ (\text{yoki O‘O‘B} = \text{YU} / \text{O‘ORV})$$

Ushbu model asosida o‘z-o‘zini baholash nihoyatda oson kechadi. Bordi-yu, erishilgan yutuqlar soni o‘z-o‘zini rivojlantirish vazifalariga nisbatan ko‘p (1 dan katta) bo‘lsa, u holda pedagog yuqori darajada kasbiy kompetentlikni namoyon etadi. Bordi-yu, yutuqlar va belgilangan o‘zini o‘zi rivojlantirish vazifalari o‘zaro (1 ga) teng bo‘lsa, u holda u o‘zida o‘rta darajadagi kasbiy kompetentlikni ifodalaydi. Agarda, yutuqlar soni belgilangan rivojlantirish vazifalaridan kam (1 dan kichik yoki 0 ga teng) bo‘lsa, u holda pedagogning kasbiy kompetentlik darajasi past hisoblanadi va bu holat pedagogdan o‘z kasbiy kompetentligini rivojlantirishga jiddiy e‘tibor berishini talab qiladi.

Formulada “o‘zini o‘zi rivojlantirish vazifalari” jumlasini qo‘llanilgan ekan, eng avvalo, o‘zini o‘zi rivojlantirish nima ekanligini tushunish olish lozim.

O‘z-o‘zini rivojlantirish – shaxsning o‘zida kasbiy tajriba, malaka va vazifalar asosida mustaqil ravishda amaliy harakatlarni tashkil etishi mahoratni takomillashtirish yo‘lida aniq maqsad va puxta o‘ylangan bir qator tadqiqotlarda mutaxassis, shu jumladan, pedagogning o‘z-o‘zini rivojlantirishida “Individual rivojlanish dasturi” qo‘l kelishi aytiladi.

Individual rivojlanish dasturi (IRD) – har bir shaxs yoki mutaxassisning o‘zida ma’lum sifat, BKM, kasbiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish ehtiyojlari asosida ishlab chiqilgan shaxsiy -amaliy xarakterdagi dastur. Ushbu dasturda kasbiy faoliyatni

tashkil etish uchun zarur bo'lgan BKM hamda kasbiy kompetentlik sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish muddatlari belgilanadi.

Har qanday mutaxassis kabi pedagog ham o'zi uchun shaxsiy-amaliy xarakterga ega “Individual rivojlanish dasturi”ni ishlab chiqarishi, u asosida pedagogik faoliyatni yo'lga qo'yishi zarur.

Pedagogning individual rivojlanish dasturi – mutaxassis sifatida pedagogning individual ravishda o'zida u yoki bu kasbiy-pedagogik sifat, bilim, ko'nikma, malakalar, kasbiy kompetentlik sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish ehtiyojlariga tayangan holda ishlab chiqqan shaxsiy-amaliy xarakterdagi dasturi.

Pedagog tomonidan ishlab chiqiladigan “Individual rivojlanish dasturi” quyidagi tarkibiy elementlardan tarkib topadi:

- 1) pedagogik bilimlar; psixologik bilimlar;
- 2) mutaxassislik bilimlari;
- 3) didaktik malakalar;
- 4) tarbiyaviy ishlarni tashkil etish malakalari;
- 5) ruhiyatning kasbiy ahamiyatga ega xususiyatlari va shaxsiy sifatlar;
- 6) o'z-o'zini rivojlantirish maqsadlari;
- 7) o'z-o'zini rivojlantirish uchun topshiriqlar

Shunday qilib, bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida yuzaga keladigan kuchli raqobatga bardoshli bo'lish ehtiyoji har bir mutaxassisni o'zida kasbiy kompetentlik va unga xos sifatlarni tarkib toptirishga undaydi. Lug'aviy jihatdan “qobiliyat”, mazmunan esa “faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish” ma'nosini anglatuvchi kompetentlik negizida muayyan sifatlar namoyon bo'ladi. Xususan, pedagogga xos kasbiy kompetentlik negizida ijtimoiy, maxsus (psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion hamda kommunikativ), shaxsiy, texnologik va ekstremal kompetentlik kabi sifatlar aks etadi. Bir qator, xususan, A.K.Markova hamda B.Nazarovalarning tadqiqotlarida pedagogik kompetentlikning tarkibiy asoslari qayd etib o'tilgan. Pedagogning kasbiy

kompetensiyasi pedagogik (o'quv va tarbiya) jarayonni samarali, muvaffaqiyatli tashkil etilishini ta'minlaydi. Kasbiy kompetensiyaga ega bo'lish uchun pedagog o'z-o'zini izchil rivojlantirib borishga e'tiborni qaratishi zarur. O'z-o'zini rivojlantirishda pedagogga "Individual rivojlanish dasturi" qo'l keladi. Zero, ushbu dasturda pedagogda mavjud bo'lgan kompetentlik sifatlari va rivojlantirish zarur bo'lgan sifat, BKMni aniq, xolis ifodalash mumkin.

Kreativlik pedagogik ijodkorlikning asosi sifatida.

- Kreativlik – bu madaniyat vositasi asosida shaxs sifatida shakllanish jarayonida namoyon bo'ladigan shaxsning shaxsiy sifati (fazilati)dir.

- Kreativlik – bu insonning shaxsiy xususiyati bo'lib, uning o'z-o'zini takomillashtirib va rivojlantirib borishi bilan bog'liq.

- Psixolog olimlar tomonidan kreativlikning quyidagi ikkita komponenti aniqlangan.

Bular: Shaxsiy mazmun. Ya'ni har bir insonning shaxsiy hayotining umum mazmuni. Bu mazmun madaniyatshunoslik bilan bog'liq. Har bir inson biron bir soha yoki faoliyat bilan shug'ullanar ekan, u kreativlik, ya'ni yaratuvchanlik munosabatda bo'ladi va uni iloji boricha chiroyli, insonlarni o'ziga tortishga yo'naltiriladi. Bu esa o'z navbatida insoniyatning madaniyatga yo'naltirilganligidir.

Signifikatsion ko'nikmalar.

Kreativlikni tashxis qilish psixosemiotik tahlil bilan bog'liq kreativlikning darajasini aniqlash quyidagilar bilan belgilanadi:

shaxsiy ma'noning rivojlanish darajasi;

verballi belgilar sistemasini yaratish.

Ta'lim olish kengligi ikkinchi semiotik tizimni tashkil etadi. Uning kreativlikni rivojlantirishga ta'siri gomomorfizik madaniyat bilan bog'liq.

Psixologiya fanida kreativlik bilan bog'liq bo'lgan quyidagi jihatlarni aniqlashga doir qator metodlar tavsiya etilgan. Lekin bu metodlar bevosita kreativlikni emas, balki kreativlikni belgilab

beruvchi muayyan jihatlarni aniqlashga qaratilgandir. Bular: Psixosemiotik analiz metodlar: mualliflik matnlarni analiz qilishning psixosemiotik tashxislash metodi, E.Torrens metodi, D.A.Leont'ev metodi, G.Myurreyning «Tematik appertseptiv matn» metodi, ekspertlarning baholari metodi.

Ijtimoiy intellekt (aqlni) aniqlashga doir metodlar: Dj. Gilford va M. Salliven metodi, T.Lirining insonlararo muloqotlarni aniqlash metodikasi, xarakterning aktsentuatsiyaini aniqlash metodlari.

Matnlarni psixosemiotik tahlil qilish metodlari; «ko‘lam» va «leksik boylik», kompyuter dasturlari: Microsoft Access ma'lumotlar bazasi va h.k.

- Kreativlik shaxsiy mazmun va unga doir belgilarning obyektivligi bilan belgilanadi.

- Kreativlikning rivojlanishi uning komponentlerining rivojlanishiga bog‘liq. Bular: shaxsiy mazmun va signifikatsion ko‘nikmalar.

- Kreativlikni tashxis qilish - ijodiy faoliyatning mahsulotining ko‘rsatkichlari bilan bog‘liq.

Ta'lim olish kengligi. Ta'lim olish kengligining bazasi sifatida madaniyat hisoblanadi. Uni esa shaxs modellashtiradi. Bazali madaniyatni ta'lim olish kengligining kreativlikning rivojlanish samaradorligi belgilaydi. Ta'lim olish kengligida kreativlikni rivojlantirishning asosiy pragmatik tavsifi sifatida dialog xizmat qiladi. Kreativlikning shaxs ma'naviy-axloqiy sifatleri bilan bog‘liq jihatlari tahlil etilgan. Kreativlik mazmunining muammolarini yechib berishga qaratilgan kontseptual psixosemiotik yo‘nalish ochib berilgan. Shaxsning kreativligini psixolog olimlar o‘quvchilarning insho yozishlari jarayonida tahlil etishga harakat qilishgan. Bunday quyidagi ishlar amalga oshirilgan. Psixologiya fanida kreativlik aktning tuzilishi ishlab chiqilgan va bunda kreativlikni tashkil etuvchi elementlar: transtsendentsiya va signifikatsiya sifatida tahlil etilgan. Trans tushunchasi ikkita ma'noda qo‘llaniladi:

1) Tibbiy tushuncha yo‘li, ongning mavhumlanishi, ongsizlik, o‘zini yo‘qotish.

2) Oraliq. Biron bir predmet yoki hodisalarning oralig‘idagi bog‘lanish. Shunday ekan, kreativlik akt quyidagilar bilan tavsiflanishi belgilangan: - erkinlik va cheklanganlikning protsessual ambivalentligi; - madaniy jihatdan cheksizlik va cheklanganlikning transtsendentligi; - real obyektivlik; - belgilar sistemasining kontinuallik ma‘nosi va diskretivligi.

KREATIVLIK

1. Nutq obyektivligi jarayonida subyektiv sistematsiyalanadi.

2. Kreativlik badiiy va oddiy nutq bilan tavsiflanadi.

3. Monologik va yozma nutq muallifning subyektivligini bildiradi, maktab inshosi – psixodagnostik tahlilning obyekti hisoblanadi. Uning yordamida shaxsning shaxsiy sifatlarini aniqlash mumkin.

4. Nutqdagi kreativlik erkinlik asosida amalga oshirilib, uning erkinligi til va nutq qonuniyatlariga amal qilgan bo‘lsada cheksizdir.

5. Matnni tuzishda ongli va ongsiz jarayonlar amalga oshiriladi; Ongli – ya‘ni bunda matnning semantik o‘ziga xosligi, ikkinchi holatda esa – sintaksislik (shaklni).

6. Matnda shaxs bir butun holatda namoyon bo‘ladi; matnning barcha elementlari va uning arxitektonikasi muallifning shaxsiy o‘ziga xosligida reprezentatsiyalanadi .

7. Sistemani tashil etuvchi shaxsning sifatlari shaxsiy ma’noga ega bo‘ladi.

8. Kreativlik til vositasida shaxsiy ma’no va mazmunni amalga oshirishni ifoda etish jarayonida ko‘rinadi Yuqoridagi ilmiy adabiyotlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, kreativlik tushunchasiga nisbatan bir-biriga zid bo‘lgan quyidagi turli xil qarashlar mavjud. Bular:

1. Kreativlik – bu insonning butun hayoti davomidagi sifatlari majmuidir.

2.Kreativlik – bu insonning o‘ziga topshirilgan muayyan topshiriq va vazifalarni bajarish usulidir.

3.Kreativlik – bu intellekt (aql) ning mahsulidir.

4.Kreativlik – bu insonga xudo tomonidan berilgan qobiliyat, kashfyotlardir.

5.Kreativlik – bu ijodiy faoliyatdir.

6.Kreativlik – bu ijodkor insonlarning ma’naviy-axloqiy va ijtimoiy adaptatsiyalanishidir.

7.Kreativlik – bu madaniyat bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan kategoriyadir. Shu bilan bir qatorda psixologiyada ijod va ijodiy faoliyat muammosini o‘rganuvchi alohida yo‘nalish – ijodkorlik psixologiyasi yo‘nalishi vujudga kelgan. Ijodkorlik psixologiyasining asosiy maqsadi psixologik qonuniyatlar, ijod jarayoni mexanizmi va kreativ (creativity – inglizcha ijodiy)likni o‘rganishdan iborat. Bugungi kunga kelib kreativlik nafaqat psixologlarning, balki pedagoglarning diqqat e’tiborini tortmoqda. Bu tushuncha ilmiy adabiyotlarda keng qo‘llanilmayotgan bo‘lsa ham bu tushunchani ma’lum darajada pedagogik iste’molga kiritishga doir harakatlar ko‘zga tashlanmoqda. Pedagogika oid manbalarda kreativlik ijod bilan bog‘liq holda o‘rganiladi va tushuniladi. Ijodkorlikning psixologik jihatlari haqida fikrlar bildirilib, bilim asosan fikr yuritish va tasavvur qilish bilan bog‘liq holda tahlil etiladi. Pedagogika fanida kreativlik masalasiga bevosita murojaat etgan pedagog olim pedagogika fanlari doktori, professor R.A.Mavlonova o‘zining ilmiy ishlarida kreativlik haqida baholi qudrat fikrlar bildirgan. Uning “Boshlang‘ich ta’limda innovatsiya”, “Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, integratsiyasi, innovatsiyasi” nomli o‘quv qo‘llanma va darsliklarida kreativlikka alohida to‘xtab o‘tgan.

Pedagogik kreativlik (ijodkorlik) - pedagogning an’anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta’lim va tarbiya jarayonini samaradorligi ta’minlashga xizmat qiluvchi yangi g‘oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo‘lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati hisoblanadi.

Pedagogik kreativlik “Pedagogik ijodkorlik” quyidagi ikki holatni kafolatlay olishi zarur:

“Pedagogik ijodkorlik”

1) pedagoglar tomonidan o‘quv fanlarini past o‘zlashtirayotgan va ularini o‘rganishni zerikarli deb hisoblayotgan o‘quvchilar e’tiborlarini fan asoslarini o‘zlashtirishga jalb etish;

2) pedagoglarga o‘quvchilarda kreativ fikrlash va ijodiy faoliyat natijalarini rag‘batlantirishga xizmat qiladigan strategiya va vositalarni tavsiya etish qilish orqali auditoriyada ulardan samarali foydalanishlari uchun imkoniyat yaratish.

Kasbiy faoliyatda pedagogning kreativligi turli shakllarda namoyon bo‘ladi:

Kasbiy faoliyatda pedagogning kreativligi

-ijodkorlik – muayyan yangilikning ahamiyati va foydali ekanligini belgilovchi shaxs faoliyati va uning natijasi;

-ijodkor shaxs – ijodiy jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshiradigan hamda aniq -ijodiy natija (mahsulot)larga ega shaxs ;

Kreativ shaxs – jarayon yoki natija sifatida ijodkorlikni namoyon etuvchi, masalalarni yechishga nostandart usullar bilan yondasha olishga moyil, o‘ziga xos harakatlarni tashkil etish, yangiliklarni ilgari surishga, ijodiy mahsulotlarni yaratishga layoqatli va tayyor shaxs;

Bunyodkor shaxs – ham jarayon, ham natija sifatida obyektiv ijodkorlikni amalga oshiradigan va talablar darajasida ijodiy mahsulotlarini yarata oladigan shaxs;

Kreativ shaxsni tayyorlash – ijodkorlikka o‘rgatish va o‘zini o‘zi ijodiy namoyon etish jarayonida shaxsda barqaror kreativ sifatlarni shakllantirish va rivojlantirish mazmuni;

Ijod – ijtimoiy subyektning yangiligi, ahamiyati va foydaliligi jamiyat yoki muayyan guruh tomonidan tan olingan faoliyati yoki faoliyati natijasi.

Mashg‘ulotlarda o‘qituvchi “kreativlik yo‘l xaritasi”ga ko‘ra quyidagi to‘rtta yo‘nalish bo‘yicha harakatlanadi va ulardagi harakatlar pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar sanaladi:

“Kreativlik yo‘l xaritasi”

- 1) ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini namoyon etish;
- 2) o‘quvchilarni o‘quv fanlarini qiziqish bilan o‘zlashtirishga rag‘batlantiruvchi strategiya (metod va vositalar)dan foydalana olish;
- 3) innovatsion yondashuv va pedagogik masala (muammo)larning yechimini topishga kreativ yondashish;
- 4) kutiladigan natijasi.

Odatda pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo‘lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o‘zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta’minlanadi.

5-§. O‘QITUVCHI FAOLIYATIDA MULOQOT MADANIYATI VA PSIXOLOGIYASI

O‘qituvchi kasbiy faoliyatida muloqot madaniyatining shakllanishi.

Pedagogika o‘z usullarini yo‘q joydan yaratmaydi. U hayotdan kishilar xulq-atvorining real omillarini, bolalar hayotini pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tarzda tashkil etish vazifalariga javob beradiganlarni tanlab oladi, ulardan tarbiyaviy ishda muloqot orqali ta’sir ko‘rsatish usullari sifatida foydalaniladi. Muloqot orqali ta’sir etish bolalarning ijtimoiy foydali faoliyatining pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tarzda tashkil etishga xizmat qiladigan vositalar tizimidan iborat. Bu vazifalar tarbiyalanuvchi shaxsiga qaratilgan bo‘lib, bolalarning xulq-atvorini rag‘batlantiradi, qiyin va murakkab vazifalarni quvonch, ijodiy zavq-shavq manbaiga, har bir o‘quvchining shaxsiy muddaosiga aylantiradi.

Muloqot - pedagogik faoliyatning muhim kasbiy quroli bo‘lib, olimlar A.A.Kobolev, H.B.Kuzanina, U.A.Kan-Kalik, A.A.Monteev, A.N. Mudrik, A.U.Shcherbakovlar muomalaning o‘qituvchi faoliyatidagi muhim rol o‘ynashini isbotlashgan.

Pedagogik muloqot - bu o‘qituvchining o‘quvchi(lar) bilan dars va darsdan tashqari paytdagi qulay psixologik holat yaratish maqsadida olib boradigan kasbiy mahorati.

Pedagogik muomala ijtimoiy-psixologik jarayon sifatida quyidagi funksiyalarga ega: shaxsni anglash, axborot almashuv, faoliyatni tashkil etish, rol almashtirish, hamdardlik, o‘z qadrini bilish, ishtirokchilarni almashtirish, kechinmalar hosil qilish, o‘zida ishonchni shakllantirish va h.k.

Axborotlarning almashinish funksiyasi materiallarning va ma’naviy sifatlarini almashtirish ta’lim-tarbiyaviy jarayonni rivojlantirish, ichki ijobiy o‘zgarishlarni hosil qilish hamkorlikda bilishga oid qidiruv hamda ongli fikrlashga zarur sharoit yaratadi.

Pedagogik muomala tuzilishi:

1)pedagog tomonidan guruh bilan bo‘ladigan muomalani

modellashtirishni “Prognostik bosqichi”.

2)dastlabki o‘zaro faoliyatga kirishuvidanoq bevosita muomalaga kirishuv (kommunikativlik hukm).

3)pedagogik jarayonda muomalani boshqaruv.

4)kelajakdagi faoliyatni inobatga olgan holda qo‘llanilgan muomala sistemasi va modellashtirishni tashkil qilish.

Noto‘g‘ri pedagogik muomala o‘quvchilar qo‘rquvini, ishonchsizligini, diqqati, xotirasini bo‘shashtiradi, bilish qobiliyatini pasaytiradi, mustaqil fikrlashni susaytiradi va salbiy xulq-atvorni shakllantiradi. Natijada o‘quvchida o‘qituvchi va predmetga nisbatan salbiy munosabat shakllanadi. Pedagogik faoliyatda o‘qituvchi va o‘quvchilar hamkorligi uning samaradorligini ta‘minlaydi. A.S.Makarenko o‘qituvchi va o‘quvchi(lar)ning munosabatlarida asosiy narsa talabchanlik va hurmat bo‘lishi kerakligini alohida ta‘kidlagan. Suxomlinskiy quyidagi mahoratli o‘qituvchi “maktab partalaridan aytilgan har bir so‘z, o‘yinlardan donishmand dono, maqsadga yo‘naltirilgan, to‘la ma‘noli bo‘lmog‘i kerak”.

Pedagogik muloqotda muomala madaniyati. Muloqotni 2 qismga bo‘lish mumkin: ya‘ni muomala va hamkorlikdagi harakatdan tashkil topadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilar doimo o‘quvchilar bilan emotsional - turg‘un munosabatlarda bo‘lganlari o‘qishda, xulq-atvorida nuqsonlarni osoyishtalik bilan teng va ishonch asosida hal etadi.

O‘quvchilar bilan qo‘pol muomalada bo‘lgan o‘qituvchilar esa o‘quvchilar ishonchini yo‘qotadi. Tilyog‘lamalik, o‘zini ko‘rsatish, auditoriyada masxaraomuz qiliqlarni shakllantirishga sharoit yaratadi. Bular o‘quv-tarbiyaviy jarayonga ta‘sir ko‘rsatadi. Tadqiqotchilar o‘qituvchining guruh jamoasi bilan munosabatlarida 3 ta uslub mavjudligini ta‘kidlaydi:

1. Barqaror-ijobiy(turg‘un);
2. Faolsiz-ijobiy;
- 3.beqaror(turg‘un bo‘lmagan) uslub.

O‘qituvchilarning o‘quvchilar bilan bo‘ladigan usullarini

A.A.Leontev xulosalab, o'qituvchining o'quvchilar bilan beqaror, o'ta salbiy uslubda munosabatda bo'lganligi o'zlariga salbiy munosabatni yuzaga keltirishini ta'kidlaydi. Bunday o'qituvchi ta'lim tizimiga va jamiyatga ziyon keltiradi.

Muomalada o'qituvchilarning ish usullari 3 xil bo'ladi:

- *So'zsiz bo'ysunishga asoslangan uslub;*
- *Demokratik uslub;*
- *Ko'ngilchanlik uslubi.*

V.A.Kan-Kalik aloqa uslublarini tubandagilarga ajratib ko'rsatadi:

- *hamkorlikdagi ijodiy faoliyat asosidagi uslubi;*
- *o'zlikni hush ko'rish asosida aloqa uslub;*
- *masofa asosida aloqa o'rnatish uslubi;*
- *do'qlash, qo'rqitish asosida aloqa o'rnatish usuli;*
- *hazil yoki o'yin asosida aloqa o'rnatish usuli.*

Sh.A.Amanashvili do'stlik asosida aloqa usuli haqida shunday g'oyani ifodalaydi ("Agar bola bizdan uzoqlashsa, qanday qilib uni tarbiyalaymiz?"). "Faqat ma'naviy birlashmaslik - bundan boshqa hech narsa bu birlikni buzishi mumkin emas". "Baqirish - insoniy munosabatlar madaniyati yo'qligini yaqqol ko'rinib turgan belgisidir. O'qituvchining baqirishi bolani dovdiratib garang qilib qo'yadi" - degan edi Suxomlinskiy.

O'zaro hamkorlikda pedagogik ta'sir ko'rsatishning usullaridan biri ishontirishdir. *Ishontirish* - shaxsning bilimlar tizimiga, dunyoqarashiga, xulq-atvoriga, xatti-harakatiga ta'sir eta olish va uni qisman o'zgartirish tushuniladi. Ishontirish haqiqiy va soxta turlarga bo'linadi. Haqiqiy ishonch, e'tiqod shaxsning hayot tarziga, uning ruhiy qiyofasiga, iroda va vijdoniga ta'sir etgani uchun ham inson o'z ishonchini, e'tiqodini himoya qilib, ba'zan o'limga ham tayyor bo'ladi. Masalan: tarixdan bilamizki, xalq qahramoni oddiy cho'pon Shiroq, o'z elini bosqinchilardan saqlab qolish uchun jonini fido qilgan.

Soxta ishonch esa o'zi yashayotgan muhitdan atrofdagi kishilarning ta'sirida to'plangan salbiy xulq-atvor, tajribalar natijasida

shakllanadi. Soxta ishonch va e'tiqod o'quvchining atrofidagi shaxslarning noto'g'ri, nopok hayoti natijasida quyidagi shakllardagi soxta ishonch paydo bo'ladi: halol mehnat bilan yashash, ma'lumki qiyin kechadi. Shu bois ma'lum toifa shaxslar turli xil nopok yo'llar bilan turmush kechirishga harakat qiladilar.

Ishonch va ishontirish 3 ta tarkibiy qismdan iborat bo'lib, bular o'quvchining bilimlari, his-tuyg'usi va xulq-atvorida namoyon bo'ladi:

1. Bilimlar. O'quvchining ota-onasidan, tarbiyachi va pedagoglar, badiiy adabiyotlar va boshqa manbalardan odob-axloq, xatti-harakat, xulq-atvor haqida bilimlar to'plamidan iborat.

O'quvchilarga Sharq mutafakkirlari Abu Ali ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Alisher Navoiy haqida, xalqimizning ozodligi uchun kurashgan qahramonlarimizning ijobiy xislatlari haqida hikoya o'qib berishning ta'siri katta.

Ishonch, e'tiqod, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, do'stlik, burch, vijdon va boshqa axloqiy tushunchalar haqidagi bilimlarni ma'naviyat va ma'rifat darslarida o'quvchilarga singdiriladi.

2. His-tuyg'u. Ishonch, ishontirish, e'tiqod haqida bilimlar ishonarli, hayotiy misollar yordamida berilishi bilan birga bu bilimlar o'qituvchi tomonidan his-hayajonli tarzda berilganda o'quvchilarga yaxshi ta'sir etadi.

3. Xulq-atvor. Ishonch va e'tiqod haqidagi bilimlarni hayotda qo'llash uchun, shu bilimlarni amalda - hayot(ota-onasi, o'qituvchilari va boshqalar)da ko'rgan bo'lishi kerak. Shunday sharoitda, nazariy bilimlar, o'quvchining malaka va ko'nikmasiga, shaxsiy sifatlariga aylanadi.

Haqiqiy ishonch va e'tiqodni shakllantirish yo'llari quyidagilar:

1. O'quvchilar o'zlarini boshqa kishilar bilan taqqoslashga o'rgatiladi. O'quvchilarni mahalla, tumandagi hurmatli, obro'li kishilar bilan uchrashtirish.

2. Salbiy, soxta ishonch, xulq-atvor, e'tiqod kelajakda qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligini ko'rsatish.

3. O'quvchining soxta ishonchini mantiqiy fikrlash bilan ma'lum

darajagacha davom ettirish. Masalan: agar, bordi-yu hech kim ishlamasa nima bo'ladi? Hech kim o'qimasa nima bo'ladi? deb savol beriladi va o'quvchidan bu savolga javob berish talab qilinadi.

4. O'quvchining fikrini, e'tiroz va savollarini oxirigacha, diqqat bilan eshitish(uni darhol rad etmaslik), faqat ishonchli dalillar bilan uning fikrini o'zlashtirishga harakat qilish.

5. O'quvchiga ishonch bildirish. Unga yordam ko'rsatish uchun tayyor ekanligini, xayrixoh ekanligini ko'rsatish.

6. O'qituvchi(tarbiyachi) o'zining jiddiyligi, mardligi, ma'naviy yuksakligi bilan o'quvchilarga o'rnak bo'lishi.

O'quvchilarni ishontirish va ularning e'tiqodini mustahkamlash uchun quyidagi shartlarga amal qilish talab qilinadi:

1. O'quvchilarni ishontirish va ularga ta'sir etishda qo'llanilayotgan uslub (hikoya, suhbat va boshqalar) mazmunan va shaklan o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo'lishi lozim.

2. O'quvchilar bilan alohida yoki kichik guruhchalarga bo'lib suhbatlashganda o'quvchilarning individual xususiyatlari, hayotga munosabatlarini o'qituvchi bilishi zarur.

3. Suhbat yoki hikoya jarayonida keltirilgan misollarni iloji boricha, real hayotdan olib ko'rsatish.

4. O'qituvchining o'zi o'quvchilarga berayotgan bilim, tushuncha va g'oyalariga ishonish muhimdir. O'zi ishonmagan narsaga boshqani ishontirish qiyindir.

O'quvchilar bilan tarbiyaviy soatlarda, ularni nimagadir ishontirishi, qandaydir mavzuda munozara o'tkazish uchun o'quvchilarning aynan hozirgi vaqtdagi kayfiyatini, asab va ruhiy holatini yetarli darajada bilishi kerak. Agar bolalar betoqat, hayajonlangan, qo'zg'algan bo'lsa, ularni yanada ko'proq hayajonlantiradigan mavzuni gapirmagan ma'qulroq. Shuningdek, o'quvchilarni nimagadir ishontirish uchun o'qituvchining so'zi bilan xatti-harakatlari to'g'ri kelishi kerak. O'qituvchi o'quvchilarni odob-axloqqa, tartib-intizomga chaqirsa-yu, o'zi amal qilmasa, bunday tarbiyadan samara kam bo'ladi. O'quvchilarda ishonch, e'tiqodni

quruq gap bilan shakllantirish qiyin. Sinfda har xil suhbatlar, uchrashuvlar, sayohatlar tashkil etish yaxshi samara beradi. Shuni unutmash kerakki, harakat bilan, aniq ish bilan mustahkamlanmagan tushuncha va bilimlar oddiy soʻzligicha qoladi. Mehnatsevarlik mehnat bilan mustahkamlanadi. Insoniy xislatlar: mehmondoʻstlik, kamtarlik, jasurlik, botirlik, sadoqat, burch bularning barchasi ijobiy namuna bilan, shu his-tuygʻuni boshidan kechirish bilan shakllanadi.

Pedagogik jarayonda oʻquvchilarga psixologik taʼsir etish muammosi bilan psixologlar, tibbiyot xodimlari va boshqa mutaxassislar faol shugʻullanmoqdalar, chunki taʼlim va tarbiya jarayonining oʻzi oʻqituvchining oʻquvchi ruhiyatiga, ongiga, dunyoqarashiga doimiy taʼsiri deb qarasa boʻladi. Keyingi yillarda zamonaviy psixologiyaning psixoanaliz, gumanistik psixologiya, neyrolingvistik dasturlash, bixeviorizm va kognitiv psixologiya kabi yoʻnalishlari paydo boʻldi va bu oqimlarning baʼzi bir metodlari taʼlim muassasalariga kirib kelmoqda.

Taʼlim muassasalarida “psixologik xizmat”ning paydo boʻlishi, oʻquvchilarning psixologik bilimlarining oshishi natijasida oʻqituvchi-oʻquvchi orasidagi oʻzaro psixologik taʼsirda ijobiy oʻzgarishlar yuz bermoqda.

Taʼlim jarayonida oʻqituvchi va oʻquvchi orasidagi oʻzaro munosabatlarning qanchalik katta ahamiyatga egaligini AQSh psixolog olimlari tomonidan oʻtkazilgan bir tajriba misolida koʻrsak boʻladi. Maktabda oʻquvchilarning intellekt darajalari testlar yordamida aniqlanib, uning natijalari haqida oʻquvchilarga maʼlumot berilar ekan. Psixologlar har bir sinfdan bir nechta oʻrtacha yoki past oʻzlashtiruvchi oʻquvchilarning familiyasini “yashirincha” tarzda bildirib, oʻqituvchilarga: “Bu oʻquvchilar yomonroq oʻqiyapti, ammo aslida ular fidoyi oʻquvchilar” - deb tushuntiriladi. Psixologlar bir yildan soʻng shu sinflarga kelib test oʻtkazganlarida, oʻquvchilarga “iqtidorli” deb bildirilgan oʻquvchilar sinfdoshlaridan hamma sohada ilgʻorlab ketganliklari aniqlangan.

Xoʻsh, bu psixologik “hodisa”ning sababi nimada? Birinchidan,

o'quvchilar olimlarning fikriga asoslanib, bu o'quvchilarga nisbatan o'z munosabatlarini ijobiy tomonga o'zgartirganlar. Ikkinchidan, o'quvchilar o'zlariga nisbatan o'qituvchining munosabati yaxshi tomonga o'zgarayotganligini ko'rib, o'z ustlarida jiddiy ishlaganlar va bu darajaga erishganlar.

O'quvchilarga dars va darsdan tashqari jarayonda ta'sir etishning juda ko'p turlari mavjud. Bular quyidagicha farqlanadi:

1. Ta'sir obyekti va subyektiga qarab:
 - a) bir kishiga yoki ko'pchilikka ta'sir etish;
 - b) shaxsning o'z-o'ziga ta'sir etish.
2. Shaxsning faoliyatiga qarab:
 - a) shaxs uyg'oq vaqtida unga psixologik ta'sir etish;
 - b) tabiiy uyqu vaqtida psixologik ta'sir etish;
 - c) gipnoz uyqusi jarayonida psixologik ta'sir etish.

Zamonaviy didaktika psixologik ta'sirning ba'zi bir turlaridan faol foydalaniladi. Masalan, gipnoz uyqusi davrida o'quvchilarga chet tilini o'rgatish yoki o'quvchilarda kam bo'lsa ham uchraydigan duduqlanish nuqsonini gipnopediya usullari bilan davolash mumkin.

3. Psixologik ta'sirning oldindan rejalashtirilgan yoki rejalashtirilmagan turlari.

- a) oldindan rejalashtirilgan holda o'quvchiga psixologik ta'sir dars yoki darsdan tashqari jarayonda yakka yoki guruh holda o'tkaziladi. Buni suhbat, hikoya va boshqa an'anaviy metodlar bilan birgalikda, psixotrening, autotrening kabi metodlar bilan ham o'tkazish mumkin.
- b) oldindan ko'zda tutilmagan rejalashtirilmagan holda o'quvchilarga psixologik ta'sir ko'rsatish.

Bunday ta'sir etish metodlari odatda, tasodifan yuzaga kelgan vaziyatlarda, nizoli holatlarda qo'llaniladi. O'qituvchi shunday vaziyatlardan chiqib ketish uchun oldindan bir nechta psixologik usullarni yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi shart. Zarur vaziyatda ushbu usullarni qo'llaydi. Masalan, nizoli vaziyatdan hazil bilan chiqib ketish, nizolashayotganlarga alohida-alohida "muhim" topshiriqlar berish.

4. Psixologik-pedagogik ta'sir mazmuniga qarab: ochiq va yopiq tarzda bo'ladi.

a) Ochiq. Bunday shakldagi ta'sir o'quvchining ma'lum xatti-harakatini yoki xulq-atvorini korrektsiyalashga, to'g'rilashga yo'naltirilgan bo'lib, o'qituvchi o'z fikrini ochiq bayon qiladi. Masalan, "Men bilaman, sen irodasi kuchli yigitsan, ishonamanki, bundan keyin bunday ishni qilmaysan".

b) Yopiq. Psixologik ta'sirda asosiy maqsad pardalangan holda, yoki "Qizim senga aytaman, kelinim sen eshit" tarzida beriladi. Masalan, bir tajribali o'qituvchi hikoya qiladi: "o'quvchi K. ismli qizning keyingi vaqtlarda o'g'il bolalar bilan juda yaqinlashib, hatto sigareta chekayotganligi ma'lum bo'lib qoldi. Qiz juda ham tez xafa bo'ladigan, kek saqlovchi bo'lgani uchun qizlarning hammasi bilan birgalikda, "sigaretning qiz-ayollar organizmiga zarari", "erta jinsiy uyg'onish va uning salbiy oqibatlari" - degan mavzuda suhbatlar tashkil etdik va gap orasida qizning nomini tilga olmasdan unga psixologik ta'sir etdik. Natijasi, kutganimizdan ham yaxshi bo'lib chiqdi.

O'quvchilarga psixologik ta'sir etish qadimdan ma'lum bo'lib, bu metodlardan; oilada, mahallada, qadimda tarbiyaviy o'gitlardan madrasalarda unumli foydalanganlar. Sinfda va sinfdan tashqarida psixologik va pedagogik ta'sirning samarador kechishi uchun quyidagi shart-sharoitlar mavjud bo'lishi kerak:

1. Berilayotgan axborot (material-matn)ning ta'sirchanligi.
2. Sinf (guruh)dagi psixologik vaziyatning turg'unligi.
3. O'qituvchining o'z kuchi (hissiy ta'siri)ga ishonishi.
4. O'quvchilarning o'qituvchiga hissiy munosabati (o'qituvchining o'quvchilar o'rtasidagi hurmati).
5. Psixologik ta'sir jarayonida o'quvchilarning yosh va shaxsiy xususiyatlarini e'tiborga olish.
6. O'qituvchining o'quvchilarga ta'sir etish texnikasining qanchalik egallanganligi.
7. O'quvchilarga yetarli darajada hissiy ta'sir etish uchun zarur

(moslashtirilgan) joy, vaqt va boshqa sharoit, omillarning mavjudligi (shovqin va begona kishilarning yo‘qligi, xonada o‘quvchilar soni 10-15 tadan oshmasligi va boshqalar).

Shaxsning kamol topishida o‘z-o‘ziga ta’sir etishning ahamiyati juda katta. O‘smir va yoshlar ko‘pincha o‘zlaridagi yomon odatlarni (chekish va boshqalar), o‘z salbiy shaxsiy xususiyatlarini bilgan holda uni tuzatish yo‘llarini bilmasdan qiynaladilar yoki irodasi sustlik qiladi. O‘qituvchi o‘quvchilar orasida o‘z-o‘ziga ta’sir etishning yaxshi tomonlarini mashhur kishilar hayoti misolida targ‘ibot qilishi zarur. Jismonan va ruhan kuchsiz, nogiron shaxslarning turli mashqlar yordamida sport, ilm-fan, ijod va boshqa sohalarda buyuk muvaffaqiyatlarga erishganliklarini hikoya qilib berish o‘quvchilarga ijobiy ta’sir etadi. O‘quvchilar o‘zlaridagi qo‘rqoqlik, o‘ta uyatchanlik, ishyoqmaslik, o‘ziga ishonchsizlik kabi yomon shaxsiy xususiyatlarini yo‘qotishga intiladilar. O‘qituvchi va psixologlarning vazifasi ularga yaqindan yordam berishdir.

Ko‘pincha, o‘z-o‘ziga ta’sir etish bilan yaxshi o‘qiydigan, tartib-intizomli, odob-axloqli, lekin shaxsidagi ba’zi bir yomon odat va kamchiliklarni tuzatishga intilgan yoshlar jalb qilinadi. Aslida, bunday ishga sinfdagi “tarbiyasi og‘ir”, o‘zlashtirishi yomon o‘quvchilarni ko‘proq jalb etish va ularni o‘z-o‘ziga ijobiy ta’sir etishga qiziqtirish va o‘rgatish zarur.

Buning uchun o‘qituvchining o‘z-o‘ziga ta’sir etish metodlari - “Autogen trenirovka” - (auto - “o‘ziga” degan ma’noni bildiradi) - o‘z-o‘ziga ta’sir etish mashqlarining qadimiy ildizlar, qadimiy hind jo‘gilari (yodlari) tomonidan yaratilgan o‘z-o‘zini jismonan va ruhan kamol topshirish uchun yaratgan metodlarning AQSh va Yevropada zamonamiz kishilariga moslashtirilgan shaklidir.

O‘qituvchi o‘quvchilarga autogen mashqni o‘rgatish uchun o‘zi quyidagilarni yaxshi bilishi zarur:

1. O‘quvchilar autogen mashqni o‘tkaziladigan joyni tanlashda uning tinchligi, boshqa kishilarning yo‘qligiga e’tibor berish.
2. Stul, kreslo yoki yerda qulay o‘tirish.

3. Badanni qisib turadigan narsalar bo'lmashligi.

Bu talablar asosan autogen mashqlarni yakka tarzda o'tkazish uchun mo'ljallangan, ammo autogen mashqlarni guruh tarzida ham o'tkazish mumkin. Bunday mashqlarni o'tkazishdan maqsad o'quvchilarga autogen mashqlar bilan mustaqil shug'ullanish malaka va ko'nikmalarini shakllantirishdir.

4. O'quvchiga psixologik ta'sir etishni boshlash yoki o'z-o'ziga ta'sirning samarador kechishi uchun avvalambor jismonan va ruhan bo'shashish – ya'ni relaksatsiya holatiga - butunlay osoyishtalik holatiga tushishni o'rgatish kerak.

Relaksatsiya asosan sinfda yuz bergan murakkab pedagogik vaziyatlarda, pedagogik qarovsiz, tarbiyasi og'ir, infantil va psixopasimon xarakterli bolalar bilan ishlashga to'g'ri kelganda qo'llash yuqori samara beradi.

Chunki, bu bolalarning ko'pchiligi betoqat, tinimsiz, urushqoq, bezori bo'lib ularga tinchlanish, osoyishtalik ijobiy ta'sir etadi.

Ammo, shu narsani unutmaslik kerakki, o'quvchilar bilan psixotrening va autotrening mashqlarini o'tkazish uchun o'qituvchi shu metodlarni yaxshi egallagan bo'lishi kerak. Shu sinfda aynan shu metodlarini qo'llash mumkinligi haqida psixolog va bolalar shifokoridan rasmiy ruxsat olishi zarur, negaki, bosh miyasi jarohat olgan yoki tutqanoqli o'quvchilar bunday mashqlar o'tkazish jarayonida o'zlarini yomon sezaдилar.

Relaksatsiyaning bosh miyaga psixofiziologik ta'sir mexanizmi juda sodda bo'lib, relaksatsiya davomida o'quvchining ongiga tashqi va ichki asab tolalaridan (kanallaridan) kelayotgan ma'lumotlar keskin kamayib, faqat o'qituvchining ovozi - uning o'quvchiga psixologik ta'siri bosh miya tomonidan axboroti(yoki ma'lumot) o'quvchi tomonidan to'siqlarsiz qabul qilinadi va uning ta'sir kuchi yuqori bo'ladi.

Yuqorida aytilganlarga qo'shimcha qilib shuni ko'rsatish kerakki, bu mashqlarni o'tkazuvchi shaxs ruhan pok, jismonan sog'lom va shu mashqlarni o'tkazishga rasmiy haq-huquqli bo'lishi shart. Autotrening

mashqlarini o'smirlar va yoshlar kechqurun uyquga yotishdan oldin yoki ertalab o'rindan turishdan oldin qo'llashlari yaxshi samara beradi.

Yakka tarzda yoki guruh bilan o'quvchilarda relaksatsiya mashqlarini o'tkazib, so'ng o'z-o'ziga ta'sir etishga o'rgatish mashqlarini boshlasa bo'ladi. Buni taxminan shunday boshlash mumkin:

- ko'zingizni yuming, siz hozir xotirjamsiz va tinchsiz, siz dam olyapsiz (qo'l, oyoq, bel, bo'yin, yuz, kalla muskullari bo'shashtiriladi).

- siz erkin nafas olyapsiz. Keyin o'quvchilarga, ma'lum maqsadga yo'naltirilgan (masalan, irodani mustahkamlash, kuchli bo'lish, xotira va diqqatni rivojlantirish uchun alohida so'zlar - "formulalar" ishlab chiqiladi). Topshiriq, buyruqlar takrorlanadi. Masalan: ona tili va adabiyot darslarini o'zlashtirishga yo'naltirilgan "formulaning" namunasi: "Men ona tili va adabiyot darslarini yoqtiraman, chunki bu fanlar juda qiziqarli va menga bu fanlar kelajakda juda ham zarur bo'ladi" va hokazolar aytiladi. Juda muhim va zarur jumlar ikki martadan va undan ortiq takrorlanadi.

Psixologik va pedagogik ta'sir etish o'qituvchi tomonidan doimo o'tkazilishi o'quvchilarni tashabbussiz, sust qo'yishi mumkin. Asosiy maqsad o'quvchilarning o'z-o'zlariga psixologik ta'sir etishni o'rgatishdir. Bunga erishish esa har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalashdagi asosiy qadamdir.

Sharqona tarbiya va muosharat odobining muloqotga ta'siri. Odamlarning mehr-oqibati, bir-birlariga nisbatan o'zaro hurmat e'tiborda bo'lishlari muloqot jarayonida namoyon bo'ladi. Xalqimizda azaldan muloqot salomlashish madaniyatidan boshlanadi. Salomlashish turli xalqlarda har xil amalga oshiriladi. Xalqimizda salomlashish axloqlilikning yuksak namunasi sifatida e'tirof etilib, uning negizida umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi, shu millatning ruhiy xususiyatlari, o'zaro munosabatlarining ma'naviy asoslari, bo'lajak muloqotning xarakteri, o'zaro hamkorligi aks etadi. "Qur'oni karim"da salomlashish odobi musulmon ahlining qat'iy

majburiy burchi tarzida bayon etiladi: “Ey mo‘minlar, o‘z uylaringizdan boshqa uylarga to‘izn so‘ramaguningizcha va egalariga salom bermaguningizcha kirmangiz. Mana shu sizlar uchun yaxshiroqdir. Shoyad ushbu eslatmadan ibrat olsangizlar” (24.27), (24.61).

Ajdodlarimiz madaniy va ma‘naviy merosi, ular yaratgan so‘z, xalq tilining tuganmas boyligi yosh avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o‘rinda Abu Nasr Forobiy, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Xisrav Dehlaviy, Abu Hamid G‘azzoliy, Kaykovus, Shayx Sa‘diy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa Sharq va G‘arb donishmandlarining boy meroslarida farzandlarni tarbiyalash va kamolotga yetkazish asosiy muammo sifatida targ‘ib qilingan.

Ular so‘zni va nutqni ta‘lim-tarbiyada ilohiy ne‘mat va hikmat deb bilishgan hamda har bir so‘zning o‘z o‘rni va ahamiyati borligini, tarbiyada so‘zdan kuchliroq va qudratliroq narsa yo‘qligini, tilga e‘tibor - elga e‘tibor ekanligini, so‘z sehri mo‘jizalar yarata olishini ta‘kidlab kelganlar. Bularning barchasi mudarris va shogirdlarning samimiy muloqoti jarayonida amalga oshirilgan. Mudarrislar barkamol va tarbiyalangan insonning o‘nta nishonasi borligini alohida ta‘kidlashgan:

- birinchisi: xalq to‘g‘ri deb topgan narsaga noto‘g‘ri deb qaramaslik;
- ikkinchisi: yoshlikdan o‘z nafsiga erk bermaslik;
- uchinchisi: birovlardan aslo ayb qidirmaslik;
- to‘rtinchisi: yomonlik va omadsizlikni yaxshilikka yo‘yish;
- beshinchisi: agar gunohkor uzr so‘rasa, uzrini qabul qilish va kechirimli bo‘lish;
- oltinchisi: muhojirlar hojatini chiqarish;
- yettinchisi: doimo el g‘amini yeyish;
- sakkizinchisi: aybini tan olish;
- to‘qqizinchisi: el bilan ochiq chehrali bo‘lish;
- o‘ninchisi: odamlar bilan doimo shirin muomalada bo‘lish.

Muloqot Sharqona tarbiyada axloq ko‘rki sanalgan. Muallim har bir o‘quvchining qanday dunyoqarashga egaligi, tafakkuri, bilim saviyasi, hayotga nisbatan munosabati odamlar bilan o‘zaro muloqotida namoyon bo‘lishini uqtirishgan. Sharq mutafakkirlari merosida muloqot - azaldan insonlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqa vositasi bo‘lgan. Muloqotning asosiy quroli til hisoblangan. Shuning uchun ham til - aloqa quroli sifatida ta’riflanadi.

Insonning tili shirin, muomala madaniyatiga ega bo‘lsa, qisqa vaqt ichida xalq orasida obro‘- e’tibor topadi. Ko‘p gapirish hech qachon kishiga obro‘ keltirmaydi. Shuning uchun ham o‘tmishda yashab o‘tgan mutafakkirlarimiz tilga, aytiladigan har bir so‘zga hurmat bilan, o‘ylab yondashish lozimligini uqtirib o‘tganlar. O‘qituvchi “so‘z aytishdan avval, har daqiqada so‘z ortidan keladigan oqibatlarni o‘ylashi (*I.P.Pavlov*) kerak. Alisher Navoiy adabiy meroslarida muomala madaniyati, xushmuomalalik, tilning ahamiyati to‘g‘risida, shirinso‘zlik haqida noyob fikrlarni bayon qilgan. Bugungi kunda ham bu fikrlar o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas. «Til shirinligi - ko‘ngilga yoqimlidir, muloyimligi esa foydali. Shirin so‘z sof ko‘ngillar uchun asal kabi totlidir» - deydi Alisher Navoiy.

O‘quvchilar nutqini o‘stirishda o‘qituvchining til boyligi muhim ahamiyatga ega: bir tomondan, shirin tillilik o‘quvchini o‘qitish va tafakkurini rivojlantirishning muhim omili bo‘lib hisoblanadi. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, o‘qituvchining til boyligi nutqining obrazli, chiroyli, jarangdor, namunali bo‘lishini ta’minlaydi, natijada o‘quvchi diqqatini o‘ziga jalb etadi. Zotan, til va nutqning teranligi, o‘qituvchining mahoratini, ma’naviy boyligini, o‘qituvchilik qobiliyatining qay darajada ekanligini ifodalaydigan o‘lchov, ko‘rsatkich hisoblanadi. Amerika shoiri Rolf Emerson: “Nutq qudratli kuch: u ishontiradi, undaydi, majbur qiladi” deydi. Sharq mutafakkirlari ijodida til va nutq vositalari orqali notiq, voiz, badihago‘y, qissaxon kabi maxsus san’at ahillari va mudarrislar diniy, ta’lim-tarbiyaviy, islomiy aqidalarni ommaga singdirishgani, pand-

nasihatlar qilishgani bayon etiladi. Ushbu nutq sohiblari keng qamrovli bilimga, boy axborotga ega bo'lishgan.

Alisher Navoiy “Voiz olimning o‘zi avvalo halol ish ko‘ruvchi bo‘lishini, uning nasihatidan chiqmaslikni” asarlarida bayon etgan. Uning uchun til shirinligi va notqlik san’ati ustida ishlash, nutq madaniyatini takomillashtirib borish har bir o‘qituvchining eng asosiy ijtimoiy burchi va mas’uliyati hisoblanadi. Ta’lim-tarbiya jarayonida nutqning ta’sir kuchi nihoyatda beqiyosdir. O‘qituvchining tili nutqiy qobiliyati o‘quvchilarning o‘zlarini tuta bilishlariga, xulq-avtori va fikr yuritishlariga ulkan ta’sir etuvchi kuchli vositalardir. O‘qituvchining “til boyligi va notqlik san’ati barcha zamonlarda yonma-yon yashab kelgan” (*A.P.Chexov*). Uning his tuyg‘usi, intilishlari, iroda va e’tiqodi nutqida aks etadi. O‘qituvchi til boyligi bilan o‘quvchilarda xursandchilik, ruhlanish, muhabbat, Vatanga sadoqat, g‘azablanish, nafratlanish hissiyotlarini uyg‘otadi, bilim olishga undaydi. Shuning uchun o‘qituvchi “tilning xalq o‘tmishi, hozirgi va kelajak avlodni buyuk bir yaxlitlikka, tarixiy, jonli bir jipslikka aylantiruvchi eng hayotiy, eng boy va eng mustahkam vosita” (*K.D. Ushinskiy*) ekanligini unutmasligi kerak.

Kishilarning bir-birlari bilan o‘zaro munosabatlarida shirinsuxanlik, go‘zallik, so‘zlashuv ohangidagi muloyimlik “Muosharat odobi” deyiladi. Muosharat odobi insonning go‘dakligida ota-ona bag‘rida, oilada shakllantirilishi kerak. “Qush uyasida ko‘rganini qiladi” deyiladi xalq maqollarida. Oilada o‘rganilgan muosharat odobining poydevori mustahkam bo‘ladi. Bola maktabda, ulg‘aygach esa, ijtimoiy muhitda ko‘nikma hosil qilish jarayonida oilasida o‘rganilgan muosharat odobining kuch-qudratini doimo his qiladi.

O‘quvchilarda muosharat odobini shakllantirish uchun o‘qituvchining o‘zi avvalo xushmuomalaligini namoyish etib, o‘quvchilar qalbiga yo‘l topa olishi, mehribonligi, ular bilan hamdard, hamfikir bo‘lib, o‘rnak bo‘lishi muhim ahamiyatga ega. Sharq mutafakkirlari asarlarida muosharat odobi turli ko‘rinish va nomlarda

bayon etiladi. Jumladan, Al Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asarida asosiy g‘oya - fozil kishilar obrazi. U kim bo‘lishidan qat’iy nazar shohmi, gadomi, oddiy fuqaromi fozil kishidir. Shaharning fozil kishilari bir-birlariga nisbatan hurmat va izzatda bo‘ladilar. Ota-ona va farzand, ustoz va shogird, do‘stlar, qarindoshlar o‘rtasida sharqona nazokat, mehr va ehtirom mavjud. Forobiy asarida bundan bir necha asr ilgari ham ota-bobolarimizning ma’naviyati naqadar yuksak bo‘lganligi va bu avlodlarga o‘rnak bo‘lishi ta’kidlanadi. Onore de Balzak “Xushmuomalalik va kamtarlik kishining chinakam ma’rifatli ekanligidan dalolat beradi” deydi. Ingliz donishmandi Jon Libbok “Odamlar boodoblilik yordamida hattoki kuch bilan erishish mumkin bo‘lmagan g‘alabalarga erishishi mumkin”ligini aytadi. Demak, muosharat odobi nafaqat milliy an’analarimiz va urf-odatlarimizning ko‘zgusi bo‘lgan, balki dunyodagi barcha xalqlarning noyob insoniy fazilati sifatida e’tirof etilgan.

Insonning eng ulug‘, lekin murakkab va mashaqqatli faoliyatlaridan biri odamlar orasida, ya’ni jamiyatda o‘z o‘rnini topib yashashidir. Bu faoliyatning murakkabligi shundaki, ko‘pchilikka qo‘shilish, ular bilan ahil bo‘lib yashash uchun insonda shunga yarasha muomala va munosabat bo‘lishi kerak. Muomala va munosabatda o‘quvchilarning diliga to‘g‘ri kelmaydigan qo‘pol va dilozor munosabat olib boruvchi o‘quvchilarni hech kim yoqtirmaydi. O‘quvchilar xushfe‘l, shirinsuxan, adolatparvar, muomalasi shirin o‘qituvchi va tarbiyachilarni dildan yoqtirishadilar va hurmat-e’tibor qilishadi. Insonlar orasida munosib o‘rnini topish, inoq va hamjihat bo‘lib yashash shartlaridan biri odamning kamtarligidir. Kamtarin inson hech qachon o‘zining yutug‘i bilan, badavlatligi bilan, ilm-hunari bilan maqtanmaydi, hamma vaqt kamgap, sodda bo‘ladi. Ammo insondagi kamtarlik samimiy bo‘lmog‘i zarur.

Shirin so‘z muloqotga kirishishning asosiy qurolidir. U inson qalbini ilitadi, qo‘pol so‘z inson qalbini jarohatlaydi. O‘qituvchining “aql-zakovati, fikri, his-tuyg‘ulari, bilimi va madaniy saviyasi, tafakkuri ma’lum darajada so‘zda ifoda etiladi. Muomala madaniyatida

soʻz aqldan kuch, tildan ixtiyor oladi” (*Aziz Yunusov*). Chunki soʻzning qudrati katta. Oʻqituvchi oʻz soʻziga, tiliga nihoyatda ehtiyotkor boʻlmogʻi lozim. Eng avvalo, oʻquvchilarga muomala madaniyatini, kattalar oldida oʻzini tuta bilishi, gapini boʻlmasligi, yoshi ulugʻlarga gap qaytarmaslikni oʻrgatish zarur.

Muloqot madaniyati hamma joyda kerak. Ish joyida, transportda, uyda biz kim bilan qanday muomala qilishni bilishimiz zarur. Oʻqituvchining qanchalik bilimli, aql-zakovatli ekanligi oʻquvchilar va ularning ota-onalari bilan olib boradigan muloqoti orqali namoyon boʻladi. Odamlar butun ichki dunyosini, maqsadini, muomala va munosabatlarini bir-birlariga soʻz yordamida yetkazadilar, amalga oshiradilar. U tufayli soʻzlashuv munosabatlari nihoyatda goʻzal va muloyim boʻlishini hayot taqozo etadi. Soʻzga boy, shirinsuxan kishilarning muomalalari yoqimli, ishi ham yurishgan boʻladi. Bunday kishilarni yoqtiradilar, hurmat qiladilar. Soʻzlashuv ham oʻziga xos sanʼatdir. Bu sanʼatning ildizi muosharat odobi boʻlib, uni mukammal oʻrganish har bir inson uchun zarur. Shu bilan birga, ona tilini mukammal oʻrganmoq va sof adabiy tilda oʻquvchilar bilan muloqot qilish oʻqituvchining notiqlik qobiliyatidir.

Muloqot asosida maʼnaviy madaniyatni shakllantirish mezonlari va omillari. Oʻzbekiston zaminida Sharq maʼnaviy madaniyatining muhim jihatlari uygʻonish davrida rivojlangan boʻlib, bu davrda yashab ijod etgan al-Xorazmiy, al-Kindiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Firdavsiy, Umar Xayyom, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Shayx Saʼdiy, Tusiy, Mahmud Qoshgʻariy, Ahmad Yugnakiy, Lutfiy, Mirzo Ulugʻbek, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi koʻplab mutafakkirlarning ijodiy meroslari pedagogik tafakkur taraqqiyotida, insonning maʼnaviy-axloqiy kamolotida, umumbashariy maʼnaviy qadriyatlarning yuksalishida muhim bosqich boʻldi. Ular Sharqona odob-axloq talablari asosida komil insonni tarbiyalashning maʼnaviy asosini yaratishga muvaffaq boʻladilar.

Ushbu davr maʼnaviy qadriyatlari mazmunida avvalo, insonning

ichki va tashqi holati, hissiyoti, mehnatga, turmushga munosabati, mehr oqibati, muhabbati, sadoqati, bilim o'rganishga intilishi, ma'naviy kayfiyati, aql-idroki, erki, insonni tabiatning eng buyuk mahsuli sifatida kuylash, tasvirlash, oliy axloqli, yuksak insoniy fazilatlarga ega bo'lgan adolatli jamoa vakilini tarbiyalash g'oyasi ilgari surilgan.

Inson o'z qadr-qimmatini va o'zligini umumta'lim maktablarida ta'lim-tarbiya jarayonida anglay boshlaydi. Ta'lim muassasalarida o'qituvchi tomonidan o'zaro muloqot asosida olib boriladigan quyidagi xususiyatlar negizida o'quvchilarda muloqot orqali ma'naviy madaniyatni shakllantirish mezonlari (*O. Musurmonova*) ifodalangan:

- har bir insonning qiziqishlarini ko'ra bilish, his etish va hurmat qilish;
- milliy-ma'naviy madaniyat manbalarini o'rganish, o'zligini anglashga ehtiyoj;
- inson hayotida mehnatning o'nini to'g'ri tushunish;
- insonparvarlik, mehr-oqibat, iymon, e'tiqod, milliy qadriyatlarni e'zozlash;
- Vataniga muhabbat, sadoqat, o'z manfaatlarini jamiyat, xalq manfaatlaridan yuqori qo'ymaslik;
- ota-ona, qarindoshlar va boshqa atrof-muhitidagi kishilarga nisbatan muruvvatli, saxovatli bo'lish.

O'qituvchi ta'lim-tarbiyaviy jarayonda o'quvchilar ma'naviy madaniyatini shakllantirishda muloqotning cheksiz imkoniyatlaridan foydalanib ong va faoliyat birligini ta'minlashi taqozo etiladi. Ma'naviy ong o'quvchining dunyoqarashi, bilimi, his-tuyg'usi, idroki, irodasi va diqqatining majmuasi bo'lib, u o'qituvchining pedagogik mahorati negizida ta'lim-tarbiyaviy faoliyat asosida shakllantiriladi. O'z navbatida, ong ham faoliyatga ta'sir ko'rsatadi va uni tartibga soladi.

O'quvchilarning tarbiyaviy muhitda uyushtirilgan ma'naviy faoliyatda ma'naviy madaniyat muammolarini erkin, ongli va adolatli yecha olishga intilishi ta'minlanishi kerak. O'qituvchi bilan o'zaro

muloqot jarayonida o'quvchi ongli ravishda o'z munosabatlarini bildirishga, to'g'ri xulosa chiqara olishga, milliy g'urur asosida ularni avaylashga, asrashga, sevishga, umrboqiyiligini ta'minlashi ma'naviy burchi ekanligi o'rgatiladi.

Ma'naviy madaniyatning muhim belgilarini shakllantirishda, ta'lim- tarbiya tizimini ma'naviy muhit, ma'naviy faoliyat va ma'naviy anglash bosqichlaridan iborat andozalar asosida tashkil etishda ushbu mezonlar talablariga rioya qilish belgilangan maqsadni samarali amalga oshirish imkoniyatini beradi. Bunda o'qituvchining muloqoti asosida o'quvchilar ma'naviy madaniyatini shakllantirish jarayoniga ta'sir etuvchi quyidagi omillarningning ham muhim ahamiyatga ega:

1. O'quvchi ma'naviy faoliyat asosida o'zligini anglashni shakllantirish uchun ma'lum bir muhitda ma'naviy qadriyatlar bilan harakat orqali muloqotga kirishadi. Harakatsiz muhit va faoliyat bo'lishi mumkin emas. Shuning uchun o'quvchilar ma'naviy madaniyatini shakllantirish samaradorligini *ma'naviy harakat omili* ta'minlaydi.

2. Ma'naviy qadriyatlarning mohiyati, ma'naviy-axloqiy tajriba, o'qituvchining ta'sirchan nutqiy muloqoti vositasida o'quvchilar ongiga singdiriladi. *Nutqiy aloqalar* tarbiya jarayoni obyektlari va subyektlari orasida kechadi va o'quvchi ma'naviy madaniyatini shakllantiruvchi *omil* bo'lib xizmat qiladi. O'quvchining xulq namunasi, ma'naviy harakati, nutqiy aloqalar samaradorligi o'qituvchi va o'quvchining muloqoti asosidagi faoliyat munosabatlari bilan belgilanadi.

3. Ma'naviy qadriyatlarning tarbiyaviy imkoniyatidan ta'sirlanish va amaliy faoliyatda ularga tayanish, umuminsoniy qadriyatlar darajasiga ko'tarilishini ta'minlab, o'quvchi ma'naviy madaniyatini tarbiyalashdagi ahamiyatini yanada takomillashtirish ta'lim-tarbiya jarayonining ishtirokchilaridan (o'qituvchi va o'quvchi) doimiy ijodkorlikni talab qiladi.

4. Ijodkorlik - milliy-ma'naviy qadriyatlar asosida o'quvchi ma'naviy madaniyatini shakllantirishda *muhim omil* hisoblanadi.

O'qituvchi ta'lim- tarbiya jarayonida uning imkoniyatlaridan keng va samarali foydalanadi.

5. O'quvchi ma'naviy madaniyatini shakllantirishning muvaffaqiyati o'qituvchining muloqot olib borish psixologik taktikasi omillarga ham bog'liq. Ushbu omilni harakatlantiruvchi sharoitlar:

- o'qituvchining pedagogik-psixologik va maxsus fanlar integratsiyasi bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishi;
- mutaxassisligi bo'yicha kasbiy mahorati;
- o'quvchilar bilan o'zaro do'stona muloqot madaniyati;
- o'quvchilarning ruhiy holatini tez bilib olishi;
- o'qituvchi ma'naviy madaniyatining shakllanganlik darajasi;
- ta'lim-tarbiyaning zamonaviy usul va metodlarini tanlay bilishi;
- zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari to'g'risida chuqur ma'lumotlarga ega bo'lishi;
- o'qituvchining pedagogik jamoa orasidagi hurmat - e'tibori.

6. O'qituvchi muloqot asosida *o'quvchilarda ham ijodkorlik omilini* takomillashtirib boradi. O'quvchida uning sifatleri quyidagi belgilar bilan namoyon bo'ladi:

- ma'naviy qadriyatlarni, an'analarni o'zlashtirishga qiziqishda ehtiyoj va talabning kuchliligi;
- o'rganilayotgan fanlar asoslarini egallashga ijobiy munosabat;
- ma'naviy madaniyat saviyasi, dunyoqarashi;
- o'z-o'ziga nisbatan talabchanlik;
- tabiatga, atrof-muhitga ongli munosabat;
- yangiliklarni va axborot texnologiyalarini o'rganishga qiziqish;
- ijtimoiy va shaxsiy faolligi;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasi;
- tashabbuskorligi va ijodkorligi.

O'quvchilarda ma'naviy madaniyatni shakllantirish jarayonining muvaffaqiyatli borishi ta'lim mazmuniga asoslanib, o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorlikdagi faoliyatini to'g'ri tashkil etish saviyasiga bog'liq. Bu quyidagi faoliyat turlarini mukammal bilishni taqozo etadi:

Birinchidan, o‘zaro hamkorlikdagi faoliyat ijodkorlikni, mas’uliyatni, faollikni va eng asosiysi muloqot madaniyatiga rioya etishni talab qiladi.

Ikkinchidan, har bir darsda o‘qituvchi ham, o‘quvchi ham belgilangan maqsadni aniq qo‘ya bilishi, amalga oshiriladigan vazifalarni to‘g‘ri belgilab olishi lozim.

Uchinchidan. dars jarayonida bilimlar mazmunining ilmiyligi, uzluksizligi, izchilligi va tarbiyaviy xarakteri, o‘qituvchining notiqlik san’ati asosida bayon etish shaklining mukammalligi, qiziqarliligi o‘quvchilarda ta’limiy va tarbiyaviy tomondan o‘rganiladigan qadriyatlarga qiziqishni kuchaytiradi, ularda tarixiy, adabiy, milliy va diniy xarakterdagi milliy qadriyatlar bo‘yicha o‘z bilim va ko‘nikmalarini oshirish ishtiyoqi rivojlanadi.

To‘rtinchidan, o‘qituvchining pedagogik mahorati, nazariy va uslubiy tayyorgarligi, o‘z kasbiga, faniga munosabati, olib boradigan darsi andozasini va uning natijasini oldindan ko‘ra bilish, har bir dars samaradorligini ta’minlovchi texnik va texnologik belgilardan biridir.

Beshinchidan, dars jarayonida o‘quvchilar jamoasiga erkin fikr yuritish, o‘z fikr-mulohazasini erkin bayon etishga imkoniyat yaratish, o‘quvchilar jamoasi fikriga tayanish, ularning fikr-mulohazalari, istak-xohishlarini e’tiborga olish, o‘quvchilarning mustaqil ishlaridan keng foydalanish zarur.

Oltinchidan, o‘quvchilar bilimiga, xulqiga beriladigan bahoning xolisona va adolatli bo‘lishi barcha ta’lim va tarbiyaviy faoliyatni to‘g‘ri tashkil etilishiga ijobiy ta’sir etuvchi omil ekanligini unutmaslik kerak.

Xulosa qilib ta’kidlash joizki, ta’lim va tarbiya jarayonida o‘quvchilar ongiga muloqot asosida milliy qadriyatlar va ma’naviy madaniyatni shakllantirish, o‘qituvchi va o‘quvchining o‘zaro muloqotini hozirgi zamon pedagogik talablari asosida mukammal tashkil etilishini ta’minlaydi.

Nazorat savollari:

1. Pedagogik muloqot madaniyati o‘qituvchi kasbiy faoliyatida

qanday ahamiyat kasb etadi?

2. O‘qituvchining muloqot madaniyatini shakllantirish metodikasi qanday bosqichlardan iborat?

3. Pedagogik muloqot madaniyatiga erishish uchun o‘qituvchi qanday vaziyatlarni e’tiborga olish darkor?

4. O‘quvchilar diqqatini o‘ziga jalb qilish deganda nimani anglash lozim?

5. O‘qituvchining pedagogik muloqot madaniyatiga xos xususiyatlariga ta’rif bering.

6. Pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirish yo‘nalishlari haqida fikr bildiring.

7. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi ziddiyatlarni keltirib chiqaruvchi holatlar?

8. O‘qituvchining muloqotga kirishishi deganda nimani tushunasiz?

9. Yosh o‘qituvchilarning pedagogik muloqot madaniyatiga xos xususiyatlar qanday?

10. O‘quvchilar ma’naviy madaniyatini shakllantirish jarayoniga ta’sir etuvchi omillar?

6-§. PEDAGOGIK TEXNIKA HAQIDA TUSHUNCHA. PEDAGOGIK TEXNIKANI SHAKLLANTIRISH METODIKASI. NUTQ TEXNIKASI VA MADANIYATI.

Pedagogik texnika haqida tushuncha. Mahoratli ustoz—pedagog muvaffaqiyat sirlariga chuqur kirib borgan sari uning faoliyatidagi pedagogik ta'sir usullarining aniqligi, turli amaliy topshiriqlarni san'atkorona qo'ya olishi va hal eta olishining guvohi bo'lamiz. Bu yerda maxsus ko'nikmalar: o'quvchilarni izchil o'quv—biluv faoliyatiga jalb eta olish, savol qo'ya olish, jamoa va alohida shaxs bilan muloqotga kirisha olish, kuzatuvchanlik, jamoani tashkil eta olish, o'z kayfiyati, ovozi, mimikasi va xatti-harakatlarini boshqara olish kabilar muhim o'rin egallaydi. Pedagogik texnika o'qituvchi faoliyatining botiniy mazmuni va zohiriy ifodasidagi mos uyg'unlikni ta'minlashga xizmat qiladi. O'qituvchining mahorati ma'naviy madaniyat va pedagogik maqsadga muvofiq tashqi ifodaviylikda namoyon bo'ladi. Shunday qilib, texnika — bu usullar, maxsus ko'nikmalar majmuidir. Uning vositasi — nutq va muomalaning noverbal vositalari. Pedagogik texnika komponentlarini ikki guruhga bo'lib o'rganamiz:

1 — guruh komponentlariga o'qituvchining xulq — atvorini boshqarishiga oid ko'nikmalar kiradi. Bular — o'z tanasini boshqarish (mimika, pantomimika); hissiyotlari va kayfiyatini boshqarishi; ijtimoiy—pertseptiv qobiliyatlar (diqqat, kuzatuvchanlik, tasavvur); nutq texnikasi (nafas, ovozni boshqarish, talaffuz, nutq sur'ati).

2 — guruh komponentlar jamoaga va shaxsga ta'sir ko'rsata olish ko'nikmalari hamda ta'lim jarayonining texnologik tomonlari bilan bog'liq. Bular — didaktik, tashkilotchilik, konstruktiv, kommunikativ ko'nikmalar, talab qo'yish, pedagogik muloqotni boshqarish, jamoa ijodiy ishlarini tashkil etishning texnologik usullari. Dars va tarbiya jarayoni texnologiyasi keyingi mavzularda atroflicha yoritilishini inobatga olib, bu mavzuda faqat o'qituvchi xulq—atvorini tashkil etishga oid masalalar xususida to'xtalamiz.

Yosh o'qituvchilarning faoliyatida uchraydigan odatiy kamchiliklar. O'qituvchi faoliyatiga oid olib borilgan tadqiqotlar endigina ish boshlagan o'qituvchilar faoliyatida uchraydigan bir nechta odatiy kamchilik – nuqsonlar mavjudligini ko'rsatdi. Bu o'qituvchilarning ko'p yo'qotishlari o'quvchilar, ularning ota-onalari bilan dildan erkin suhbat qura olmaslik, qahr–g'azabni saqlab turish yoki aksincha, uni namoyon etish, ishonchsizlik oqibatida sodir bo'ladi. O'zlarining birinchi darslari haqida yozgan ishlarida talabalar o'z nutqlaridan xavotirlanganliklari, haddan ziyod qattiqqo'llik qilganliklari, ochilib gaplashishga qo'rqqanliklari, doskaning u yog'idan bu yog'iga borib kelganliklari, qo'l harakatlaridagi ortiqcha xatti–harakatlarga yo'l qo'ymasliklari yoki harakatsiz qotib qolganliklari, qo'llarini qayoqqa qo'yishni bilmaganliklari haqida yozishgan. Ko'pgina talabalarda gavda holatida yelkalarining qisilib turishi, qo'l harakatlarining noo'xshovligi, qo'lda turli keraksiz narsalarni o'ynab turish kabi holatlar kuzatiladi. Ovoz texnikasidagi asosiy kamchiliklar bir xil ohangda gapirish, nutqining jonsiz, quruqligi, ifodali, obrazli qilib o'qish ko'nikmalarining yo'qligi ko'rinadi. Nutqdagi ko'pgina individual kamchiliklar – talaffuzning noaniqlik, ovozning optimal balandligini topa olmaslik bilan bog'liq. Bu kamchiliklarning barchasi o'qituvchi faoliyati samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi. Talabalarning oliy o'quv yurtidagi ta'limi jarayonidayoq ularni yo'qotishga kirishish o'qituvchini o'quv–tarbiya jarayoniga rahbarlik qilishga tayyorlashning muhim omillarningningridan biridir.

Pedagogik texnika xususiyatlari. Pedagogik texnikaning muhim xususiyatlaridan bir o'qituvchining o'quvchilar bilan bevosita muloqoti jarayonida shakllanadigan kasbiy texnik ko'nikma va malakalaridir. Bunda pedagogik texnikaning ko'nikma va malakalari o'qituvchining pedagogik mahorati bilan aloqadorlikda shakllanib boradi.

Rivojlangan pedagogik texnika xususiyatlari o'qituvchiga o'quvchilar bilan muloqot jarayonida zarur so'z va gap ohangi, qarash,

imo- ishorani tez va aniq topish, kutilmagan pedagogik vaziyatlarda bosiqlik va osoyishtalik, aniq fikr yuritish, vaziyatni fikran va tez tahlil qilish kabi qobiliyatlarini namoyish etish bilan ifodalanadi. Pedagogik texnikaning ushbu xususiyatlari o'qituvchi kasbiy mahoratida aniq ifodalangan individual shaxsiy shakl oladi, ya'ni o'qituvchining psixologik-fiziologik xususiyatlari asosida uning shaxsiy pedagogik texnikasini tarkib toptiradi.

Individual pedagogik texnikaning shakllanishi o'qituvchining yoshi, jinsi, mijozi, fe'l-atvori, salomatligi, anatomik-fiziologik xususiyatlariga bog'liq. O'qituvchilarda individual shaxsiy pedagogik texnika malakalarini shakllantirish muammolari, ayniqsa, psixolog olimlarning tadqiqot markazidan o'rin olgan. Psixolog olimlar R-Z.Gaynutdinov, M.G.Davletshin, S.Jalilova, M.Abdullajonova kabilar o'qituvchilarning individual kasbiy faoliyatini batafsil o'rganishib, O'qituvchining shaxsiy "Mehnat professiogramma"ni ishlab chiqdilar. Olimlarning fikrlariga ko'ra o'qituvchi professiogrammasi o'qituvchilarga qo'yiladigan maxsus talablarni o'z ichiga oladi hamda har bir fan o'qituvchisining alohida ixtisoslashgan xarakteristikasini belgilab beradi. Jumladan, ular ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat olib boradigan "O'qituvchi-murabbiy professiogrammasi"da quyidagi xislatlar, ya'ni "Pedagogik texnika" malakalari mujassamlashgan bo'lishini ta'kidlaydilar.

1)O'qituvchining shaxsiy xislatlari: bolalarni sevishi, kamtarligi, dilkashligi, mehnatsevarligi.

2)Kasbiga xos bilimlari: ta'lim va tarbiya jarayoni mohiyatini bilishi, pedagogik va psixologik bilim asoslarini egallashi, o'qituvchilarning yosh xususiyatlariga asosan psixologik imkoniyatlarini anglashi, tarbiyaviy ta'sir etishning samarali usullaridan oqilona foydalana olishi, ota-onalar va jamoatchilik bilan olib boriladigan faoliyat mazmunini puxta bilishi.

3)Kasbiga xos xislatlari: milliy mafkura, umuminsoniy qadriyatlar, milliy an'ana va urf-odatlarining asl mohiyatini tushunishi, kuzatuvchanligi, pedagogik qobiliyatga egaligi, o'zini qo'lga ola

bilishi, o'zini anglay olishi, pedagogik takt, nutq madaniyati.

4)Shaxsiy pedagogik uddaburonligi: dars mashg'ulotlarida zarur materiallarni tanlay olishi, o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqarishi, ta'lim-tarbiya jarayonini istiqbolli rejalashtirishi, o'quvchilar jamoasini boshqara olishi.

5)Tashkilotchilik malakalari: o'quvchilar jamoasini uyushtira bilishi, turli ziddiyatli vaziyatlarda ham o'quvchilar jamoasini boshqarishi, amaliy muammolarni hal etishda uddaburonligini namoyish eta olishi.

6)Kommunikativ malakalari: o'quvchilarni o'ziga jalb etishni bilishi, o'quvchilar va ota-onalar bilan maqsadga muvofiq pedagogik muloqotlarni tashkil qilishi, o'quvchilarning jamoada o'zaro munosabatlarida bir xil muvozanatni tartibga solishi.

7)Gnostik malakalari: o'quvchilarning asab psixik holati darajasini aniqlay olishi, o'z pedagogik faoliyati natijalarini tanqidiy tahlil qila olishi, ustoz o'qituvchilar mahoratini nazariy va amaliy jihatdan o'rganib borishi, psixologik va pedagogik adabiyotlardan to'g'ri foydalana bilishi, o'quvchilar xulq-atvorini mukammal o'rganishi.

8)Ijodiy xislatlari: o'z pedagogik mahoratini doimiy takomillashtirib borishi, o'quvchilarni tarbiyalashda o'z dasturini ishlab chiqishi va uni muvaffaqiyatli amalga oshirishi, o'quvchilar nazari bilan voqelikni tahlil qilish qobiliyati, o'quvchilarga pedagogik ta'siri natijalarini oldindan ko'ra olishga intilishi.

Psixolog olimlarning fikricha, ushbu professiogramma yosh o'qituvchilarga o'zlarining kelgusida o'qituvchilik kasbini to'g'ri va ongli ravishda tanlab, kasbiy mahoratlarini takomillashtirib borishlariga yordam beradi. Demak, o'qituvchi professiogrammasi ham pedagogik texnikani egallashning muhim xususiyatlaridan biri bo'lib, o'qituvchilarning o'z kasbiy texnikasini mukammal egallab, rivojlantirib borishiga va o'z kasbiy faoliyatidan qanoatlanishni his etishga olib keladi. Bularning barchasi o'qituvchilarning tinimsiz pedagogik mehnati tufayli yuzaga keladi.

Bir maromda olib boriladigan tizimli ijodiy mashg'ulot tufayli

aktyor yuksak cho‘qqilarini egallaydi. O‘zgalar obrazini mujassamlashtirishda u ma’lum bir qolipdan aslo chiqib keta olmaydi. Demak har qanday ijodkorlik, hatto pedagogik ijodkorlik ham ma’lum bir belgilangan qolipda shakllanishi kerak. U o‘qituvchining ichki kechinmalari, tuyg‘ulari va hissiy reaksiyalari asosida qurilishi aslo mumkin emas. Chunki, tarbiyalash san’atida o‘qituvchining pedagogik texnikasi, ya’ni “bir qolipda”gi mehnat madaniyati borki, u boshqa biror kasbiy faoliyatga aslo o‘xshamaydi. Shuning uchun, respublikamizda tarbiyaviy texnologiyalarni muntazam bilishga intilish, o‘qituvchi kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini uzluksiz oshirib borish o‘qituvchining bir qolipdagi mehnat madaniyatini shakllantirishga, pedagogik texnika malakalarini doimiy oshirib borishiga qaratilgan. Ta’kidlash joizki, hali biror o‘qituvchi oliy ta’lim muassasasini tugatib, yoki malaka oshirish kurslarida bilim olib birdaniga pedagogik texnika sirlarini mukammal biladigan tajribali o‘qituvchi bo‘lib qolgani yo‘q. O‘qituvchi faoliyatida pedagogik texnika ta’lim muassasalarida faoliyat ko‘rsatish jarayonida, o‘quvchilar bilan yakkama-yakka muloqot jarayonida, pedagogik amaliyotda shakllanib boradi.

Hozirgi davr talablari nuqtayi nazaridan, o‘qituvchiga qo‘yilayotgan javobgarlik hissi kengayib, murakkablashib bormoqda. Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya sohasida olib borilayotgan islohotlarning yuksak natijasi bevosita o‘qituvchilarning qizg‘in mehnati samarasiga bog‘liq. Vatanimizning porloq kelajagi uchun yosh avlodni har tomonlama yetuk, barkamol inson qilib voyaga etkazishda o‘qituvchining kasbiy bilimi, faoliyat texnikasi mutlaqo yangilanib, hozirgi zamon talablariga javob bera oladigan danqada bo‘lishi kerak. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun talablariga muvofiq o‘qituvchi o‘zining ta’lim-tarbiyaviy faoliyatida milliy-madaniy va umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligiga doimo e’tibor berib kelishi lozim. O‘qituvchining pedagogik texnikasi ham vatanparvarlikka, xalqimizning ma’naviy merosini mustahkamlashga, o‘quvchilarning o‘z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishiga asoslangan bo‘lishi shart.

Shu ma'noda taniqli adib Tursunoy Sodiqova asarlarida hozirgi kun o'qituvchisiga qo'yiladigan "Murabbiylikning shartlari" oqilona berilgan: "...Siz insonlarning hech bir yo'q joydan "shoxini ko'kartirish", qulfi dilini ochish, dunyosini kengaytirish, kechagi holatidan bugunini yuksakroq qilish uchun bu ishga kirishdingiz. Ammo oldin biling: umringizni sarflab olib borayotgan harakatlaringiz ro'parangizdagi o'quvchiga yoqyaptimi, yo'qmi? Bor gap shunda!

Murabbiylikni xohlagan, shu kasbga o'qigan odam murabbiy bo'lib qolmaydi. Ustozlikning o'ziga xos parhezlari, bosib o'tilmaydigan chegara chiziqlari bordir! Birinchidan, dilingizda ustoz—murabbiyning yozilgan-u yozilmagan qonun-qoidalariga bo'ysunaman, degan Allohga qasamingiz bo'lsin ikkinchidan, niyatingiz sof bo'lsin! Men insonlarni faqat yaxshilikka o'rgataman deng, orqamda o'z qo'lim bilan yaratilgan fayzli bog'lar qoladi, deb tilak tilang! Toki shogirdlaringiz sizning sharofatingiz bilan faqat savob ishlarga daxldor bo'lsinlar. Uchinchidan, haqiqiy murabbiy bo'laman desangiz, birovga biror narsa o'rgatishni astoydil xohlang va siz ilm oluvchiga nisbatan muhabbat toping!

Har bir ishingizga fidoyilik bilan kirishing. Buning otini ixlos deyдилar. Shu ishtiyoq sizda qanchalik kuchli bo'lsa, Tangri sizga shuncha ko'p uquv beradi, ep beradi, mushkullaringizni o'zi osonlashtiradi. Mural biylikda ta'tilga chiqish, sog'ligi, kayfiyatiga qarab faoliyatini to'xtatish degan gap yo'q. Yo'lda ham, cho'lda ham, hamma fasl, hamma manzilda, qo'yingchi, umringizning oxirgi nuqtasigacha siz faoliyat ustidasiz. Bu degani, sizning borlig'ingiz, har bir so'z, har bir ishorangiz odamlar uchun nur, madad va xaloskorlikdir.

Nazardan qolgan, qarg'ish olgan, loqayd murabbiylar tarbiya maskanlariga qadam bosmasliklari kerak. Ular ishlayveradilar, ammo o'qituvchilikning noni yuqmaydi, ro'shnolik ko'rmaydilar, falokatlar arimaydi, niyatlariga yetmaydilar. Chunki muqaddas kitoblarda "ne bersak, egallab turgan kasb koringizdan berurmiz" deb yozilgan. Kasbga halollik buyuk ibodatdir". Adiba o'qituvchidan o'z kasbiga

sado qatli bo'lishni, fidoyilikni, yuksak ma'naviyatni, tinimsiz mehnatni o'quvchilarga nisbatan mehr va muhabbatni, halol va pokiza bo'lishi talab qiladi. Bu aynan o'qituvchi pedagogik texnikasining ham muhim xususiyatlaridan biridir.

Sharq mutafakkirlari notiqlik san'ati haqida.

Mamlakatimizda notiqlik san'atining rivojlanishi O'rta Osiyo madaniyati tarixi bilan bog'liq bo'lib, nutq madaniyati hamisha o'ziga xos mavqega ega bo'lib kelgan. O'rta Osiyoda notiqlik san'atining xususiyatlari shundan iborat ediki, u eng avval o'sha davr tuzumining manfaatlariga xizmat qilar edi. Bu davrda notiqlik san'ati ustalarini nadimlar, qissago'ylar, masalgo'ylar, badihago'ylar qiroatxordar, muammogoylar, voizlar, go'yandalar, maddohlar, qasidaxonlar deb yuritilishi ham ana shundan dalolat beradi. Movarounnahrda notiqlik san'ati voizlik deb atalgan. Voizlik, ya'ni va'zxonlik «Qur'on»ni targ'ib qilish bilan mushtarak holda so'zning ahamiyati, ma'nosini anglatgan. «Va'z» so'zi arab tilidan pand-nasihat ma'nosini beradi. Va'z aytuvchi, nutq so'zlovchi shaxs Voiz deb atalgan. Voizlik san'ati tinglovchining, jamoaning ongiga, his-tuyg'usiga ta'sir etish mahorati bo'lib, qadimgi Sharqda hukmdorlar ushbu san'at namoyandalari xizmatini yuksak darajada qadrlaganlar. IX asrdan boshlab, davlat hukmdorlari notiqlik bilan bog'liq barcha tadbirlarni maxsus tayyorgarlikka ega so'z ustalariga yuklab, ularni “voizlar” deb ataganlar.

Markaziy Osiyoda XII asrdan boshlab voizlik san'ati nazariyasi va amaliyotini targ'ib qiluvchi ko'plab ilmiy va uslubiy risolalar yozilgan. Jumladan, allomalar Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri”, Unsun Maoliy Kaykovus “Qobusnoma”, Yusuf Xos Hojib “Qutadg'u bilig”, Alisher Navoiy “Majolis un-nafois”, “Nazmul-javohir”, Husayn Voi Koshifiy “Dah majlis”, “Mahzan ul-insho”, Ali Yazdiy “Zafamoma”, Xondamir “Makorim ul-axloq”, Voiz Samarqandiy “Ravozat ul-voizin”, Muhammad Rafiq Voiz “Avbob ul-jinon”, Quraysh Saidiy “Anis ul voizin” kabi o'zlarining asarlari bilan “voiz”lik san'ati xazinasiga munosib hissa qo'shganlar.

Voizlik san'ati namoyandalari tinglovchilarning ijtimoiy va siyosiy mavqei hamda lavozimlarini hisobga olgan holda uch yo'nalish bo'yicha faoliyat ko'rsatishgan. Birinchisi, sultonivot, ya'ni hukmdorlar hamda yuqori tabaqali a'yonlar uchun mo'ljallangan va'zxonlik bo'lib, unda hamdu sanolar aytilgan, ularning obro' e'tibori, martabasi, faoliyatlar ulug'lanib maqtalgan. Ikkinchisi. jihodiya, va'm vatan himoyachilariga mo'ljallangan va'zxonlik bo'lib, unda vatanparvarlik, jangovarlik, botirlik, qahramonlik, fidoyilik ulug'langan, dushmanga nisbatan shafqatsiz bo'lish ifodalangan. Uchinchisi, g'aribona deb atalib, asosan mamlakatning oddiy fuqarolariga mo'ljallangan va'zxonlikdir, unda barcha fuqarolar asosan itoatkorlikka, mehnatsevarlikka chaqirilgan. Voizlikning har bir yo'nalishi o'ziga xos ohangga, usulga, jozibaga ega bo'lgan. Voiz nutqda ma'lum bir muvaffaqiyatga erishish uchun har bir so'zning, tushuncha va ohangning badiiy jihatdan yuksak va ta'sirchanligini ta'mirlab, muayyan bir fikr, mulohaza, hukm, g'oya, mafkura va xulosani tinglovchilarga yetkazish maqsadida suxandonlik (ritorika) fanini puxta o'zlashtirishgan.

Buyuk qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy (973-1048) o'zining «Geodeziya» asarida har bir fanning paydo bo'lishi va taraqqiy etishi inson hayotidagi zaruriy ehtiyojlar talabi bilan yuzaga kelishini ta'kidlab notiqlik san'atining ildizlari bo'lmish grammatika aruz va mantiq fanlar ham shu ehtiyojning hosilasidir degan g'oyani ilgari surgan.

Ulug' vatandoshimiz Abu Nasr Forobiy to'g'ri so'zlash, to'g'ri mantiqiy xulosalar chiqarish, mazmundor va go'zal nutq tuzishda leksikologiya, grammatika va mantiqning naqadar ahamiyati cheksizligi haqida shunday deydi: “Qanday qilib ta'lim berish va ta'lim olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish, qanday so'rash va qanday javob berish masalasiga kelganimizda, bu haqda bilimlarning eng birinchisi jismlarga va hodisalarga ism beruvchi til haqidagi ilmlar deb tasdiqlayman...” Forobiy “Fozil odamlar shahri” asarida mudarrisning “so'zlari aniq bo'lsin, fikrini va aytmoqchi bo'lgan mulohazalarini

ravon va ravshan bayon eta olsin... Bilish va o‘qishga muhabbati bo‘lsin, o‘rganmoqchi bo‘lgan bilimni charchashni sezmasdan, osonlik bilan o‘zlashtira olsin ” deydi.

Unsurul Maoliv Kaykovus tomonidan 1082-1083 yillarda yaratilgan, qadimgi Sharq pedagogikasining ajoyib namunalaridan biri hisoblangan «Qobusnoma»da ham nutq odobi va madaniyati haqida ibratomuz fikrlar bayon etilgan. Muallif farzandiga qilgan nasihatlar orqali o‘quvchini yoqimli, muloyim, o‘rinli so‘zlashga, behuda gapirmaslikka undaydi. So‘zlaganda o‘ylab, har bir fikrdan kelib chiqadigan xulosalami ko‘z oldiga keltirib gapirish kerakligini, kishi aql-idrokli bo‘lishi, o‘zini xalq orasida oddiy, kamtar turishi lozimligini eslatib, mahmadonalik qilish, ko‘p gapirish donolik belgisi emasligini ta’kidlaydi, hamda “Odamlarda mavjud barcha qobiliyatlarning eng yaxshisi nutq qobiliyatidir ” deydi.

Farzand, agar sen har qanday notiq bo‘lsang ham, o‘zingni bilganlardan pastroq tutgil, toki so‘z bilimdonligi vaqtida bekor bo‘lib qolmagaysan. Ko‘p bilu, oz so‘zla, kam bilsang, ko‘p so‘zlama, chunki aqlsiz kishi ko‘p so‘zlaydi, deganlarki, jim o‘tirish salomatlik sababidir. Ko‘p so‘zlovchi aqlli odam bo‘lsa ham, xalq uni aqlsiz deydi... ” - deb uqtiradi alloma. U axloqlilikning birinchi belgisini suxandonlikda deb biladi. “Suxango‘ylar notiqlikda rost sozlash kerak. So‘zlaganda andishalik bo‘lish, sovuq so‘zlik bo‘lmaslik, kam gapirish, kamtarlik, birovning so‘zini diqqat bilan eshitish ularning burchidir ” deb ta’kidlaydi.

Ulug‘ shoir Yusuf Xos Hojib turkiy xalqlarning XII asrdagi ajoyib badiiy yodgorligi bo‘lgan “Qutadg‘u bilig” (“Baxt keltiruvchi bilim”) asarida so‘zlarni to‘g‘ri tanlash va to‘g‘ri qo‘llash haqida “bilib so‘zlasa so‘z bilig sanalur” degan. Mutafakkir so‘zlovchini tilning ahamiyatini tushungan holda, hovliqmasdan, so‘zning ma’nolarini yaxshi anglab, nutqni ravon qilib tuzishga chaqiradi va so‘zning qudratini shunday ifodalaydi:

Kishi so‘z tufayli bo‘ladi malak, ortiq so‘z qiladi bu boshni egik, Tilingni avayla - omondir boshing. So‘zingni avayla uzayar voshing.

Adib Ahmad Yugnakiy ham mudarrislarni soʻzlaganda nutqni oʻylab, shoshilmasdan, aql-idrok bilan tuzishga keraksiz, bemaʼni soʻzlarni ishlatmaslikka, mazmundor soʻzlar izlab topishga chaqiradi. Notoʻgʻri tuzilgan nutq tufayli keyin xijolat chekib yurmagin, deb soʻzlovchini ogohlantiradi:

Uquv soʻzla, soʻzni eva soʻzlama, Soʻzing kizla, keyin, boshing kizlama.

(Soʻzni uqib soʻzla, shoshib gapirma, keraksiz, yaramas soʻzlarni yashir, yaramas gaping tufayli keyin boshingni yashirib yurma.)

Nutq odobi deb yuritilgan qoida va koʻrsatmalarda sodda va oʻrinli gapirish, qisqa va mazmundor soʻzlash, ezmalik laqmalikni qoralash keksalar, ustozlar oldida nutq odobini saqlash, toʻgʻri, rost va dadil gapirish, yolgʻonchilik, tilyogʻlamalikni qoralash va boshqa qonuniyatlar toʻgʻrisida fikr yuritiladi.

Buyuk alloma Abdurahmon Jomiy oʻz adabiy merosida soʻz va nutqning qudrati naqadar ulugʻligini, tildek insonga chiroyli libos kiydirguvchi vosita hech qayerda boʻlmasligini bayon etgan:

Tildagi ketma-ket xatoga hayhot, Chiroyli kiyimlar berolmas najot Soʻzni kiyimingdek bekam-u koʻst qil, Yoki kiyimingni soʻzingga rost qil.

Mutafakkir Alisher Navoiy davlat arbobi sifatida, oʻzbek mumtoz adabiy tilining homiysi boʻlgan buyuk shoirdir. Alisher Navoiy turkiy tilda goʻzal nutq tuzishning bayroqdori sifatida, oʻzining butun ijodiy merosi bilan oʻzbek tili boyliklarini namoyon etdi. Navoiy oʻzbek adabiy tilida buyuk asarlar yaratish mumknligini va shu bilan oʻzbek xalqini butun jahonga mashhur qilishni isbotlab berdi. Shoir oʻzining “Muhokamat ul-lugʻatayn” asarida har bir tilning ijobiy va salbiy tomonlari borligini eslatib oʻtadi. Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lugʻatayn”, “Mahbub ul-qulub”, “Nazm ul-javohir” asarlari oʻzbek tilida nutq tuzishning goʻzal namunalari boʻlishi bilan birga, uning yuksalishiga ham katta hissa qoʻshdi. U oʻzining “Mahbub ul-qulub” asarida shunday yozadi “Til muncha sharaf birla nutqning holatidir va ham nutqdurki, agar nopisand zohir boʻlsak, boshning ofatidir...” yaʼni,

til shuncha sharaf bilim nutqning qurolidir, agar u o‘rinsiz ishlatilsa boshning ofatidir.

Navoiy ta’limi bo‘yicha so‘z:

Har kimki chuchuk so‘z elga izhor aylar, Har neki ag‘yor durur yor aylar. So‘z qattig‘i el ko‘ngliga ozor aylar, Yumshog‘i ko‘ngillarni giriftor aylar.

Xullas, Sharq mutafakkirlari, so‘z va nutqning inson hayotidagi o‘rni, vazni va qadr qimmatiga jiddiy ahamiyat berganlar. Ular har bir so‘zning nutqda o‘z o‘rni va ahamiyati borligini, nutqni qudratli qiluvchi so‘zdan kuchliroq va buyukroq narsa yo‘qligini, tilga e’tibor - elga e’tibor ekanligini, so‘z sehri ila odamzod mo‘jizalar yarata olishini doimo ta’kidlab, isbotlab kelganlar. So‘z orqali nutq va fikr oydinlashadi. O‘qituvchi ta’lim-tarbiyasining samaradorligi so‘z boyligi bilan belgilanadi. Demak, “So‘z tuzadi, so‘z buzadi, olqish ham so‘zdan, qarg‘ish ham so‘z- dan, omonlik ham, yomonlik ham so‘z bilan, borliq ham, yo‘qlik ham so‘zdan, olamning yaralishi va gullab-yashnashi ham so‘zdan, yo‘q bo‘lishi ham so‘zdan”.

O‘qituvchining nutq madaniyati va notiqlik san’ati. Nutq madaniyati — ijtimoiy madaniyatni, kishilik jamiyati madaniyatini aks ettiruvchi bir ko‘zgudir. Nutq madaniyati adabiy tilning har ikki shakli — yozma va og‘zaki shakli uchun zarurdir. Nutq madaniyatiga e’tibor yolg‘iz o‘qituvchilardan emas, balki har bir fuqarodan ongli ravishda o‘zlashtirish talab qilinadigan insoniy fazilatlardan biridir. Uni egallash har bir o‘qituvchining va shaxsning madaniy saviyasi va bilimiga bog‘liq. O‘qituvchi pedagogik mahoratida nutq madaniyati, uning nafaqat ma’naviy va axloqiy jihatdan boyligini, balki bilimini, tafakkurini, ilmiy dunyoqarashini, fikr va mushohada yuritishni belgilovchi me’yordir. O‘qituvchining nutq madaniyati birdaniga shakllanib maromiga yetadigan jarayon emas, u pedagogik mahorat bilan, kasb faoliyati davomida tajribali ustozlar o‘giti natijasida yillar davomida takomillarningningshib, sayqallanib boraveradi. O‘qituvchining nutqiy qobiliyati madaniy, kasbiy, pedagogik talablar asosida shakllanib boradi. Uni rivojlantirish faqat o‘qituvchining

shijoatiga bog‘liq. Shu qobiliyat tufayli o‘qituvchining nutq madaniyati ham shakllanib boradi. Quyidagi o‘qituvchining nutq madaniyatiga xos bo‘lgan vositalarni unutmasligi kerak:

1. Nutq madaniyati o‘qituvchining ma’naviy-axloqiy kamoloti tarkibiy qismidir. Zero nutq, millatimiz erishgan madaniyat darajasini ko‘rsatuvchi, o‘z ona-tilimizga e’tiqodni namoyish etuvchi yorqin va ishonchli dalildir.
2. Nutq madaniyati o‘qituvchilarni ma’naviy va madaniy saviyasi bilan hamda adabiy tilni mukammal bilishi bilan boshqa kasb egalaridan ma’lum ma’noda ajratib turadi.
3. Nutq madaniyatining pirovard maqsadi erkin fikr egasi bo‘lgan barkamol avlodni qanday kasb egasi bo‘lib yetishishidan qat’iy nazar ma’naviy jihatdan tarbiyalash.
4. Nutq madaniyati — bu, avvalo, o‘qituvchilarda nutqiy ko‘nikma va nutqiy malakalarni hosil qiladi. Bu ko‘nikma pedagogik faoliyatda takomillarningningshib boradi, maxsus mehnat va mashqlar evaziga malaka oshiriladi hamda erishilgan muvaffaqiyatlar tufayli qobiliyat va mahorat shakllanadi.
5. Nutq madaniyatiga o‘zbek adabiy tilini mukammal egallash asosida erishiladi. Buning uchun o‘qituvchi adabiy til qonuniyatlarini bilishi, badiiy adabiyot asarlarini doimiy o‘qib borishi, she’rlar yod olishi va uni deklamatsiya bilan o‘qiy olishi, radio va televideniye eshittirishlarni kuzatib borishi lozim.
6. Nutq madaniyatini egallashning yana bir ko‘rinishi nutqiy taqlid bo‘lib, yosh o‘qituvchilar o‘zidan yaxshiroq, chiroyliroq, ma’noli va ta’sirchan nutq so‘zlaydigan ustoz murabbiylarning nutqiy san’atiga havas bilan qarashi va taqlid qilishi asosida o‘rganishi mumkin.

Nutq madaniyatining va notiqlik san’atiga umumiy, o‘xshash tomonlari bor. Har ikkala soha til va nutq, inson nutqi bilan aloqadordir. Har ikkalasi o‘qituvchi nutqiy faoliyatining ta’sirchan, chiroyli bo‘lishi uchun zarur hodisa bo‘lib, uning nutqiy madaniyatini o‘stirishga xizmat qiladi. Nutq madaniyati ham, notiqlik san’ati kabi nutqning ma’noliligi, nutqiy go‘zallik, nutqiy mantiq qonuniyatlaridan

oziqlanadi.

Ba'zi shaxslarda uchraydigan notqlik san'ati og'zaki nutq sohasida shaxsiy qobiliyat va faoliyat tufayli erishiluvchi alohida san'atdir.

Nutq madaniyati va notqlik tushunchalari orasida ba'zi o'xshashlik, umumiy tomonlar bor. Bu har ikkala sohaning pirovard maqsadi, ish faoliyatining mushtarakligida ko'rinadi. Ammo shunga qaramasdan, nutq madaniyati tushunchasi bilan notqlik tushunchasi aynan bir xil narsa emas. O'qituvchi nutq madaniyati va notqlik orasidagi ba'zi muhim farqli tomonlarni va belgilarni bilishi lozim. Bular quyidagilar:

1. Nutq madaniyati, chinakam ma'noda adabiy til bilan bog'liq hodisadir. Uning paydo bo'lishi, lisoniy asosi, talab va mezonlari adabiy til va uning normalari bilan bog'liq. Notqlik san'ati uchun bular asosiy belgilar emas. Notqlar orasida adabiy til talablariga to'la amal qilmaydiganlar, ma'lum vaqtgacha, shevada ham chinakam notqlik san'atmi namoyish qilib kishilar qalbiga qizg'in ta'sir qiluvchi kishilar uchraydi. So'zga chechanlik, notqlik, til materialining xarakteriga qarab emas, balki, notiqning chinakam so'z ustasi ekanligiga, tinglovchilarni o'ziga jalb etishida, ta'sirchan nutqiy san'atiga qarab belgilanadi.
2. Notqlik - bu nutqning og'zaki shakli. Notqlik san'ati og'zaki nutq san'atidir. Nutq madaniyati esa nutqning ham og'zaki, ham yozma shakli uchun taalluqli bo'lgan tushunchalardir.
3. Nutq madaniyati jamiyat a'zolarining umumiy nutqiy faoliyatini nazarda tutadi, Nutq madaniyati sohasining maqsadi va pirovard orzusi yosh avlod nutqini madaniylashtirishni mo'ljallaydi. Chin ma'nodagi notqlik san'ati esa, alohida shaxslarning nutqiy mahoratini va san'atini ifodalaydi. Notqlik, asosan nutq vositasida o'qituvchilar jamiyat talablari asosida yosh avlodga muayyan ta'lim va tarbiya beradi, yuqori malakali, raqobatbardosh, o'zining mustaqil fikriga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlaydi.

4. San'atkor notiq nutqi, asosan, ko'pchilik tinglovchilarga, keng auditoriyalarga mo'ljallangan bo'ladi. Notiqni bir kishidan ortiq shaxslar tinglaydi. Nutq madaniyati mana shunday tinglovchilardan tashqari kishilar orasida odatiy suhbatlarni, yakka kishiga qaratilgan nutqlarni ham o'z ichiga qamrab oladi.
5. O'qituvchilar adabiy tilning keng imkoniyat va boyliklarini yaxshi egallagan, nutq madaniyati talablariga javob beradigan tajribali notiq bo'lishi mumkin. Biroq hamma o'qituvchi ham san'atkor ma'nosidagi mukammal notiq bo'la olmaydi. Lekin adabiy tildan foydalanuvchi har bir o'qituvchi nutq madaniyatidan xabardor bo'lishi shart.
6. Nutq madaniyati ko'pchilikka mo'ljallangan, ma'lum bir maqsadni ko'zda tutib ish ko'ruvchi soha. Bu ma'noda u keng omma uchun mo'ljallangan talabdir, ammo notiqlik - shaxsiy qobiliyatdir.
7. Nutq madaniyati - bu faqat nutq haqidagi nutqiy faoliyatga tegishli tushuncha va soha emas, u til madaniyati bilan ham. ya'ni adabiy tilni va uning normalarni o'rganish va bu normalarni qayta ishlash ishi bilan ham shug'ullanadi. Notiqlik san'ati esa bunday ilmiy- normativ faoliyatni ko'zda tutmaydi.
8. Notiqlik, ko'proq nutqning mazmunini, mantiqiy asoslarini, mundarijaviy tuzilishini e'tiborga oladi, nutq madaniyati esa nutqning til qurilishi - lisoniy tuzilishiga e'tibor qiladi.
9. Notiqlik san'ati notiq uchun oldindan qanday so'zlash tizimi va rejasini bermaydi. Nutq madaniyati sohasi esa jamiyat a'zolarini ona tili, ya'ni adabiy til boyliklari va vositalaridan maqsadga muvofiq sharoit va uslub taqozosi talabiga ko'ra o'rinli foydalana olish ko'nikmasini beradi. Bunday ko'nikma, aslida har qanday san'atkor notiq uchun ham zarur.
10. Notiqlik san'ati haqidagi fan ancha qadimiy tarixga ega, nutq madaniyati ilmiy muammo va ilmiy soha sifatida muntazam yangilanib boradi.

O'qituvchi nutqining ta'sirchanligi va ifodaliligi. O'qituvchi nutqining ta'sirchanligi nutqning asosiy sifatlaridan biri sanaladi va nutqdagi to'g'rilik va aniqlik, mantiqiylik va tozalik tinglovchiga ta'sir

etish uchun yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Nutqning ta’sirchanligi deganda, asosan o‘qituvchining og‘zaki nutq jarayoni nazarda tutiladi va o‘quvchilar tomonidan qabul qilinishida paydo bo‘ladigan ruhiy vaziyat e’tiborga olinadi. Ya’ni notiq-o‘qituvchi o‘quvchilarni hisobga olishi, ularning bilim darajasidan tortib, hatto yosh xususiyatlarigacha, nutq ijro etilayotgan paytdagi kayfiyatlarigacha kuzatib turishi, o‘z nutqining o‘quvchilar tomonidan qanday qabul qilinayotganini nazorat qilishi lozim. Professional bilimga ega bo‘lgan o‘qituvchilar jo‘n, sodda tilda gapirishlari maqsadga muvofiq emas, oddiy, yetarli darajada notiqlik ma’lumotiga ega bo‘lmagan yosh o‘qituvchilarni ham ilmiy va rasmiy tilda gapirishga harakat qilishlari kerak emas. Xullas, notiq-o‘qituvchidan vaziyatga qarab ish tutish talab qilinadi va ifodalamoqchi bo‘lgan har qanday fikrini to‘laligicha o‘quvchilarga yetkazishga harakat qilish vazifa qilib qo‘yiladi.

O‘quvchilar tushuna oladigan tilda gapirish, ularni ishontira olish o‘qituvchi oldiga qo‘yiladigan asosiy shartlardan biri hisoblanadi. Buning uchun esa, o‘qituvchida yuqorida aytilganidek, mavzuni yaxshi bilishdan tashqari, uni bayon etishning aniq belgilangan rejasi bo‘lishi kerak. Nutqdagi fikrlarni birinchi va ikkinchi darajali tarzda tuzib, ularni o‘zaro bog‘lab, o‘quvchilarni avvalo nutq rejasi bilan tanishtirib, so‘zni boshlash lozim. Vaqtni hisobga olish, notiqlik fazilatlaridan biridir. Chunki so‘zlash muddati oldin e’lon qilinib, shunga rioya qilinsa, agar iloji bo‘lsa, sal oldinroq tugatilsa, o‘quvchilar zerikishmaydi.

Nutqning ta’sirchanligi va ifodaliligi haqidagi gap ma’lum ma’noda nutq sifatlari haqida aytilgan gaplarga yakun yasashdir, chunki yaxshi nutqning fazilatlarini ko‘rsatib o‘tish, nutqda uchraydigan ayrim tipik xatoliklarni tahlil qilish, pirovard natijada ta’sirchan bir nutqni shakllantirishga xizmat qiladi. Nutqdagi fikrlarni o‘quvchilarga mazmunli yetkazishning xilma-xil yo‘llari va vositalari mavjud. Ularni yordamchi vositalar deb ham atash mumkin. Masalan, yumor yoki biror hikoyatni olaylik. Nutqdagi uzluksiz ilmiy-ommabop

fikr oqimi, uning bir maromda bayon qilinishi o'quvchini ham, har qanday tinglovchini ham zeriktirib qo'yishi mumkin. Shunday paytda, yumor, hikoyat, qiziqarli voqealar haqida gapirish o'qituvchiga juda qo'l keladi. Yumoring nutq mazmuniga mos holda keltirilishi yana ham yaxshidir. Shunday qilinsa, o'quvchi ham dam oladi, ham o'rganilayotgan mavzuga nisbatan qiziqish paydo bo'ladi.

Nutqda mavzu doirasida ba'zi fikr va mulohazalarni keltirish ham maqsadga muvofiqdir. Bunday fikrlar notiq fikrining to'g'riligini, haqqoniy ekanligini isbotlash uchun foydalaniladi, faqat ulardan foydalanishni suiiste'mol qilmaslik kerak. Badiiy adabiyot namunalaridan, hikmatli so'zlardan, tildagi ifoda - tasvir vositalaridan nutqda o'rni bilan foydalanish ham ijobiy natijalarga erishishni ta'minlaydi.

Nutqning o'quvchilarga qanday ta'sir qilishida va ularda qanday taassurot qoldirishida o'qituvchining nutqiy jarayon davomida o'zini qanday tuta bilishi, imo-ishoralari, hatto kiyinishi kabi omillarning ham o'rni bor. Samimiylik, xushmuomalalik, odoblilik, o'quvchilarga hurmat bilan qarash kabi fazilatlar nutqning o'quvchilar tomonidan e'tibor bilan tinglanishiga sabab bo'ladi.

Mukammal notiqlik san'atiga ega bo'lish - o'qituvchilar uchun ulkan mehnat talab qiladigan murakkab jarayondir. Nutqning o'tkirligi, yorqinligi va originalligi tinglovchi va o'quvchilarda his-tuyg'u va qiziqish uyg'otishi, uning e'tiborini qaratishi, aytilayotgan narsaning mazmunini yaxshilab yetkazish uchun zarurdir.

Demak, nutq aniq va ravon bo'lishi, grammatik jihatdan to'g'ri tuzilgan bo'lishi, adabiy talaffuz qoidalariga bo'ysunishi, boshlanishidan oxirigacha izchil bayon qilinishi lozim. Ana shunday nutq asosida o'rganilayotgan bilim o'quvchi xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi. Shunday nutq madaniy nutq talablariga javob beradi. Buning uchun o'qituvchilardan tinimsiz izlanish va o'z ustida ishlash, filologik bilim va muttasil nutqiy mashq qilish talab qilinadi.

Pedagogik maqsadga muvofiqlik va o'qituvchi tashqi qiyofasi. Tarbiyachining tashqi qiyofasi estetik talabga mos bo'lishi

kerak. O‘z tashqi ko‘rinishiga befarq bo‘lish yaramaydi. Ammo haddan ziyod e‘tibor qilish ham xush kelmaydi.

Soch turmagi ham, kiyimi ham, kiyimdagi bezaklar ham pedagogik topshiriq – tarbiyalanuvchi shaxsini shakllantirishga samarali ta‘sir ko‘rsatish talabiga bo‘ysundirilgan bo‘lishi kerak. O‘qituvchi pardozi-andoz, turli bezak-taqinchoqlardan foydalanishga haqli ekanligi holda, me‘yor va shart–sharoitdan kelib chiqib ish ko‘rishi kerak. O‘qituvchining estetik qiyofasiga yuzidagi xayrixohlik va ochiqlik, xatti-harakatlardagi me‘yor va ixchamlik, gavda holati, yurishidagi orastalik ham ta‘sir ko‘rsatadi. Hatto sinfga qanday kirishingiz, bolalarga qarashingiz, stulni qanday surib qo‘yishingiz, sinfda yurishingiz – ana shunday “mayda-chuyda”larda sizning o‘quvchiga ta‘sir etishingiz namoyon bo‘ladi. Sizning barcha xatti-harakatlaringizdan, qo‘l harakatlari va qarashingizdan ular katta kuch va o‘ziga nisbatan ishonchni his etishlari kerak. Aynan ana shunday – o‘ziga ishongan, xayrixoh va xotirjaam – holda siz inson sifatida tushunarli, tarbiyachi sifatida sezilarli daraja kuchli bo‘lishingiz mumkin. O‘qituvchining tashqi qiyofasi, mimikasi, pantomimikasi, gavda holatiga nisbatan qo‘yiladigan muayyan talablar qanday? Bularni qanday boshqarish mumkin? Chunki bu elementlarning barchasi kishining ichki holati kayfiyatiga bog‘liq bo‘lib, ishni o‘z ijodiy kayfiyatini boshqarish texnikasini o‘rganishdan boshlash kerak.

Hissiy holatni boshqarish. Pedagogik muloqotning ko‘pchilik oldida, namoyishkorona xarakterda amalga oshirilishi yosh o‘qituvchilarda, odatda, “muskullar siqilishi”, ishonchsizlik, qo‘rquv hissini paydo etadi. Ko‘pchilikning qadalgan nigohlari ostida faoliyat ko‘rsatish o‘qituvchi fikrining izchilligiga, nutq apparatining holatiga ta‘sir ko‘rsatadi. Bularning barchasi quriladigan muloqotga ruhiy-fiziologik tayyorgarlik ko‘rish, muloqot jarayonida o‘z hissiy holatini boshqarib turishni talab etadi. O‘z–o‘zini boshqara olish qobiliyatini quyidagi test yordamida tekshirib ko‘rish mumkin .

Hissiy holat va kayfiyatga oid savollarga “ha” yoki “yo‘q” deb javob bering:

1. Siz har doim xotirjam holda o'zingizni tuta olasizmi?
 2. O'z kayfiyatingizni mo'tadil tuta olasizmi?
 3. Auditoriyada dars tinglayotganingizda yoki uyda dars tayyorlayotganingizda har doim fikrni bir joyda to'plab, diqqat bilan o'tira olasizmi?
 4. Siz o'z hissiyotlaringizni boshqara olasizmi?
 5. O'z o'rtoqlaringiz va yaqinlaringiz bilan muloqot paytida har doim ham e'tiborli va samimiy bo'la olasizmi?
 6. O'rganilgan o'quv materialini oson o'zlashtira olasizmi?
 7. Sizda o'zingiz qutilishni istagan yomon odatlar(ingiz) bormi?
- “Ha” va “yo‘q” javoblar sonini hisoblab chiqing. Agar hamma javoblar ijobiy yoki ijobiy javoblar miqdori ko‘p bo‘lsa, siz xotirjamsiz va o‘zingizni boshqara olishdan tashvishlanmaysiz yoki o‘zingizga juda yuqori baho berasiz; agar javoblar ko‘pchiligi inkor bo‘lsa, bu bu xovotirlikdan, ishonchsizlikdan, o‘z–o‘zidan qoniqmaslik va o‘ziga tanqidiy ko‘z bilan qarashdan dalolat beradi. “Ha” va “yo‘q” degan javoblar soni bir–biriga yaqin bo‘lsa, bu o‘z kamchiliklarini ko‘ra olish, ularni yo‘qotish uchun o‘z ustida mustaqil ishlashga tayyor ekanligingizdan dalolat beradi. O‘z–o‘zini boshqarishning muhim yo‘nalishlari sifatida quyidagilarni ajratish mumkin:

- samimiylik va optimizmni tarbiyalash:
- o‘z xulq–atvorini nazorat qilish (mushaklar siqilishi, harakatlar, nutq, nafas sur‘atini boshqarish);
- faoliyat turlarini almashtirib turish (mehnat, musiqa tinglash, mutolaa, yumor, imitatsion o‘yinlar...);
- o‘z–o‘zini ishontirish.

Kezi kelganda V.A. Suhomlinskiyning ruhiy muvozanat to‘g‘risidagi maslahatlariga ham amal qilinmasa, foydadan holi bo‘lmaydi. “Keragidan ortiq jiddiylik va yot tuyg‘ularning oshib ketishiga yo‘l qo‘ymang; yumorga murojaat qiling; kelajakka ishonch bilan qarang, samimiy bo‘ling. Bunday sifatlarni rivojlantirish shartlari quyidagilar: o‘z kasbining ijtimoiy ahamiyatini chuqur anglash, burch hissini rivojlantirish, pedagogik ziyraklik, shuningdek, o‘z–o‘zini tahlil

qilish va o‘ziga mos baho bera olishga intilish” . O‘z–o‘zini ruhiy jismoniy nazorat qilishning bu barcha usullari shaxs yo‘nalganligini yaxlit shakllantirish bilan bog‘liq. Chunonchi, bu sohadigi o‘zgarishlarsiz keyingi usullarning samarasi past bo‘ladi.

Keyingi guruh usullar tana faoliyatini nazorat qilishga asoslanadi. Hissiy kechinmalarining asosiga u paydo etadigan xatti-harakatlarni o‘zgartirish orqali ta’sir ko‘rsatish mumkin. Nazoratni asosan, nimaga qaratish lozim? Mimik va skelet mushaklari tonusiga, nutq sur’atiga, nafas va sh .k.ga.

Yosh o‘qituvchi, agar o‘tmoqchi bo‘lgan darsidan oldin o‘zida ishonchsizlik, bolalardan qo‘rqish tuyg‘ularini sezsa, iloji boricha xotirjamlanish seansini o‘tkazish lozim. Autogen mashqlar (ruhiy o‘z–o‘zini nazorat) – o‘ziga xos ruhiy–jismoniy gimnastika – nafas va artikulyatsiya mashqlari bilan bir qatorda pedagogik faoliyat anjomlarining bir qismiga aylanishi lozim. Ruhiy o‘z–o‘zini nazorat qilish xotirjam holatga keltirish mashqlari hamda muhim kasbiy sifatlarni shakllantirishga oid formulalarni o‘zida mujassamlashtiradi. Buning uchun “foytunchi o‘tirishi” holatida o‘tirib, maxsus formulalar yordamida tana a’zolarida og‘irlik va issiqlik, mushaklar erkinligi va xotirjamlik holatini paydo etish kerak. Keyin o‘zida muayyan holatni yuzaga keltirish uchun quyidagi formulani ichdan takrorlash mumkin:

“Men xotirjamman. Men darsni ishonch bilan olib boraman. Bolalar meni eshitishadi. Men darsga yaxshi tayyorlanganman. Dars qiziqarli. Barcha bolalarni taniyman va ko‘ra olaman. Men o‘zimga ishonyman va g‘ayratim jo‘sh uryapti. Men o‘zimni boshqara olaman. Kayfiyatimni tetik va a’lo. O‘qitish qiziqarli mashg‘ulot. O‘quvchilar meni hurmat qilishadi, eshitishadi va bergan topshiriqlarni bajarishadi. Darsda ishlash menga yoqadi. Men o‘qituvchi”.

Ammo dastlabki mashg‘ulotlardagi muvaffaqiyatsizliklardan esankirab qolmaslik kerak. Bu o‘rinda muntazam o‘z ustida ishlash, ruhiy–jismoniy apparatni mashq qildirish lozimki, bu mashqlar natijasida u pedagog faoliyatining zo‘r quroliga aylanadi.

Pantomimika. Pantomimika bu – tana, qo‘l va oyoqlarning harakati. U asosiy fikrni ajratib ko‘rsatadi, obrazlarni chizadi. Darsni berilib tushuntirayotgan o‘qituvchining xatti-harakatlarini kuzatsangiz, bosh, bo‘yin, qo‘l, butun tana korpusi harakatidagi organik uyg‘unlikni ko‘rasiz!

O‘qituvchining go‘zal va ifodali gavda holati shaxsning ichki fazilati hisoblanadi. Qomatning barvastaligi, diqqat e‘tiborning jamlanganligi pedagogning o‘z kuchi va bilimiga ishonganligidan dalolat beradi. Shu bilan birga qomatning bukchayganligi, boshning osilib turishi, qo‘llarining shalpayganligi kishining ichki zaifligidan, o‘ziga ishonmasligidan dalolat beradi.

O‘qituvchi o‘zida o‘quvchilar oldida to‘g‘ri tura olish ko‘nikmasini shakllantirishi kerak (oyoqlar 12 – 15 sm kenglikda, bir oyoq ikkinchisiga nisbatan biroz oldinda). Barcha hatti-harakatlar va gavda holati o‘zining aniqligi va oddiyligi bilan o‘quvchilar diqqatini tortishi kerak. Gavda holati estetikasi yomon odatlarni rad etadi. Masalan, oldinga-orqaga tebranib turish, o‘zini bir oyoqdan ikkinchisiga tashlab turish, mudom kursining suyanchig‘ini tutib turish, qo‘lda har xil yot narsalarni aylantirib turish, boshni qashib turish, burunni artib turish, qulog‘ini ushlab turishi va sh .k.

Pedagogning qo‘l harakatlari organik va chegaralangan bo‘lishi kerak, ulardagi keskin keng va o‘tkir burchakli harakatlar maqsadga muvofiq emas. Qo‘l harakatlarining chizuvchi va psixologik turlari farqlandi. Chizuvchi harakatlar fikrini chizadi va illyustratsiyalaydi. Ular unchalik zarur bo‘lmasa-da tez-tez uchrab turadi. His–tuyg‘uni ifodalaydigan qo‘l harakatlari (psixologik) muhimroq bo‘lib hisoblanadi. Masalan, “marhamat” demoqchi bo‘lsangiz, qo‘l kaftini yuqoriga qaratib, ko‘krak balandligida ko‘tarasiz va o‘zingizdan bir narsa uzayotganday sal oldinga yo‘naltirasiz. Shuni inobatga olish kerakki, qo‘l harakatlari ham, xuddi korpusning boshqa harakatlari singari, aytilayotgan fikrning kechish jarayonini ko‘rsatadi, uning orqasidan kelmaydi.

Qaddi-qomatning to‘g‘ri bo‘lishiga sport bilan shug‘ullanish, maxsus mashqlar yordam beradi. Masalan, zanjirga turgandek turish, devorga orqasini tutib turish. Shuningdek, o‘z-o‘zini tekshirib turish, o‘ziga chetdan turib, bolalar ko‘zi bilan qarash ham juda muhim ahamiyatga ega.

Muloqot faol bo‘lishi uchun ochiq pozada turish muhimdir: qo‘llarni qovushtirib turmaslik, sinfga yuzma-yuz turish, bolalar bilan o‘zi orasidagi masofani qisqartirish natijasida o‘zaro ishonch hissi paydo bo‘ladi. Bir qadam oldinga yurish axborotning muhimligini anglatadi va diqqatni to‘plashga yordam beradi. Bir qadam orqaga yurish bilan so‘zlovchi tinglovchilarga dam berganday bo‘ladi.

Mimika. Mimika – bu o‘z fikri, hissiyotlari, kayfiyati, holatini yuz muskullarini orqali ifodalash. Ko‘pincha yuz va nigohlar o‘quvchilarga so‘zdan ko‘ra kuchliroq ta’sir ko‘rsatadi. Qo‘l harakatlari va mimika yetkazilayotgan axborotning ta’sirchanligini oshirib uning yaxshi o‘zlashtirilishiga yordam beradi.

Bolalar o‘qituvchining yuzini “o‘qiydilar” ya’ni uning munosabati va kayfiyatini darhol bilib oladilar. Shuning uchun yuz faqat ifodalabgina qolmay, balki masqsadga zid bo‘lgan kayfiyatni yashirishi ham kerak. Sinfga uydagi g‘am tashvishlar niqobini olib kirmaslik kerak. Yuz va qo‘l harakatlari orqali faqat ishga taalluqli bo‘lgan, o‘quv–tarbiya vazifasini bajarishga qaratilgan narsalarni ifodalash talab etiladi.

Albatta, yuz ifodasi nutq mazmuni va munosabat xarakteriga mos bo‘lishi kerak. U, xuddi butun tashqi ko‘rinish singari o‘ziga ishonch, ma’qullash, tanqid qilish, qoniqmaslik, quvonch, qoyil qolish, befarqlik, qiziquvchanlik, hayratlanish kabi holatlarning o‘nlab ko‘rinishlarini ifodalashi lozim. Yuzdagi tabassum kishining ma’naviy sog‘lomligi va axloqiy kuchini anglatadi. Mimikaning muhim ifodaviy detallari ko‘z va qoshdir. Ko‘tarilgan qoshlar hayratni, chimirilgan qoshlar – fikrning to‘planganligini, harakatsiz qoshlar – xotirjamlik , befarqlikni, qimirlab, titrab-turgani qattiq ta’sirlanganlikni anglatadi.

Ko‘zlar ham kishi yuzidagi eng ifodali a‘zo bo‘lib hisoblanadi. “Quruq nigoh – bo‘sh qalbning ifodasidir” (K.S.Stanislavskiy). O‘qituvchi o‘z yuzining imkoniyatlarini, ma’noli qarash ifodasini chuqur o‘zlashtirish, yuz muskullarini va a‘zolarini keragidan ortiq harakatlantirish yoki o‘lik, harakatsiz yuz ifodasidan qochish kerak. O‘z xatti-harakatlari va o‘quvchilarning xulq-atvorini anglash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun ruhshunoslar tadqiqotlarida berilgan etalonlar bilan tanishib chiqish tavsiya etiladi. Masalan shodlik holatidagi xulq atvor etaloni: tabassum, ko‘zlar charaqlaydi, qo‘l harakatlari tezlashadi, ko‘p gapiradi, birovga yordam berish istagi paydo bo‘ladi. Qo‘rquv holatidagi xulq-atvor etaloni: ko‘zlar chaqchaygan, gavda biroz egilib, qotib qolgan, qoshlar ko‘tarilgan, ovoz qaltiraydi, yuz osilgan, qorachiqlar o‘ynab turibdi, harakatlar keskin, tana qaltiraydi.

O‘qituvchi nigohi bolalarga qaratilgan bo‘lib, vizual aloqa imkoniyatini hosil qilish kerak. Devorga, derazaga, shiftga qarab gapirishdan saqlanish lozim. Vizual aloqa ongli rivojlantirishga muhtoj bo‘lgan texnika bo‘lib hisoblanadi. Nigohlar bilan barcha o‘quvchilarni qamrab olishga intilishi kerak.

Nutq texnikasi. O‘qituvchi nutqini idrok etish va tushunish tinglash jarayoni bilan bog‘liq bo‘lib, bu jarayon, olimlarining hisob kitobiga ko‘ra, o‘quv vaqtining 4 dan 1 yoki 2 dan 1 qismga teng bo‘lar ekan. Shuning uchun ham, ma’lumki, o‘quvchilar tomonidan o‘quv materialining to‘g‘ri idrok etilishi o‘quvchi nutqining mukammalligiga bog‘liq.

Bolalar o‘qituvchining, ayniqsa, nutqiy ko‘nikmalariga nisbatan sezgir bo‘ladi. Qaysidir tovushlarni noto‘g‘ri talaffuz etish bolalar orasida kulgiga sabab bo‘lish, bir xil ohangdagi nutq zerikishga olib kelishi, noo‘xshov ohang, baland nutq dildan suhbat qurganda soxtadek qabul qilinishi, o‘qituvchiga nisbatan ishonchsizlik hissini uyg‘otishi mumkin.

Ba’zilar, ovoz ham, uning tembri ham kishi uchun faqat tabiat in’omi bo‘ladi, deb hisoblashadi. Ammo zamonaviy eksperimental

fiziologiyani ta'kidlashicha, tovushning sifatini tubdan yaxshilash mumkin. Ushbu yo'nalishda inson o'z-o'zini takomillashtirishning misli ko'rinmagan natijalariga erishganligi haqida tarix ham guvohlik beradi. Demosfen haqida, ehtimol, hamma eshitgan bo'lsa kerak. U o'zidagi jismoniy nuqsonlarni bartaraf etib, qadimgi Gretsiyaning buyuk siyosiy arbobiga aylangan. Shu tariqa 20 yoshli Mayakovskiy ham odamlar oldida turib nutq so'zlashga o'zini tayyorlagan. U og'ziga kichik qayroqchalarni solib sershovqin Rioni daryosi bo'yida nutq so'zlab, mashq qilgan.

Bugungi kunda nutq texnikasini egallash bo'yicha qator mashqlar tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, ular teatr pedagogikasi tajribasiga asoslangan va ular nutq nafasi, ovoz va talaffuzga oid ko'nikmalar majmuidan iborat. Ular o'qituvchiga o'z nutqi mazmunining butun boyligini yetkazish imkonini beradi.

Nafas. Nafas organizmning tirikligini ta'minlab, fiziologik vazifani bajaradi. Shuningdek, u nutqning energiya manbai ham sanaladi. Nutq nafasi fonatsion (grekcha phono - tovush) nafas deb ham ataladi. Kundalik hayotda nutqimiz dialogik xarakterda bo'lganligi uchun nutq nafasida o'qituvchi o'quv materialini tushuntirishi yoki ma'ruza qilish paytida ko'p vaqt o'zi gapirishiga to'g'ri kelganligi uchun, agar nutq nafasi mashq qildirilmagan bo'lsa, yurak urishi tezlashishi, qizarib ketishi yoki nafas tiqilib qolish mumkin.

Nafas texnikasining asosiy holatlarini qisqacha bayon qilamiz. Nafas jarayonida ishtirok etadigan muskullarga ko'ra nutq nafasining 4 xil turi ajratiladi.

1. Yuzaki nafas yelkani va ko'krak qafasining yuqori qismini ko'tarib tushiradigan muskullar yordamida amalga oshiriladi. Bu zaif, yuzaki nafas bo'lib, unda o'pkaning faqat yuqori qismi ishtirok etadi.

2. Ko'krak nafasi qovurg'alararo muskullar yordamida amalga oshiriladi. Bunda ko'krak qafasi eniga kengayadi. Diafragma harakati zaif bo'lganligi uchun chiqarilayotgan nafasning kuchi ham zaif bo'ladi.

3. Diafragma nafasi ko'krak qafasining bo'ylamasiga kengayishi hisobiga amalga oshiriladi. Natijada diafragma qisqaradi, lekin qovurg'alararo muskullar qisqarishi unchalik faol bo'lmaydi.

4. Diafragma–qovurg'a nafasi ko'krak qafasining ham eniga, ham bo'yiga kengayishi natijasida amalga oshiriladi. Natijada diafragma, qovurg'alararo va qorin muskullari qisqaradi. Bu nafas eng to'g'ri nutq nafasi sanaladi.

Diafragma–qovurg'a nafasi mexanizmini ko'rib chiqamiz. Diafragma qisqarib, pastga qarab egiladi. Va ichki organlarni bosadi yuqori natijada qorinning qismi turtib chiqadi, ko'krak qafasi bo'yiga kengayadi, o'pka kengayib, havoga to'ladi.

Nafas chiqarilayotganda diafragma bo'shashib, yuqoriga ko'tariladi, ko'krak qafasi eniga qisqara boshlaydi. Ko'krak qafasining umumiy hajmi qisqaradi, unga nisbatan bosim kuchayadi va havo tashqariga chiqadi.

O'z ustida mustaqil ishlash orqali o'qituvchi nutq nafasi tizimini takomillashtirish mumkin.

Ovoz texnikasi. O'qituvchilar orasida shundaylari ham borki, ularning ovozlari tabiatan to'g'ri qurilgan. Lekin bunday holatlar kam uchraydi.

Ha, yaxshi ovoz ham, agar maxsus mashqlar qo'llab turilmasa, yillar davomida buzilishi, eskirishi mumkin. Umuman, aytish mumkinki, har bir kishida kuchli, egiluvchan, jarangdor bo'lishi mumkin bo'lgan o'ziga xos ovoz mavjud. Ovoz nafas olish jarayonida havoning kekirdak orqali o'tib, tovush paychalarining cho'zilishi va qisqarishi natijasida hosil bo'ladi. O'qituvchi ovozining o'ziga xos tomonlari nimada? Avvalo **ovoz kuchi**. U nutq apparatidagi barcha organlarning faol ishlashiga bog'liq. Chiqarilayotgan havoning nutq organlariga nisbatan bosimi qancha kuchli bo'lsa, ovoz kuchi ham shuncha yuqori bo'ladi.

Ovoz parvozi. Ovoz eshutilishining muhim sharti sanaladi. Bu ibora orqali mutaxassislar ovozni masafaga uzata olish va uni boshqarib turish ko'nikmalarini aniqlaydilar.

Ovozning egiluvchanligi va harakatchanligi ham muhim sifatlardan biridir. Bu o‘rinda nutq mazmuniga ko‘ra ovozni osongina o‘zgartira olish ko‘nikmalari tushuniladi. Balandlik – ovozning ton darajasidir. Inson ovoz balandligi jihatdan bemaolol ikki aktavagacha o‘zgarishi mumkin, biroq odatiy nutq jarayonida biz faqat uch besh notalar bilangina cheklanamiz holos.

Diapazon – bu ovoz hajmi yoki kengligi bo‘lib, uning chegarasi eng past va eng yuqori ton bilan belgilanadi. Ovoz diapazonining qotib qolishi monotonlikning paydo bo‘lishiga olib keladi. Ovozning bir xilda yangrashidrokni o‘tmaslashtiradi va uyqu chaqiradi.

Yaxshi qurilgan ovozga bo‘yoqdor tembr boyligi ham xos bo‘ladi.

Tembr – bu ovozning rangi, yorqinligi, shuningdek, uning muloyimligi, iliqqligi va individualligidir. Yangrayotgan ovozda har doim asosiy va qo‘shimcha tonlar mavjud bo‘ladi. Ana shu qo‘shimcha tonlar (obertonlar) qancha ko‘p bo‘lsa, ovoz shuncha yorqin, bo‘yoqdor va shirali bo‘ladi. Ovozning dastlabki tembri rezonatorlar yordamida o‘zgartirilishi mumkin. Rezonatorlarning ikki asosiy turi ajratiladi: yuqori (bosh) va pastki (ko‘krak). Bosh chanog‘i burun va og‘iz bo‘shlig‘i yuqori, ya‘ni bosh rezonatorga kiradi. Pastki (ko‘krak) rezonatorlarini qo‘lni ko‘krak qafasi ustiga qo‘yib (gapirganda) his etish mumkin. Demak, bosh va ko‘krak rezonator sezgilari yordamida tovush paychalari ishi shunday tashkil etiladiki, kekirdakda paydo bo‘ladigan ovozning dastlabki tembri bosh va ko‘krak rezonatorlarida rezonans paydo etiladigan qo‘shimcha ton (oberton)ga ega bo‘ladi. Ovozning bu barcha xususiyatlari maxsus mashqlar yordamida hosil qilinadi. Ovoz tarbiyasi – individual va ko‘p mehnat talab etadigan jarayon. U qat‘iy individual metodikani, shuningdek, tajribali mutaxassislar tomonidan nazorat qilib borishni talab etadi. Ovozni ongli ravishda mashq qildirish natijasida uning tembrini o‘zgartirish, yoqimsiz bo‘yoqlarni bartaraf etish umumiy tonni pasaytirish mumkin. Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, past tonli ovozlar bolalar tomonidan yaxshi qabul qilinadi, ularga ko‘proq yoqadi va ko‘proq taassurot qoldiradi. Nutq tovushini tarbiyalashga qaratilgan mashqlarni

Z.V.Savkova hamda V.P.Chihachyovning teatr va san'at oliygohlari uchun yozilgan ma'ruzachi ovozi haqidagi qo'llanmalaridan topish mumkin.

Shu o'rinda o'qituvchi ovozi gigiyenasi haqida ham gapirib o'tishni lozim topdik. Maxsus tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ovoz bilan bog'liq kasb egalarida ovoz apparatining kasallanishi ehtimoli yuqoriroq bo'lar ekan. O'qituvchilarda bu ko'rsatgich 40.2% ni tashkil etadi. Ovoz sifatining buzilishi sabablari turlicha. Ularning asosiy to'rt xili ajratiladi: kundalik ovoz sarflash darajasining yuqoridagi, ovoz apparatini ishlatishdagi uquvsizlik, gigiyena qoidalariga rioya qilmaslik, ovoz organlarining tug'ma zaifligi. Ovozni zo'riqtirish natijasida buzilishi, asosan, o'qituvchi ish vaqtining yarmidan ortiqroq qismida faqat o'zi, yana dars vaqtida odatdagidan balandroq ovoz bilan gapirishidir. Ovoz intensivligining oshib borishi sinf shovqinini bosish zaruratidan kelib chiqadi. Odatda sinf shovqini o'rtacha 55-72 detsibelni tashkil etsa, sog'lom ovoz intensivligi 65-74 detsibelgacha bo'ladi. Ovozni zo'riqtirish nutq apparatidan foydalanishdagi uquvsizlik bilan bog'liq bo'lganda, bu holat o'quvchilar bilan salomlashishdayoq namoyon bo'ladi. Bunda o'qituvchi qisqa nafas chiqarish jarayonida, ya'ni o'pkada qolgan havo qoldig'i bilan gapiradi. Agar nutq yetarli nafas tayanchiga ega bo'lmasa, chiqarilayotgan nafas qisqa bo'ladi, natijada o'qituvchi tez-tez nafas olib turishiga to'g'ri keladi. Bunday holatda o'qituvchi og'zidan nafas olganligi uchun tozalanmagan, namlanmagan havoni yutadi, bu esa tomoq va hiqildoqning shilliq qavatini quritadi va achishtiradi hamda surunkali tovush xirillashiga olib keladi.

Ana shunday kasb kasalliklari oldini olish uchun ovoz gigiyenasi bilan shug'ullanish, maktabda ishlashning muayyan sharoitlariga rioya qilish kerak. Ish kuni yakunlangandan so'ng o'qituvchi 2-3 soat mobaynida uzoq gapirishdan o'zini tiyishi kerak. Zarur bo'lganda past ovozda gapirib, qisqa iboralar bilan chegaralanishi talab etiladi.

Dars jadvalini tuzayotganda ishni inobatga olish kerakki, ish staji 10 yilgacha bo'lgan o'qituvchilarda ovoz apparati 3-4 soatda

charchaydi va faqat 1 soatdan keyin o'z holiga qaytishi mumkin. Yuqori ish stajiga ega bo'lgan o'qituvchilarda bu holat 2-3 soatda ro'y berishi mumkin. Ular 2 soatgacha ovozlari dam berishlari kerak bo'ladi.

Yuqori nafas yo'llarining sog'lom bo'lishiga, asab tizimini va ovqatlanish tartibiga alohida e'tibor berish kerak ovoz apparati o'tkir, achishtiruvchi taomlarga nisbatan sezgir bo'ladi. O'ta sovuq yoki o'ta issiq, achchiq taomlar, alkogol ichimliklar, chekish og'iz va tomoq shilliq qavatining qizarishiga olib keladi. Tomoq qurib qolishning oldini olish uchun mutaxassislar ichimlik sodasi va yod aralashmasi bilan chayishini maslahat beradilar.

Quyidagi maslahatlar ham foydadan holi emas:

- nutqni monotonligi ham nutq apparati mushaklarini charchatib qo'yadi, chunki bunday nutqda faqat bir guruh mushaklar ishtirok etadi, shuning uchun nutq qanchalik ifodali bo'lsa, ovoz shunchalik sog'lom bo'ladi;

- bo'r qipiqalaridan hosil bo'lgan chang ham ovozni yemiradi, shuning uchun doska artadigan latta doim namlangan bo'lishi kerak;

- ovoz bilan ishlagandan so'ng sovuq kunlarda tez yurish ham mumkin emas, chunki tez yurganda nafas olish tezlashadi va chuqurlashadi, natijada ko'p sovuq havo nafas yo'lidan o'tadi.

Diktsiya. O'qituvchi uchun talaffuzning aniq bo'lishi muhim kasbiy sifat bo'lib, o'qituvchi nutqining o'quvchilar tomonidan to'g'ri qabul qilinishiga xizmat qiladi. Diktsiya – bu so'z, bo'g'in va tovushlarni to'g'ri, aniq va tushunarli talaffuz qilish demakdir.

Talaffuzning aniqligi nutq a'zolari, ya'ni lablar, til, jag'lar, tish, qattiq va yumshoq tanglay, kekirdak, hiqildoq, ovoz paychalarining uyg'un va izchil faoliyatiga bog'liq. Nutq tovushlarini hosil qilishda til, lablar, yumshoq tanglay, kichik tilcha, pastki jag' faol ishtirok etadi. Shuning uchun ham ularni mashq qildirish mumkin.

Agar nutqdan kamchiliklar tug'ma bo'lsa o'quv mashg'ulotlari yordam bermaydi. Unga tibbiy jarrohlik yo'li bilan ta'sir ko'rsatishga to'g'ri keladi. Masalan: til ostidagi tugunchani jarrohlik yo'li bilan

to'g'rilash, tishlarni maxsus moslama yordamida to'g'rilash, u yoki bu tovushni talaffuz qilish jarayonida tilning holatini to'g'rilash uchun maxsus zondlardan foydalanish va sh.k.

Talaffuzdagi noorganik, ya'ni tug'ma bo'lmagan kamchiliklar uyda yoki maktabda bolaning nutqiga e'tiborsizlikning natijasidir. Talaffuzda ko'p uchrab turadigan defekt tez gapirish natijasida paydo bo'ladigani bo'lib, bunda so'zlar xuddi bir-biriga mingashib chiqayotganga o'xshaydi. Tushunarsiz nutq, tovushlarning tishlar orasidan o'tib chiqishi natijasida paydo bo'ladi, bunda so'z oxiridagi unli yoki so'z orasidagi ba'zi tovushlar tushirib qoldiriladi. Ba'zilar yuqori lablarini osiltirib gapirganlarida portlovchi va shovqinli undoshlar to'g'ri talaffuz etilmay chiqadi. Diktsiyani rivojlantirish avvalo artikulyatsiyaga – nutq organlarining harakatiga bog'liq. Buning uchun maxsus artikulyatsion gimnastikadan foydalanish kerak. Bu gimnastikaga, birinchidan, nutq apparatini mashq qildirish, ikkinchidan, har bir unli va undosh tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishga qaratilgan mashqlar kiradi.

Tabiiyki, nutqda allaqachon ildiz otgan noto'g'ri talaffuz malakalarini tezda yo'qotib bo'lmaydi. Buning uchun qattiq mehnat qilish, sabr-matnat bilan muntazam mashq qilib borish kerak.

Ritmika. Alohida so'z, bo'g'in va iboralarni talaffuz etishdagi tezlik, davomiylik nutqni ritmik va me'yoriy tashkil etish bilan birgalikda nutq temporitmini belgilaydi. Bu nutqning muhim elementi sanaladi. Binobarin, nutqning ifodaliligi va pauzalar o'z-o'zidan so'z bilan birgalikda tinglovchiga emotsional ta'sir etish kuchiga ega bo'ladi.

Nutq sur'ati o'qituvchining individual xususiyatlariga, nutq mazmuni va muloqot vaziyatiga bog'liq. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, nutqning optimal sur'ati o'zbek tilida 100 dan 110 gacha, rus tilida 120 taga yaqin, inglizlarda 120 dan 150 tagacha so'zdan iborat. Ammo, yana tajribalarga tayanib aytish lozimki, o'qituvchi V-VI sinflarda dars o'tayotganda nutq sur'ati daqiqasiga 50-55 so'zdan, kollej, litsey o'quvchilari uchun esa o'qituvchi nutqi tezligi daqiqasiga 65-70 so'zga

teng bo‘lishi kerak. Alohida so‘zlarni talaffuz qilishi doimiylik faqat so‘zning uzunligiga emas, balki shu so‘zning muayyan kontekstdagi ahamiyatga ham bog‘liq. “Quruq so‘z xuddi g‘alvirdan no‘xat elanib tushganday chiqadi, ma’noli so‘z esa xuddi suv bilan to‘ldirilgan pufakka o‘xshab sekin aylanadi” (K.S.Stanislavskiy). So‘z, matn qanchalik muhim bo‘lsa, nutq shuncha sekin bo‘ladi.

O‘quv materialining muhim va murakkab qismini o‘qituvchi sekin sur‘atda bayon etadi, keyin esa tezroq gapirishi mumkin. U yoki bu xulosani, aniqlikni, qoidani, prinsipni, qonunni shakllantirish kerak bo‘lganida nutq, albatta, sekinlashadi. Shuningdek, o‘quvchilardagi ta’sirlanish darajasini ham inobatga olish lozim. O‘quvchi qanchalik ta’sirlangan bo‘lsa, o‘qituvchi shuncha sekin va past gapirishga to‘g‘ri keladi.

Nutq ifodaliligini oshirish uchun mantiqiy va psixologik pauzalardan mohirona foydalanish talab etiladi. Mantiqiy pauza nutq savodliligini, psixologik pauza nutq jonliligini ta’minlaydi. Pauza, nutq sur‘ati va musiqaviyligi birgalikda nutq ohangdorligi, ifodaliligini belgilaydi. Bir maromdagi monoton nutq zerikishga, diqqat va qiziqishning pasayishiga olib keladi. Akademik I.P.Pavlov zerikishni “ochiq ko‘zda uhlash” deb atagan edi. O‘qituvchi nutqi tabiiyligi, obrazliligi, musiqaviyliligi bilan tinglovchini jalb etish kerak. O‘qituvchi nutqining ifodaviy boyligini oshirishga qaratilgan maxsus mashqlar ham bor.

Demak, o‘z nutqiy imkoniyatlarimizni xolis baholab olganimizdan so‘ng, muntazam ravishda o‘z ustimizda mashq qilishimizga to‘g‘ri keladi: nafasni kura olish, to‘g‘ri talaffuz, temporitm (nutq sur‘ati)ni ishlab chiqish, tovush paychalarini chiniqtirish. O‘qituvchining ovozi yorqin, shirali, jarangdor, aniq, diqqatni tortuvchi, mushohadaga, faoliyatga chorlovchi bo‘lishi, allalamasligi kerak.

Nazorat savollari:

1. Pedagogik mahorat nima?

2. Pedagogik mahoratni oshirishda bilim va ma'lumotlarning mazmuni nimalardan iborat?
3. Fanning maqsad va vazifalari nimadan iborat?
4. Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari nimalardan iborat?
5. Pedagogik texnika qanday malakalarni o'z ichiga oladi?
6. Pedagogik texnika talaba faoliyatida qanday rol o'ynaydi?
7. Pedagogik mahorat va pedagogik faoliyatning mazmuni nimalardan iborat?
8. Pedagogik mahoratni takomillashtirish tamoyillariga izoh bering.
9. Ijtimoiy pedagogik mahorat deganda nimani tushunasiz?
10. Pedagogik mahoratning o'ziga xos xususiyatlari nimadan iborat?
11. Agar tarbiya-san'at bo'lsa, uni o'rganish va o'rgatish mumkinmi?
12. Pedagogik mahorat – tajribami? Malakami? Yoki boshqa narsami?
13. Pedagogik texnika bilan pedagogik mahorat qanday nisbatda bo'ladi?
14. Mohir o'qituvchilarning tarbiyaviy ish tajribasi nimalarda yordam berishi mumkin?
15. Har qanday holda ham yaroqli bo'lgan hammabop tarbiyaviy vositalar bormi? Agar yo'q bo'lsa, nima uchun?
16. O'qituvchi nima sababdan tadqiqot ishi bilan shug'ullanishi kerak?
17. Pedagogik texnikani egallashda aynan guruhda ish olib borishning roli nima uchun katta?

7-§. PEDAGOGIK QOBILIYAT- PEDAGOGIK MAHORATNING ASOSI

Qobiliyatning psixologik tavsifi. Qobiliyat – odam psixikasining eng muhim xususiyatlaridan biri bo‘lib, bu xususiyatlarni haddan tashqari keng to‘ldirish imkoni oqibatida qandaydir bir qobiliyatning nisbiy zaifligi, hattoki shunday bu qobiliyat bilan hammasidan ko‘ra bir-biri bilan chambarchas bog‘liq faoliyatning muvaffaqiyatli bajarish imkoni aslo yo‘q emas.

Qobiliyat bilimdan farq qiladi. Bilim – bu ilmiy mutolaalar natijasidir, qobiliyat esa insonning psixologik va fiziologik tuzilishiga xos bo‘lgan xususiyatdir. Qobiliyat bilim olish uchun zaruriy shart-sharoit yaratadi, shu bilan birga, u ma’lum darajada bilim olish mahsulidir. Umumiy va maxsus bilimlarni o‘zlashtirish, shuningdek, kasbiy mahoratni egallash jarayonida qobiliyat mukammallashib va rivojlanib boradi.

Qobiliyatga yaqinroq turadigan tushunchalar ko‘nikma va malakalardir.

Ko‘nikmalar – o‘qituvchining kasbiy faoliyati jarayonida hosil qilingan tajriba va bilimlar asosida bajariladigan ishning mukammal usuli.

Malakalar – o‘qituvchining ongli faoliyatni bajarishi jarayonida hosil qilingan kasbiy intellektual faoliyatning avtomatlashgan komponentlari yig‘indisi.

Qobiliyatlar bilim, ko‘nikma va malakalarda aks etmaydi, balki ularni egallash dinamikasida namoyon bo‘ladi. Faoliyat uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish jarayonida yuzaga chiqadigan farqlar qobiliyatlar to‘g‘risida mulohaza yuritish imkonini beradi.

Demak, shaxsning faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan, bilim ko‘nikma va malakalarni egallash dinamikasida yuzaga chiqadigan farqlarda namoyon bo‘ladigan individual psixologik xususiyati qobiliyatlar deyiladi. Ushbu xususiyatni aniqlash uchun ba’zi bir omillarni tahlil qilish maqsadga

muvofig; a) shaxsning muayyan sifatlari yig'indisi belgilangan vaqt oralig'ida egallagan faoliyati talablariga javob bersa-unda mazkur faoliyatga nisbatan qobiliyati mavjuddir; b) inson shunday holatlarda faoliyat talabiga javob bera olmasa-psixologik sifatlari, ya'ni qobiliyatlari mavjud emasdir (juda zaifdir). Lekin xususiyatli shaxs ko'nikma va malakalarni egallay olmaydi, degan ma'no anglatmaydi, biroq ularni egallash vaqti cho'zilib ketadi, xolos.

Shunday qilib, qobiliyatlari individual psixologik xususiyatlari bo'lishi bilan birga:

a) ularni shaxslarning mavjud boshqa xususiyatlariga, aqliy sifatlarga, xotira xislatlarga xarakter fazilatlariga, hissiy kechinmalariga va boshqalarga qarama-qarshi qo'yish mumkin emas;

b) shuningdek, qobiliyatlarni shaxsning mazkur xususiyatlari bilan qat'ga qo'yish, ularni aniqlashtirish ham nuqsonlarni keltirib chiqaradi. Shuni ta'kidlash joizki, mulohaza bildirilgan sifatlardan ba'zi biri yoki ularning yig'indisi faoliyat talablariga javob bera olsa yoki ularning ta'sirida vujudga kelsa, u holda shaxsning mazkur individual xususiyatlarini qobiliyatlari deb atash imkoniyati tug'iladi.

Biz qobiliyatni shaxsni tabiiy imkoniyatlari deb tushunishimiz mumkin emas, chunki, qobiliyatni biz "har bir insonning o'ziga xos psixologik xususiyatlari" deb aniqlashtirdik, shuning uchun bu har qanday shaxsda mavjud bo'lgan tabiiy xususiyat deb xulosa chiqarish aslo mumkin emas. Tabiiy bo'lib faqat anatomo-fiziologik xususiyatlari, ya'ni qobiliyatning rivoji asosida yotgan iste'dod bo'lishi mumkin, qobiliyatning o'zi ham doimiy rivojlanish natijasida paydo bo'ladi.

Ta'kidlash lozimki, qobiliyat o'zining mavjudligi bilan dinamik tushunchadir. Qobiliyat faqat harakatda, faqat rivojlanishda paydo bo'ladi. Psixologik jihatdan qobiliyat haqida, o'zining rivojlanishdan oldin mavjud bo'lganligidek hamda qobiliyat o'zining to'la rivojiga etib, o'zining rivojlanishi to'xtashi haqida so'zlash aslo mumkin emas. Chunki qobiliyat doimiy rivojlanishda bo'lishi kerak.

Qobiliyat faqat rivojlanishda mavjud deb, biz bu rivojlanishni u yoki boshqa amaliy yoki nazariy faoliyat jarayonida amalga oshishini nazardan chetda qoldirishimiz mumkin emas, albatta. Bundan xulosa qilinadiki, qobiliyat aniq faoliyatdan tashqarida paydo bo'lmaydi. Faqat uni psixologik tahlil yo'li bilan biz ularni bir-biridan ajrata olamiz. Qobiliyatni aniq faoliyat boshlanishidan oldin mavjud va faqat uning yakunida qo'llaniladi, degan xulosaga kelish aslo mumkin emas. Go'dakda absolyut eshitish qobiliyati, tovush balandligini bilish dunyoga kelishidan oldin mavjud bo'lmaydi. Ungacha faqatgina anatomo-fiziologik haqiqatdek iste'dod nishonasi mavjud bo'lgan. Gap qobiliyat faoliyatda namoyon bo'lishida emas, balki ularning shu faoliyatda yaratilishidadir.

Qobiliyatning rivojlanishi, umuman har qanday rivojlanish ham bir tekisda kechmaydi: uning harakat kuchi ziddiyatlikning kurashidir, shuning uchun rivojlanishning turli bosqichida qobiliyat va qiziqishlar o'rtasida ziddiyatlar bo'lishi mumkin. Lekin bo'lishi mumkin bo'lgan bunday ziddiyatlarni tan olish, qiziqishlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi qobiliyatdan mustaqil yoki aksincha, qobiliyat – qiziqishlardan paydo bo'lib qolmaydi.

Qobiliyatlar sifatida ro'yobga chiqadigan psixik xislatlar majmuasining tuzilishi yaqqol va alohida faoliyat talabi bilan belgilanganligi tufayli har qaysi turdagi faoliyatlar uchun o'ziga xos tarzda qo'yilishi turgan gap. Buning uchun ayrim misollarni tahlil qilib o'tamiz:

1) matematik qobiliyat: matematik materiallarni umumlashtirish, mulohaza yuritish jarayonini qisqartirish, matematik ish - amallarni kamaytirish, masalani idrok qilish bilan natijasi o'rtasida aloqa o'rnatish, to'g'ri va teskari fikr yuritishdan o'tishlik, masala yechishda fikr yuritishning epchilligi kabilar;

2) adabiy qobiliyat; nafosat hislarining yuksak taraqqiyot darajasi, xotirada yorqin ko'rgazmali obrazlarning jonliligi, «til zehni», behisob xayolot, ruhiyatga qiziquvchanlik, o'zi ifodalashga intiluvchanlik va boshqalar. Ajratib ko'rsatilgan qobiliyatlar tarkibidan ko'rinib

turibdiki, matematik va adabiy qobiliyatlar o‘zaro bir-biriga o‘xshamagan talablari bilan tafovutga egadir. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, pedagogik, musiqaviy, texnik, konstruktorlik, tibbiy qobiliyatlar va shunga o‘xshash qobiliyatlar tuzilishi maxsus xususiyatga ega bo‘lib, kasbiy ahamiyat kasb etishi mumkin.

Rus olimi I.P.Pavlov o‘z ta’limotida “badiiy”, “fikrlovchi”, “o‘rta” tiplarga ajratilgan shaxslarning ana shu uchta tipdan bittasiga taalluqli ekanligini tavsiflab beradi. Muallif ushbu tipologiyani yaratishda oliy nerv faoliyatining birinchi va ikkinchi signal sistemasidan iboratligi to‘g‘risidagi ta’limotiga asoslanadi. Birinchi signallar sistemasi obrazlar emotsiyalardan va ikkinchi signallar sistemasi esa obrazlar haqida so‘zlar orqali signal berishdan iboratdir. Ikkinchi signallar sistemasi I. P. Pavlov tomonidan “signallarning signali” deb nomlangan edi. Ushbu tipologiyani osonroq qilib quyidagicha tushuntirish mumkin:

- 1) shaxs psixik faoliyatida birinchi signallar sistemasining signallari nisbatan ustunlik qilsa, bu inson “badiiy” tipga taalluqlidir;
- 2) mabodo “signallarning signali” nisbatan ustuvor bo‘lsa bu shaxs “fikrlovchi tipga” munosibdir;
- 3) agarda har ikkala signallar aralashib ketgan bo‘lsa (birortasining ustunligi sezilmasa) - bu inson “o‘rta tipga” mansub odamdir.

Tipologiyaning o‘ziga xos tomonlari qisqacha ifodalanganda yoki tavsif qilinganida quyidagilar namoyon bo‘ladi:

1. “Badiiy tip” uchun bevosita u taassurotlar, jonli tasavvur, yorqin idrok, his-tuyg‘ular (emotsiyalar) natijasida vujudga keladigan obrazlarning yorqinligiga xosdir.

2. “Fikrlovchi tip” uchun mavhumlarning, mantiqiy tizimlarning, nazariy mulohazalarning, metodologik muammolarning ustunligi muvofiqdir.

Govard Gardner qobiliyatlarni intellektlar to‘plami deb atadi va uning yettita jihatini ajratib ko‘rsatdi. Biz intellektning ushbu jihatlaridan oltitasini o‘qituvchi pedagogik mahoratini

takomillashtirish nuqtayi nazaridan tahlil qilishimiz mumkin. Psixolog olim Olga Matveeva ushbu jihatlarni psixologik texnologiya bilan kuchaytirib modifikatsiyalaydi va o'qituvchining kasbiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlab, quyidagi qobiliyatlarni ko'rsatib o'tadi:

1. Muloqot qilish (kommunikativ) qobiliyati. O'qituvchi o'quvchilar bilan dars va darsdan tashqari jarayonlarda, sinfda ijobiy ruhiy iqlim yarata oladi.

2. Voqealarni oldindan ko'ra olish qobiliyati: Ushbu qobiliyat turi har bir o'qituvchining sergakligida, o'quvchilarning ruhiyatini, ichki dunyosini ko'ra olishida namoyon bo'ladi. Shunda o'qituvchi kim nimaga qodir ekanligini oldindan bashorat qila oladi.

3. Eshitish va his qilish qobiliyati. Bunday qobiliyatga ega bo'lgan insonlar musiqani sevishadi, ohangni yaxshi his qilishadi, deklamatsiya asosida proza va poeziyani yaxshi o'qishadi, eshitgan narsasini xotirada saqlaydi, ayniqsa, she'r va qo'shiqlarni sevib tinglaydi.

4. Kinestetik (teri-muskul) qobiliyat. O'qituvchining o'z xatti-harakatlarini muvofiqlashtirish qobiliyati, harakat ohangini his qilgan holda yo'naltiradi, vaqtni harakat sur'ati bilan his qiladi, o'zi uchun maishiy qulayliklarni yarata oladi, hayot marhamatlaridan rohatlanishni biladi.

5. Mantiqiy qobiliyat. Falsafiy mulohazalar yuritishni, raqamlarni, matematikani, murakkab masalalarni hal qilishni sevadi, sababiyat va oqibat natijalarini tushunish malakasiga ega, voqelikda asosiylikni ikkinchi darajalisidan ajrata oladi;

6. Shaxsning ichki qobiliyati. O'z-o'zini mukammal bilishi, tushunishi va his qilish qobiliyati, erkin shaxsda ichki qobiliyat mukammal rivojlanadi, irodasi mustahkam, qat'iyatli, har qanday vaziyatda o'z fikr-mulohazasini erkin bayon eta oladi.

Yaqqol qobiliyatlar tuzilishini tashkil qiluvchi shaxsning xislatlari, fazilatlarini orasida ma'lum turkumi yetakchilik, ustuvorlik qilsa, ayrimlari yordamchilik vazifasini bajaradi. Ma'lumki, pedagogik

qobiliyatlar tuzilishida yetakchi xislatlar sifatida pedagogik odob (takt), bolalarni sevish, o'quvchilar jamoasini tashkil qilish va uni boshqarish, kuzatuvchanlik, talabchanlik, bilimlarga chanqoqlik, bilimlarni uzatishga o'quvchanlik va shunga o'xshashlar tan olinadi. O'qituvchilik qobiliyatining yordamchi (qo'shimcha) fazilatlariga quyidagilar kiradi: artistlik, nutqiy qobiliyat, diqqatni taqsimlash, akademik qobiliyatlar va hokazo. Pedagogik qobiliyatlarning yetakchi (asosiy) va yordamchi (qo'shimcha) tarkiblari, jabhalari ta'lim jarayoni muvaffaqiyatini ta'minlaydigan birlikni (birikuvni) yuzaga keltiradi hamda o'qituvchi shaxsi bilan bog'liq bo'lgan hamkorlik, individual faoliyatini tashkillashtiradi. Qobiliyatlardan muayyan darajada umumiy va torroq ma'noda maxsus sifatlarni ajratish orqali ma'lum turkum tizimini yuzaga keltirish mumkin. Bundan kelib chiqqan holda qobiliyatlarni umumiy va maxsus qobiliyatlar guruhiga ajratish maqsadga muvofiq. Umumiy qobiliyatlar (sifatlar) maxsus qobiliyatlarga (sifatlarga) zid tarzda talqin qilish mumkin emas. Shaxsning umumiy qobiliyatlari hosil qiluvchi omillarningning yaqqol psixologik hodisa yoki voqelikdir. Maxsus qobiliyatlar ko'lam jihatdan torroq bo'lishiga qaramay, chuqurroq mohiyatni o'zlarida mujassamlashtiradi.

Pedagogik qobiliyat va uning tuzilishi. Pedagogik qobiliyat – bu qobiliyat turlaridan biri bo'lib, kishining pedagogik faoliyatga yaroqliligini va shu faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug'ullana olishini aniqlab beradi. Pedagogik psixologiyada o'qituvchilik faoliyatida pedagogik qobiliyatlarning tutgan o'rnini ilmiy izohlab berishga oid samarali tadqiqotlar olib borilgan.

Yirik psixolog S.L.Rubinshteyn ta'kidlab o'tganidek, pedagogik jarayon o'qituvchi-tarbiyachining faoliyati tariqasida rivojlanuvchi bola shaxsini shakllantiradi, bu esa pedagogning o'quvchi faoliyatiga naqadar rahbarlik qilishiga yoki aksincha, unga ehtiyoj sezmasligiga bog'liq. Bola shaxsining rivojlanishida o'qituvchining roli benihoya muhimdir, chunki u ta'lim va tarbiya jarayonining tashkilotchisi vazifasini bajaradi. Shu bois, hozirgi sharoitda o'qituvchining

tashkilotchilik qobiliyatiga nisbatan yuksak talab qo'yiladi, shuning uchun ijtimoiy-tarixiy tajribalarning boyligi ehtiyojlar ko'lamining ortishiga bevosita bog'liq.

XX asrning 70-80-yillarda o'qituvchining xarakter-xislatlari, pedagogik qobiliyatlari, unda tarbiyachilik mahoratini tarkib toptirish shartlari chuqur o'rganildi. Jumladan, rus olimasi N.V.Kuzmina o'qituvchilik faoliyatida pedagogik qobiliyatlarning o'rni va ularni tarkib toptirishga oid qator ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borgan. U o'z tadqiqotlarida pedagogik qobiliyatlarni gnostik (bilishga oid), proyektiv (oldindan rejalashtirishga qaratilgan), konstruktiv, tashkiliy va kommunikativ turlarga ajratib, ularning har biriga chuqur psixologik ta'rif beradi. N.V.Kuzmina pedagogik qobiliyatning muhim alomatlari qatoriga kuzatuvchanlikni ham kiritadi, o'qituvchining bu xislati o'quvchining ichki kechinmalari, his-tuyg'ulari kabi omillarni aniqlashga xizmat qiladi.

Tadqiqotchi A.I.Shcherbakov fikriga ko'ra, pedagogik faoliyat – bu o'qituvchi oldiga jiddiy talablar qo'yadigan murakkab psixologik aktdir. Pedagogik faoliyat o'qituvchini chuqur va puxta bilimga, pedagogik qobiliyatga, mustahkam xarakterga, yuksak ma'naviyatga ega bo'lishini taqozo qiladi. A.I.Shcherbakov o'qituvchi shaxsi 6 ta kasbiy-tarkibiy qismdan iborat ekanligini ta'kidlaydi:

- 1) yuksak saviyadagi bilim va madaniyat;
- 2) yo'nalishning aniq ifodalanganligi;
- 3) yuksak axloqiy hislarning mavjudligi;
- 4) yuqori darajada yuzaga keluvchi faollik va barqaror mustaqillik;
- 5) qat'iy va silliq xarakter;
- 6) pedagogik qobiliyatlar.

Yirik olim F.N.Gonobolin pedagogik qobiliyatlarni quyidagi turlarga ajratishni taklif etadi:

- 1) didaktik qobiliyatlar;
- 2) akademik qobiliyatlar;
- 3) pertseptiv qobiliyatlar;

- 4) nutq qobiliyatlari;
- 5) tashkilotchilik qobiliyati;
- 6) avtoritar qobiliyatlar;
- 7) kommunikativ qobiliyatlar;
- 8) pedagogik xayolot;
- 9) diqqatni taqsimlay olish qobiliyati.

F.N.Gonobolin pedagogik qobiliyatlarni tarkib toptirish bosqichlari, xususiyatlari va xossalari to'g'risida mukammal ma'lumotlar beradi. Ta'lim va tarbiya jarayonini takomillashtirishda pedagogik qobiliyatlarning roli tajriba materiallariga asoslanib sharhlab beriladi.

Kasbiy-pedagogik faoliyatning muvaffaqiyatli amalga oshishi ko'p jihatdan pedagogning maxsus pedagogik qobiliyatlarni egallaganligiga bog'liq: T.I.Gavakov pedagogik qobiliyatlarni quyidagi tarzda guruhlashtirishni taklif etadi:

- obyekt (ta'lim oluvchilar)ni his eta olish;
- kommunikativ (kishilar bilan aloqa o'rnatish, samimiylik, muloqotchanlik);
- pertseptiv (kasbiy yetuklik, empatiya, pedagogik intuitsiya);
- shaxs dinamizmi (irodaviy ta'sir ko'rsatish va mantiqiy ishontirish qobiliyati);
- emotsional barqarorlik (o'z-o'zini boshqara olish qobiliyati);
- kreativ (ijodiy ishga qobiliyatlilik).

Maxsus qobiliyatlar ham o'qituvchining o'rgatuvchilik, ham tarbiyaviy ishiga taalluqlidir. O'qituvchining o'qitish, o'qish va o'rgatishga doir qobiliyatlariga quyidagilarni kiritish mumkin: o'rganiladiganlarini ko'ra olish va his eta olish qobiliyati; o'quv materialini mustaqil tanlay olish, ta'limning samarali metodlari va maqbul vositalarini aniqlay olish; o'quv materialini tushunarli bayon eta olish, uning barcha ta'lim oluvchilar uchun tushunarli bo'lishini ta'minlash; ta'lim oluvchilarning individualligini hisobga olish bilan bog'liqlikda o'qitish jarayonini tashkil eta olish qobiliyati; o'quv jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalana olish qobiliyati;

ta'lim oluvchilarning har tomonlama rivojlanishini tashkil etish qobiliyati; o'zining pedagogik mahoratini takomillashtirish qobiliyati; o'zining shaxsiy tajribasini boshqalarga uzatish qobiliyati; mustaqil ta'lim olish va o'z-o'zini rivojlantirishga qobiliyatlilik.

Tarbiyaviy ishni tashkil etish bilan bog'liq pedagogik qobiliyatlar quyidagilarda yorqin namoyon bo'ladi: boshqa kishilarning ichki his-tuyg'ularini to'g'ri baholay olish, boshqalar haqida qayg'ura olish qobiliyati (empatiyaga qobiliyatlilik); taqlid uchun namuna bo'lishga qobiliyatlilik; tarbiyaviy jarayonda individual o'ziga xosliklarini hisobga olishga qobiliyatlilik; rag'bat va o'zaro bir-birini tushunish, muloqotni zarur uslubini tanlay olishga qobiliyatlilik; o'ziga hurmat bilan munosabatda bo'lish, tarbiyalanuvchilar orasida obro'ga ega bo'lish qobiliyati.

Pedagog olim I.P.Podlasiy pedagogik qobiliyatning tuzilishini quyidagi tarzda aniqlashtirgan:

1. tashkilotchilik – ta'lim oluvchilarni jipslashtirish, ularning faoliyatini rejalashtirish, jamoaviy ishga jalb etish, yakunlarini chiqarish;
2. diagnostik – o'quv materialini tanlay olish, o'quv materialini tushunarli, aniq, obrazli, ishonchli va tizimli bayon eta olish; o'quvchilarning bilishga qiziqishlari va intellektini rivojlantirishni rag'batlash, o'quv-biluv faolligini oshirish hamda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va ijodkorlikka qobiliyatlilik;
3. pertseptiv – ta'lim oluvchilarning ichki olamiga ta'sir ko'rsatish; ularning emotsional holatini xolis baholash, psixikasidagi o'ziga xosliklarni aniqlay olish ko'nikmasi;
4. kommunikativ – ta'lim oluvchilar va jamoa bilan pedagogik maqsadga qaratilgan munosabatni o'rnatish olish ko'nikmasi;
5. suggestiv (suggestiya - ishontirish) – o'quvchilarga emotsional ta'sir ko'rsatish;
6. tadqiqotchilikka doir – pedagogik jarayon va vaziyatlarni anglash hamda obyektiv baholay olish ko'nikmasi;

7. ilmiy-bilishga doir – tanlangan ixtisoslikka doir belgilangan hajmdagi ilmiy bilimlarni egallay olish qobiliyati;
8. gnostik – obyekt, jarayonni va o‘z faoliyati natijalarini tadqiq etish hamda olingan natijalar asosida uni korrektsiyalay olish qobiliyati.

Pedagogika va psixologiya sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarga asoslanib, bizningcha, o‘qituvchining pedagogik qobiliyatlarini quyidagicha klassifikatsiya qilish mumkin.

1. Didaktik qobiliyat – bu oson yo‘l bilan murakkab bilimlarni o‘quvchilarga tushuntira olishdir. Bunda o‘qituvchining o‘quv materialini o‘quvchilarga tushunarli qilib bayon etishi, mavzu yoki muammoni ularga aniq va tushunarli qilib aytib berishi, o‘quvchilarda mustaqil ravishda faol fikrlashga qiziqish uyg‘ota olishi ko‘zda tutiladi. O‘qituvchi zarurat tug‘ilgan holatlarda o‘quv materialini o‘zgartira, soddalashtira oladi, qiyin narsani oson, murakkab narsani oddiy, tushunarsiz, noaniq narsani tushunarli qila oladi.

2. Akademik qobiliyat – barcha fanlar yuzasidan muayyan bilimlarga ega bo‘lishlik. Bunday qobiliyatlarga ega bo‘lgan o‘qituvchi o‘z fanini o‘quv kursi hajmidagina emas, balki ancha keng va chuqurroq biladi, o‘z fani sohasidagi yangiliklarni kuzatib boradi. Fan-texnika, ijtimoiy-siyosiy hayotga doir qiziqishlari bilan ko‘p narsalarni o‘rganib boradi.

3. Pertseptiv qobiliyat – qisqa daqiqalarda o‘quvchilar holatini idrok qila olish fazilati, bu o‘quvchining, tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira olish qobiliyati, o‘quvchi shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini juda yaxshi tushuna olish bilan bog‘liq bo‘lgan psixologik kuzatuvchanlikdir. Bunday o‘qituvchi kichkinagina alomatlar, uncha katta bo‘lmagan tashqi belgilar asosida o‘quvchi ruhiyatidagi ko‘z ilg‘amas o‘zgarishlarni ham fahmlab oladi.

4. Nutqiy qobiliyat – ixcham, ma’noli, ohangdor, muayyan ritm, temp, chastotaga ega bo‘lgan nutq, shuningdek, o‘qituvchi nutqining jarangdorligi, uning pauza, mantiqiy urg‘uga rioya qilishi, qobiliyatli o‘qituvchining nutqi darsda hamisha o‘quvchilarga qaratilgan bo‘ladi. O‘qituvchi yangi materialni tushuntirayotgan, o‘quvchining javobini

tahlil qilayotgan, ma'qullayotgan yoki qoralayotgan bo'lsa ham uning nutqi hamisha o'zining ichki kuchi, ishonchi, o'zi gapirayotgan narsaga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Fikrlar ifodasi o'quvchi uchun aniq, sodda, tushunarli bo'ladi.

5. Tashkilotchilik qobiliyati – sinf-guruh yoki jamoani uyushtirish va uni boshqarish iste'dodi. Tashkilotchilik o'quvchilarni xilma-xil faoliyat turiga jalb qilish uchun asos hisoblanadi. Bu qobiliyat, birinchidan o'quvchilar jamoasini uyushtirish, jipslashtirish, muhim vazifalarni hal etishga ruhlantirish bo'lsa, ikkinchidan, o'z shaxsiy ishini to'g'ri uyushtirish qobiliyatidir.

6. Obro'ga ega bo'lishlik qobiliyati - o'zining shaxsiy xususiyati, bilimdonligi, aql-farosatliligi, mustahkam irodasi bilan obro' orttirish uquvchanligi. Fanda bu qobiliyat turi – avtoritar qobiliyat, deb ham yuritiladi. Obro'ga ega bo'lish o'qituvchi shaxsiy sifatlarining butun bir kompleksiga, chunonchi, uning irodaviy sifatlariga (dadilligi, chidamliligi, qat'iyligi, talabchanligi va hokazo), shuningdek, o'quvchilarga ta'lim hamda tarbiya berish mas'uliyatini his etishga, bu ishonchni o'quvchilarga ham yetkaza olishiga bog'liq bo'ladi.

7. Kommunikativ qobiliyatlar – muomala va muloqot o'rnatish, bolalarga aralashish qobiliyati, o'quvchilarga to'g'ri yondashish yo'lini topa olish, ular bilan pedagogik nuqtayi nazardan samarali o'zaro munosabatlar o'rnatish, pedagogik nazokatning mavjudligi.

8. Psixologik tashxis (diagnoz)ga doir qobiliyatlar – insonning kelajagini oqilona tasavvur qilishdan iborat bashorati. Bu o'z harakatlarining oqibatlarini oldindan ko'rishda, o'quvchining kelgusida qanday odam bo'lishi haqidagi tasavvur bilan bog'liq bo'lgan shaxsni tarbiyalab yetishtirishda, tarbiyalanuvchining qanday fazilatlarining taraqqiyot etishini oldindan aytib bera olishda ifodalanadigan maxsus qobiliyat. Bu qobiliyat pedagogik optimizmga, tarbiyaning qudratiga, odamga ishonish bilan bog'liq bo'ladi.

9. Diqqatni taqsimlash qobiliyati – bir necha obyektlarga bir davrning o'zida o'z munosabatini bildirish. O'quvchi, o'qituvchi uchun

diqqatning barcha xususiyatlari - hajmi, uning kuchi, ko'chuvchanligi, idora qilina olishi va ishga solinishining taraqqiy etgan bo'lishi muhimdir.

Qobiliyatli, tajribali o'qituvchi materialni bayon qilish mazmunini va shaklini, o'z fikrini (yoki o'quvchi fikrini) diqqat bilan kuzatadi, ayni vaqtda barcha o'quvchilarni o'z diqqat-e'tiborida tutadi, toliqish, e'tiborsizlik, tushunmaslik alomatlarini hushyorlik bilan kuzatib boradi, barcha intizom buzilish hollarini e'tibordan qochirmaydi, nihoyat o'z shaxsiy xatti-harakatlarini (mimikasi, pantomimikasi, yurish-turishini) ham kuzatib boradi.

10. Konstruktiv qobiliyat - o'quv-tarbiya ishlarini rejalashtirish va natijasini oldindan aytish qobiliyati. Bu qobiliyat o'quvchi shaxsining rivojini loyihalashga, o'quv-tarbiya mazmunini, shuningdek, o'quvchilar bilan ishlash metodlarini tanlab olishga imkon beradi.

11. Gnostik qobiliyat – tadqiqotga layoqatlilik bo'lib, o'z faoliyatini, bu faoliyat jarayonini va uning natijalarini tekshirish hamda o'rganish natijalariga muvofiq faoliyatni qayta qurish qobiliyatidir.

Pedagogik qobiliyatlarni har tomonlama o'rganish qobiliyatlar shaxsning aql-idroki, his-tuyg'usi va iroda sifatlarining namoyon bo'lishidan iborat ekanligini ko'rsatdi. Pedagogik qobiliyatlar umumiy qobiliyat: masalan, adabiy va ilmiy ijod qilish, loyihalash qobiliyatlari bilan bog'langan. Ular o'qituvchi faoliyatining samaradorligini oshiradi. Bunday o'qituvchilar o'z o'quvchilarini (talabalarni) ana shu faoliyatga jalb qila borib, ularga ta'lim va tarbiya berishda katta muvaffaqiyatlarga erishmoqdalar.

Pedagogik qobiliyatlar o'qituvchi xarakter-xislatlari bilan bog'liq. Uyushqoqlik, qat'iylik, haqqoniylik pedagogik faoliyat darajasining ortishiga olib keladi, aksincha, uyushmaganlik, ko'ngilchanlik, adolatsizlik pedagog faoliyat samarasini pasaytiradi.

Har bir o'qituvchi o'ziga xos individual-psixologik xislatlarga ega bo'ladi. Ulardan ba'zilari harakatchanroq, boshqalari sustkashroq, ba'zilari qattiqqo'lroq, boshqalari yumshoqroq bo'ladilar. Bu

xususiyatlar yaxshi, ulardan oqilona foydalanishni bilish katta ahamiyat kasb etadi. Bundan o'qituvchiga his-tuyg'ular, emotsiyalar yot bo'lishi kerak, degan ma'no kelib chiqmaydi, aksincha u quvonishi ham, g'azablanishi ham, qayg'uga tushishi ham, xafa bo'lishi ham mumkin va lozim. Shu o'rinda rus pedagogi A.S.Makarenkoning quyidagi fikrlarini yana takror keltirish o'rinlidir: "Tarbiyachi tashkil etishni, yurishni, hazillashishni, quvnoq, jahldor bo'lishni bilishi lozim, u o'zini shunday tutishi lozimki, uning har bir harakati tarbiyalasin". Bu yerda gap o'qituvchining qandaydir bir andozadagi (qolipdagi) shaxsga barobarlashtirish zarurligi to'g'risida emas, balki uning o'z individual sifatlaridan ustalik bilan foydalanishi, o'zida shaxsning zarur xislatlarini tarkib toptirishi, o'z kamchiliklariga barham berishi to'g'risida boradi.

O'qituvchining kasbiy va shaxsiy fazilatlar tizimi. O'qituvchilik faoliyati "Inson-inson" kasb guruhiga kiradi. Pedagog professiogrammasiga e'tibor qaratilganda, biz mutaxassis yuksak axloqli, kuchli irodaga egalik, aniq maqsadga egalik, odamlarni tushuna olishi, e'tiborli bo'lishi, tasodifiy vaziyatlarga tez yo'nalgan bo'lishi, hissiy javobgarlikka ega bo'lishi lozimligini alohida ta'kidlab o'tish zarur.

M.G.Davletshinning fikricha, pedagogik professiogramma (kasbiy tasnifnoma)da bo'lajak pedagoglarga xos quyidagi sifatlar aks etishi kerak:

- shaxsiy xislatlar (bolalarni yaxshi ko'rish, ularni sevishtirish, mehnatsevarlik, jamoat ishlarida faollik va boshqalar);
- kasbga xos bilimlarga egalik (ta'lim va tarbiya jarayoni mohiyati bilan uning maqsad va vazifalarini tushunishi, psixologiya asoslarini, yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya asoslarini bilishi va boshqalar);
- o'z kasbiga xos xislatlar (hozirgi zamon pedagogikasining metodologik bilimlarni egallashi, kuzatuvchanlik, diqqat-e'tiborni taqsimlay olishi, pedagogik fantaziyaning rivojlanganligi, pedagogik takt va hokazolar);

- shaxsiy-pedagogik uddaburonlik (mashg'ulotlar uchun zarur materiallarni tanlay olish, o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqara olish, o'quv maqsadlarini rejalashtira olish va boshqalar);
- muloqotga kirisha olish (kommunikativlik) malakaga egalik (bolalarni o'ziga jalb etishni bilish, bolalar va ota-onalar bilan maqsadga muvofiq pedagogik munosabatlarni tiklashni bilish, bolalar va ota-onalar bilan tashqaridan aloqa bog'lashni bilish va hokazolar);
- gnostik (bilish) malakalariga egalik (bolalarning asab-psixik taraqqiyoti darajasini aniqlay olish, o'zining tajribasi va pedagogik faoliyati natijalarini tanqidiy tahlil qila olishi va boshqalar);
- ijodiy xislatlari (pedagogik mahoratni takomillashtirishga intilish, o'quvchilarni tarbiyalash dasturini ishlab chiqish va uni amalga oshirish qobiliyati va hokazolar).

E.M.Ivanov kasbiy faoliyatga individ va mehnat jamoasining ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy o'zaro harakati usuli sifatida qaraydi. B.G.Ananov, K.K.Platonov va M.O.Ochilovlar kasbiy faoliyatda individ va xodim shaxsini shakllantirishga ta'sir etishda o'zaro aloqadorlikning mavjudligini qayd etib o'tishadi.

V.A.Slastyov, S.B.Elkanov, A.J.Ajibaevlar "pedagoglik kasb tarbiyasi" tushunchasini quyidagicha izohlashadi: "Natijasi bo'lajak pedagog tomonidan kasbiy qadriyatlarni va ideallarni egallash, uning ma'naviy ehtiyojlarini va qiziqishlarini, ijtimoiy qimmatga ega motivlarni kengaytirish, hissiy, axloqiy va estetik tuyg'ularni, empatik qobiliyatlarni boyitish, amaliy pedagogik ko'nikma, malaka, odatlarni, o'z-o'zini refleksiya qilish tajribasini egallash kabi shaxs xususiyatlarini shakllantirish maqsadiga qaratilgan tadrijiy dialektik harakatdir".

Pedagogik mutaxassislik – mazkur kasb doirasidagi, ta'lim natijasida egallangan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisini tavsif etuvchi, hamda ularning qo'yilishi va o'zlashtirayotgan malakasiga muvofiq muayyan kasbiy-pedagogik vazifalarni hal etilishini ta'minlovchi faoliyat turi.

Pedagogik mutaxassislik – pedagogik ixtisos doirasidagi muayyan faoliyat turi. U aniq mehnat predmeti va mutaxassisning aniq funksiyasi bilan bog‘liq.

Pedagogik malaka – mutaxassisning ma’lum turdagi vazifani hal etishdagi imkoniyatlarini ifodalovchi kasbiy-pedagogik tayyorlanganlik darajasi va ko‘rinishi.

Kasbiy faoliyat yaxlit tizim sifatida bir qancha tarkibiy qismlarni o‘zida uyg‘unlashtiradi. I.P.Podlasiyning kasbiy salohiyatning tuzilishiga doir tasnifidan kelib chiqib, N.M. Egamberdieva pedagogik ta’limdagi kasbiy yetuklik (professionallashuv), ijtimoiylashuv, insonparvarlashuv va madaniy ijodkorlikning zamonaviy yo‘nalishlariga muvofiq keluvchi quyidagi muhim tuzilishli tarkibiy qismlarni ajratib ko‘rsatadi:

- pedagogik madaniyat;
- pedagog ijodkorligi;
- pedagogik aql-idrok;
- kasbiy chuqur bilimga egalik;
- individual faoliyat uslubi;
- ijodiy tashabbusning rivojlanishi;
- individual faoliyat;
- insonparvarlikka yo‘naltirilganlik;
- ijtimoiy faollik.

Istalgan kasbiy faoliyat zaruriy kasbiy sifatlarni shakllantirish tizimi asosida amalga oshadi. Bundan kelib chiqadiki, istalgan faoliyat belgilangan sifatlarga to‘plamini talab etadi. A.V.Karpovning fikricha, kasbiy zaruriy sifat – bu uni belgilangan me’yor darajasida amalga oshirish uchun yetarli va zarur faoliyat subyektiining individual xususiyatidir. Uning ta’kidlashicha, kasb vazifasida faqatgina shaxsiy psixik emas, balki psixikadan tashqari – somatik, biologik, morfologik, tipologik, neyrodinamik xususiyatlar ham yuzaga chiqishi mumkin. Bundan tashqari olim kasbiy yetuklikning tuzilishini ifoda etuvchi individual sifatlarga guruhini ham belgilab beradi:

- absolyut kasbiy zaruriy sifatlar – o‘rtacha darajadagi faoliyatni bajarish uchun zarur xususiyat;
- o‘zida faoliyatning yuqori va sifat ko‘rsatkichlariga erishish imkoniyatini aniqlab beruvchi muhim kasbiy zaruriy sifatlar;
- u yoki bu faoliyatni amalga oshirishga motivatsion tayyorlik;
- anti kasbiy zaruriy sifatlar – ularning rivojlanishining minimal darajasini taklif etuvchi yoki biror va shunga o‘xshash faoliyatda qarama-qarshi ko‘rsatkich sifatida yuzaga chiquvchi xususiyatlar.

N.M.Egamberdiyevaning fikricha esa, o‘qituvchining pedagogik madaniyati quyidagi kasbiy ahamiyatli shaxs sifatlarining mavjud bo‘lishini taqozo etadi:

- 1) shaxsga yo‘nalganlik: e‘tiqod, ijtimoiy faollik, fuqarolik his-tuyg‘usining mavjudligi;
- 2) kasbiy-axloqiy sifatlar: insonparvarlik, jamoaviylik, adolat, mehribonlik, haqiqatparvarlik, samimiylik, talabchanlik, bolalarga nisbatan mehr va hurmat, oliyjanoblilik, xolislik;
- 3) pedagogik mehnatga munosabat: vijdonlilik, javobgarlik tuyg‘usi, fidokorlik, berilib ishlay olish va o‘z pedagogik faoliyatidan qoniqish hissi, uni hayotining mazmuniga aylantira olish;
- 4) qiziqishlar va ma‘naviy ehtiyojlar: bilishga oid faollik, tafakkurning kengligi va teranligi, estetik madaniyat, qiziqishlarning va ma‘naviy ehtiyojlarning ko‘p qirraliligi, yoqtirgan ijodiy ishning mavjud bo‘lishi, tashqi ko‘rinish va nutq madaniyati.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, pedagogning kasbiy va shaxsiy sifatlarini quyidagi turkumlash mumkin:

Pedagogning kasbiy zaruriy sifatleri: mehnatsevarlik, ishchanlik, intizomlilik, mas‘uliyatlilik, maqsadni aniq belgilay olish, unga erishish yo‘llarini tanlay olish, tashkilotchilik, qat‘iyatlilik, adolatlilik, mahorat, pedagogik takt, talabchanlik, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni egallash, o‘z mehnati samaradorligini muntazam oshirib borish va boshqalar.

Pedagogning shaxsiy sifatleri: insoniylik, samimiylik, mehribonlik, sabr-chidamlilik, tartiblilik, rostgo‘ylik, vatanparvarlik,

javobgarlik, burchga sadoqat, insonlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish, iltifotlilik, qalban g'amxo'rlik ko'rsatish va boshqalar.

O'qituvchining kasbiy bilimlari darajasi. O'qituvchining pedagogik qobiliyati tizimida kasbiy bilimlar asosida shakllanadigan qoida va tamoyillarning anglanishi muhim ahamiyati ega. Ana shu asosdan kelib chiqqan holda, o'qituvchining kasbiy bilimlari darajasini quyidagi tarzda turkumlash mumkin:

1) metodologik – umumfalsafiy doirada rivojlanish qonuniyatlariga doir bilimlar, tarbiya maqsadining shartlanganligi va boshqalar;

2) nazariy – pedagogika va psixologiyaning qonunlari, tamoyillari va qoidalari hamda faoliyatning asosiy shakllari;

3) metodik – o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etish darajasi;

4) texnologik – aniq sharoitlarda ta'lim-tarbiyaga doir amaliy vazifalarni hal etish darajasi;

5) kasbiy fikrlash – pedagogik maqsadlarga erishishda egallanadigan bilimlarni tanlash, tahlil etish va umumlashtirish va ularni texnologik shaklda taqdim etish qobiliyati; tanqidiy fikrlash – biror bir harakatga doir qaror qabul qilishda ratsional, refleksiv fikrlash; aqlning tanqidiyligi – bu insonning o'zining va boshqa fikrlarni obyektiv baholay olish, ilgari surilayotgan fikr va g'oyalarni har tomonlama va chuqur tahlil etish ko'nikmasi; ijtimoiy yetuklik – jamiyat tomonidan qabul qilingan qadriyat, me'yor, ustanovka, xulq-atvor namunalarini egallaganlikning yuqori darajasi; faoliyat strategiyasi – istiqboldagi rivojlanish va talab etiladigan natijaga erishishni strategik rejalashtirish mahorati; kasbiy salohiyati – belgilangan darajada o'zining majburiyatlarini bajara olish qobiliyatini aniqlab beruvchi tabiiy va o'zlashtirilgan sifatlar yig'indisi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. "Qobiliyat" tushunchasiga ta'rif bering.
2. Pedagogik qobiliyat deganda nimani tushunasiz?
3. Pedagogik qobiliyat qanday tuzilishga ega?

8-§. PEDAGOGIK JARAYONNI LOYIHALASH, O‘QUV LOYIHALARI YARATISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Pedagogik jarayonni loyihalash texnologiyasi. Loyihalash texnologiyasi - bu bolalar va kattalarning hamkorlikni, birgalikda yaratishni ta'minlashning o'ziga xos vositasi, ta'limga o'quvchiga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirish usuli.

Loyihalash - bu murakkab faoliyat bo'lib, uning ishtirokchilari avtomatik ravishda: tashkilotchilar tomonidan maxsus e'lon qilingan didaktik vazifasiz, hayotning turli sohalari haqida yangi tushunchalar va g'oyalarni o'zlashtiradilar.

Pedagogik jarayonni loyihalashda pedagogning faoliyati, pedagogik vositalarni qo'llash mazmuni va imkoniyatigina hisobga olinmasligi kerak. U asosan alohida o'quvchi va o'quvchilar guruhi tomonidan tashkil etiluvchi faoliyat mazmunini yoritishi zarur. Loyihalash ta'limning ijtimoiy, pedagogik maqsadlarga tayangan holda, pedagogik jarayonni aks ettiruvchi umumiy strategiya hisoblanadi. Loyihalashda o'quv rejasi, dasturlari, darslik, metodik tavsiyalar va boshqa o'quv qo'llanmalar muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Pedagogik maqsad pedagogik jarayonni tashkil etishga tayyorlanish bosqichida pedagogik vazifa sifatida qabul qilinadi. Pedagogik faoliyatning muvaffaqiyati turli vazifalar mohiyatining bir yo'la yoki birin-ketin anglanishiga bog'liq.

Pedagogik faoliyat uchun umumiy bo'lgan vazifalarni belgilab olish muhimdir. So'ngra pedagogik jarayonning ma'lum bosqichi mohiyatini aniq ifodalaydigan bosqichli vazifalar (alohida olingan bosqich vazifalari)ni, nihoyat xususiy (vaziyatli) pedagogik vazifalarni aniq belgilab olish maqsadga muvofiq. Agar pedagogik vaziyat yetarli darajada to'g'ri anglanmasa, u holda pedagogik vazifalarning hal etish yo'llari ham to'g'ri belgilanmaydi. Endigina kasbiy faoliyatni boshlagan o'qituvchi tajribasizligidan pedagogik vaziyatni to'g'ri anglash, vazifalarni to'g'ri belgilash malakasiga ega bo'lmaydi. Shu

sababli ular o'zlaricha yo'l tutadilar va pedagogik vazifani darhol hal etmoqchi bo'ladilar, natijada jiddiy xatoga yo'l qo'yiladi. Ammo, ayrim holatlarda tajribali pedagoglar ham pedagogik vaziyatni to'g'ri anglashga e'tiborsiz qaraydilar. Natijada pedagogik faoliyatda nomutanosibligi vujudga keladi: pedagog o'z faoliyatining pedagogik maqsadlarni hal etilishini ta'minlay olish-olmasligini o'ylab o'tirmay, o'quvchilarni faollashtiradi, ko'rgazmali qurollardan foydalanadi, bilimlarni nazorat qiladi.

Pedagogik faoliyatning yana bir nomutanosiblik tomoni shundaki, ko'pchilik pedagoglar pedagogik vazifalarni ikkinchi darajali, funksional, o'tkinchi vazifalarga almashtiradilar va faqat ulargagina o'z diqqatlarini qaratadilar. Pedagogik vazifani anglash mavjud ma'lumotlarni tahlil qilish va tashxis qo'yish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shu o'rinda amerikalik olim Benjamin Blum tomonidan ilgari surilgan nazariy g'oyalardan birini ta'kidlab o'tish joiz. Ushbu taksonomiya o'quv maqsadlarini aniqlashtiribgina qolmay, balki ularni tartibga ham soladi. O'quv maqsadlarini aniq toifalash pedagogga o'z xatti-harakatlarini bosh maqsadga yo'naltirishga va o'quv materialini aniq tushunishga imkon yaratadi. Ushbu taksonomiyaning nazariy asosi sifatida 6 ta o'quv maqsadining toifalari olingan: bilish tushunish, qo'llash, analiz (tahlil), sintez va baholash. Bu taksonomiyaning sharofati o'laroq taraqqiyotning turli jabhalarida, xususan fan, texnika, texnologiya sohasida bugungi kunga qadar ulkan ilmiy izlanishlar va loyihalar amalga oshirildi. Umuman, ta'limni texnologiyalashtirish g'oyasi yangilik emas. Bundan 400 yil avval chex pedagogi Yan Amos Kamenskiy ta'limni texnologiyalashtirish g'oyasini ilgari surgan. U ta'limni "texnikaviy" qilishga undagan, ya'ni hamma narsa, nimaga o'qitilsa, muvaffaqiyatga ega bo'lsin. Natijaga olib keluvchi, o'quv jarayonini, u "didaktik mashina" deb atagan. Bunday didaktik mashina uchun: aniq qo'yilgan maqsadlar; bu maqsadlarga erishish uchun, aniq moslashtirilgan vositalar; bu vositalar bilan qanday foydalanish uchun, aniq qoidalarni topish muhimligini yozgan. Ta'lim nazariyasi va amaliyotida o'quv jarayoniga texnologik xususiyatni berish uchun 50-

yillarda birinchi urinishlar qilib ko‘rilgan. Ular o‘z ifodasini an‘anaviy o‘qitish uchun majmualar texnik vositalarni yaratishda topgan. Pedagogik loyihalashda pedagogik vazifaning yaxlit holda mazmunan, tashkiliy-metodik, moddiy-texnik hamda ijtimoiy-psixologik (hissiy, kommunikativ va h.z.) jihatdan hal etilishini ta‘minlash talab etiladi.

O‘quv dasturi yoki o‘quvchi shaxsi ta‘lim mazmunini loyihalashning asosi bo‘lib, bu vaziyatda o‘qituvchi pedagogik faoliyat, maqsad va sharoitlarga muvofiq holda o‘quvchilarga nimani taqdim etish xususida mustaqil qaror qabul qiladi. Qaror qabul qilish jarayonida quyidagilarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir:

1) o‘quvchilar tavsiya etilayotgan ma‘lumotdan nimani va qanday hajmda o‘zlashtirishlari zarurligi;

2) o‘quvchilarning dastlabki tayyorgarlik darajasi, ularning o‘quv ma‘lumotlarini qabul qilish imkoniyatlari;

3) o‘qituvchining shaxsiy, shuningdek, ta‘lim muassasasining moddiy-texnik bazasi. Bu o‘rinda o‘quv ma‘lumotlarini loyihalash texnologiyasi muhim o‘rin tutadi. Texnologik munosabatda o‘quv material va uning tuzilishi muammosi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu muammoni hal etishda “didaktik material” va “o‘quv material” tushunchalari mohiyatini farqlay olish zarur. G.A.Ball nuqtayi nazariga ko‘ra, didaktik material shunday obyektlar tizimidan (ya‘ni, didaktik material obyektlar tizimi) iboratki, ularning har biri ijtimoiy bilim va tajribadan kelib chiqib, moddiy yoki moddiylashgan model tarzida qo‘llaniladi.

Loyihalash - oldindagi faoliyat modelini tuzish, mavjud sharoitlarda o‘rnatilgan vaqt mobaynida yo‘l va vositalarni tanlash uchun, maqsadga erishish bosqichlarini ajratish, ular uchun alohida vazifalarni shakllantirish, o‘quv axborotini yetkazish vositasi va yo‘llarini aniqlash usulidir.

Ta‘lim oluvchilar yuqori darajada, boshqa o‘qitish usullaridan foydalanishga qaraganda, rejalashtirishda, tashkillashtirishda, nazoratda, tahlil qilish va vazifani bajarish natijalarini baholashda ishtirok etadilar. O‘quv loyihalar usuli ta‘lim beruvchining ta‘lim

oluvchilarga muammoni, faraz, vazifalarni ifodalashda yordam beradi va tezkor boshqaradi. Loyihalarda o'qitish nafaqat natijalar, balki jarayonini o'zi ham qimmatli. Loyiha fanlararo, bir fan yoki fan tashqarisida bo'lishi mumkin.

Loyihalash ikki usulda - shaxsiy va guruhliy asosda amalga oshiriladi. Har ikki yo'nalishning ijobiy va afzallik xususiyatlari bor. Ta'lim jarayonini loyihalash ta'limning sifati va samaradorligini oshiradi, talabalar loyiha ustida ishlashda loyiha rejasi asosida aniq maqsad uchun faoliyatlarini amalga oshiriladi. Natijada qatnashchilarda loyihani bajarilishi o'zining faoliyatiga bog'liq ekani tushunchasini anglash yuqori mas'uliyat hissini yuzaga keltiradi; loyihaning barcha bosqichlarini bajarish jarayonida fikrning tug'ilishidan yakuniy refleksiya gacha o'quvchilar tajriba orttiradilar; o'quvchilarda eng muhim o'quv ko'nikma va malakalari (tadqiqotchilik, baholash, mustaqil fikrlash, mustaqil qarorlar chiqarish, taqdimot qilish) shakllantirish to'la boshqariladigan jarayonga aylanadi.

O'quv loyihasining metodik pasporti bu – o'quv loyihasining mazmun-mohiyatidan kutiladigan maqsadi, o'quv dasturidagi o'rni to'g'risida qisqacha tavsif hisoblanadi. O'quv loyihasining metodik pasporti quyidagilarni o'zida aks ettiradi: fan predmetining o'quv rejasidagi mavzular, predmetning ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlarini, o'quv-pedagogik vazifalarni, o'quvchilarning yoshi xususiyatlaridan kelib chiqib o'quv loyiha topshirig'ini, loyihaning bajarilish muddatini va o'quv loyihasining ish rejimi.

Loyihalashtirish faoliyatini bajarish bosqichlari tahlil qilinadi:

- *Tayyorlov bosqichi:*

a) loyiha mavzusini tanlanib, uning dolzarbligi, yechilishi kerak bo'lgan muammo shakllantiriladi.

b) loyiha maqsadi, predmeti, obykti va vazifalari belgilanib olinadi.

v) loyihalashtirish faoliyati turlari va yechilishi lozim bo'lgan topshiriqlar tayyorlanib, ularni yechish usul va vositalari tanlanadi.

g) loyiha mavzusiga doir adabiyotlar va axborot manbalari bilan tanishiladi.

- *O‘quv faoliyatini rejalashtirish bosqichi.*

a) maqsadga erishish ketma-ketligi ishlab chiqiladi.

b) Ish rejasini tuziladi (loyihani ishlab chiqish, rasmiylashtirish, uni taqdimotga tayyorlash, hisobotni tuzish bo‘yicha topshiriqlarni ishtirokchilar o‘rtasida taqsimlash, ularni bajarish va tayyor holatga keltirish muddatini belgilanadi).

- *Loyihani bajarish bosqichi.*

a) kerakli ma’lumotlar to‘planib, tizimga keltiriladi va tahlil qilinadi.

b) tadqiqot natijalarini rasmiylashtirish jarayoni (tayyor holatga keltiriladi).

v) yo‘riqnomaga muvofiq loyiha faoliyati to‘g‘risida hisobot tayyorlanadi.

Loyihalash texnologiyasi turli xil kombinatsiyalarda o‘quv jarayoni ishtirokchilarining birgalikdagi faoliyatiga qaratilgan: o‘qituvchi - o‘quvchi, o‘quvchi - o‘quvchi, o‘quvchilar - ota-onalar.

Loyihaviy ta’lim asoslari.

1. Loyiha – aniq reja, maqsad asosida uning natijalanishini kafolatlagan holda pedagogik faoliyat mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan harakat mahsuli.

2. Loyihalash – boshlang‘ich ma’lumotlarga asoslanib, kutiladigan natijani taxmin qilish, bashoratlash, rejalashtirish orqali faoliyat yoki jarayon mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan amaliy harakat.

3. Ta’lim jarayonini loyihalash – alohida olingan ta’lim jarayonini samarali tashkil etish uchun barcha omillarni inobatga olgan holda uning loyihasi, sxemasini ishlab chiqish

4. Dars ishlanmasi – ta’limiy mazmunga ega loyiha hamda o‘qituvchi tomonidan tuzilishi majburiy bo‘lgan hujjat

5. Model – real, haqiqatda mavjud obyektning soddalashtirilgan, kichraytirilgan (kattalashtirilgan) yoki unga o‘xshagan nusxasi.

6. Modellash tirish hodisa, jarayon yoki tizimning umumiy mohiyatini to‘la yorituvchi modelni yaratish

Loyihaviy ta’lim quyidagi dolzarb muammolarni hal etish imkonini beradi va davr talabiga aynan mos keladi:

1) ta’limni real hayotga yuqori darajada yaqinlashtirilgan vaziyatda amalga oshirishni ta’minlaydi;

2) nazariy ma’lumotlarni amaliy faoliyat bilan bog‘lash va o‘quvchilarni faol mustaqil bilish jarayoniga jalb etish imkonini beradi;

3) kasbiy va tayanch layoqatlarini shakllantirish va rivojlantirishni ta’minlaydi. Loyihali ta’limning asosiy tushunchalariga quyidagilar kiradi:

1) loyiha;

2) loyihalashtirish;

3) loyihaviy faoliyat;

4) o‘quv loyihasi;

5) o‘quv loyihaviy faoliyat;

6) loyihaviy ta’lim;

7) loyihaviy ta’limning texnologiyasi.

Quyida biz mazkur tushunchalar asosida loyihali ta’limning o‘ziga xosliklarini yoritib beramiz. Loyiha (design - dizayn) – ba’zi murakkab ishlanmalarni yaratish bo‘yicha hujjatlar yig‘indisi. Loyiha (projekt) – tushunchasi kengroq ifodalanib, ma’lum natija (loyihaning beqiyos mahsuli)ga ega maqsadli faoliyatni tashkil etish uchun biror-bir tashkiliy shaklni belgilash uchun foydalaniladi. Loyihalashtirish - («loyiha» so‘zidan) – real natijaga olib keluvchi, qat’iy tartibga solingan harakatlar izchilligini o‘z ichiga oluvchi muammoni o‘zgartiruvchi faoliyatni anglatadi. Ta’lim ma’nosidagi loyihalashtirish o‘qituvchi tomonidan o‘quvchining muammoni izlash, uni hal etish bo‘yicha faoliyatni rejalashtirish va tashkil etishdan to (intellektual yoki moddiy mahsulotni) ommaviy baholash uchun uni hal etish usulini taqdim etishgacha mustaqil harakat qilishini ta’minlovchi maxsus

(laboratoriya sharoitlarida) tashkil etilgan maqsadli o'quv faoliyatidir. Loyihaviy faoliyat o'ziga xos ko'rinishga ega bo'lib, quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi: loyiha konsepsiyasini ishlab chiqish, loyihaviy faoliyatni tashkil etish, loyihaviy faoliyatni rejalashtirish, loyihaviy vazifalarni hal etish, loyihani rasmiylashtirish, hisobot tuzish, natijalar taqdimotini tayyorlash, loyihaning ommaviy taqdimoti, himoyasi va bahosi, refleksiya, hisobot topshirish.

O'quv loyihalarni texnologik jihatdan joriy etish masalalari.
O'quv loyiha, o'quv loyihaviy faoliyat. —O'quv loyihasi tushunchasi keng qamrovga ega bo'lib, quyidagi mazmunga ega: – muayyan iste'molchiga mo'ljallangan, muammolarni izlash, tadqiqot qilish va yechish, natijani noyob (moddiy yoki intellektual) mahsulot ko'rinishida rasmiylashtirishga qaratilgan o'quvchilarning mustaqil o'quv faoliyatini tashkil qilish usuli; – nazariy bilimlar orqali amaliy vazifalarni yechishga qaratilgan o'quv vositalari va qurollari; – rivojlantiruvchi, ta'lim va tarbiya hamda bilimlarni kengaytirish, chuqurlashtirish va malakalarni shakllantirishga qaratilgan didaktik vosita. Hozirgi vaqtda ta'lim amaliyotida loyihaning xilma-xil turlaridan foydalaniladi:

1) yetakchi faoliyat turiga ko'ra: tadqiqot, amaliy yo'naltirilgan va axborotli;

2) fanga yo'naltirilganligiga ko'ra: monoloyiha va fanlararo loyiha;

3) davomiyligiga ko'ra: uzoq muddatli, o'rta muddatli, qisqa muddatli;

4) loyiha ishtirokchilarining soniga ko'ra: individual va guruhli. Mazkur o'quv loyihalarining har biri o'zining maqsadi, natijasi va mavzu bahsi yuzasidan bir-biridan farqlanadi. Masalan, axborot tavsifiga ega loyihaning maqsadi muammoning holati to'g'risida ma'lumot to'plash, uning tahlili, umumlashtirilishi, yoritilishi va muammoni hal etishning mavjud usullari va vositalari tasnifi, ularning ustunliklari va kamchiliklarini izohlash (asoslash)dan iborat bo'lsa,

tadqiqotchilikka doir loyihada esa, tadqiqotni amalga oshirish, tadqiqot asosida muammoning asoslangan izohi, kelgusida rivojlanish uchun yangi muammolarni asoslash maqsad sifatida belgilanadi. Xuddi shunday natijasiga ko'ra ham loyihalar alohida o'ziga xoslikka ega. Masalan, tadqiqot tavsiyaga ega loyiha natijasi hisobot, ma'ruza, keys bilan tugasa, amaliy yo'naltirilgan loyihalar esa istiqbolli reja, harakatlar dasturi, strategiya, ma'lumotnoma kabi natijalarga ega bo'ladi. O'quv loyihaviy faoliyat – bu qo'yilgan vazifaga erishish, ta'lim oluvchilar uchun muhim va aniq foydalanuvchiga mo'ljallangan biror-bir yakuniy mahsul ko'rinishida rasmiylashtirilgan, muammoni yechish uchun ta'lim oluvchilarning belgilangan izchillikdagi harakatlari majmuasi. O'quv loyihaviy faoliyat uch bosqichda amalga oshiriladi:

1. Tayyorgarlik bosqichi. Mazkur bosqich sinfda amalga oshirilib, ikkita fazani o'z ichiga oladi: loyihaga kirishish hamda loyiha faoliyatini tashkil etish va rejalashtirish. Loyihaga kirishish bosqichida o'quvchilar:

- a) vaziyatga moslashish;
- b) muammoni shaxsan o'zlashtirish (muammoni tushunish va amaliy faoliyatning muayyan sohasi uchun uning yechimi dolzarb va muhimligini anglash);
- c) loyihaning maqsadi, muammoni hal etish masalalarini qabul qilish, aniqlashtirish va muayyanlashtirish;
- d) loyihaning natijasi (mahsuloti) va uni taqdim etish shakllarini anglash, loyihaning boshqa ishtirokchilari va o'qituvchi bilan muloqotning xarakterini belgilab olishadi.

2. Loyihaga kirishishning rejalashtirish fazasida:

- a) guruhlariga birlashishadi;
- b) loyiha bo'yicha ishlar turlarini ajratib, qatnashchilar orasida taqsimlashadi;
- c) loyiha bajarish bo'yicha ishchi rejasini ishlab chiqishadi;
- d) uni bajarishning optimal usullari va vositalarini tanlashadi;

e) natija taqdimotini rasmiylashtirish usullari va shakllarini belgilashadi;

f) loyiha mas'uli, hisobot va taqdimotni baholash mezonlarini muhokama qilishadi.

3. Loyihani bajarish bosqichi sinfdan tashqarida amalga oshirilib, ushbu davrda o'quvchilar o'zlarining vazifalari bilan muvofiq tarzda va ma'lum qilgan holda faol va mustaqil ishlaydilar:

a) turli manbalardan axborot to'plash, tahlil etish va umumlashtirish ishlarini olib boradilar;

b) tadqiqot o'tkazadilar, natijalarni tahlil etishadi;

c) zarurat tug'ilganda maslahatlashadilar;

d) oraliq natijalarni muhokama qiladilar;

e) hammadan olingan natijalarning umumiy to'planishi va muhokamasini o'tkazadilar.

4. Yakunlovchi bosqich ham sinfda tashkil etilib, loyiha taqdimoti, o'quvchilar mahsuloti va loyiha faoliyatining baholanishi, loyiha faoliyati refleksiya kabilarni o'z ichiga oladi:

a) loyihaning jamoaviy taqdimoti vaqtida quyidagilarni aks ettirishadi:

- muammo, maqsad va vazifalarni tushunish;

- ishni rejalashtirish va amalga oshirishni bilish; - yechimlarni izlash jarayoni tahlil qilish;

b) loyihalar va taqdimotning o'zaro baholashadi;

c) faoliyat va natijaning refleksiya qilishni amalga oshirishadi: ish davomida va yakunida yuzaga kelgan yutuqlarini anglash, yo'l qo'yilgan xatolarni tahlil qilish, shaxsiy o'zgarishlarini anglashni namoyon etadilar;

d) loyiha faoliyati haqida hisobot topshirishadi. Mazkur bosqichlarda amalga oshiriladigan o'quv loyihasi o'zining pasportiga ega bo'lib, pedagogik annotatsiya, loyiha topshirig'i, o'quvchilarga uslubiy ko'rsatmalar, loyiha ta'limning texnologik kartasini o'z ichiga qamrab oladi.

Pedagogik annotatsiyada quyidagi muhim jihatlar o'z aksini topadi:

- 1) o'quv fanining nomi;
- 2) loyiha mavzusi;
- 3) qatnashchilar;
- 4) ta'limning maqsadi;
- 5) rejalashtiriladigan o'quv natijalari;
- 6) o'quvchilar loyihani muvaffaqiyatli hal etishi uchun avval egallangan bilim va ko'nikmalar ro'yxati;
- 7) loyihaning turlanish belgilariga ko'ra tavsifnomasi;
- 8) loyihani bajarish tartibi;
- 9) loyihaning baholanishi;
- 10) loyihaviy ta'limni tashkil etish bosqichlari;
- 11) ta'lim modelining qisqacha tavsifnomasi.

Nazorat savollari:

1. Pedagogik salohiyatning tarkibiy qismlarini sanab bering.
2. Innovatsion salohiyat deganda nimani tushunasiz?
3. Innovatsion salohiyatning tuzilishini bayon eting.
4. Pedagogik mahorat tizimida akmeologik qobiliyatlar qanday ahamiyatga ega?

9-§. ZAMONAVIY TA'LIM SOHASIDAGI ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR

Ilg'or pedagogik tajribani o'rganishda materiallar to'plash. Pedagogik faoliyat o'z mehnatiga ko'ra ijodiy tavsifga ega. Pedagogik ijodkorlikning asosiy mohiyati pedagogik faoliyatning maqsadi va xarakteri bilan aniqlanadi. Pedagogik ijodkorlik majmui – pedagogik tajribadir.

Ilg'or pedagogik tajriba deganda o'qituvchining o'z pedagogik vazifasiga ijodiy yondashishi, o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishning yangi shakl, metod va vositalarini izlab topishdir.

Ilg'or pedagogik tajribani o'rganish, unga asoslanib yangi pedagogik hodisa va qonuniyatlarni ochish o'quv-tarbiya jarayoniga yaxshi sifatli o'zgarishlar kiritadi, o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqarish, yangi turdagi o'quv jarayonini modellashtirish muammolarini yechishga sabab bo'ladi.

Pedagogik tajriba o'qituvchining o'quv ishlari jarayonida egallaydigan bilim, ko'nikma va malakalari yig'indisidir. Pedagogik tajribani to'plash pedagogik mahoratning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, u pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish omili hisoblanadi.

Pedagogik tajribani to'plash tizimi quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topadi:

1. Maqsadni belgilash.
2. Ma'lumotlarni to'plash.
3. Ma'lumotlarni tahlil etish, umumlashtirish, xulosa qilish.
4. Yutuqlarni aniqlash va amaliy faoliyatga tatbiq etish.

Ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish va yoyish o'qituvchilar uchun o'z kasb mahoratlarini takomillashtirishning eng qulay shaklidir. Ilg'or pedagogik tajriba o'qituvchining o'z pedagogik faoliyatiga ijodkor va novatorlarcha yondashib, o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berishning yangi yo'llarini izlab topishidir. Bu borada Respublika ta'lim markazida o'ziga xos ijobiy tajriba to'plangan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Pedagog kadrlarni qayta

tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarorida tajriba orttirish orqali malaka oshirishning ishlab chiqarishda, ilmiy-tadqiqot muassasasida, xorijda kabi shakllariga tavsif berilgan. Unda “pedagog kadrlarni iqtisodiyot, fan, madaniyat, sog‘liqni saqlashning tegishli tarmoqlarida fan-texnika taraqqiyotining eng yangi yutuqlari, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan tanishtirish, fanlar bo‘yicha o‘quv dasturlari mazmunining uzluksiz takomillashtirishini ta’minlash, fanni ishlab chiqarish bilan integratsiyalash maqsadida aniq fanlar bo‘yicha maqsadli kasbiy ta’lim dasturlarini o‘zlashtirish” asosiy vazifa qilib qo‘yilgan. Shundan kelib chiqib, biz mazkur qismda ilg‘or tajribalarning ayrim pedagogik xususiyatlariga to‘xtalamiz.

Keyingi paytlarda “Ilg‘or pedagog”, “Ijodkor o‘qituvchi”, “Novator pedagog” tushunchalari matbuot sahifalarida, pedagoglarning o‘zaro suhbatlarida, metodik kengash, seminar va konferensiyalarda ko‘p tilga olinmoqda. Lekin ular aslida unchalik yangi emas. “Ilg‘or pedagog”, avvalo, boshqa o‘qituvchilarga qaraganda o‘z ishiga mas’uliyat bilan qaraydi. Shu sohadagi ijobiy tajribalarni o‘rganib, o‘z darslarida, maktabdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarda qo‘llaydi. Shu orqali u o‘quvchilarning ta’lim va tarbiyasida muayyan yutuqlarni qo‘lga kiritadi. “Novator pedagog”, bizningcha, o‘zining yaxlit pedagogik vosita va usullari mavjudligi bilan farqlanib turadi. Shu bilan birga novator o‘qituvchilarda ilmiy tahlil, o‘ziga tanqidiy ko‘z bilan qaray bilish xususiyatlari ham bo‘ladi. Ularning ko‘pchiligida g‘oyat murakkab, boshqalar o‘ziga ishonmaydigan sharoitlarda ham o‘z ishlarining to‘g‘ri ekanligiga ishonch bo‘ladi. “Ijodkor o‘qituvchi”da ham “Ilg‘or pedagog”dagi xususiyatlar bo‘lishi mumkin. Ularning jiddiy farqi shundaki, ilg‘or pedagog mavjud manbalarni o‘rganib, shular asosida ta’lim va tarbiya bo‘yicha muayyan ishlarni tanqidiy ko‘z bilan qaramasdan biladi. Ko‘p hollarda mavjud metodik yo‘l-yo‘riqlarga o‘z munosabatini bildirib, sharoit va vaziyat taqozosiga ko‘ra imkoniyatlariga qarab mavjud tartiblardan farqli metodik usullardan foydalanadi. Ilg‘or pedagogik

tajribalarni aniqlashda ma'lum mezonlarga asoslanish kerak. Bunda eng muhim mezon o'qituvchi o'z pedagogik faoliyatida qo'llaydigan ta'lim-tarbiyaning yangi shakl, metod va usulidir. Bu mezon ilg'or o'qituvchini oddiy o'qituvchilardan ajratadigan eng muhim belgidir. O'qituvchi qo'llaydigan yangilik turlicha: masalan, ta'lim yoki tarbiyaning yangi mazmuni, shakli, metodi, pedagogik mehnatning eng ta'sirchan, takomillashtiruvchi omili, mavjud usullarni takomillashtirish va hokazolardan iborat bo'lishi mumkin. Ilg'or pedagogik tajribani ifodalovchi yana bir mezon, uning yuqori natijaga erishish uchun zamin hozirlashidir. Bunda o'quvchilarning bilimi va tarbiyalanganlik darajasi hisobga olinishi zarur. Uni baholaganda o'tkazilgan tarbiyaviy tadbirlarning soniga emas, ularning o'quvchilarni inson sifatida shakllanish mezoni ekanligiga e'tibor qaratish kerak. Bundan tashqari, ilg'or pedagogik tajribaning qulayligi va tejamliligi hisobga olinishi lozim. Chunki yuqori natijaga erishishda o'quvchilar va o'qituvchilarning kuchini, vaqtini tejash, ularni toliqishdan asrash ham muhim.

Ilg'or tajribalarni o'rganishda nimalarga e'tibor berish kerak? Maktab rahbarlari quyidagilarni bilishlari kerak: Ilg'or tajriba o'qitishning biror psixologik Konsepsiyasiga mos yoki mos emasligi. Ilg'or tajriba mavjud biror psixologik, pedagogik Konsepsiyasiga mos kelmay yangicha bir qarashni talab etishi ham mumkin. Bunda uning qaysi tomoni yangi ekanligi, bu kontsepsiyaning taxminiy mazmuni qanday bo'lishi mumkinligini aniqlash lozim. Bu tajribada ta'lim va tarbiyaning uzviyligi muammosi qanday hal qilinishi, o'quvchining umumiy va psixik rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatishi. Tajriba asosida o'quvchilarning fikrlashida, munosabatlarida qanday o'zgarishlarni amalga oshirish mumkinligi. Tajriba yordamida o'quvchining shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish bo'yicha qanday ish olib borish mumkinligi. O'quvchi shaxsini har tomonlama kamol toptirishda tajribaning roli nimadan iborat ekanligi. Ilg'or pedagogik tajribani qachon va qanday o'rganish bo'yicha maktab rahbarlariga quyidagilarni maslahat beramiz: O'qituvchilar, xalq maorifi xodimlari

bilan o'tkaziladigan suhbatlar, uchrashuvlar jarayonida. O'qituvchilarning darslarini kuzatishda.

Metodik adabiyotlarni mustaqil mutolaa qilish, pedagogika, psixologiya, maktabshunoslik, xalq maorifiga oid vaqtli matbuotni muntazam kuzatib va tahlil qilib borish orqali. Qo'shni maktablarda tashkil etiladigan seminarlar, konferensiyalarda ishtirok etish va ularda bildiriladigan fikrlarni tahlil qilish yo'li bilan, metodika kengashlarida, metodik birlashma yig'ilishlarida, ayrim fanlar yoki ba'zi yo'nalishlar bo'yicha maktabda, maktablararo ilg'or tajriba maktablarining ish faoliyatini kuzatish orqali, pedagogika kengashlaridagi ba'zi tekshirish va metodik ma'ruzalarni tinglash jarayonida. Muayyan muammolar bilan ish olib borayotgan eksperimental guruhlar faoliyati bilan tanishish jarayonida. Namunaviy darslarni o'tkazishda. Maktabdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar orqali va hokazolar. Maktab rahbarlari uchun ilg'or pedagogik tajribani o'rganib olishning o'zi yetarli emas, albatta. Uni yoyish yo'llarini ham o'rganib chiqishlari lozim. Buning uchun quyidagilarni tavsiya etamiz: O'qituvchilarning darslarini guruh bo'lib kuzatish va tahlil qilish jarayonida. O'zaro suhbat chog'ida. Pedagogika va metodika kengashlarida, ilg'or pedagoglarning ma'ruzalar bilan chiqishlari yoki ularning ish tajribalarini izohlab va yoritib borishi yo'li bilan. Maktabda qo'lyozma jurnallar, albomlar tayyorlash. Ilg'or tajribani yoyishda maktabda o'tkaziladigan seminar va konferensiyalarda (ularning miqyosini kengaytirish ham mumkin). Tuman metodik kengashlarida chiqish. O'z ish tajribasi yakunlari bilan boshqalarni tanishtirish. Matbuotda (varaqlar, risolalar, ilmiy-pedagogik jurnal va gazetalarda) mazkur o'qituvchi yoki tarbiyachining boshqa metodistlar, jurnalistlar yordamida yoritilishi. Viloyat va respublika pedagogik o'qishlarida ishtirok etish va bajarilgan ishlar haqida so'zlab berish. Televideniye, radio orqali ilg'or pedagogik tajribani ommalashtirish. Ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish bo'yicha Buxoro tumani xalq ta'limi bo'limi e'tiborga loyiq ishlarni amalga oshirmoqda. U yerda tuman "Ijodkor" o'qituvchilar uyushmasi tuzilgan. Uyushma hay'ati, uning

prezidenti va a'zolari saylangan. Uyushma o'zining ish rejasini ishlab chiqqan. O'rta umumiy ta'lim maktablarida o'quv-tarbiya ishlarining saviyasi keyingi paytlarda ancha oshmoqda. Ilg'or tajribali o'qituvchilar safi esa kengaymoqda. Ilg'or pedagogik tajribalarni yoyish va ommalashtirishda maktab rahbarlarining eng muhim vazifasi maktabda inoq, ta'lim-tarbiya ishi bilan sidqidildan shug'ullanuvchi pedagogik jamoani yaratishdir. Shuningdek, ilg'or o'qituvchilarni ma'naviy va moddiy qo'llab-quvvatlash, ularning obro'sini ko'tarish uchun jonbozlik ko'rsatishdir. Ilg'or tajribalarni o'rganish va yoyishning tarkibiy qismi o'qituvchilarning fan metod birlashmalari va malaka oshirish kurslaridagi o'qish davrida o'zaro tajriba almashtirishlaridir. Bu o'qituvchilar malakasini oshirishning alohida shakli sifatida amaliy ish faoliyatida o'zining ish tajribasini tizimlashtirib, ma'lum darajada umumlashtirishining mahsuli hisoblanadi. Ta'kidlash lozimki, malaka oshirish kurslarida tajriba almashtirish amaliy mashg'ulot tarzida o'quv mashg'uloti bo'la oladi. Bunda o'qituvchilar o'z faoliyatlarini, o'quv mashg'ulotlarida olgan bilimlarini muhokama qilib solishtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Kurs mashg'ulotlari jarayonida olgan nazariy bilimlarini o'z shaxsiy tajribalari bilan solishtirib, ular bir-biriga mos kelsa, ularga ishonchlari mustahkamlanib, o'z tajribalarini nazariy asoslaydilar. Agar nazariy bilim bilan tajribalar o'rtasida nomuvofiqlik (ziddiyat) paydo bo'lsa, uning sababini aniqlab, ziddiyatni bartaraf qiladilar. O'zaro tajriba almashtirish hamma vaqt ham birdaniga emas, balki jiddiy tayyorgarlikni talab qiladi. Kurs mashg'ulotlarida amaliy dars mashg'ulotlarida tajriba almashtirishni ma'lum muammoga yo'naltirib, avvaldan e'lon qilinishi kerak. Tajriba almashtirish mashg'ulotlari qisqa o'tkazilishi lozim. Bunda chiqish qilgan o'qituvchi o'z ish tajribasini ko'rsata olishi muhim. Qisqa axborotda qanday qilib, qaysi sharoitda mazkur tajribaga erishganligi, ushbu tajribasini boshqalar qo'llashi uchun tavsiya berish zarur. Tajribani bayon qilishda ko'rgazmali vositalar, video, didaktik materiallar, o'quvchilar ishidan namunalar keltirilsa, yanada ishonchli bo'ladi.

Tajriba almashtirish o'qituvchini pedagogik tadqiqotga yaqinlashtiradi hamda nazariyani amaliyot bilan uyg'unlashtirish vositasi bo'lib hisoblanadi. Pedagogik tajriba har qanday hayotiy tajribadek, o'ziga xos takrorlanmas, individual xarakterga ega. Chunki tajriba pedagogik hodisalarni har bir o'qituvchining shaxsi va individual hayoti, o'ziga xos anglashi hamda baholashi bilan xarakterlanadi. Tajriba almashtirish mashg'ulotlarini shunday tashkil qilish kerakki, unda tinglovchilar faol ishtirok etib, o'z munosabatlarini ochiq bayon qilinsinlar. Pedagogik mahoratni oshishida tajriba almashtirish o'ta muhim hisoblanadi. Unda har bir o'qituvchi o'zining shaxsiy sifatlari, muloqotini, o'z usul va vositalarini boshqalarniki bilan solishtiradi, fikrlaridagi kamchiliklarni o'rganadi. Shu asosda o'z faoliyatidagi ayrim kamchiliklarni bartaraf qilish istagi kuchayadi. Tajriba almashtirish ilg'or tajribalarni yoyishning eng qulay shakli. Bunda o'quv-tarbiya ishiga xos hodisalar bevosita jonli kuzatish, ularning o'zaro aloqadorligi haqida qatnashchilarda aniq tasavvur hosil bo'ladi. O'quv-tarbiya ishida tasodifiy omad emas, balki sinchiklab izlanish, qilayotgan ishingdan nima natija chiqayotganligini muttasil tahlil qilish orqali yuqori natijaga erishish mumkin. Faol kuzatish ijodiy ishlashning boshlang'ich nuqtasi hisoblanadi. Kuzatish orqali bilish, ta'lim olish mehnatga aylanadi.

Ta'lim sohasini rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribalar. Hozirgi zamonda ta'limning qadr-qimmatini, obro' va nufuziga teng darajada uning ijrochilarida tashabbuskorlik, fidoyilik va ishbilarmonlik ham bo'lmog'i zarur. Jahon tajribalarini sinchkovlik va qunt bilan o'rganish orqali ta'lim tarbiyada qotib qolgan, o'z dolzarbligini yo'qotib borayotgan ish shakllari, uslublaridan xalos bo'lish bilan birga, uni munosib tarzda yangilashda qo'shimcha boy manbalarga ega bo'lamiz. Yurtboshimiz mamlakatda kadrlar muammosi mavjudligini barcha sohalarga islohotlar sur'atiga mos zamonaviy mutaxassislar kerakligini aytgan edi. Shu maqsadda butun ta'lim tizimi takomillashtirilmoqda. Maktabgacha ta'lim rivojlantirilayotganini maktab saboqlariga puxta zamin bo'lmoqda.

Umumiy oʻrta taʼlim sifati ilgʻor xalqaro tajriba va zamon talablari asosida yuksaltirilmoqda. Yurtboshimiz bizni hamisha oʻylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir soʻz bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bogʻliq. Bugun zamon shiddat bilan oʻzgaryapti. Bu oʻzgarishlarni hammadan ham koʻproq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar oʻz davrining talablari bilan uygʻun boʻlsin. Lekin ayni paytda oʻzligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulugʻ zotlarning avlodimiz, degan daʼvat ularning qalbida doimo aks-sado berib, oʻzligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan. Shunday ekan biz xorijiy davlatlarning tajribasini oʻzlashtirib yangi zamonaviy taʼlim tizimini isloh qilish qilishimiz kerak. Bugungi kunda har qaysi xalq davlat va jamiyatning taraqqiyot darajasi, avvalambor uning inson kapitaliga, inson rivojida berayotgan eʼtibori bu yoʻldagi saʼy-harakatlari bilan oʻlchanadi. Yaponiya taʼlim tizimi Yaponiya taʼlimida “iqtidorli oʻquvchi” tushunchasi yoʻq. Chunki har bir oʻquvchi alohida iqtidor sohibidir. Ilgʻor mamlakatlar ichida Yaponiya taʼlimi oʻziga xos yoʻnalishi yetakchi oʻrinni egallaydi. Jumladan, Yaponiya taʼlim tizimining tarkibi quyidagicha: maktabgacha taʼlim, boshlangʻich maktab, kichik oʻrta maktab, yuqori oʻrta maktab, oliy taʼlim tizimlariga kiruvchi oliy oʻquv yurtlari. Boshlangʻich maktabda oʻqituvchilar bolalarni tanqidga, yaʼni oʻz xulqining yomon jihatlarini, maktabdagi kamchiliklarni tanqid qilishga oʻrgatishadi. Bundan koʻrinib turibdiki, oʻqituvchi faqat taʼlim berish bilan cheklanib qolmay, bolaning har tomonlama rivojlanishiga taʼsir etadi. Yaponiya rivojlangan davlatlar ichida oʻqituvchining maoshi davlat rahbarlari orasida ham yuqori boʻlgan yagona davlat.

Majburiy taʼlim muhiti. Taʼlimning bu pogʻonasi 6 yoshdan 15 yoshgacha boʻlgan bolalarni oʻz ichiga oladi. Muhtoj oilalarning bolalariga moddiy yordam koʻrsatiladi. Yuqori oʻrta maktab 10-11-12-sinflarni oʻz ichiga oladi, bunday maktablarning kunduzgi, sirtqi, kechki boʻlimlari mavjud. Yuqori bosqich oʻrta maktablarda butun

o'quv jarayonida o'quvchilar 80 ta sinov topshirishadi. O'quvchilar majburiy asosiy fanlardan tashqari o'z xohishlariga ko'ra ingliz tili, texnik ta'lim va maxsus sinovlarga jalb etiladi.

Universitetlariga yuqori va o'rta maktabning yoki 12 yillik oddiy maktabni bitirgan o'quvchilari qabul qilinadi. Universitetlarga qabul qilinish 2 bosqichga bo'linadi: 1-bosqich turar joyda o'tkaziladi, buning uchun yapon tili, matematika, fizika, kimyo, jamiyatshunoslik, tarix bo'yicha test sinovlaridan o'tkaziladi. Yaponiyada oliy ta'lim majburiy hisoblanadi va u kasb ta'limi bilan uzviy bog'liqdir. Yaponiyada bolalar tarbiyasida onalarning roli va mas'uliyati ayniqsa kattadir. Ular farzandlarining aqlli, dono va mehnatsevar bo'lib o'sishlari uchun oila sulolasi va davlat oldida o'zlarini mas'ul deb hisoblaydi. Yaponiyada oilaviy tarbiya xususida ko'plab metodik qo'llanmalar va tavsiyanomalar nashr etiladi, radio va Televideniye orqali ko'plab pedagogik maslahatlar berib boriladi. Yaponiya oilalaridagi uy partalari diqqatga sazovordir. U mukammal, yon tomonidan muhofazalangan qurilma bo'lib, parta ustida kitob javoni, yoritkich, soat, qalam, qog'oz, mikrokalkulyator va boshqa zaruriy ashyolar, shuningdek kerak bo'lib qolgan taqdirda ota-onalarini chaqiradigan signal tugmachalarigacha o'rnatilgan. Yaponiya o'rta maktablarining saviyasi AQSH o'rta maktablari saviyasidan birmuncha yuqori turadi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki Yaponiyada ta'lim tizimi ham shaklan, ham mazmunan yuksak uyg'unlik kasb etgan. Ibrat olsa, o'rgansa arziydigan jihatlari ko'p.

E'tiborli yana bir tomoni – Yaponiyada faqat milliy an'analar bilan cheklanib qolmay jahondagi AQSH, Fransiya, Germaniya kabi taraqqiy etgan mamlakatlarning ilg'or pedagogik ish tajribalari ham ijodiy o'zlashtirilgan. Bunday tajribalar Respublikamiz ta'lim tizimini yanada yuqori pog'onaga ko'tarishda qo'l kelishi shubhasiz. Amerika Qo'shma Shtatlari ta'lim tizimi: Amerikada o'rta ta'lim 12 yil bo'lib boshlang'ich o'rta va quyi maktablarga bo'linadi. Aksariyat qismi davlat maktablaridan iborat va ularda o'quvchilarning 88 foizi

o'qiydi. Ta'lim muassasalarini davlat va shahar budjetlari moliyalashtiradi, Qo'shma shtatlarda yalpi ichki mahsulotning 7.5 foizi har yili ta'limga sarflanadi. 12 foiz o'quvchilar xususiy maktablarga boradi, ularning moddiy resurslari ota-onalar, turli mablag'lar va xayriya mablag'lari hisobidan shakllantiriladi. Mamlakatlarda ta'lim maskanlari raqamlarga ega emas, ammo ular hududlar bo'yicha yoki mashhur kishilar nomi bilan ataladi. Odatda har bir sinf xonasi televizor va kompyuterga ega. Kompyuter sinflari yuqori tezlikdagi internetga ulangan. Amerikada nusxa ko'chirish uskunalari juda ko'p joylashtirilgan. Chunki o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga deyarli barcha vazifalar bosma shaklda beriladi. Boshlang'ich maktabda har yil sinf o'qituvchisi o'zgaradi. Boshlang'ich sinflarda matematik bilimlarning hajmi Rossiya va Angliya maktablari darajasiga nisbatan biroz yengilroq. Ko'paytirish jadvali 3-sinfdan boshlanadi. Amerika maktablaridagi o'ziga xos usullaridan biri har bir o'quvchining, "Hisobot kartasi" yuritilishidir. Unda o'quvchi 10 xil xatti-harakati bo'yicha baholanadi. Ota-onalar ushbu karta bilan tanishib borar ekan, farzandlariga oqsayotgan tomonlarini aniqlab, uni tuzatishga harakat qilishadi. Amerika pedagoglari haftasiga bir marta 1-3-sinf o'quvchilari uchun "Sevimli o'yinchoq" metodini qo'llashadi. Bu metodda bolalar o'yinchog'ini ta'riflaydi. Mazkur metodni qo'llashdan maqsad bolani uyatchanlikdan xalos bo'lishga, sinfdoshlari orasida erkin gapirishga o'rgatishdir. Amerikada ta'limni haddan ziyod demokratlashuvi talabalar bilimining puxtaligini tekshirish va nazorat qilishda qiyinchiliklar tug'diradi. Shu sababli boy moddiy baza va tajribaga ega bo'lgan davlatda butunlay savodsiz bo'lgan bolalar ham topiladi. AQSH da ta'lim tizimining maqbul tomonlarining ijobiy qo'llanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Germaniya ta'lim tizimi: Germaniya jahon ma'rifat va madaniyat o'choqlaridan biri. Ushbu davlatda har bir fuqaro o'z shaxsini erkin rivojlantirish, o'z iqtidori moyilligi va qobiliyatiga qarab maktab, o'qish joyi va kasb tanlash huquqiga ega. Maktab ta'lim tizimi boshlang'ich va o'rta ta'lim muassasalaridan iborat. Barcha davlat maktablarida o'qish bepul.

Germaniyada maktab ta'limi quyidagi maktab tiplariga bo'linadi: boshlang'ich maktab; yo'nalish maktablari; asosiy maktab; real maktab; gimnaziya; umumiy maktab; maxsus maktab. Boshlang'ich maktab ta'lim tizimining poydevori hisoblanadi. Boshlang'ich maktabdan so'ng o'quvchilar yo'nalish maktabga o'tishadi. Asosiy yoki to'liq xalq maktabi boshlang'ich maktabni bitirib, real maktab yoki gimnaziyaga bormagan barcha o'quvchilar uchun majburiydir. Asosiy maktab o'qituvchilari o'zlarini o'qituvchi emas, ijtimoiy pedagog, deb his qiladi. Lekin asosiy maktabdagi o'quvchilar yomon o'zlashtirishga qaramasdan kasbiy ta'lim olishiga majbur bo'lishadi. Real maktablar ikkinchi bosqichga qarashli bo'lib, odatda 5-10-sinflarni o'z ichiga oladi. Real maktab yuqori darajali kengaytirilgan umumiy ta'lim beradi va o'quvchilarni mustaqil fikrlash, mas'uliyat hissi, insonlarga rahbarlik qilish ko'nikmalariga yuqori talab qo'yadigan kasb egalari bo'lishi uchun kasbiy ta'lim kurslariga tayyorlaydi. Germaniya ta'limi o'ziga xos yo'nalishga juda murakkab tizimga ega. Germaniya davlatida taraqqiy etgan davlatlar orasidan o'rin olishda o'zini oqlab kelayotgan ta'lim tizimi mavjud. Fransiya ta'lim tizimi: Fransiyada ta'lim sifati ta'lim, sport va tadqiqotlar bo'yicha bosh inspeksiya tomonidan nazorat qilinadi. Ushbu bosh inspeksiya 4 ta vazirlik uchun faoliyat ko'rsatadi. Bosh inspeksiya 4 ta vazifani bajaradi:

1. Qo'llab quvvatlash - ta'lim, fan, sport, madaniyat boshqaruv idoralarini oliy ta'lim rektoratlarini.
2. Ekspertiza qilish - vazirliklar, idoralar, shartnomalar, rahbarlar faoliyati, xizmatlar, tuzilmalar va boshqalar.
3. Baholash - tashkilotlar, muassasalar, tuzilmalar, ijtimoiy siyosiy ahvol, kadrlar.
4. Nazorat qilish - tashkilotlar, muassasalar, xizmatlar va kadrlar.

Bosh inspeksiyada to'planadigan tajribalarning xilma-xilligi, bolalar bog'chasidan doktoranturaga qadar davlat siyosatini muvofiqlashtirish imkonini beradi. Bu esa ta'lim, fan va yoshlarni rivojlantirishga, o'quvchilarni sport, jamiyat hayoti va jamoat o'qishiga

jalb etishga ta'sir qiladi. Fransiya ta'lim tizimiga ko'ra bola 6-7 yoshida tayyorlov sinfga boradi, keyin shu maktabda 4 yil boshlang'ich sinfda o'qiydi. Keyingi bosqich o'rta ta'lim kollej deb ataladi. U yerda bola 4 yil o'qiydi va yakunida to'liqsiz maktab bitiruvchisi deb hujjat beradi. Keyingi 3 yil davomida turli yo'nalishdagi litseylarda o'qiydi hamda yakunida bakalavr imtihonini topshirib uning natijasiga qarab OTM larga qabul qilinadi. O'qituvchilarni ishdan olishni maktab direktori amalga oshirmaydi. Yaxshi ishlamaydigan o'qituvchilarni direktor tavsiyasiga muvofiq ta'lim inspeksiyasi tomonidan taftish qilinadi. Uning intizomi, o'qituvchilik faoliyati, bolalar, ota-onalar o'rtasidagi obro'si diqqat bilan o'rganiladi va tegishli chora ko'riladi. Maktab o'qituvchilariga qo'yilgan talab Fransiyada o'ta yuqori. Ayniqsa boshlang'ich maktablarda o'qituvchi o'z kasbining ustasi, ajoyib notiq, san'atkor, musiqachi, sportchi, tashkilotchi, namunali xulq egasi bo'lmog'i lozim. Fransiya ta'lim tizimlarida maktabdan va sinfdan tashqari muassasalari ko'zda tutilmagan. Biroq maktablarda, litseylarda turli to'garaklar mavjud. O'zbekiston Respublikasi vazirlar Mahkamasi huzuridagi ta'lim sifatini nazorat qilish ta'lim inspeksiyasi tashkil qilinganiga endigina 2 yildan oshdi. O'tgan davr mobaynida inspeksiyaga yuklatilgan vazifalar bajarish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va ularni yurtimiz ta'lim sifatini baholash ishlarini joriy etish bo'yicha maqsadli ishlar olib borilmoqda. Biz ayni damda chet el pedagogikasidagi ilg'or jihatlarini o'zlashtirish, yangi-yangi o'quv predmetlarini ta'lim tarkibiga kiritish bilan jahondagi eng ilg'or pedagoglarning biriga aylantirish.

Ayni damda AQSH pedagogikasidagi:

1. Bolani o'z kuchi, imkoniyatiga ishonch ruhiyatida tarbiyalash.
2. O'quvchining eng kichik shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun kurash.
3. Bolani kamsitmaslik, insoniylik qadriyatlarini va g'ururini yerga urmaslik.
4. O'quvchini ilk davridanoq kasbga yo'naltirish.
5. Vataniga faxr va iftixor ruhi bilan tarbiyalash.

Yaponiya ta'limidagi:

1. Bolani maktabga puxta tayyorlash;
2. Kichkintoylar ta'lim va tarbiyasiga ota-onalar mas'uliyatini kuchaytirish;
3. O'quvchilarni nafosat jismoniy kamolotiga berilayotgan e'tibor;
4. O'qituvchi kadrlariga yuksak talabchanlik;
5. Yosh talantlar bilan olib borilayotgan izchil ishlar.

Germaniya ta'limidagi:

1. Tabaqalashtirib o'qitishga kuchli e'tibor;
2. O'quvchilarni mehnat ta'limini mustahkamlash;
3. Kasbga yo'naltirish.

Fransiya ta'limidagi:

1. Maktabgacha tarbiyadanoq o'quvni predmetlashtirib tashkil etish;
2. Boshlang'ich ta'limni 3 bosqichda puxta amalga oshirish;
4. O'quvni didaktik vositalar bilan ta'minlashga berilayotgani katta e'tibor;
5. O'quv muassasalarining turli firmalar, konsernlar, korxonalar, mustahkam aloqalari va boshqa ibratli jihatlari bizning ta'limga ham ko'chib bormoqda.

Albatta ta'limga har qanday yangilik, o'zgarish, jiddiy tahlillar, tajribalar asosida kirib keladi. Finlyandiya ta'lim siyosatida uchta muhim tamoyil mavjudligini ta'kidlash mumkin: bilimga asoslangan jamiyat haqidagi qarashlarni qo'llab-quvvatlash, ta'lim tengligini ta'minlash va mahalliy hokimiyat vakolatlarini kuchaytirish. Mahalliy hokimiyat vakolatlarini kuchaytirish jarayonini o'tgan asrning 70 yillaridan 2000-yillarga qadar Finlyandiya ta'lim tizimidagi eng muhim o'zgarishlardan biri sifatida ta'kidlash mumkin. Ta'lim muassasalarini boshqarish asosan mahalliy hokimiyatlar tomonidan amalga oshiriladi. Ta'lim muassasasi faoliyatiga deyarli hech kim aralashmaydi. Finlyandiya ta'lim tizimining yana bir tamoyili bo'lgan ishonch madaniyati tufayli maktablarga tekshiruv tashriflari yo'q.

Finlyandiya ta'lim tizimining asosini quyidagi 7 ta tamoyil tashkil etadi deyish mumkin:

1. Tenglik - Finlyandiyadagi barcha maktablar o'quvchilarga bir xil sharoit va bir xil ta'lim tizimini taqdim etadi.

2. Bepul ta'lim - bepul ta'lim berish bilan birgalikda o'quvchilarga barcha o'quv jihozlari va tushlik ham bepul taqdim etiladi.

3. Individuallik – darslarni o'zlashtirishi qiyin bo'lgan o'quvchilar bilan o'qituvchilar yoki yaxshi o'zlashtirgan o'quvchilar alohida shug'ullanishadi. Finlyandiyada o'quvchilar qo'shimcha darslarga qoldirilmaydi.

4. Amaliylik – o'quvchilarni imtihonga emas balki hayotga tayyorlash. Darslarda o'quvchilar, masalan, viza kartadan qanday foydalanish, shartnomalar tuzish, saytlar yaratish, tikish, ovqat pishirish, marketing va sotuv ishlari bilan shug'ullanish kabi amaliy ishlar bilan shug'ullanadilar.

5. Ishonch va o'qituvchilar salohiyati – barcha maktablardagi o'qituvchilar magistratura darajasiga ega bo'lishlari shart. O'quvchilarga uy vazifasi deyarli berilmaydi, ota-onalar farzandlari bilan uyda shug'ullanmaydi va o'qituvchilarning o'quvchilarni hayotga tayyorlashiga to'liq ishonishadi. 6. Ixtiyoriylik – dars jarayonida qay darajada ishtirok etish o'quvchilar ixtiyorida. O'qituvchilar o'quvchilarni darsga qiziqтира olmasalar o'quvchilar sinfni tark etishi yoki o'zlari yoqtirgan boshqa biror mashg'ulot bilan shug'ullanishlari mumkin. 7. Mustaqillik – Finlandiya ta'lim tizimida o'qituvchilar o'quvchilarni imkon qadar o'zlari bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishlari kerakligiga yo'naltiradi. Bilimlarni hayotda qanday tatbiq etish ko'nikmalari amaliy mashg'ulotlar yordamida shakllantiriladi. O'quvchilarning har qanday fikrlari inobatga olinadi va qo'llab quvvatlanadi. Finlyandiya ta'limining muhim xususiyatlaridan yana biri shundaki, u barcha darajalarda, ya'ni maktabgacha ta'limdan oliy ta'limga qadar to'liq bepul ta'lim olishni ta'minlaydi. Shuningdek, barcha o'quv materiallari, darsliklar, sog'liqni saqlash xizmatlari va maktabga qatnash transport xizmatlari

ham bepul amalga oshiriladi hamda boshlang'ich va o'rta ta'limda barcha o'quvchilarga maktablarda bepul tushlik beriladi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalari ularning davlatlarini rivojlanishiga katta xizmat qilib kelmoqda. Xitoyliklarning —bir yilni ko'zlasangiz sholi eking, ellik yilni ko'zlasangiz daraxt eking, yuz yilni ko'zlasangiz farzand tarbiyalang degan hikmatidan bugungi kunda xorij davlatlarning deyarli barchasi samarali foydalanmoqda. Shu nuqtayi-nazardan, bizning mamlakat ham unib-o'sib kelayotgan barkamol avlod ta'lim-tarbiyasiga katta e'tibor qaratmoqda. Bu borada kerak bo'lsa, xorijiy davlatning ilg'or tajribalaridan unumli foydalanish orqali milliy ta'lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish davr talabi hisoblanadi. Zero, mamlakatimiz ezgu maqsad uchinchi Renessans davrini barpo etishni rejalashtirgan. Ana shunday ezgu maqsadlarni esa albatta bugungi kunda voyaga yetayotgan avlod amalga oshiradi. Maktabgacha ta'lim va tarbiya esa ana shu avlodni ta'limning birinchi bo'g'inidan savodli va tarbiyali bo'lishini ta'minlashga xizmat qilishi kerak

Zamonaviy ta'lim va modulli-kredit tizimi mohiyati. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son farmoni bilan tasdiqlangan “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” alohida ahamiyatga ega bo'lib, ushbu Konsepsiya ta'lim jarayonining xalqaro miqyosda shaffof bo'lishiga erishish, milliy ta'lim tizimining dunyoning xohlagan boshqa ta'lim tizimlari bilan mosligini ta'minlash, dunyoning yetakchi universitetlari safidan o'rin olish g'oyalariga yo'naltirilgan. Mamlakatimizdagi oliy ta'lim muassasalarining 85 foizi 2030-yilgacha bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tishi rejalashtirilgan. Kredit-modul tizimi eng avvalo oliy ta'lim muassasalari o'quv dasturlariga erkinlik olib kirish, fanni o'quv dasturlariga tanlov fanlarining kirib kelishi va oliy ta'lim o'quv dasturlarini zamon, mehnat bozori va talabalar ehtiyojlariga nisbatan shakllantirish hamda bundan tashqari, kredit-modul tizimi mamlakat oliy ta'lim muassasalarining xorijiy ta'lim muassasalari bilan

aloqalarini yaxshilash, mahalliy universitetlarning xalqaro maydonda e'tirof etilishiga erishish ehtiyojlari asosida shakllangan. Kredit-modul tizimi, avvalo, mamlakatimiz oliy ta'lim tizimiga ta'limning amaldagidan ko'ra ancha mukammal, zamonaviy, hamma uchun tushunarli bo'lgan o'lchov birligini hisoblanadi. Fanning o'quv dasturlari muayyan o'qish natijalarini ko'zlovchi turli fan va modullarga bo'linib, kreditlarga bo'lingan holatda taqsimlanadi. Har bir fan yoki modul esa undagi o'qish yuklamasi miqdoriga qarab muayyan miqdordagi kreditlarda aks etadi. Talaba har semestr, o'quv yilida muayyan miqdordagi kreditlar to'plab borishi va belgilangan miqdordagi kreditlarni to'plagandan so'ng, bakalavr yoki magistr darajasi beriladi. Amaldagi an'anaviy oliy ta'lim tizimi ma'lum bir sohada ommaviy ravishda bir yo'nalishdagi kvalifikatsiyaga ega bo'lgan kadrlarni ishlab chiqarishga moslashgan bo'lib, unda yagona ta'lim dasturi va muddati qat'iy belgilab berilgan. Hozirgi kunda kredit-modul tizimlari ichida ESTC kredit-modul tizimi eng ko'p foydalanilayotgan ta'lim tizimi bo'lib, Yevropaning 48 davlati oliy ta'lim muassasalari tomonidan turli darajada ta'limni boshqarish usuli sifatida foydalanib kelinmoqda. ESTC ya'ni Yevropa kredit-transfer tizimi mazmun-mohiyati jihatidan talabalar mobilligi ya'ni talabalarning o'z mutaxassisligi bo'yicha boshqa mahalliy yoki xorijiy oliy ta'lim muassasalarida bilim va tajriba orttirishlari uchun qulay, talabalarning o'z ustida yanada ko'proq izlanishlari uchun mustaqil ta'lim va tajriba olish uchun ko'proq vaqt ajratilganligi bilan o'ziga xosdir. Ushbu kredit-modul tizimida kreditlar to'planib borish ta'siriga ega ekanligi bois mobil talabalar va mobil bo'lmagan talabalar uchun ham uning birdek qulayligi, uning barcha turdagi ta'lim dasturlariga mos kelishi bilan ham ajralib turadi. ESTC kredit-modul tizimi xorij va mahalliy barcha ta'lim dasturlarini umumiyashtirib ularni solishtirish, tushunish va o'qish uchun yengilliklar olib kiradi. Bundan tashqari, ESTC kredit-modul tizimining afzalliklari quyidagilardan iborat: ta'lim insonning butun hayotini qamrab olishi, ya'ni talaba ta'lim muassasasini bitirib ketgandan keyin ham muntazam ravishda yoki

zarur hollarda ixtiyoriy ravishda mutaxassisligiga oid fan yangiliklari bilan tanishish, bilimlarini yangilash imkoniyati unga ta'lim muassasasi tomonidan beriladi; vertikal integratsiya, inson ta'limida turli bosqich va darajalarning izchilligi va aniqligi; umumiy o'rta va professional ta'limning o'zaro muvofiqligi; ta'lim tizimining shaffofligi; ta'lim uslubi, mazmuni, vositasi, vaqti va makonining xilma-xilligi; ta'lim olish uchun o'quv fanini erkin tanlash imkoniyati; baholashda teng huquqlilik; ta'lim oluvchining ta'lim olish tartibi, usuliga qarab emas ta'lim natijasiga qarab baholash; xorijda ta'lim olib kelish imkoniyatlari kengaygani; zamonaviy jamiyatda olib borilayotgan reformalarga moslashuvchanligi; individual ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda qayishqoqligi; ta'lim oluvchilarni ta'lim olishi uchun motivatsiya beradigan, har tomonlama rag'batlantiradigan mexanizmning mavjudligi va boshqalardan iborat ekanligidir. Kredit-modul tizimi talabaga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etish, ta'limda shaffoflikka erishish, ta'limda moslashuvchanlikni kuchaytirish, talabalar mobilligini kuchaytirish kabi tamoyillar asosiga quriladi. Bu tamoyillar talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etishda ham muhim ahamiyatga ega. Bunda ta'lim olish vaqti tushunchasi talabaning darsda o'tirgan vaqti bilan emas, balki uning fan bo'yicha o'qish va o'rganishga sarflagan umumiy vaqtdan kelib chiqib belgilanadi. Ya'ni, talabaning ta'limi o'qituvchining o'qitishi uchun sarflagan soatlaridan kelib chiqib emas, balki talabaning o'qishi uchun sarflagan soatlaridan kelib chiqib o'lchanadi. Respublikamizda oliy ta'limning mobilligini ta'minlash, iqtisodiyotning real sohalarini hisobga olgan holda kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, ilg'or xorijiy tajribalar asosida mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish, axborot-kommunikatsiya va raqamli texnologiyalarni samarali qo'llashning pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Talaba fan bo'yicha har bir modul uchun to'plangan kreditlar soni odatda ma'ruzalar, seminarlar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarga sarflangan vaqt miqdorini hamda talab qilinadigan mustaqil ta'lim topshiriqlariga berilgan miqdorini to'plashi kerak.

Kredit-modul tizimini o'rganishga moslashuvchan va modulli yondashuvni ta'minlab, talabalarga fan bo'yicha bir qator modullardan tanlash va o'z daraja dasturini o'z qiziqishlari, layoqati va intellektual aqliy qobiliyati hamda maqsadlariga moslashtirish imkonini beradi. Ta'lim olishda shaffoflik asosiy mezon hisoblanadi. Kredit-modul tizimi dunyo bo'yicha oliy ta'lim muassasalarida keng ko'lamda qo'llaniladi va u ta'lim muassasalar bo'yicha turli kurslar o'quv yutuqlarini o'lchash va solishtirishning standartlashtirilgan usulini taqdim etadi. Talabalarga auditoriya va auditoriyadan tashqari mustaqil ta'lim topshiriqlarini tashkillashtirish jarayonida o'qituvchi talabalarga o'quv fanida nazariy va amaliy topshiriqlaridan tashqari respublika va xorijiy jurnallaridagi mavzuga mos ilmiy maqolalarni tahlil qilish vazifalarini berish o'rinli hisoblanadi. Talaba topshiriqni bajarish jarayonida internet texnologiyalaridan foydalanib, mavzuga chuqur yondashgan holda ilmiy maqolalarni tahlil qilib tanqidiy o'rganish orqali tahlil qilish jarayonida mavzu bo'yicha dunyo miqyosida bajarilayotgan ilmiy izlanishlar bilan tanishib borishi va berilgan mavzuni kengroq o'rganishga harakat qilishiga yo'naltirish lozim. Bu usuldagi mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajargan talabalar ijodiy izlanish jarayonida juda yaxshi natijalarga erishishi, kelajakda ilmiy ishlarida ham yangi g'oyalar izlab topishga, o'zi ijodiy tezis va ilmiy maqola yozish jarayonida ko'chirmachilikdan yiroq bo'lishga harakat qiladi. Bunday turdagi mustaqil ish topshiriqlarini shakllantirish, talabalarni shu asosda to'g'ri yo'naltirish fan o'qituvchisidan asosiy mas'uliyatni talab qiladi. Talabalarning ilmiy-ijodiy ishlarini mustaqil ish topshiriqlari sifatida berilishi, loyiha ishlarini mustaqil ish sifatida taqdim etilishi talabalarda guruh bo'lib ishlashni, birgalikda qaror qabul qilishni o'rgatish, mas'uliyatni his qilish ruxida tarbiyalash kabi sifatlarni shakllantiradi. Tadqiqotlar tahlili asosida pedagogika oliy ta'lim muassasalarida o'quv fanini o'qitish kredit-modul tizimida talabalarda mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirish ahamiyatli hisoblanadi. Kredit ta'lim tizimi o'quv jarayonini tashkil etish shakli bo'lib, talabalarga o'z o'quv trayektoriyalarini to'g'ri

yo‘naltirish, muayyan chegarada belgilash imkonini beradi, mustaqil va ijodiy bilim olishni rag‘batlantirishga yo‘naltiriladi, o‘zlashtirilgan bilimlar hajmi kreditlarda o‘lchanib, talabalarni mustaqil o‘rganishga undash mavzular bo‘yicha mustaqil ta’limga ajratilgan ish bo‘lib, o‘quv uslubiy adabiyotlar va tavsiyalar bilan ta’minlash, testlar, nazorat ishlari kollokviumlar, referatlar, bayon va hisobotlar shaklida nazorat qilinadi. O‘quv fani dasturida ta’limini o‘qitishni tashkil etish murakkab jarayon bo‘lib, uning sifatli va samarali yo‘lga qo‘yilishi ko‘pgina omillarga bog‘liq. Eng avvalo, o‘qitish usul va metodlari, vositalari va o‘qitish texnologiyalari, fan o‘qituvchisining mehnatini ilmiy asosda tashkil etish, dars va darsdan tashqari ishlarni maqsadga muvofiq holda yo‘lga qo‘yish, talabalar bilimini nazorat qilish, kuzatish va to‘g‘ri baholash, og‘zaki va yozma nutqni tugal shakllantirish asosiy maqsad va vazifalarini tashkil etadi.

Nazorat savollari:

1. Pedagogik texnologiyalar” fanining predmeti maqsad va vazifalari.
2. Pedagogik texnologiya fanining metodologik asosi.
3. Pedagogik texnologiya fanining pedagogik asosi.
4. “Pedagogik texnologiyalar” fanining boshqa fanlar bilan aloqasi.

10-§. PEDAGOGIK FAOLIYATDA UCHRAYDIGAN QARAMA-QARSHILIKLAR VA ZIDDIYATLAR

Kasbiy refleksiya va pedagogik faoliyat. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq, butun mamlakat miqyosida ta'lim va tarbiya, ilm-fan, kasb-hunar o'rgatish tizimlarini tubdan isloh qilishga kirishildi. Belgilangan maqsadlar muvaffaqiyatli amalga oshirilib, hozirgi kunda ta'lim sohasida yuksak samaradorliklarga erishilmoqda.

Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim-tarbiya olishiga bog'liq. Buning uchun har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish ta'lim-tarbiya sohasida fidokorona mehnat qilayotgan o'qituvchilarning asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi kerak".

Bu ulkan javobgarlik hissi o'qituvchilarda pedagogik mahorat qirralarining turli jarayonlarini hozirgi zamon talablari darajasida takomillashtirishni talab etadi. So'nggi yillarda pedagog va psixolog olimlar o'qituvchilarning pedagogik faoliyatida fikrlash hamda analitik qobiliyatlarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlamodalar. Bu qobiliyatlarning asosini esa, o'qituvchining kasbiy refleksiyasi tashkil etadi.

Refleksiya (lot. "reflexio" - orqaga qaytish) - "har tomonlama barkamol rivojlangan insonning o'z xatti-harakatlari va ularning qonuniyatlarni anglashga qaratilgan nazariy faoliyat shaklidir; inson ma'naviy dunyosining o'ziga xos yashirin xislatlarini ochib beradigan o'z-o'zini bilishga va anglashga qaratilgan faoliyatdir", ilk bor refleksiya tushunchasi qadimgi Yunon falsafasida yuzaga kelgan va insonning o'z ongida kechayotgan mulohazalari haqida, o'zi fikr yuritishi jarayoni, o'z fikrlari mazmunini tahlil qilishga e'tiborini jalb qilishni anglatgan (Dekart). Sokrat, Platon, Tokk va boshqa yunon

faylasuflari refleksiyaning insonning o‘z-o‘zini bilishga, nimalarga qodir ekanligini e’tirof etishga qaratilgan faoliyati ekanligini ta’kidlashadi. Kant, Gegel, Fichte, Shelling kabi Yevropa faylasuflari esa refleksiya insonning bilish qobiliyatlarini rivojlantirish asosi sifatida qarashganlar. Leybnits konsepsiyasiga muvofiq, refleksiya insonning appersepsiya (idrokning inson o‘tmishidagi tajribasiga va individual xususiyatlariga bog‘liqligi) qodirlik xususiyati sifatida tilga olinadi.

Bugungi zamonaviy falsafada esa refleksiya nazariy va amaliy jihatdan farqlanadi. Birinchisi, inson tomonidan tushunchalarning rivojlanish jarayoni, yagona tushuncha doirasida bir ta’rifdan boshqasiga o‘tish imkoniyatini beradigan metod sifatida; ikkinchisi esa, individual harakat yoki fikrni tushuncha bilan nisbatlash jarayoni, bunda nisbatlash o‘lchovi ustidan nazorat ta’minlanishi kerak.

Hozirgi kunda falsafiy kategoriya sifatida o‘rganilayotgan refleksiya psixologiya, sotsiologiya, sinergetika, mantiq, andrologika, evkistika, kibernetika va boshqa ko‘plab murakkab fanlarning tadqiqot obyekti sifatida e’tirof etilib tadqiq qilinmoqda. Biz “refleksiya” kategoriyasiga pedagogika va psixologiya nuqtayi nazaridan ta’rif beramiz va uning mohiyatini o‘rganishda o‘qituvchilar kasbiy faoliyatidagi o‘rnini tahlil qilishga batafsil to‘xtalamiz. Psixologiyada refleksiya “subyekt tomonidan o‘zining jarayoni va holatlarini bilish, nazorat qilish” mazmunida talqin qilinadi.¹ O‘qituvchining pedagogik faoliyatida refleksiyaning shaxsga nisbatan ahamiyatini o‘rganishda bu tushunchaning ijtimoiy psixologik nuqtayi nazardan ta’rifi mukammal ekanligi e’tirof etiladi, unda refleksiya insonning borliqda boshqa insonlar tomonidan qanday qabul qilinishi va baholanishi sifatida qaraladi: refleksiya - “shunchaki subyektning o‘z-o‘zini bilishi yoki tushunishi emas, balki boshqalar tomonidan “refleksiyanuvchini”² qanday bilishi” va uning shaxsiy xususiyatlarini, emotsional³ reaksiyanishini va kognitiv tasavvurlarini ham tushunishini o‘z ichiga

¹ Kiatkiy psixologicheskiy slovar. / Red - sost. L.A Karienko 1998. -318 b.

² Refleksiylash-ongni o‘z-o‘ziga qaratish, o‘zining psixik holatim haqida fikrlash. Qar<mg: Философский словарь. /под ред. И. Т. Фролова. 1986.410 с.

³ Kiatkiy psixologicheskiy slovar. / Red - sost. L. A Xarienko. 1998. -318 b.

oladi.

Shaxsning psixik rivojlanishini boshqarish imkoniyatlarini ilmiy jihatdan o'rganib, S.L.Rubinshteyn insonning mavjudligini va uning ijtimoiy borliqqa nisbatan munosabatlarini refleksiya bilan bog'laydi:

“Refleksiya - bu insonning uzluksiz hayot jarayonini go'yo bir daqiqaga to'xtatib, uzib qo'yadi va insonni hayolan uning sarhadlaridan olib chiqib ketadi, shu vaziyatda insonning har bir harakati hayot haqidagi falsafiy fikr-mulohazalari muayyan bir xarakter kasb etadi”.

Insonning ijodiy muammolarini hal etishda ro'y beradigan fikrlashdagi refleksiyani o'rganib, olimlar uni fikrlovchi subyektning o'z-o'zini boshqarish usuli (Yu.N.Kulyutkin, S.YaStepanov va boshqalar), tanqidiy fikrlash omili (I.N.Semyonov), nazariy jihatdan fikrlashning yuqori ko'rsatkichi (A.Z.Zak, V.V.Davidov va boshqalar) sifatida ta'rif berib baholaydilar.

I.S.Ladenko refleksiyani intellektual tizimlarning o'z-o'zini tashkil qilishdagi ahamiyatini intellektual faoliyatning malaka va ko'nikmalarini takomillashtirish ehtiyoji hamda nutq, xotira, tasavvurlarning ichki va tashqi shakllari haqida psixologik qarashlarni ishlab chiqish zaruriyati bilan bog'laydi. U “refleksiya ichki tasavvurdan tashqi tasavvurga va aksincha biridan boshqasiga o'tish, fikrlash jarayonida ushbu jarayonlarning interiorizatsiya (tashqi omillarning ichki omillaringizga o'tishi haqidagi fikrlarni shakllantirish asosi. Refleksiya asosida nafaqat psixologik bilimlar, balki xotira, malaka va ko'nikmalar shakllantiriladi va amalda qo'llash usullari takomillashtiriladi” deb hisoblaydi.

Hozirgi zamonaviy pedagogik ilmiy tadqiqot ishlarida ko'plab olimlar refleksiyaning I.N.Semyonov tomonidan taklif qilingan tasnifiga tayanadilar. U refleksiyaning quyidagi turlarini taklif etib sharhlaydi:

“O'qituvchining kasbiy pedagogik faoliyatida refleksiya jarayonini o'rganib, ko'plab olimlar uning kommunikativ hamda kooperativ turlarini ustun qo'yadilar, aynan ushbu usullar

o'qituvchining pedagogik faoliyatida va o'quvchilar bilan muloqotida ko'proq namoyon bo'ladi" - deb hisoblaydilar (V.Arrivosheev, G.P.Shchedrovitskiy va boshqalar). Biroq, bizningcha, pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari xilma-xil bo'lganligi sababli refleksiyaning har bir turini alohida o'rganib tahlil qilish mumkin emas, zero ular ma'no jihatidan bir - birlari bilan o'zaro bog'liq.

N.V.Kuzminaning fikricha, refleksiyaning "mazmuni, sherigining ichki dunyosini o'zaro hamkorlik asosida subyektiv qayta yaratishdan iborat bo'lgan individlar bir - birlarini ko'zgudagi kabi aks ettirishi, o'zaro aks ettirishning o'ziga xos ikki tomonlamalik jarayoni, qolaversa, bu ichki dunyoda, o'z navbatida, birinchi tadqiqotchining ichki dunyosi aks etishidir".

U refleksiyaning pedagogik qobiliyatlar nuqtayi nazaridan o'rganib, ilk bor o'qituvchining reflektiv - persektiv qobiliyatlarini alohida komponent sifatida ajratadi. N.V.Kuzmina pedagogik intuitsiyaning shakllanishi reflektiv pedagogik qobiliyatlarning shakllanganlik darajasiga bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. "Yaxshi intuitsiya o'qituvchining izlangan natijalarga erishishida tayanishi mumkin bo'lgan o'quvchining eng oliyjanob ijobiy sifatlari haqidagi axborotlarni ekstrapolyatsiyalaganda (bir hodisani kuzatish asosida olingan xulosalarni boshqa vaziyatlarga tatbiq etish) namoyon bo'ladi".

Olimning ushbu xulosalariga tayanib, faraz qilish mumkinki, ekstrapolyatsiya jarayoni o'z kasbiy zaxiralaridan, o'z-o'zini kasbiy jihatdan takomillashtirish maqsadida foydalanish imkoniyatini beradi.

Reflektiv qobiliyatlarni o'qituvchi pedagogik faoliyatining zarur tarkibiy qismi sifatida hisoblagan qator mualliflar (A.A.Bizyayeva, V.V.Vetrova, E.N.Pexota, I.A.Stetsenko, I.G.Tatur, A.V.Xristeva va boshqalar) ularni bo'lajak o'qituvchilarning pedagogika oliy ta'lim muassasalarida o'qishi davridayoq shakllantirish zarurligi haqidagi g'oyalarni ilgari suradilar.

A.V.Xristeva reflektiv vaziyatlar mohiyatiga kasbiy faoliyatda ijodiy tizimlar hosil qiluvchi komponent sifatida qaraydi. U bo'lajak

o'qituvchining refleksiv tizimini shakllantirish va rivojlantirish pedagogik faoliyatda o'z imkoniyatlarining zarur ijodiy qismi deb biladi va refleksiv tizimsiz o'qituvchining yuksak mahoratli pedagog sifatida takomillashuvi mumkin emas deb ta'kidlaydi olima.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalari o'quvchilarini o'qitish jarayonidayoq refleksiya mexanizmlarini o'zlashtirishi o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi uchun yangi imkoniyatlar ochishi ta'kidlanadi. O'qituvchining refleksiv individualligi modelini yaratishni hozirgi kunda ko'plab olimlar taklif qilmoqdalar. Ma'lum pedagogik-psixologik sharoitlarda bo'lajak o'qituvchining shaxsiy kasbiy o'z - o'zini o'rganishini talqin qilishi boshlang'ich nazariy asos va jadval vazifasini o'taydi. Bo'lajak o'qituvchining professional refleksiyasini oliy pedagogik ta'lim muassasalari ta'lim-tarbiya jarayonini individualizatsiyalashtirish asosida rivojlantirish mumkin.

Kommunikativ va shaxsiy refleksiyani o'rgangan V.A.Krivosheevning ta'kidlashicha, o'qituvchi o'z faoliyatida pedagogik mahoratni o'zlashtirgani sari hamkasblari va o'quvchilar u haqida nima o'ylashlarini ancha yaxshi tushuna boshlaydi, chuqur o'zlashtirilgan bilim va pedagogik mahorat tufayli o'qituvchi o'z-o'zini baholashga kirishadi. Kommunikativ refleksiya shaxsiy refleksiyaning mazmunini, tizimini va aynan bir xilligini belgilaydi degan xulosaga keladi muallif.

Ba'zan pedagogik kommunikatsiyada ro'y beradigan uzilishlar, ya'ni o'quvchilar jamoasidagi faoliyatni "tushunmaslik holatlari" tufayli davom ettira olmaslik, pedagogik faoliyatdan refleksiv chiqishga olib keladi, zero ikkinchi o'qituvchi, birinchisining faoliyati mazmunini anglay olmaydi va natijada ularning ikkalasi ham nizo sabablarini tahlil qilishlariga to'g'ri keladi. Individual refleksiya, individlararo refleksiyaning alohida maxsus shakli, deb hisoblaydi ba'zi olimlar.

A.A.Bizyayeva o'qituvchining kasbiy refleksiyasidagi o'ziga xos jihatlarni o'rganar ekan, diqqatini o'qituvchi refleksiyasining boshqa inson faoliyatini tahlil qilish va anglash, shuningdek o'zini tahlil qilish

va o‘z-o‘zini baholash zaruriyati bilan bog‘liq bo‘lgan asosiy omillarga qaratadi.

Olimaning tadqiqotlarida aniqlanishicha, o‘qituvchilarning intellektual refleksiya darajasi ularning kasbiy refleksiyasiga bevosita emas, balki uning mahorat komponentlari orqali bilvosita bog‘liq. Bu olimaga intellektual refleksiyani o‘qituvchilarning kasbiy refleksiyasi rivojlanishi uchun asos sifatida baholash imkoniyatlarini beradi. Bizningcha, bular o‘qituvchining uzluksiz kasbiy o‘rishini ta’minlash uchun tayanch sifatlar sanaladi.

Refleksiv qobiliyat o‘qituvchiga pedagogik bilimlarni o‘zlashtirish va amaliyotda undan foydalanish jarayonida muhim ahamiyatga ega.

“Bu holda-deb yozadi Yu.N.Kulyutkin, o‘qituvchi o‘zining pedagogik mahoratidan foydalanib amaliy qarorlarni ishlab chiqishi va qabul qilishi jarayonlarini refleksiya predmetiga aylantirishi lozim. Buning uchun esa o‘qituvchida bu jarayonlarni tahlil qilishning tegishli tafakkur usullari shakllangan bo‘lishi kerak”.

Rivojlangan pedagogik refleksiyasiz, o‘qituvchi doimiy tahlil va o‘z-o‘zini tahlil qilmasdan amaliy va nazariy pedagogik faoliyatda yuzaga keladigan muammolarni va ziddiyatlarni chuqur anglashi, ularni doimiy tahlil qilishning yo‘llarini to‘g‘ri tanlashi, olingan natijalarni tanqidiy baholashi va ularni korreksiyalashi mumkin emas.

G.M.Kodjaspirova pedagogik refleksiyani insonning o‘z-o‘zini anglashi deb, bunda “nafaqat o‘qituvchi o‘z xatti-harakatlariga to‘g‘ri baho berishi, balki, o‘qituvchi bilan pedagogik muloqot chog‘ida o‘zaro hamkorlik qiladigan o‘quvchilar jamoasi, pedagogik jamoa, ta’lim- tarbiyaga mas’ul shaxslar va ota-onalar uni qanday qabul qilishini tushuna olish qobiliyati hamdir” deb ta’riflaydi. Demak, refleksiya o‘qituvchining o‘z-o‘zini anglashi o‘zining kamchiligi va zaif tomonlarini bilib o‘z-o‘zini takomillashtirishga intilishi, o‘z tarbiyalanuvchilarining hamda o‘z-o‘zini takomillashtirishga zarur shart- sharoitlar yaratishi uchun mavjud ichki imkoniyatlarini kashf etishidir. O‘qituvchining kasbiy mahoratini rivojlantirishda pedagogik

refleksiyaning ahamiyati Yu.N.Kulyutkina, Ya.S.Turbovskiy, P.V.Xudominskiy kabi tadqiqotchi olimlarning fikricha, o'qituvchining doimiy pedagogik faoliyati mazmunan refleksiv xususiyatga ega bo'lib, u barcha refleksiv jarayonlarni qamrab oladi. Qayd etish joizki, hozirgi kungacha pedagogik refleksiya tushunchasining mukammal tasnifi mavjud emas. Ehtimol mazkur hodisani o'rganish psixologiya, pedagogika, pedagogik psixologiya, falsafa kabi fanlarning o'zaro aloqadorligida amalga oshirilishi bilan bog'liq holda hal qilinadi. B.Z. Vulfov. V.N.Xarkin kabi olimlar refleksiyani - insonning o'z-o'zini anglashi, kasbiy refleksiyani esa - o'z-o'zini kasbiy faoliyati davomida anglashi, o'qituvchi mahoratidir; pedagogik refleksiyani - pedagogik kasbiy omilkorlikda o'zini anglash deb ta'riflaydilar

G.M.Kodjaspirova o'qituvchining pedagogik faoliyati barcha qirralari bilan refleksiv hodisa bo'lsa, demak bu pedagogik refleksiya, degan nuqtayi nazarni ilgari suradi.

Shu munosabat bilan ta'kidlash joizki, o'qituvchining kasbiy faoliyatida refleksiya muhim rol o'ynaydi. B.Z.Vulfovning fikriga ko'ra, kasbiy refleksiya jarayonida o'qituvchi o'zi tanlagan pedagogik kasbi talab qiladigan darajada o'z imkoniyatlarini, u haqdagi mavjud tasavvurlarini pedagogik tajribasining muhim jihatlari bilan nisbatlaydi, va "ixtiyoriy ravishda shaxsiy pedagogik mahorat zanjiri"ni hosil qiladi. Uning fikr-mulohazasi L.S.Rubinshteynning pedagogik faoliyatdagi tashqi sabablarning ichki shart-sharoitlar asosida bilvosita harakati haqidagi mashhur qoidasini tasdiqlaydi.

O'qituvchi pedagogik mahoratning asosiy xususiyatlaridan biri uning rivojlanishida uzluksizlikning mavjudligidir. Demak, refleksiv jarayonda o'qituvchining kasbiy mahorati, kasbiy sifatlari mavjudmi yoki yo'qmi deb qayd etish kerak emas, balki ularning rivojlanishini, boyib borishini kuchayishini rag'batlantirish inobatga olinishi lozim. Ta'lim jarayoni aynan shunga xizmat qilishi kerak, qachonki bilimlar, ko'nikma va malakalar ongli ravishda o'z-o'zini takomillashtirishga ichki undov bilan qabul qilinsagina u ishlanadi.

O'qituvchining "o'z-o'zini kasbiy jihatdan har tomonlamma mukammal takomillashtirishi", hamisha amalga oshadigan faoliyat emas. Shunga qaramay, o'qituvchining o'zi haqidagi deyarli har qanday fikr-mulohazasi, kasbiy refleksiyaning deyarli har bir jarayoni, kasbiy faoliyatni qiziqarli qilish uchun muhim ahamiyatga ega: chin ko'ngildan va mehr bilan bajariladigan og'ir mehnat ham kasbiy faoliyatni osonlashtiradi, bu esa refleksiyaning asosiy mazmun va mohiyati asoslaridan biridir.

Pedagog olimlar G.A.Golshteyn va G.P.Shedrovitskiyning ishlarida refleksiya o'qituvchi pedagogik faoliyati rivojlanishining asosiy omili va tabiiy mexanizmi sifatida katta ahamiyat berilgan. G.P.Shedrovitskiy refleksiyaning insonning "ijobiy faoliyatlari majmuasi" nuqtayi nazaridan o'rganishni taklif qiladi. U qandaydir pedagogik faoliyatni amalga oshirish mumkin bo'lmasa, bu g'oya asosida ushbu faoliyat doirasidan tashqariga "refleksiv chiqish" tizimi quriladi, deb hisoblaydi. Bunda inson amalga oshirilmagan faoliyatdan, yangi faoliyat pozitsiyasiga o'tadi va "fikran ma'nolar qurish" vositalariga ega bo'ladi, ulardan kelib chiqib, birlamchi faoliyatni tushunadi va tavsiflaydi, bunda ikkinchi yangi faoliyatda birinchisidan muhim "material" sifatida foydalanadi.

Olimlarning bu kabi xulosalari kasbiy refleksiya o'qituvchining o'z - o'zini rivojlantirishda (bu uning o'z ijodiy mehnati natijasidan qoniqmasligi aslo mumkin emasligi bilan belgilanadi) shijoati, kasbiy faoliyatiga oid yangiliklarni muntazam izlanishida, ijodkorligida namoyon bo'lishi bilan asoslanadi, demak refleksiya o'qituvchining o'z- o'zini kasbiy takomillashtirishiga ham asos bo'ladi, deb aytish mumkin.

Kasbiy pedagogik faoliyatda refleksiv jarayonlarni o'rganib ta'kidlash mumkinki, refleksiya nafaqat pedagogik faoliyatni rejalashtirish bilan bog'liq hodisa, balki refleksiya mohiyatini kasbiy faoliyatni optimallashtirish maqsadida ham qo'llanadi. Ba'zi olimlarning fikricha, refleksiya asrlar davomida o'qituvchining kasbiy faoliyatida to'planib kelingan tajribalarida, uning xulq-atvori, muloqot

madaniyati, tafakkurida yig'ilgan eski andozalarni, kamchiliklarni bartaraf etish imkoniyatini beradi (G.F.Pojmelkina, E.Yu.Koloshina, E.V.Frolova).

O'qituvchining kasbiy refleksiya qilishiga pedagogik fikrlashning zarur tarkibiy qismi sifatida qarash mumkin, o'qituvchiga o'z kasbiy faoliyatiga tahliliy yondashishni, o'zining pedagogik faoliyatdagi o'rnini aniqlash va rejalashtirilayotgan ishlarda ijobiy natijalarga erishish uchun pedagogik faoliyatni maqsadli o'zgartirishning optimal yo'llari va konstruktiv vositalarini topish imkoniyatini beradi.

Refleksiyaning kasbiy qiyinchiliklarni yengishdagi rolini o'rgangan V.A.Metayevaning ishlari hozirgi kunning eng dolzarb tadqiqotlaridan biri sanaladi. Olima refleksiyaning rivojlanganlik darajasi "o'qituvchining kasbiy faoliyatidagi qiyinchiliklarni samarali hal qilishning asosi bo'lmish" pedagogik mahorat natijasida muvaffaqiyatlarga erishishiga bog'liq, degan xulosaga keladi. Biroq, bizning fikrimizcha, o'qituvchi pedagogik faoliyatida muvaffaqiyatlarga erishishi unda refleksiyaning mukammal rivojlanganlik darajasini belgilamaydi, aksincha ta'lim-tarbiyada o'qituvchining muvaffaqiyatga erishishi, o'z faoliyatini natijalaridan qoniqishi, o'qituvchining shakllangan kasbiy pedagogik refleksiya qilishiga bog'liq.

Pedagogik refleksiya o'qituvchiga o'z-o'zini kasbiy jihatdan takomillashtirish manbalarini o'z bilimi va imkoniyatlaridan izlab topishda ko'maklashadi hamda uning rivojlanishini ta'minlaydi.

Inson psixikasi ichki tizimlari tashqi ijtimoiy faoliyat strukturasi qizg'in o'zlashtirish jarayonida shakllanishini, tashqi faoliyatning ichki faoliyatga o'tishini ta'minlaydigan interiorizatsiya (tashqi omillarning ichki omillarga o'tishi) nazariyasiga (P.Jane, J.Piaje, A.Vallon, A.Leontev va boshqalar) asoslanib, aytish mumkinki, kasbiy refleksiyaning rivojlanish muammosi o'qituvchining pedagogik mahoratini oshirish asosi sifatida o'rganiladi.

O'z-o'zini bilish jarayoni o'qituvchining pedagogik mahorati doirasida ma'lumotlarni qayd qilish darajasida kechadi, bunda

refleksiyaning passiv shakli ustuvorlik qiladi. O'qituvchi pedagogik faoliyatida yuzaga kelayotgan turli qiyinchiliklar va muammolarning sabablarini, erishilayotgan yutuqlar va natijalarni shunchaki qayd qilib boradi. O'z-o'zini anglash jarayoni o'qituvchining o'z faoliyati va unda o'ziga nisbatan "metapozitsiya" (noaniq pozitsiyada turib, o'ziga tashqaridan qarash, o'zini kuzatish) malakasini ko'zda tutadi. Bunda, interiorizatsiya (tashqi omillarning ichki omillarga o'tishi) hodisasi amalga oshadi, kasbiy qiyinchiliklarning kelib chiqish sabablari rasmiylashtiriladi; faoliyatdan ko'zlanadigan asosiy maqsad aniqlanadi refleksiv - "MEN" shakllanadi. Bu o'qituvchining dolzarb rivojlanishi zonasi bilan bog'liq.

O'z-o'zini belgilash jarayonida boshlang'ich daraja kasbiy ehtiyojlarni hisobga olib belgilanadi va jadal imkoniyatlar asosida faoliyat rejalashtiriladi. Strategik, taktik va tezkor vazifalar shakllantiriladi. Haqiqiy "MEN" va ideal "MEN" nisbatlanadi. Bu o'qituvchining eng yaxshi rivojlanish darajasi bilan bog'liq.

O'z-o'zini rivojlantirish jarayonida o'qituvchining kasbiy faoliyat davomida takomillashtirilgan pedagogik mahorati, refleksivalangan (ya'ni avval foydalanilgan va ularning samaradorligini baholash natijasida tobora optimal bo'lib chiqqan metodlar) harakat usullari va metodlarini o'sishi sodir bo'ladi.

O'z-o'zini nazorat qilish o'qituvchi pedagogik faoliyati jarayonida nazariy va amaliy tajribalar asosida, o'z-o'zini kasbiy jihatdan nazorat qilib, pedagogik mahoratini yanada takomillashtirib borishning ikkinchi shakli boshlanishini nazarda tutadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, refleksiya muammosi nafaqat pedagogika, psixologiya, falsafa, mantiq kabi fanlarda, balki boshqa fanlarda ham o'rganiladi. Bu tushuncha talqiniga biz ta'lim rivojlanishining falsafiy konsepsiyasi (V.V.Krayevskiy, B.T. Lixachyov, Ya S.Turbovski va boshqalar.) g'oyalari nuqtayi nazaridan yondashamiz. Bu holatda kishining dunyo, jamiyat, o'zining bu dunyodagi o'rni haqidagi tobora umumiy, keng tushunchalarining pedagogik voqelik bilan aloqasi refleksiya predmeti sanaladi.

Ta'kidlash joizki, dastlab ongda bilimlarning falsafiy refleksiya oqimidagi tahlili kechadi, keyin u pedagogik nazariya tarkibiga kiradi va uning bir qismiga aylanadi, so'ngra faoliyatni nazariy jihatdan anglashning boshlang'ich nuqtasi bo'lib qoladi. Shu tariqa inson o'z ongini, faoliyatini rivojlantirish mexanizmlarini egallashi va ularni maqsadli boshqarish imkoniyatini qo'lga kiritadi.

G.Ananev, inson xarakterining shakllanish jarayonini tahlil qilib, refleksiv xossalar shaxsning boshqa sifatlariga qaraganda ancha kech shakllanishini aytadi. Uning fikricha: "inson hayoti davomida o'zaro munosabatlarning ko'plab obyektlari orqali o'tadi, natijada uning ongi o'z-o'zini anglash obyektiga aylanadi. O'zining xulq-atvor subyekti sifatida ko'p marotaba anglash tajribasini to'plash va unga munosabatlar, biz refleksiya deb ataydigan xarakterga aylanishi uchun, xulq- atvorda uni muntazam qo'llash talab qilinadi».

Ushbu fikr kasbiy refleksiyaning rivojlanishi, buning natijasi o'laroq, shaxsning faoliyat xususiyatlari bilan belgilangan refleksiv qirralari shakllanishini ta'minlaydigan ma'lum sharoitlar, vaziyatlarni yaratish zaruriyati haqida xulosa qilish imkoniyatini beradi. *Shunday qilib, olimlarning tadqiqotlariga tayanib, ta'kidlash mumkinki, o'qituvchining kasbiy pedagogik mahoratini rivojlantirish muammosini faqat uning kasbiy refleksiyasini takomillashtirish asosida hal qilish mumkin. Kasbiy pedagogik refleksiya na faqat kasbiy faoliyat, balki, bilim, ko'nikma va malakalarning o'sishini ta'minlaydi hamda ushbu faoliyatni takomillashtirish asosi ham sanaladi.*

Har qanday o'qituvchi o'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini rivojlantirishga hatto juda kuchli intilishi bo'lsa ham o'zining shaxsiy rivojlanish dasturini maxsus malakalarsiz belgilay olmaydi, bu pedagogik faoliyatdagi muvaffaqiyatga erishish, o'qituvchining o'z ustida ishlashga tayyorgarligi, uning o'z-o'zini tahlil qila olishi o'z-o'zini tashxislash qobiliyatining qanchalik shakllanganligi bilan bog'liq.

O'qituvchi o'z faoliyatini muntazam tahlil qilmasligi aslo mumkin emasligi isbotlangan, bu o'qituvchidan kasbiy faoliyati

davomida atrofidagi insonlar (o'quvchi, ota-ona, hamkasblari) bilan muntazam kommunikativ munosabatni tashkil etish pozitsiyasida tura olishini talab qiladi, o'qituvchida bu faoliyat subyekti sifatida o'ziga refleksiv munosabatni shakllantiradi, bu esa ijtimoiy munosabatlar interiorizatsiyasi (tashqi omillarning ichki omillarga o'tishi) natijalarini o'zida aks ettiradi. Demak, refleksiya, garchi ong funksiyasi sanalsa-da, kishilarning o'zaro munosabatlari yig'indisi ta'sirida shakllanadi va inson psixikasiga sezdirmasdan o'tadi, va o'z navbatida, inson faoliyatini ongli ravishda o'zgartirish mazmunini belgilaydi.

Ma'lumki, har qanday kasbiy faoliyat obyektini o'zgartirish jarayoni bo'lib, ayni paytda, subyektning o'zini ham o'zgartirish jarayonidir, faoliyatning sifat va samaradorligini oshirish esa shaxsning faoliyat subyekti sifatida takomillashuvi ga olib keladi yoki aksincha bo'lishi ham mumkin. Bu qoida A.A.Leontevning "shaxsni tadqiq qilishning to'g'ri yo'li ijtimoiy munosabatlarda subyekt faoliyati natijasida o'zi- o'zini harakatlantirish evaziga hosil bo'ladigan transformatsiyalarni (shakl yoki qiyofaning o'zgarishi) o'rganishdan iborat" ekanligi haqidagi xulosasi refleksiv jarayonlarni o'rganish uchun ham asos sanaladi.

O'qituvchi pedagogik faoliyatini o'rganishga bag'ishlangan ko'p yillik tajribalar asosida qilingan nazariy xulosalar pedagogik mahoratning rivojlanish jarayonini beshta elementdan iborat tizim asosida o'rganish imkoniyatini beradi. Bu o'qituvchining kasbiy refleksiyasi rivojlangani sari kechadigan va uning asosida uzluksiz pedagogik kasbiy mahoratini va o'z-o'zini takomillashtirish imkoniyatini ta'minlaydigan jarayonlarni chuqurroq tushunishni ta'minlaydi (chizmaga qarang).

Pedagogik tashxislash asosida o'qituvchining kasbiy rivojlanishini ta'minlash usullari. O'qituvchi pedagogik mahoratini oshirish sohasida olib borilayotgan tadqiqotlarda ko'plab olimlar pedagogik mahoratni rivojlantirish haqida fikr bildirishib, bu jarayonning asosiy zaxirasi o'qituvchining o'z faoliyati tahliliga doimiy intilishida (V.I.Zagvyazinskiy, Yu.K.Konarjevskiy, Yil P.

Lvova, IP. Rachenko, L.I.Ruvinskiy, V.P.Simonov, V.A.Suxomlinskiy, Ya.S.Turbovskiy, T.I.Shamova va boshqalar); uning refleksiv qobiliyatlarini takomillashtirish (A. A.Bizyayeva, V.V.Vetrova, Is.V.Kuzmina, E.N.Pexota. I.A.Stetsenko va boshqalar); refleksiv pozitsiyasini (A V.Xristeva) rivojlantirishning o‘ziga xos pedagogik reflek- siyasiga bog‘liq bo‘lganligi uchun uni pedagogik fikrlashni shakllantirish bilan bog‘lab, shu tariqa (Yu.N.Kulyutkin, G.S.Suxobskaya) o‘qituvchi pedagogik refleksiyasini rivojlantirish mumkin (B.Z.Vulfov, G.M.Kodjaspirova, N.V.Kuzmina, Yu.N.Kulyutlon, I.N.Mesyonov, S.Yu.Stepanov, G.S.Suxobskaya, N.V.Xarkin, AV.Xristeva va boshqalar.) deb ta’kidlaydilar.

Ko‘pchilik olimlar refleksiyani o‘qituvchi tomonidan o‘zining faoliyati va uning natijalarini tahlil qilish va o‘zini baholash jarayonida rivojlanishini aytadi va “refleksiyani boshqarish imkoniyati va zaruriyati shundan iboratki, o‘qituvchi uzluksiz ta’limning qaysi sohasida faoliyat ko‘rsatmasin, o‘zining ongli ravishda ichki ta’sirini (o‘z-o‘zini o‘ylashga va fikrlashga majbur qilish) va tashqi ta’sirini, shaxsiy o‘quv jarayonida boshqarib qo‘llay oladi” deb ta’kidlaydilar.

Ilmiy adabiyotlar tahlili va kasbiy refleksiyani o‘qituvchi pedagogik faoliyatining tarkibiy qismi va uning pedagogik mahoratini rivojlantirish asoslari sifatida qarash, shuningdek qayd qiluvchi eksperiment natijalari kasbiy refleksiyani rivojlantirish usullarini izlash zaruriyatini keltirib chiqaradi. Shu sababli kasbiy pedagogik faoliyatning turli sohalari bilan shug‘ullangan olimlar tashxis (diagnostika) va tashxislash (diagnozlash) mazmuniga yanada batafsil to‘xtalganlar.

Tashxislashga, ya’ni diagnostikaga bilishning alohida usuli sifatida qarash qabul qilingan (grekchadan tarjima qilganda, diagnostik tanib olish demakdir). Biz pedagogik tashxislash so‘zining o‘rniga pedagogik diagnostika so‘zini ishlatishni lozim topdik.

Pedagogik diagnostika mazmun va mohiyatiga qarab ko‘plab funksiyalarni bajaradi. Uning tahliliy vazifasi o‘quv-tarbiyaviy jarayondagi yutuq va kamchiliklarning kelib chiqish sabablari va

oqibatlarini, ularning o‘zaro bog‘lanishlarini aniqlash va chora-tadbirlar ishlab chiqishga qaratilgan. Aslida diagnostik funktsiya o‘quvchining ta’lim olganligi, tarbiyalanganligi va rivojlanganligini aniqlash uchun qo‘llaniladi, biroq o‘qituvchining ham kasbiy komponentlik darajasini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik diagnostikaning baholash vazifasi ma’muriyat tomonidan olib borilib, alohida o‘qituvchi yoki alohida o‘quvchi faoliyatida erishgan yutuqlar va kamchiliklar yuzasidan sifat ko‘rsatkichlarni miqdor jihatdan baholaydi.

Diagnostikaning korreksion vazifasi o‘quv - tarbiyaviy jarayonni o‘qituvchining pedagogik faoliyati yuzasidan korreksiyalashni (to‘g‘ri yo‘naltirish) ta’minlaydi va o‘qituvchining kasbiy jihatdan o‘z - o‘zini rivojlantirish va pedagogik mahoratini oshirish uchun sidqidildan kirishishga faolligini ta’minlaydi. Diagnostikaning yo‘nalishni oriyentatsion (aniqlash) vazifasining maqsadi pedagogik jamoa va alohida o‘qituvchilar faoliyatida mavjud bo‘lgan muammolarni uzluksiz hal etishni muvofiqlashtirib borishdir. Pedagogik diagnostikaning oriyentatsion vazifasi natijalari haqida doimiy xabarlamini informatsion (axborot) vazifa ta’minlaydi.

Shu o‘rinda diagnostika (tashxis) va diagnostikalash (tashxislash) tushunchalarining farqi va qanday ma’no berishini bilish lozim. Diagnostikani soddalashtirilgan ko‘rinishda “tashxisni aniqlash” deb qarasa, unda diagnostikalash (tashxislash) bu jarayonning tashxisni qo‘yish metodlari yig‘indisidir. Shu bois pedagogik faoliyatning o‘ziga xos jihatlarini e’tiborga olib, uni o‘rganishda diagnostikalash (tashxislash) terminini qo‘llash o‘rinliroq ko‘rinadi. Umuman diagnostikalash terminini tashxislash deb atalsa ham maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Pedagogik tashxislash deganda pedagogik tizimni (shuningdek, uning alohida tarkibiy qismlarini) tadqiq qilish metodlarining jamlanmasini tushunamiz, ulardan foydalanish samaradorligi ma’lum tashkiliy - pedagogik shart - sharoitlar bilan bog‘liq holda shakllanadi.

Pedagogik tashxislashning yaxlitligi uning nafaqat o‘qituvchi

pedagogik faoliyatini o'rganishning diagnostik jihatlarini, balki aniqlangan sabab va oqibatlarining bir-biri bilan o'zaro bog'lanishi asosida har bir o'qituvchining pedagogik qiyinchiliklarni bartaraf etishning optimal yo'llari va vositalarini topish imkoniyatini beradigan konstruktiv prognostik nuqtayi nazardan ta'minlaydi, o'qituvchi pedagogik mahoratining rivojlanish istiqbollari belgilab, uning faoliyat yuritish dinamikasini kuzatish orqali tanlangan mehnat shakllari samaradorligini baholash imkoniyatini beradi.

O'qituvchi pedagogik faoliyatini tashxislashning turli aspektlarini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlarining soni ko'p.

Ayni paytda, o'qituvchilar uchun eng zarur xislatlarni aniqlab olish imkoniyatini beradigan, o'qituvchilik kasbining professiogrammasi (ma'lum tizimga keltirilgan mehnatni psixologik tomondan o'rganib, kelgusi amaliy faoliyatda foydalanishga qaratilgan, kasbni har tomonlama batafsil yoritib beruvchi yo'nalish) psixolog olimlar (R.Z.Gaynutdinov, M. G.Davletshin, S.Jalilova, A.Jabborov) tomonidan ishlab chiqilib amalda qo'llanilmoqda. Olimlar o'qituvchi professiogrammasi, muayyan fan tomonidan o'qituvchiga qo'yiladigan maxsus talablarni o'z ichiga qamrab olishini, o'qituvchi o'zi tanlagan fan yuzasidan qanday talablar qo'yilishini mukammal bilishini aytib, shu asosda o'quv-tarbiya jarayonini tashkil qilishni, pedagogika oliy ta'lim muassasalarida muayyan mutaxassislik bo'yicha "O'qituvchi professiogrammasi" ishlab chiqilishi zarurligini ta'kidlaydilar. Hozirgi kunda umumta'lim maktablari o'qituvchilarining pedagogik faoliyatini takomillashtirish uchun ishlab chiqilgan professiogrammaga asoslanib, o'qituvchilarni tashxislashning ushbu metodidan foydalanib kelinadi. Biroq ushbu professiogramma o'qituvchining kun sayin o'zgarib turuvchi jamiyat talablariga muvofiq shaxsiy dunyoqarashini, ongini, mafkurasini boyitish dinamikasini to'liq aks ettira olmaydi.

Pedagogik faoliyatni tadqiq etish mantiqi, pedagogik tashxislashning turli metodikalarini birlashtirish zaruriyati N.V.Kuzminaning ishlarida keng yoritilgan tadqiqotning so'rov,

kuzatish, baholash (reyting), o'z - o'zini baholash, juft qiyoslash, sotsiometriya va eksperiment kabi metodlarini o'rganar ekan, u aynan "o'z-o'zini baholash, o'z-o'zini anglash usullaridan biri sifatida shaxsning barcha imkoniyatlarini namoyon qilishga, uning xulqiga, xarakteriga, faoliyat sur'atiga ta'sir etishini" ta'kidlaydi. O'qituvchining pedagogik bilim va malakalari tizimini tavsiflab, N.V.Kuzmina o'qituvchining bilish va o'rganish malakalari ichidan uning pedagogik faoliyati uchun zarur bo'lgan afzalliklarni va nuqsonlarni ongli ravishda bilib tuzatish yoki takomillashtirish maqsadida tahlil qila olish qobiliyatini ajratib ko'rsatadi.

P.Rachenkoning fikricha, o'qituvchining o'z o'zini shaxsi haqidagi tasavvuri, ijobiy MEN - konsepsiyasini shakllantira olishi uning ijodiy faolligini rivojlantirishning kafolati sanaladi.

Yuqorida bayon qilingan fikrlar o'qituvchining kasbiy refleksiyasi, o'z-o'zini yuqori darajada baholashni ta'minlab, o'qituvchiga o'z pedagogik mahoratini takomillashtirish yo'lidan maqsadli faoliyat olib borish imkoniyatini beradi.

O'qituvchining pedagogik mahoratini oshirishning asosiy yo'li - bevosita ta'lim muassasasida ilmiy asosda tashkil qilingan tadqiqotchilik ishi, deb hisoblagan V.P.Simonov mohir o'qituvchi shaxsi va faoliyati samaradorligini tashxislash uchun asosiy kasbiy ahamiyatli ko'rsatkichlarning tizimini va taxminiy mazmunini ishlab chiqdi. U taklif qilgan metodikalar, muallifning fikricha, nafaqat o'qituvchining ta'lim faoliyati: balki u bilan o'zaro faoliyat olib boradigan o'quvchilarning o'quv faoliyati samaradorligini ham aniqlash imkoniyatini beradi. O'qituvchining ahamiyatga molik bo'lgan kasbiy sifatlarini tashxislash natijalarini olib uch xil yo'nalishda baholaydi: optimal, yo'l qo'yiladigan va tanqidiy daraja bo'yicha V.P.Simonov hamma vaqt ham ijobiy natija beravermaydigan tekshiruvchilarning yuzaki yondashuvi o'qituvchilarning kasbiy faoliyatini ma'lum darajada buzadi yoki noto'g'ri kategoriyalaydi, ularning pedagogik tashabbuskorligini va mustaqilligini so'ndiradi, har bir o'qituvchida o'z pedagogik faoliyatini "ishonchli va isbotli natijalar

bilan baholash va uning natijalari hamda samaradorligi haqida gapirish malakasini rivojlantirish zarurligini aytadi.”

Kasbiy pedagogik faoliyatni tahlil qilish va o‘z-o‘zini tahlil qilishni o‘qituvchi faoliyati va refleksiv pozitsiyasi nuqtayi nazaridan tuzatish va takomillashtirish maqsadida pedagogik vazifalarni hal qilishga qaratilgan pedagogik malakalar yig‘indisi sifatida qarab, A.V.Xristeva analitik malakalar tizimini analitik faoliyat tizimi bilan nisbatlaydi. U kasbni, pedagogik faoliyatni tahlil va o‘z - o‘zini tahlil qilishning quyidagi bosqichlarini ajratib ko‘rsatadi:

1. Mazmunli - diagnostik (tayyorlov - moslashuv) bosqich;
2. Maqsadli loyihalashtirish (tahlil va o‘z-o‘zini tahlil qilishdagi maqsadni aniqlashtirish) bosqichi;
3. Texnologik (kasbiy pedagogik faoliyat jarayonini va o‘z-o‘zini tahlil qilish) bosqichi;
4. Tahlil va o‘z-o‘zini tahlil qilishning nazariy (pedagogik faoliyatning mohiyati, natijalari bilan pedagogik faoliyat jarayoni o‘rtasidagi aloqalarning sabab va oqibatlarini nazariy anglash) bosqichi;
5. Faoliyatni refleksiv baholash (faoliyatni baholash va refleksiv tahlil) bosqichi;
6. Korreksiyalash (ijodiy bosqich bo‘lib, o‘z pedagogik faoliyatini nazariy jihatdan anglash va baholash asosida takomillashtirish va hamkasblarining samarali pedagogik tajribalaridan ijodiy foydalanish yo‘llari va usullari belgilanadi) bosqichi.

Muallif taklif qilgan analitik faoliyat algoritmi interiorizatsiya (tashqi omillarning ichki omillarningningrga o‘tishi) jarayonida tashqi faoliyatning ichki faoliyatga o‘tish mexanizmi qanday rivojlanishi, ichkisi esa, o‘z navbatida, tashqi faoliyat orqali o‘z-o‘zini o‘zgartirishini (uning davomida o‘qituvchilar kasbiy refleksiyasining rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan analitik darajasi o‘zgaradi) tushunish imkoniyatini beradi.

N. A Evert, A.I.Sosnovskiy, S.N.Kuliyev pedagogik mahorat tizimidan uchta asosiy: estetik (axloqiy), ijtimoiy-psixologik va

texnologik kabi tarkibiy qismlarni ajratib, o'qituvchi pedagogik mahoratining diagnostik dasturini ishlab chiqishadi va quyidagi bloklarni farqlaydilar:

- yuksak ma'naviy barkamollik;
- o'qituvchining individual - psixologik xususiyatlari;
- hamkasblari bilan pedagogik hamkorlik;
- pedagogik texnikani o'zlashtirish;
- shaxsiy kasbiy xususiyatlari;
- ijobiy natijalarga oson erishish.

O'qituvchining ijtimoiy-psixologik shakllanishida o'z ustida ishlashi murakkab tizimga ega. Bunda o'qituvchi ekstensiv, taxminiy, metodologik, kommunikativ, psixologik hamkorlikda ijodkorlik vazifalarini bajaradi. Diagnostik dasturda o'qituvchi kasbiy tayyorgarlik jarayonida tadqiqotchilik, mohirlik, reproduktiv (xotirada saqlash), rasmiy ijrochilik kabi faoliyat bo'yicha muntazam ish olib boradi. Ushbu faoliyat dasturlari, ayniqsa, yosh o'qituvchilarning pedagogik faoliyatida duch keladigan ijtimoiy munosabat, sinfdan qo'rqish, o'quvchilar bilan o'zaro munosabatda ziddiyat hosil bo'lishi kabi psixologik to'siqlarni yengishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Olimlarning pedagogik mahorat tahliliga bu kabi chuqur yondashuvda barcha o'zaro bog'langan tizimlarni birdaniga qamrab olish amalda mumkin emas. Natijalar haddan ziyod katta hajmda, tarqoq bo'ladi, eng asosiysi, bu holda pedagogik mehnatning alohida bo'g'inlar tahliliga chuqur yondashib bo'lmaydi. Umuman pedagogik faoliyat doimiy ravishda o'z-o'zini tahlil etish, o'qituvchi refleksiya rivojlanishining tashabbuskori bo'la oladigan o'ziga xos "tezlashtiruvchi" rolini o'ynamog'i kerak.

O'qituvchi faoliyatini pedagogik tashxislash.
V.A.Suxomlinskiy pedagogik faoliyatga shunday ta'rif beradi "pedagogik rahbarlikning sirlaridan biri o'qituvchilarda muntazam izlanish va o'z ishining tahliliga qiziqish uyg'otishdan iborat. Kimki o'z darslarida, tarbiyalanuvchilar bilan o'zaro munosabatlarda yaxshi va yomonni farqlashga yutuq va kamchiliklarini o'z vaqtida bilishga

urinsa, pedagogik faoliyatning yarim muvaffaqiyatiga erishgan bo‘ladi”.

Xuddi shu nuqtayi nazardan ilgari surilgan g‘oyani V.I.Zagvyazinskiyda ko‘ramiz: u “har bir o‘qituvchi mustaqil ravishda o‘z imkoniyatlarini aniqlashi, o‘z qobiliyatlarini va pedagogik mahoratini rivojlantirishi kerak. O‘zida ko‘p narsani kashf qilish, tavsiya qilinganlardan ko‘pini sinab ko‘rish, baholash lozim, o‘qituvchi o‘zini o‘zi yaratadi, kosib yoki ijodkor bo‘lishini ham o‘zi belgilaydi».

O‘zining pedagogik tajribasini tahlil qilib, o‘qituvchi o‘z diqqatini tobora muvaffaqiyatli jihatlarga qaratadi, o‘zining ish samaradorligini pasaytirayotgan pedagogik muammolarni va qiyinchiliklarni ham ko‘ra olib, uni bartaraf etish yo‘llarini topadi.

Pedagogik faoliyatda uchraydigan qiyinchiliklarning dastlabki tadqiqalaridan birini N.V.Kuzminada ko‘ramiz. U o‘qituvchi duch keladigan dastlabki qiyinchiliklarni pedagogik faoliyatning tashqi omillarni keltirib chiqaradigan va ichki omillarning xarakterida, kishining faoliyatga ta’limiy, ma’naviy va jismoniy jihatdan tayyorgarligida paydo bo‘ladigan keskinlik, beparvolik, qoniqmaganlikning subyektiv holatidir” deb ta’riflaydi.

T.S.Polyakovaning ishi endigina o‘z faoliyatini boshlayotgan o‘qituvchilar duch keladigan tipik didaktik qiyinchiliklarga bag‘ishlangani didaktik qiyinchiliklarga shunday ta’rif beradi: “Didaktik qiyinchiliklar - o‘qituvchining ta’lim jarayonidagi qiyinchiligi bo‘lib, uni hal qilish uchun shart-sharoitlar yo‘qligi, keskinlik, beparvolik, o‘z ishida qoniqmaganlikning psixologik holati yoki aksincha, uni bartaraf qilish uchun sharoitlar ta’minlangani holda pedagogik mahoratni takomillashtirish, pedagogik “fikrlashni”, malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirishni ta’minlaydigan tetiklik, mobilizatsion tayyorgarlik, emotsional ko‘tarinkilik holatining mavjud emasligidir”.

T.S.Polyakova pedagogik faoliyatdagi qiyinchiliklar va ziddiyatlar uzoq muddat hal qilinmaganda, muvaffaqiyatsizlik vaziyatida nafaqat psixologik uzilishlar, balki o‘z-o‘zini baholashning pastligi, pedagogik mahoratni takomillashtirishning tormozlanish

manbasi sifatida salbiy rol o'ynashini aytadi. Pedagogik vazifalarga faol munosabatning zarur sharti bo'lgan rag'batlantiruvchi vazifa esa ijobiy rol o'ynashini ta'kidlab, o'qituvchining shaxsiy pedagogik mahorati zaxirasini safarbar qiladi, uni ijodiy fikrlashni rag'batlantirish manbai deb hisoblaydi.

Qiyinchiliklarning pozitiv roli uning indikatorlik (hisoblovchi) vazifasi bilan ham belgilanadi. "Indikatorlik vazifasi pedagogik mahoratning shakllanish jarayonini tormozlovchi obyektiv omillarni ajratadi, biroq u o'z - o'zini baholash tarzida subyektiv namoyon bo'lishi, shaxs uchun faoliyatning tobora qiyin jihatlarini aniqlab berishi mumkin".

Demak, o'z pedagogik faoliyatini endigina boshlagan yosh o'qituvchi aslo jismonan va ruhan bo'shashishi, butunlay osoyishtalikka berilishi mumkin emas. Bu tuyg'u psixologiya fanida relaksatsiya deb atalib, kishilarning ish faoliyatida salbiy holatlariga beriladigan baho sifatida e'tirof etiladi.

Pedagogik va psixologik adabiyotlar tahlili, qiyinchilik - insonning subyektiv psixologik holati ekanligini, u hamma vaqt ham tashqi kuzatuvchi tahlil uchun qulay emas degan xulosa qilishga imkon berishini, bu esa hech kim o'qituvchining kasbiy qiyinchiliklarini uning o'zidan ko'ra yaxshiroq aniqlay olmasligini va ularni bartaraf qilish yo'llarini ham o'zidan boshqa kishi topa olmasligini ta'kidlaydi. Demak, o'qituvchining pedagogik faoliyatida kasbiy qiyinchiliklarini tadqiq qilishning yanada qulay yo'li bu, o'z-o'zini tashxislash hisoblanadi.

Shu bilan birga, psixologik mashg'ulotlardan biri bo'lgan "Autogen trenirovka" ham muhim ahamiyatga ega. "Auto - o'z-o'ziga ta'sir" ma'nosini bildirib, o'qituvchi o'z-o'ziga ta'sir o'tkazgan holda kasbiy faoliyatida duch keladigan qiyinchiliklarni yengib borishi mumkin.

Ya.S.Turbovskiyning fikricha, kasbiy takomillashuvning salbiy "energetik asosi" bo'lgan qoniqmaslik hissi, rivojlanishda to'xtab qolganlikni chin ko'ngildan his etish sanaladi. "Buyruq, chaqiriq va

nazorat emas, balki aynan o'qituvchining o'z faoliyatidan qoniqmaslik hissi, yuzaga kelgan pedagogik ziddiyatni boshqacha qilishga, buning uchun yangi vositalarni izlab topishga va uni o'zlashtirishga ongli ravishda intilishini ta'minlaydi, qiyinchilik va ziddiyatlarni bartaraf etishdan, shaxsan o'zi hal qilgan tadqiqotchilik vazifasidan ijodiy quvonish, qoniqish hissi - o'qituvchi kasbiy komponentining asosiy manbasiga aylanadi, aniqrog'i, aylanishi mumkin».

Ya.S.Turbovskiy tomonidan ishlab chiqilgan, pedagogik tajribani diagnostik o'rganish nazariyasi va metodikasi har bir pedagogik jamoada va jamoaning har bir a'zosida pedagogik kasbiy faoliyat xususiyatlarini o'rganishda yagona maqsad uchun harakatlanishga imkoniyat beradi, bu o'z navbatida o'qituvchining pedagogik mahoratini oshirish mexanizmini yaratish uchun zamin hozirlaydi.

Pedagogik tashxislash konsepsiyasi pedagogika fani va ta'lim muassasalari amaliyotining o'zaro hamkorlik jarayonini boshqarish imkoniyatini ta'minlaydigan uchta metodologik asosni o'z ichiga oladi:

- ma'lum bir pedagogik mahorat pozitsiyasini egallash;
- ma'lum bir maqsadga yo'nalganlik;
- pedagogik mahoratni egallashga bo'lgan ehtiyoj.

Turli boshqaruv tizimlari nuqtayi nazaridan aynan bir xil natijalar u yoki bu muammoning dolzarbligi bilan belgilanadigan turlicha ahamiyat kasb etishi mumkin. Ish tajribasidan foydalanish hajmi va miqyosi ham har xil bo'ladi. Konsepsiya mualliflari integratsion fan yutuqlaridan foydalanish samaradorligi, olimlar erishgan natijalar, amaliyotchilar unga ehtiyoj sezgan joyga borib yetishi, ilmiy bilimlarning ma'lum bir maqsadga yo'nalganligiga bog'liqligini ta'kidlaydilar.

Fanning u yoki bu tarzdagi tavsiyalari pedagogikada ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan g'oyalar bilan ta'minlashdan avval amaliyot asosida aniqlangan ehtiyoj bo'lishi kerak. O'qituvchi mehnatini o'rganish jarayonida qator shart-sharoitlarga rioya qilish ko'zda tutiladi.

K.L.Markovaning fikricha, nafaqat o'qituvchilik kasbida uzoq

o'tmish tajribalaridan foydalanish darkor, balki o'qituvchi kasbiy rivojlanishining eng yaqin va olis istiqbollarini ham o'tmish tajribalaridan foydalanish asosida belgilash zarur.

Shu munosabat bilan pedagogik tashxis pedagogik faoliyatda erishiladigan yutuqlarni belgilovchi (prognostik) xarakter kasb etganida samarali bo'lishini ta'kidlamoqchimiz. Olimlar tomonidan olib borilgan tajriba ishlari jarayonida shu narsa aniqlandiki, pedagogik mahoratni tadqiq qilishning belgilovchi (prognostik) xarakteri bevosita o'qituvchining kasbiy refleksiyasiga tayanadi.

Bu o'qituvchining ta'lim-tarbiya jarayonida paydo bo'ladigan muammosi aynan nimadan iboratligini va uning sababi aynan nima ekanligini aniqlash, sabab va oqibatlarini pedagogik qiyinchilik oqibati bilan qorishtirmaslikka imkoniyat beradi. Bunda pedagogik tashxislashning o'qituvchi kasbiy faoliyatini tezkor korreksiyalash imkoniyatini beradigan o'ziga xos indikatorlik (hisoblash) vazifasi namoyon bo'ladi.

O'qituvchining o'z potensial imkoniyatlarini baholash diagnostika davomida har qanday holatda ham e'tiborga olinishi lozim, - deb ta'kidlaydi A.K.Markova, - unga ishonch bildirish kerak, uning kasbiy faoliyatiga bahoni oshirib yoki pasaytirib qo'yish o'qituvchi kasbiy rivojlanishini to'xtatib qo'yishi mumkin. Ushbu o'qituvchining individual rivojlanish mantig'ini hisobga olish maqsadga muvofiqdir. O'qituvchining yutuqlarini boshqa o'qituvchilarning yutuqlari bilan emas, balki o'zining oldingi yutuqlari bilan ham taqqoslash kerak.

Shaxsiy pedagogik faoliyatni o'z-o'zida tahlil qilish jarayonida o'qituvchi o'zining ta'lim-tarbiyaviy faoliyati natijalari va xususiyatlarining holatini o'rganadi, pedagogik ziddiyatlar o'rtasidagi sabab va oqibatli bog'lanishlarni aniqlaydi, o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berishni yanada takomillashtirish yo'llarini belgilaydi, - deb ta'kidlaydi L.E.Pleskach. Olimning fikriga ko'ra, **“Refleksiya - o'z-o'zini tahlil qilish bo'lib, o'z-o'zicha belgilangan maqsadga erishish emas, balki bilim olish, tajriba orttirish usuli, ijodga, kasbiy jihatdan takomillashtirishga nisbatan rag'batlantirishdir.**

Ilmiy adabiyotlar tahlili, shuningdek o'qituvchi faoliyatida pedagogik tajriba o'qituvchilar pedagogik mahoratini oshirishning diagnostik metodikalaridan foydalanish va olingan natijalar tahlili pedagogik tashxislashni o'qituvchining kasbiy refleksiyasi rivojlanishini ta'minlaydigan usullardan biri sifatida baholashga imkoniyat beradi.

Zero, o'qituvchi ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganishda "tajriba o'rganishdan maqsad va uning vazifalarini rejalashtirish, dolzarb mavzuni aniqlash, maktab amaliyotida mohir o'qituvchilarning yutuqlarini o'rganish, materiallarni to'plash, tahlil qilish, xulosa chiqarish" kabi vositalardan foydalanadilar.

Shuningdek, ta'kidlamoqchimizki, pedagogik tashxislash qayd qiluvchi emas, balki maqsad hosil qilishni belgilovchi (prognostik) xarakterga ega bo'lganligida samarali bo'ladi, bu o'qituvchining kasbi refleksiyasi rivojlanishi asosida amalga oshiriladi. Ayni paytda, aynan ta'lim-tarbiya jarayonida maqsad hosil qiluvchi tashxislash uning rivojlanish qobiliyatini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytilganda, o'qituvchi tomonidan o'z kasbiy faoliyati natijalarini anglab yetishi uning pedagogik faoliyatni amalga oshirishini yanada takomillashgan usullarini izlash va ularni o'zlashtirish zaruriyatini ta'minlaydi. Faoliyatni o'zgartirish esa, ma'lumki, faoliyat subyektining o'zgarishiga olib keladi. O'qituvchining analitik(tahlil qilish) qobiliyatlari rivojlanishi jarayonida uning kasbiy refleksiyasi ham rivojlanadi, bu o'z navbatida, o'qituvchining o'z-o'zini rivojlantirish jarayonini ma'lum bir yo'nalishga solib, uning shaxsiy ijodiy faolligini oshiradi.

Nazorat savollari:

1.Qadimgi Rim faylasuflarining refleksiya to'g'risidagi qarashlarini ta'riflang?

2.Refleksiyaga hozirgi zamon fanlari nuqtayi nazaridan berilgan ta'rif?

3.Pedagogika va psixologiya fanlarining refleksiyaga nisbatan mulohazalari ayting?

4. Refleksiyaga taniqli olimlar qanday ta'rif berishgan?
N. Semyonov refleksiyaning qaysi turlarini sharhlab bergan?
5. Pedagogik refleksiyaga ta'rif bering?
6. O'qituvchi o'z-o'zini kasbiy jihatdan qanday takomillashtiradi?
7. Pedagogikada "refleksiya" tushunchasiga qanday g'oyalar nuqtayi - nazaridan yondashiladi?
8. Pedagogik diagnostikaning mazmun-mohiyatiga va funksiyasiga ta'rif bering?
9. O'qituvchining kasbiy professiogrammasi asosida, uning mahoratini aniqlang?
10. O'qituvchi pedagogik mahoratining diagnostik dasturini ta'riflang?

11-§. O‘QITUVCHINING TA’LIM JARAYONIDAGI MAHORATI

Ma’kuraviy va ilmiy targ‘ibot kishilar o‘rtasida, maxsus ma’ruzalar o‘tkazish, ma’ruzalar qilish, har xil suhbatlar uyushtirish kabilar orqali amalga oshiriladi. Ana shu ma’ruzalar, suhbatlar va har xil chiqishlarning ommaga qay darajada ta’sir qilishi, ularni ishontirish, kayfiyatlarini o‘zgartirish, ular diqqatini qo‘yilayotgan masalalarga tortish o‘qituvchilardan katta mahorat talab qiladi. Chunki har bir nutq ommani ishontira oladigan, ularga tushunarli, yorqin, ta’sirchan, mantiqli va aniq bo‘lgandagina kishilarga o‘zgacha ta’sir qiladi. Ana shularni ta’minlagan o‘qituvchi esa o‘z oldiga qo‘yiladigan quyidagi asosiy holatlarga alohida e’tibor berganlar:

1. O‘zi to‘xtalmoqchi bo‘lgan mavzuni (masalani) chuqur o‘rganish, o‘zlashtirib olish, undagi masalalarga o‘z munosabatini aniq belgilab olish.

2. O‘z dunyoqarashiga ega bo‘lish, so‘z bilan ish birligi, nazariya bilan tajribaning dialektik birligiga erishish, fikrlarni ilmiy asoslash.

3. Mavzuga mas’uliyat bilan yondashish, uni omma oldida to‘liq ochib berishga, yoritishga diqqat qilish.

4. Ma’ruzalar, ommaviy chiqishlar paytida tinglovchilar bilan yaqin aloqa, muloqotni ta’minlash. Tinglovchilarning kayfiyatini his qilib turish, bu orqali esa ularning lektor fikrlarini faqat tushunib olishlarinigina ta’minlamasdan, bu fikrlarga ishontira olish.

5. Har bir nutqqa jiddiy tayyorgarlik ko‘rish, jumladan, ma’ruzani nimadan boshlashdan tortib, nima bilan tugatishgacha jiddiy o‘ylab olish, masalalarni o‘rtaga tashlash, ketma-ketligini yaxshi belgilab olish, ularning o‘zaro bog‘lanishini ta’minlash, ma’lum rejalar yoki reja- konspektlar tuzib olish, o‘zi uchun alohida va keng to‘xtalishi zarur bo‘lgan o‘rinlarni belgilab olish va boshqalar.

Tilni yaxshi bilish, o‘rinli va to‘g‘ri foydalanish malakasiga ega bo‘lish - nutq madaniyatini egallashdir. Mavzuni chuqur bilish, masalalarni to‘g‘ri anglash, ularga munosabat, tushunarlilik, ta’sirchanlik, aniqlik va mantiqlilikni ta’minlash, tinglovchilar

diqqatini tortish, fikrlarni qanday bayon qilish kabilarning hammasi til orqali uning bevosita ishtirokida amalga oshiriladi. Nutq madaniyati esa olam- olam mazmunni go‘zal ifodalab berishga asoslanadi.

Har qanday o‘qituvchi nutqning madaniyatli bo‘lishini ta‘minlashga harakat qilar ekan, avvalo, o‘z ona tilining bebaho ne‘matlaridan foydalana olishi, so‘z qadriga yetib bilishi lozim. Bundan tashqari, nutqning go‘zal, latofatli, ma‘nodor va oliyjanob bo‘lishi uchun kishining o‘zi ham tabiatan samimiy, musaffo bo‘lishi kerak. Chunki hamma vaqt ham chiroyli so‘zlarni qatorlashtirib tanlash, balandparvoz jumlar tuzish bilan madaniy nutqqa erishib bo‘lmaydi.

Kaykovusning shunday fikri bor: “Hamma qobiliyatlardan eng yaxshisi nutq qobiliyatidir. Nutqni juda yaxshi va san‘atkorona o‘rganib ol, doimo gapga chechan bo‘lishga harakat qil. Nutqi shirin kishining mehribon kishilari ham ko‘p bo‘ladi”.

Ko‘rinadiki, so‘zlovchi til vositalaridan o‘rinli foydalangan holda tinglovchi ongiga, sezgisiga va kayfiyatiga ko‘tarilayotgan masalalarni to‘g‘ri, aniq va oson anglab olishini ta‘minlaydigan bo‘lishi kerak. Shunday qilib, notiqlik san‘atini quyidagi ko‘rinishlarga ajratish mumkin: a) ijtimoiy - siyosiy chiqishlar tili; b) targ‘ibotchi va tashviqotchilar nutqi; v) akademik nutq; g) suddagi nutq; d) maxsus so‘z ustalarining chiqishlari va boshqalar.

Ijtimoiy-siyosiy mavzulardagi chiqishlarga, odatda ma‘lum bir mas‘ul kishilarning rasmiy nutqlari, hisobotlari kiradi. Targ‘ibot va tashviqotchilarning chiqishlari, odatda ma‘lum bir muammolarni o‘quvchiga singdirish, o‘quvchi ongidagi tushunmovchilik va chalkashliklarga barham berish, ularni to‘g‘ri yo‘lga solish, o‘quvchi uchun noma‘lum bo‘lgan holatlardan ularni xabardor qilish, ayrim narsa hodisalar mohiyatini to‘la ochib berish kabi vazifalar bilan bog‘liq bo‘ladi.

O‘qituvchi doimo tejamkorlikka e‘tibor berishi, zarur bo‘lmagan so‘zlarni qo‘llamasligi kerak. Nutqning cho‘zilib ketishi unda takrorlar bo‘lishi, zarur bo‘lmagan so‘zlarning ko‘p uchrashi nutqni siyqalashtiradi, uni zerikarli qilib qo‘yadi. Buyuk so‘z san‘atkorlari,

o'qituvchilar doimo ana shu belgilarga alohida e'tibor berganlar va bu bilan nutq madaniyati rivojiga katta hissa qo'shganlar. O'qituvchi til vositalaridan yaxshi foydalangandagina namunali nutqqa erisha oladi. Har bir targ'ibotchi va tashviqotchi uchun, shuningdek, har bir rahbar yoki, umuman o'quvchi oldida ma'ruza o'quvchi, suhbat o'tkazuvchi har bir shaxslar uchun buyuk o'qituvchilarning chiqishlari doimo ibrat bo'lishi kerak. Har bir o'qituvchi ulardan o'rganishga harakat qilsa, o'z nutqining o'quvchi uchun tushunarli va ta'sirchan bo'lishiga erishishi shubhasizdir.

Nutqning boyligi o'qituvchi madaniyatining asosiy mezonlaridan biridir. Bu so'zlovchidan muayyan so'z boyligiga ega bo'lishni talab qiladi. So'zlovchi esa o'z so'z boyligini, asosan lug'atlar orqaligina boyitishi mumkin. Badiiy asarlarni ko'p o'qish ham kishining so'z boyligini orttirishga yordam beradi. Shunday qilib, atamalarni chuqur bilish, mavjud lug'atlardan keng foydalanish kishining so'z boyligini oshirishda, so'z va atamalar ma'nosini chuqur anglashda katta ahamiyatga ega. Har bir olim va ushbu fanlarning o'qituvchilari o'z sohasiga oid atamalarni to'g'ri izohlab bersagina, ilmiy tushunchalarni boshqalarga to'g'ri yetkaza oladi. Ilmiy tadqiqotlarda, o'quv-o'qitish jarayonida har bir so'zning ma'nosini to'g'ri va mukammal izohlab berish, o'z navbatida so'z qo'llash sohasidagi yuksak nutq madaniyatini ta'minlaydi.

Respublikamiz mustaqilligi natijasida ta'lim - tarbiya tizimi faqatgina shaklan emas, balki mazmun mohiyat jihatidan ham yangilanadi. O'tmish ta'lim-tarbiya tizimidagi avtoritar - buyruqbozlik tarbiyalanuvchi shaxsini ezish, toptash, erkinlik va erkin fikrni buzishga asoslangan ta'lim tizimi o'z o'rnini insonparvarlik va demokratiyaga bo'shatib berishga majbur bo'lmoqda. Xo'sh buning sababi nimada? Hozirgi zamon kasb-hunar maktablarida ta'lim-tarbiyaviy ishlarni olib borish zimmasida bo'lgan murabbiy, pedagog shuni bilish kerakki, hozirgi kasb-hunar maktablari yangi pedagogik tafakkur egasi, munosib shaxs, o'z ishining ustasi bilan o'qituvchiga muhtoj.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi-o'qituvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi-o'qituvchi asosiy figuraga aylanadi.

Shuning uchun oliy o'quv yurtlari va fakultetlarida malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari-interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va roli benihoya kattadir. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchi-o'quvchilarni bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol metodlardan to'liq foydalaniladi. Interfaol metodlar - bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, Ya'ni pedagogik ta'sir yetish usullari bo'lib, ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchi-o'qituvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- o'quvchi-o'quvchini dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etish;
- o'quvchi-o'quvchilarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlashi;
- o'quvchi-o'quvchining bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil

ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirishi;

- pedagog va o'quvchi-o'qituvchining hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillanishi.

Pedagogik texnologiyalar masalalari, muammolarini o'rganayotgan o'qituvchilar, ilmiy-tadqiqotchilar, amaliyotchilarning fikricha, pedagogik texnologiya - bu faqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq, hamda o'qitish jarayonida qo'llanishi zarur bo'lgan TSO, kompyuter, masofali o'qish, yoki turli xil texnikalardan foydalanish deb belgilanadi. Bizning fikrimizcha, pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi-bu o'qituvchi va o'quvchi-o'qituvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlar uchun tanlagan texnologiyalariga bog'liq deb hisoblaymiz, ya'ni o'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida o'quvchi-o'qituvchilar mustaqil fikrlay olsalar, ijodiy ishlay olsalar, izlansalar, tahlil eta olsalar, o'zlari xulosa qila olsalar, o'zlariga, guruhga, guruh esa ularga baho bera olsa, o'qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, bizning fikrimizcha, ana shu o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Har bir dars, mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor, ya'ni o'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya - bu yakka tartibdagi jarayon bo'lib, u o'quvchi-o'qituvchining ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir.

O'qituvchi va o'quvchi-o'qituvchining maqsaddan natijaga erishishda qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan, bunda o'quvchi-o'qituvchilarning bilim saviyasi, guruhi, xarakteri, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiyasi tanlanadi, masalan, natijaga erishish uchun balki, kompyuter bilan ishlash lozimdir, balkim film, tarqatma material, chizma va plakatlar, turli adabiyotlar, axborot

texnologiyasi kerak bo'lar, bular o'qituvchi va o'quvchi-o'quvchiga bog'liq.

Shu bilan bir qatorda o'qitish jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur, bu jarayonda o'qituvchi o'quv predmetining o'ziga xos tomonini, joy va sharoitni, eng asosiysi, o'quvchi-o'quvchining imkoniyati va ehtiyojini hamda hamkorlikdagi faoliyatni tashkil eta olishini hisobga olishi kerak, shundagina kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Qisqa qilib aytganda, o'quvchi-o'qituvchini ta'limning markaziga olib chiqish kerak.

Pedagogik amaliyot va tadqiqotlarda qator ish usullari qo'llab ko'rildi. Ta'limni muammoli tashkil etish, ta'limda o'quvchi-o'qituvchilarni faollashtirish, hamkorlik pedagogikasi, tayanch so'zlariga asoslanish, ta'limni optimallashtirish va boshqalar tajribadan o'tdi. Lekin bu pedagogik vositalar ayrim o'qituvchilarda samarali natija bersa ham, uni ommaviy yo'sinda ta'lim tizimiga kiritib bo'lmadi.

Pedagogik texnologiyaning asosiy mohiyati ta'limda o'quvchilarni qiziqtirib o'qitish va bilimlarni to'liq o'zlashtirishga erishishdir. Ta'limda berilayotgan bilimlarni o'quvchilarning aksariyat ko'pchilik qismi puxta o'zlashtirishi pedagogik texnologiya joriy etilishining asosiy maqsadi hisoblanadi.

Pedagogik texnologiya asosida dars o'tishda eng asosiy talab o'quvchining hayotiy tajribasi avval o'zlashtirgan bilimlari va qiziqishlari asosida bilim berishni ko'zda tutadi. Pedagogik texnologiya o'rganilayotgan soha bo'yicha o'quvchilarda bilim yetarlicha bo'lmagan holda ham o'quvchida salbiy kechinmaga o'rin qoldirmaslikni, bu o'quvchining aybi emasligini tan olishni talab etadi. Faollik ko'rsatilsa, bilimlarni o'zlashtirib olishga o'quvchilarda ishonch hosil qilish tavsiya etiladi.

Mavjud pedagogika fanida dars jarayoniga oid berilgan ma'lumotlarda e'tibor ko'proq yangi bilimlarni bayon etish, uni mustahkamlash va natijasini hisobga olishga qaratilgan. Bilim berishda o'quvchining avvalgi bilimlari, hayotiy tajribasi yetarlicha hisobga

olinmagan. Dars rejasida avval o'tilgan mavzuni yakunlab, yangi mavzuga bog'lash taklif etilgan. Lekin shu yangi o'tilayotgan mavzu bo'yicha o'quvchining bilimni aniqlash, mavzuga xos bo'ladigan dastlabki ma'lumotlarni berish yetarlicha amalga oshirilmagan.

Pedagogik texnologiya o'quvchilarning o'rganilayotgan soha bo'yicha bilimlarni esga tushirish, jonlantirish yangi bilimni o'zlashtirishga asos bo'ladi deb ko'rsatadi, bilimlar va tayyorgarlikni aniqlash o'quvchini faollashtirish va bilim o'zlashtirishga ijobiy motivni keltirib chiqaradi. Mavzuni o'rganishga kirishishda erkin suhbat, munozara, aqliy hujum, sinektika metodi, dumaloq stol metodi, zig-zag metodi, ajurli arra metodi, bumerang texnologiyasi, muloqot treningi, fsmu texnologiyasi, blis-so'rov texnologiyasi, bir kishi hamma uchun, hamma bir kishi uchun metodi, ruchka stol ustida metodi, rotatsiya metodi, qorbo'ron metodi, asalari galasi metodi, dumalovchi qor uyumi metodi, sindikat metodi, akvarium metodi, raqamli metodlar, skarabey texnologiyasi, veyer texnologiyasi va boshqa shakllarda jonlantirish mumkin.

O'qituvchining bilim saviyasida pedagogik mahorati, ma'naviyati, jamiyatni vujudga keltirish taraqqiyotga eltuvchi yetakchi omillardan biridir. O'qituvchi yurish turishi, xatti-harakati butun vujudi bilan o'quvchisi qalbiga yo'l topa olish va uni ezgu ishlar sari yo'naltira olish zarur. Maktabda ta'lim-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirishda ayniqsa milliy, ma'naviy merosimizdan foydalanish katta ahamiyatga ega. Jumladan, muqaddas kitoblar "Qur'oni Karim", "Avesto"lardan foydalanish bilan bir qatorda insoniylik insonparvarlikning haqiqiy xazinasini bo'lgan Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit turk", Y.X.Hojibning "Qutadg'u bilig", Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-Haqoyiq", Kaykovusning "Qobusnoma", A.Navoiyning "Xamsa" va lirik asarlari katta ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega. A.Navoiy insonparvarligi uning quyidagi misralarida ayniqsa ko'zga tashlanadi:

Bu jahonda yo'q erur baqo guliga sadoqat,

Ajib saodat erur yaxshining birla qolsa ot.

Shunday ekan, kasb-hunar maktablari yoki litseylarida

o'quvchilarga gumanitar ijtimoiy fanlardan ta'lim berishda insonparvarlik tarbiyasiga katta e'tibor bermoq lozim. O'quv materiallarini tushuntirishda tabiiy fanlarni o'tish paytida buyuk sharq mutafakkirlari she'rlari, tarjimayi hollaridan foydalanish ham katta imkoniyatga egadir. Ayniqsa hozirgi sharoitda O'zbekiston tarixi, pedagogika, psixologiya fanlarini o'qitish jarayonida bevosita tarbiyaga oid bo'lgan milliy ma'naviyatga, milliy ruh, urf-odat va umuminsoniy qadriyatlarga alohida urg'u berish mumkin.

O'qituvchi o'quvchi qalbiga yo'l topish uchun bilimi va ishigagina emas, ayni paytda odob-axloqi, madaniyati, xushmuomalaligi bilan ham namuna bo'lishi lozim. Shundagina o'qituvchi va o'quvchi orasida ota-bolalardek insoniy munosabat qaror topishi mumkin.

Tarbiyada inson shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, bola, o'smir va yosh yigitni betakror va o'ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy, huquqiy va erkinligini hisobga olish lozim bo'ladi.

Ta'lim-tarbiyani demokratiyalash - bu tarbiyani ma'muriy ehtiyoj va qiziqishlardan yuqori qo'yish, tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'rtasidagi o'zaro ishonch, hamkorlik asosida pedagogik munosabatlar mohiyatini o'zgartirish demakdir. Bu tarbiya ishiga jamoatchilikni keng jalb qilish uning rivojlanishiga jamoatchilik ta'sir ini kiritish demakdir.

Shaxslararo munosabatlarda insonparvarlik pedagoglar va o'qituvchilar o'rtasida hurmat tuyg'ularini shakllantirish, bolalar fikriga mos e'tibor qilish, ularga mehribonlarcha munosabatda bo'lish lozim. O'qituvchi o'quvchi shaxsiga tarbiya obyekt sifatida emas, balki xuddi o'zi kabi subyekt deb qarashi lozim.

Umuman, ta'lim-tarbiyaviy faoliyatni demokratlashtirish va insonparvarlashtirish uning mohiyat va mazmunini erkin shaxsni tarbiyalash maqsadini amalga oshirishni nazarda tutadi.

O'qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etish. O'qituvchining tarbiyachi sifatidagi mahorati. O'qituvchining shaxsiy intilishi, munosabati pedagogik mahorat tarkibiy qismlari

orasida muhim o‘rin egallaydi. Uning bunday shaxsiy munosabati unda tegishli bir qolipda fikrlar tizimi mavjudligi bilan izohlanadi, shu tufayli u ko‘p hollarda deyarli avtomatik ravishda ta’sirlarga javob bera oladi. Chunonchi, o‘quvchilar bilan albatta xushmuomalada bo‘lish, dilkashlik, o‘quvchi shaxsiga prinsipial yondashishning yuqori darajada bo‘lishi o‘zining birorta o‘quvchisi yomon bo‘lishi, buning ustiga ishonchsiz bo‘lishi mumkin emasligiga ishonch kabilar. Lekin bunday bir qolipdagi faoliyat salbiy rol o‘ynashi ham mumkin. Masalan, hamkasbi o‘quvchilar bilan haqiqatda nazoratsiz munosabatda bo‘lganda unga qarshi turish o‘rniga uni himoya qila boshlaydi. O‘qituvchining xohish istagi haqqoniylik va insonparvarlik xarakterida bo‘lsagina, bunday chekinishlarga yo‘l qo‘ymasligi mumkin bo‘ladi.

Pedagogik faoliyat - yoshlarni hayotga, mehnatga, vatan mudofaasiga tayyorlash uchun xalq oldida davlat va jamiyat oldida javob beradigan bolalarga ta’lim-tarbiya berish bilan shug‘ullanadigan va bu ishga maxsus tayyorlangan kishilarning mehnat faoliyatidir. Maktab o‘qituvchilarining faoliyati respublikamizda buyuk davlat jamiyatni quruvchi va unda yashab mehnat qiluvchi yetuk erkin fikrlovchi inson shaxsini shakllantirishga qaratilgan. O‘qituvchining barkamol avlodni tarbiyalash va unda yangi insonga xos sifatlarni tarkib toptirish vazifasi eng oliyjanob yuksak va shu bilan birga eng sharaflari va murakkab vazifadir. Har bir tarbiyalanuvchi o‘z xulq atvoriga, xarakteriga ega. Ularni o‘qitish va tarbiyalashda ularning ana shu o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, o‘rgatish nihoyatda murakkabdir. Bunda insonlar o‘rtasida ijtimoiy munosabatlarning murakkabligini o‘zida aks ettiruvchi maxsus usullardan foydalaniladi. Pedagogik faoliyatda tayyorgarlik ko‘rsatgan yoshlar uning ana shunday xususiyatlarini bilishlari lozim. O‘qituvchilik ixtisosining bu xususiyatlari uning professiogrammasida o‘z ifodasini topadi:

1. O‘qituvchining shaxsiy xususiyatlari;
2. O‘qituvchining pedagogik-psixologik tayyorgarligiga qo‘yiladigan talablar;

3. Maxsus tayyorgarlikning hajmi va tarkibi;
4. Ixtisosga oid uslubiy tayyorgarlik mazmuni.

O'qituvchining dars berish mahorati.

Tashabbuskor - ilg'or o'qituvchilar dars jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining samarador kechishini ta'minlash uchun quyidagi shartlarni taklif etadilar:

1. O'quvchilarni amaliy, laboratoriya va seminar darslarida joylashtirishning ahamiyati. Keyingi yillarda o'tkazilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, dars jarayonida o'quvchilarni noan'anaviy joylashtirishning ahamiyati haqida gapirmoqdalar.

Buning bir nechta uslublari mavjud bo'lib:

a) o'quvchilarni "dumaloq stol" atrofida o'tkazish: bunday usulda o'quvchilarni o'tkazib munozara, muhokama va savol javoblar tarzidagi darslarni tashkil etish mumkin, o'quvchilar bunday darslarda o'qituvchi bilan o'zlarini tengi "holatda" - seadilar. Shuningdek, o'quvchilar bir- birlariga qarab yuzma-yuz o'tirganlari uchun bir-birlarining ichki- kechinmalaridan xabardor bo'lib turadilar.

b) "Yarim oy" yoki "P" shaklida o'quvchilarni joylashtirishning afzallik tomoni shundaki, o'rtadagi, maydondagi rolli o'yinlar, psixotrening o'yinlari va boshqa mashqlar bajarish mumkin.

v) uchburchak, kvadrat, to'g'ri to'rtburchak shaklida o'quvchilarni joylashtirishning ham qulay tomonlari mavjud. Bunday hollarda o'qituvchi o'quvchilardan ajralib qolmasdan, balki ular bilan teng holatda o'tiradilar va yuzma-yuz o'tirish o'zaro muloqot va munosabatni yengillashtiradi.

2. Dars jarayonida o'quvchilar bilan demokratik shaklda ish olib boruvchi va ta'limga ilg'or uslublarni targ'ib etayotgan hamkorlik va ishonch bo'lishi kerak. O'zaro munosabatlarda, o'zaro izlanishga hamkorlik, o'quvchining darsga intilishi, darsdan xursandlik va qoniqishiga sabab bo'ladi.

3. O'quvchining ta'lim olishi, o'qishi majburiy bo'lmasdan, balki o'z qiziqish va intilishi bilan amalga oshirilishi kerak.

4. Dars jarayonida o'quvchilarga o'tilayotgan mavzu emas,

balki bu kungi mavzuni ertaga o‘tiladigan mavzular bilan ham bog‘lash, o‘quvchilarning ertaga o‘tiladigan mavzuga qiziqishlarini oshiradi va darsda o‘tiladigan mavzuni o‘qib kelishlariga yo‘naltiradi. Natijada o‘qituvchining bir darsda bir necha mavzularni o‘tib, o‘quvchilarga “o‘quvchilarga tezlashtirib ta’lim berish”, “rejadan oshirib o‘qitish” kabi usullardan foydalanishi mumkin. Bu metod ayniqsa, qobiliyatli, iqtidorli o‘quvchilarni o‘qitishda juda qo‘l keladi.

5. Darsda “tayanch belgilardan foydalanish”ning qulay tomoni shundaki, a) o‘quvchilarga uyga vazifa qilib berilgan vazifani matn shaklida yozish ehtiyoji qolmaydi; b) o‘quvchi matnni bir necha marta o‘qib uning asl mazmunini va mohiyatini tushungandan so‘ng shu matndagi eng asosiy tushuncha va tayanch so‘zlarni topib daftariga turli chizmalar shaklida yozadi (istasa, alohida qog‘ozlarda chizma, rasm, jadval shaklida yozishi mumkin); v) o‘quvchilar matnni bir necha marta o‘qib chiqishlari, matndagi muhim tushuncha va so‘zlarni topishga o‘rganish bilan matnning mazmunini chuqur o‘rganadilar. Tayanch belgilari tarzida yozish esa bilimlarning o‘quvchilar tasavvurda ham shakllanishiga, xotirasida mustahkamlanishiga sabab bo‘ladi.

6. Bilimlarni katta bo‘lak va qismlarga bo‘lib o‘qitishning afzallik tomonlari: a) har qanday eng asosiy bo‘lgan bir necha katta qismlar bo‘laklardan iborat bo‘lib, shu qismlar, aynan shu fanning asosiy mazmunini tashkil etadi. Agar o‘qituvchi o‘quvchilarga shu fanning muhim qismlari va uning mazmuni haqida qisqa va aniq ma’lumotni yetarli darajada bera olsa, o‘quvchida fan haqida bir butun tushuncha paydo bo‘ladi. Ishonch, yaxlit bilimlarni to‘liq qabul qilishga va bu yaxlit bilimlarni esda saqlash va esga tushirish imkon yaratadi. Masalan: “Odam anatomiyasi” yurak va qon aylanishi, ovqat hazm qilish, nafas olish va boshqa bir nechta qismlardan iborat bo‘lib, shu tizimlarni yaxlit va o‘zaro bog‘liqligini inson organizmining faoliyatini ta’minlaydi.

Agar bordi-yu, shu qismlarni qisqa va tushunarli holda o‘quvchi

o'zlashtirmasdan, mayda bo'laklarga bo'lib berilsa, qanchalik ko'p bilimlar berilmasin, berilgan bilimlar tarqoq va o'zaro bog'lanmaganligicha qoladi.

7. O'qituvchilarni dars o'tish va tahlil qilishga o'rgatish

O'quvchilarni qiziqishlarini hisobga olgan holda dars o'tish uchun mavzular taqsimlab beriladi.

Sinfda "bu o'quvchilar" dars o'tgandan so'ng tengdoshlarining bilimlarini so'rab baholaydilar. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, birlarini baholashda o'quvchilar o'qituvchilarga nisbatan odilroq bo'lishar ekan. O'qituvchi sifatida dars o'tish o'quvchilarda o'ziga ishonch va mustaqillik beradi. Ularning nutq faoliyati yaxshilanadi.

Keyingi yillarda dars jarayoniga, yuqori sinflarda nazariy bilimlarni ma'ruza shaklida berish haqida tanqidiy fikrlar bildirilmoqda, hatto maktab va oliy maktablarda ham berilayotgan bilim, tajribalarning faqat 10%ini ma'ruza tarzida berib, qolgan qismi amaliy, seminar va mustaqil ta'lim sifatida berish tavsiya etilmoqda. Ayniqsa, mustaqil ta'lim berishning, ya'ni o'quvchilarning mustaqil o'qishlari va izlanishlari, bilimlarni o'zlashtirishni yengillashtiradi, o'quvchilarning bilish faoliyatlarini rivojlantiradi.

Darsning an'anaviy metodlari quyidagilar:

1. Ta'limning og'zaki metodlari;
2. Ta'limning ko'rgazmali metodlari;
3. Ta'limning ommaviy metodlari;
4. Ta'limning mantiqiy metodlari;
5. Ta'limning mustaqil ishlash metodlari;
6. Ta'limning nazorat va o'z-o'zini nazorat turlari farqlanadi.

Ta'limning og'zaki metodlari yordamida o'quvchilar ifodali nutqqa, ma'noli va mazmunli gapirishga, suhbatdoshini tinglashga o'rganadilar. O'quvchi suhbatning aniq maqsadini belgilaydi, rejasini tuzib chiqadi. Suhbat jarayonida o'quvchilarga beriladigan savollar tuziladi. Suhbat jarayonida o'qituvchi vaziyatga qarab dars mazmuniga o'zgartirishlar kiritadi. Rejalashtirilgan savollarni olib tashlaydi yoki yangi savollar kiritadi. Savollar o'quvchilar uchun og'ir yoki yengil

bo'lmashligi kerak. Og'zaki metodning boshqa metodlardan afzallik tomoni shundaki, o'qituvchining hissiy nutqi o'quvchilarning diqqatini o'ziga jalb etadi. O'qituvchi darslik matnidagi bilimlarga qiziqarli ma'lumotlarni qo'shishi mumkin.

Darslikda berilgan ma'lumotlarni o'zi xohlaganicha (albatta, dasturda mo'ljallangan bilimlar va malakalar doirasida chiqmagan holda) talqin qilishi, ularga izoh berishi mumkin.

Ta'limning ko'rgazmali metodlari keyingi yillarda dars jarayonida asosiy o'rinni egallay boshladi. Yangi texnika va kompyuterlarning maktablarda paydo bo'lishi va undan darsda foydalanish dars samaradorligini keskin oshiradi. Ayniqsa, EHMda har xil tabiiy va sun'iy obyektlarning modelini yasash, zarur jadval va loyihalarni tuzish va boshqa qo'lda chizish uzoq vaqt va ko'p mehnat talab etadigan ko'rgazmali vositalarni tez va oson bajarish mumkin. Audiovizual vositalar ham darsning qiziqarliligini oshiradi.

O'rta va oliy maktablarda dars berishning noan'anaviy metodlariga quyidagilar kiradi: dars – ma'ruza, dars - seminar, dars - munozara, dars - konferensiya, dars - ekskursiya, dars - musobaqa (konkurs darslari) mustaqil ishlar darslari va boshqalar mavjud. Shularning har biri haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

1. Dars – ma'ruza. Maktabda dars – ma'ruza yuqori kurslarda qo'llanilib, fanning asosiy g'oya va muammolarni ochib berishda foydalaniladi. Maktablarda ma'ruza darslari savol-javoblar, ko'rgazmali va boshqa metodlar bilan qo'shilgan holda o'tkaziladi. Masalan: 5-10 daqiqalik ma'ruzadan so'ng (ya'ni nazariy bilimlar berilgandan keyin), o'quvchilarga texnik vositalar yordamida berilgan bilimlar amalda ko'rsatiladi. Bu tabiiy, texnik, ijtimoiy tizimlarning yoki hodisalarning EHM dagi modeli yoki videoda shu tabiiy, texnik va ijtimoiy hodisalarning kechish jarayoni haqidagi hujjatli filmdan bir parcha ma'ruza ko'rsatish mumkin. Shuningdek, ma'ruzaning bir qismida nazariy ma'lumotlar berilsa, ikkinchi qismini savol-javoblar, munozara shaklda tashkil etish mumkin.

2. Muammoli - dars. Muammoli dars o'tish mazmuni suhbat

darslaridan unchalik farq qilmaydi. Ammo, maktablarda o'quvchilarni izlanish jarayoniga yo'llashda o'qituvchining faolligi ko'proq talab etiladi. Muammoli dars quyidagi qismlardan iborat bo'lishi mumkin:

a) tabiiy, ijtimoiy, texnik, texnogen, agrobiologik hodisalar, jarayonlar o'rtasida ziddiyat, qarama-qarshilik mavjudligi aniqlanadi. Ya'ni biron sohada muammoning mavjudligi topiladi.

b) har xil hodisa, jarayon va boshqalarning yuzaga kelish sabablari, rivojlanishi, kechishi va yakuni haqidagi farazlar ilgari suriladi.

v) o'quvchilar (o'qituvchilar) bilan birgalikda izlanish natijasida ilgari surilgan farazning qanchalik to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligi isbotlanadi.

g) har xil tizimlar, hodisalar, jarayonlar o'rtasida o'zaro bog'liqlik qonuniyatlari haqida xulosa chiqariladi va narsa hodisalarning yangi tomonlari ochiladi.

3. Dalada - dars. Tabiat bilan bog'liq darslarni (biologiya, agrobiologiya, ekologiya va boshqalar) aynan shu mavzu bilan bog'liq joyda, dala, bog', tog', tajriba maydoni va boshqa joylarda o'tkazilishi mumkin. Masalan: ayrim darslarni ochiq havoda, ayrim tabiiy narsalarni: o'simliklar, hayvonlar, parrandalarni namoyish qilish orqali jonli tarzda o'tish mumkin. Qator mualliflar ayrim darslarni o'rmonda, ochiq havoda o'tishni tavsiya qiladilar. Dars jarayonida namoyon etish zarur bo'lgan o'simliklar, daraxtlar, ekin va boshqa narsalar ko'rsatib, tushuntiriladi.

4. Dars - drama. AQShlik olim Moreno 1934 yilda oila, shaxsiy va ish faoliyatida yuz beradigan nizoli vaziyatlardan chiqish, psixologik vaziyatlar yechimini topishda dramatik teatr tajribasidan foydalanish mumkinligini qator tadqiqotlar bilan isbotladi. Bu metod asta-sekinlik bilan oliy va o'rta ta'lim tizimiga kirib kela boshladi. Adabiyot, oila psixologiyasi, ma'naviyat va boshqa hamma fanlardan (yoki fanlar tarixidan) dars-dramalarni tashkil etish mumkin. Ammo, dars-dramaning asosiy maqsadi, o'quvchilar orasida hamjihatlik, jipslik, do'stlik, his-tuyg'ularini shakllantirish, o'qituvchi-o'quvchi orasidagi munosabatlarni yaxshilash, o'quvchi (o'quvchi)ning shaxsiy

hayoti, jamoadagi shaxslararo munosabat va muloqotda ijobiy psixologik muhitni tashkil etishga mo'ljallangandir.

5. Dars - munozara. Bunday darslarni tashkil etishdan oldin munozara mavzusi, yo'nalishi o'quvchilarga e'lon qilinadi. Shu sohada o'qish zarur bo'lgan ilmiy, badiiy adabiyotlar bilan ishlash haqida maslahat beriladi.

Dars jarayonida uyatchan, kamgap, sust o'quvchilarni doimo savollar berish, ularni fikrini so'rash bilan faollashtirib turiladi. Dars jarayonida muhokama qilinayotgan mavzudan chetga chiqib ketmaslik uchun, o'qituvchi munozaraning borishini o'quvchilarga sezdirmagan holda boshqarib turadi.

6. Dars - sayohat. Dars - sayohat oldindan tuzilgan reja asosida o'tkaziladi va bu darsga katta tayyorgarlik ishlari talab qilinadi. Bordini o'qituvchi "O'zbekistonning - o'rmonlari" mavzusida sayohat tashkil qilmoqchi bo'lsa, u oldin o'quvchilarga o'rmonlar haqida, ulardagi ekologik ahvol, daraxt va o'simliklarning turlari haqida tushunchalar beradi. Sayohat jarayonida o'quvchilar bilan daraxt va o'simliklar turini, tabiat manzaralarini rasmlarga, video tasmlarga ularning suratlari olinadi. Sayohatning natijasi to'plangan namunalarni, olingan rasm va video suratlarni namoyish etish bilan tahlil qilinadi. Bu shaklda olib borilgan darslar o'quvchilarning xotiralarida uzoq muddat muhrlanib qoladi.

O'qituvchining tarbiyaviy ish mahorati - jamoaning va jamoadagi alohida o'quvchilarning intellektual, aqliy, estetik, mehnatsevarlik va boshqa sifatlarni rivojlantirishdir.

Bu maqsadlarga erishish uchun tarbiyachida quyidagi malaka va ko'nikmalar bo'lishi zarur: o'quvchilarga nisbatan talabchanlik va ishonch, tez muloqotga kira olish, qiyinchilik vaqtida yordam bera olish, o'quvchilar bilan maslahatlasha olish, kuchsizlarni himoya qilish, har bir o'quvchidagi ijobiy sifatlarni topish va munosabatlarda shu sifatdan foydalanish, o'quvchilarni "Sevimli" va "Sevimagan"larga bo'lmaslik, xudbinlik, laganbardorlik, nopoklikka qarshi kurashish, o'quvchilarda axloqiy yo'nalishlarni rivojlantirish.

O'qituvchi tarbiyaviy ish mahoratining yana bir ta'rifi quyidagicha: tarbiyaviy ish mahorati - o'quvchilarning o'quv, o'yin, mehnat va dam olish faoliyatlarini to'g'ri, unumli va samarador tashkil etishdir. Tarbiyachi mahorati o'zaro bog'langan uchta tizim tarmog'idan tuzilgan: bu - texnologik, ijtimoiy-psixologik(ya'ni munosabatlar) va estetik.

Tarbiyachi ish mahoratining texnik tomoni. Bu o'quvchilarning ommaviy faoliyatini, maktabdagi hayotlarini (o'z-o'zlarini boshqarishlarini) tashkil etish. O'quvchilarning mustaqil ravishda navbatchilik qilishlari, maktab va sinfdagi tartib va intizomni nazorat qilishlari, maktabda shanbalikni tashkil etishlari, har xil tadbirlarni mustaqil o'tkazishlari. Tarbiyachilar o'quvchilarning bu ishlarini rejalashtirishda, o'tkazishda maslahatchi rolini bajaradilar. O'qituvchining roli boshqaruvchi, buyruq beruvchi emas, balki o'tkazilayotgan tadbirlarning bevosita ishtirokchisi sifatida o'quvchilarga yaqindan yordam berishi lozim.

Ammo, maktablarimizda yuqori ko'rsatkichlar ko'rsatish uchun, hisobotlar uchun ko'pdan-ko'p tadbirlar o'tkaziladi. Buning foydadan ko'ra zararli tomonlari ko'proq. Shuni ta'kidlash zarurki, tarbiyachilarning ish natijalari ularning tarbiyalanuvchilar bilan qay tarzda, qay shaklda, qanday ruhiy holatda muloqot qilganiga bog'liq. Muammoning ijtimoiy psixologik tomoni shundan iboratki, tarbiya har doim ijtimoiy mohiyat kasb etib, psixologik jihatdan o'ziga xos tayyorgarlikni talab qiladi.

Maktablarda o'tkaziladigan har bir tadbir oldindan yaxshilab har tomonlama o'ylangan, rejalashtirilgan bo'lishi kerak. Sinfdan va maktabda o'tkaziladigan tadbirlar jarayoni uch bosqichda amalga oshiriladi:

- 1.Rejalashtirish;
- 2.O'tkazish;
- 3.Tahlil qilish.

Rejalashtirishda o'quvchilarni o'tkaziladigan tadbirga qiziqtirish va o'quvchilarda motivlar hosil qilinadi. Tarbiyachi

pedagog o'quvchilar bilan birgalikda tadbirning dastlabki rejasini ishlab chiqadi.

O'tkaziladigan tadbirning har qismiga aniqlik kiritilib, unga javobgar o'quvchilar tayinlanadi.

Bu sohada pedagogga rejissyorlik, aktyorlik mahorati kerak bo'ladi. Tadbirning yakuniy rejasida: Kimlar? Qachon? Qayerda? Qanday? tarzidagi savollarga javob beriladi.

O'tkazish bosqichida asosiy ish kichik guruhchalarda boshqariladi. Har bir soha uchun javobgar o'quvchilar orasida o'zaro til topish, kelishuv va moslik mavjudligi tadbirning samaradorligini ta'minlaydi. Bunday psixologik muhitni tashkil etish esa o'quvchining, tarbiyachining mahoratiga bog'liq. Tadbir jarayonida o'quvchilar orasida o'zaro yordam, musobaqa, qoloqlarga yordam, ilg'orlarni rag'batlantirish o'quvchilarning faolligini oshiradi.

Yakun va tahlil qilish bosqichida jamoa bilan birgalikda tadbir natijalari muhokama qilinadi. Har bir qatnashchining mehnatini alohida qayd etiladi va rag'batlantirish ishlari olib boriladi. Aks holda, undan keyingi tadbirlar muvaffaqiyatsiz chiqishi mumkin. Tarbiyachining asosiy vazifasi o'quvchilar orasida ijobiy, ruhiy muhitni tashkil eta olishdir. Hamkor, do'stona jamoani tashkil etish tarbiyachining mahorat-san'atiga bog'liq.

Mohir tarbiyachilar har bir o'quvchiga jamoada alohida vazifa va topshiriqlar beradilar. Vaqti-vaqti bilan har bir o'quvchining o'z vazifasini qanchalik bajarayotganligi birgalikda tahlil etiladi.

Tarbiyachi guruhdagi mikroguruhlarini, rasmiy va norasmiy liderlarni, yulduzlarni, "yakkalanib qolgan" o'quvchilarni bilishlari zarur. Ayniqsa, guruhchalar, guruhlar va alohida o'quvchilar orasidagi munosabatlarni yaxshi bilishlari muhimdir. Tarbiyachi guruhdagi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan quyidagi qarama-qarshiliklarni ham bilishi kerak:

- guruhdagi rasmiy shaxslar va guruh o'rtasida (uning ayrim a'zolari o'rtasidagi ham) qarama-qarshiliklarni aniqlash;
- rasmiy maqsad (M: shanbalik o'tkazish va boshqalar) bilan

ayrim o'quvchilarda, ba'zan ko'pchilik o'quvchilardagi maqsadning bir- biriga to'g'ri kelmasligi. (O'qituvchining maqsadi sinfni o'zlashtirishda yuqori darajaga ko'tarish, o'quvchilarning maqsadi esa o'yin, vaqti hushlik va boshqalar) Oliy o'quv yurtlaridagi ba'zi o'quvchilarga o'qishdan asosiy maqsad - diplom olish bo'lib, bilim egallash unchalik ahamiyatli emas;

- o'quvchi irodasining bo'shligi va tarbiyachining talabchanligi.

Bu qarama-qarshiliklarni yo'qotish yoki kamaytirish tarbiyachining shaxsiy sifatleri, pedagogik mahorati va kasbiy bilimlariga ko'p jihatdan bog'liq.

Ayniqsa, guruhdagi tengdoshlari bilan munosabatlari yomon o'quvchilarni jamoaga qo'shish uchun quyidagi ishlar o'tkaziladi:

- guruhdagi do'stlik, hamkorlik munosabatlarini tashkil etish;
- har bir o'quvchining jamoadagi o'rni, mavqeyi, boshqalar bilan munosabatlarini o'rganish;
- o'quvchilarni bir-birlariga yaqinlashtiradigan har xil tadbirlar, sayohatlar, kechalar, o'yinlar tashkil etish;
- barcha o'quvchilar bilan bir xil munosabatda bo'lish, ularni bir xil baholash;
- o'quvchining oilasidagi muhit va munosabatlarni o'rganish.

Tarbiyachi har bir tadbirni o'tkazish jarayonida har bir o'quvchiga individual yondashadi. Kingadir buyruq beradi, kingadir maslahat, kingadir iltimos qiladi. Tadqiqotchilarning ko'rsatishlaricha, tarbiyachi o'quvchilarga to'rt xil shaklda yondashar ekanlar. Bular quyidagilar:

1. Buyruq ohangida yondashish: bu kamdan-kam, favqulodda holatlarda ishlatiladigan usuldir. Ammo, shunday o'quvchilar borki, ba'zan bu usulni tartibsiz, o'ta notinch o'quvchilarga nisbatan ham qo'llasa bo'ladi.

2. Iltimos ohangidagi yondashish: o'quvchilarga bunday murojaat qilish pedagogning asosiy usuli hisoblanadi. Bu yerda: "Shirin gap bilan ilon inidan chiqar, yomon gap bilan odam iymondan chiqar" degan naql asosida qabilida ish tutish ma'quldir.

3. **Taklif tarzidagi murojaatlar:** pedagog buyruq, iltimos tarzida bermoqchi bo'lgan fikrlarini, taklif tarzida ham berishi o'quvchilarga ishonch bildirayotganligini bildiradi.

4. **Neytral (befarq) tarzidagi murojaat:** o'qituvchilar kamdan-kam hollardagina o'quvchidan (jamoadan) xafa bo'lganligini, norozi ekanligini ko'rsatmoqchi bo'lganda, neytral tarzda ish tutish ijobiy ta'sir etishi mumkin, iloji boricha bu usuldan kamroq foydalangan ma'qul.

Har bir tarbiyaviy ishning asosida ma'lum g'oya, buyuk maqsad bo'lishi kerak. Hozirgi o'quvchilarning a'lo baholar bilan o'qishga intilishlari - kelajakda Mustaqil O'zbekistonning komil fuqarolari bo'lib yetishishdir. Vatanimizning shuhratini olamga yoyish, o'quvchilarda turg'un motivlarni shakllantirishning quyidagi tamoyillari mavjud: Hayot va tarbiya birligi, axloqiy me'yor va xulq atvorning yaqinligi, etik va estetik birlik, o'quvchiga ishonch, o'quvchi shaxsiga hurmat, o'quvchi g'ururi va sifatlarini o'stirish, hamda jinsiy farqlarni e'tiborga olish.

O'quvchilar orasida "Tarbiyasi og'ir" deb nomlanuvchi toifa o'quvchilar ham mavjuddir. Bu o'quvchilar tartib-intizomning yomonligi, o'zlashtirishning sustligi, tengdoshlari va pedagoglari bilan munosabatining yomonligi bilan ajralib turadilar. Bunday o'quvchilar o'qituvchi va tarbiyachilardan alohida, o'zlariga xos, individual yondashishni talab qiladilar.

Bunday o'quvchilar bilan pedagogning munosabati va muloqoti oldindan rejalashtirilgan bo'lishi shart. Masalan: quyidagi gaplar bilan murojaat qilish mumkin:

1. O'quvchining xatti-harakati bilan hayratlanish: «Sening bunday qilishingga ishonmayman?»
2. Turli xil hazil mutoyibalardan foydalanish.
3. O'quvchiga o'zining hamdardligini ko'rsatish.
4. O'quvchini tez-tez rag'batlantirish. Ozgina yutuqlarini ham bo'rttirib tengdoshlari oldida ko'rsatish.
5. O'quvchiga ishonch bildirish.

Oliygohlarni tugatgan mutaxassislar ta'limni tashkil etishga nisbatan tarbiyani tashkil etish qiyinligidan zorlanadilar. Buning obyektiv sabablari mavjud. Tarbiya jarayoni ta'lim jarayoniga nisbatan keng tushuncha, chunki u shaxs tarbiyasi vositalari, bilish qobiliyatlarini rivojlantirish va mehnat qilish singarilarni o'zida aks ettiradi. Tarbiya san'ati - deb yozgan edi Ushinskiy, - shunday xususiyatga egaki, deyarli barchaga tanish va tushunarli, ba'zilariga esa juda oson ish bo'lib tuyuladi. Odam bu ish bilan nazariy va amaliy jihatdan qanchalik kam tanish bo'lsa, unga bu shuncha tushunarli va oson bo'lib ko'rinadi. Deyarli hamma tarbiya sabr - toqatni talab etishini e'tirof qilishadi, ayrimlar buning uchun tug'ma qobiliyat va malaka, ya'ni ko'nikma kerak deb o'ylaydilar, lekin juda kam odam sabr-toqat, tug'ma qobiliyat va malakadan tashqari yana maxsus bilimlar kerakligi haqida ishonch hosil qilishadi.

A.S.Makarenkoning fikricha, tarbiya faoliyati avvalambor tashkilotchilik faoliyatidir, ya'ni bolalar hayotini mohirlik bilan tashkil qilishni alohida ta'kidlagan edi. Mahorat - bu pedagogik faoliyatni malakali tashkil eta olish, o'quvchilar rivojlanishini samarali ilhomlantirishdir. Qisqa fursatlar jamoa va har bir o'quvchining qobiliyatlariga pedagogik ta'sirni ta'mirlashni nazarda tutadi. Tarbiyachilik mahorati faqat bilimlar bilan qurollashni amalga oshiribgina qolmasdan, balki tarbiya usullari va metodlarini ijobiy hayotda qo'llashni, tarbiya qonuniyatlariga tayanib bolalar hayotini tashkil etishni nazarda tutadi.

Tarbiyachining mahorat mazmuni - bu bilimlar va asoslangan ko'nikma, malakalar tashkil etadi. Turli pedagogik sharoitda jamoa va ayrim o'quvchilar dunyosida sodir bo'lgan voqealarni to'g'ri qabul qilish ko'nikmasi; maqsad vositalarni taqqoslab analiz qilish ko'nikmasi; talab qilish va ishontira olish ko'nikmasi; bolalar bilan o'ynay olish qobiliyati vaziyatga har tomonlama to'g'ri baho berish ko'nikmasi; rang-barang pedagogik asoslardan, eng muhimini ajrata olish; tasodif hodisadan asosiysini aniqlash ko'nikmasi; har xil vaziyatlar - ta'sir ko'rsatishning turli - tuman usullaridan foydalanish

ko'nikmasi; o'z kayfiyati, hissiyoti, harakatlarini aniq ko'rsata olish malakasi.

Yuqorida ta'kidlab ko'rsatilgan ko'nikmalardan tashqari yana quyidagilarni o'zida shakllantirmog'i lozim: o'quvchilar bilan o'qish, mehnat, sport va badiiy faoliyatlarida aloqa o'rnatish, individual yondashish, tashabbuskorlikni oshirish, qiyin damlarda yordam berish, jamoa va ayrim o'quvchi fikrini hisobga olish, hurmat qilish, ojizlarni himoya qila olish, o'z-o'zini boshqarishning turli xil formalaridan foydalanish, o'quvchining ishonchini suiste'mol qilmaslik, har bir o'quvchining ijodiy sifatiga asoslanib munosabatni tashkil eta olish, o'quvchilarni yaxshi yoki yomonga ajratmaslik, bolalarning axloqiy sifatlarini olish, o'quvchilarning adolatsizligi, axloqsizligi, shavqatsiz bo'lishi, o'quvchining saxiyliги va ziqnaligi haqida tasavvurlarga ishonish singari ko'nikmani ham o'zida shakllantirmog'i darkor.

V.A.Suxomlinskiy: "... o'quvchi ruhining tetikligi, aqlining o'tkirliги, taassurotlarning sog'lomliги, hissiyotlarning ta'sirchanliги uzoq yillar saqlanishi uchun katta insonparvarlik talantiga, o'z mehnatiga, bolalarga bo'lgan cheksiz muhabbatiga ega bo'lish kerak - bu sifatlarsiz pedagogning mehnati uqubatga aylanadi".

Texnologik tuzum, yoki texnologiya o'quvchi, o'quvchi va jamoalarga konkret vositalar asosida ta'sir ko'rsatishda ko'ngildagidek muayyan natijalarga erishish imkoniyatini yaratadi. Tarbiyachining mahorat natijasi tubandagi vaziyatlarni bajarishda namoyon bo'ladi: har bir o'quvchiga individual yondashib, shug'ullanayotgan faoliyatda uning faolligini uyg'otish, layoqatini o'stirish.

Tarbiyachi tarbiyaviy tadbirni olib borishda muhim talablarga amal qilishi zarur: har qanday tadbir tasodifiy holda olib borilmasliги va o'quvchilarni tarbiyalashning mustaqil tarkibi sifatida hal etilishi kerak.

Kattalar va bolalar o'rtasida o'zaro munosabatni, o'zaro jamoa ta'sirini tashkil etish mazmun va tuzilish jihatidan ham tarbiyachi faoliyatida muhim o'rin tutadi. Tarbiyachining mahorati - bu uning bolalarga moslashishi. Tajribali tarbiyachilar o'quvchilar

munosabatidagi sirli tomonlarini bilishni o'zlarining burchi deb biladilar.

Munosabatlar tizimida jamoaning har bir a'zosida shaxsga xos bo'lgan qimmatli fazilatlar shakllanadi. Shuning uchun jamoaning ijodiy faoliyatini tashkil etishda muhim narsa, - bajarilgan ishlarni yakunlash bosqichidir: har bir bolada qanday o'zgarish bo'lganligi, qanday yangi sifatlar shakllanganligi aniqlanadi.

Baho obyektiv va haqqoniy bo'lishi zarur. Mohir tarbiyachining bolalar muhitidagi munosabatlarga malakali rahbarlik qilish jamoa ichida va jamoalararo tabiiy qarama-qarshiliklardan iborat.

Maqsadlar asosida ko'rsatilayotgan faoliyatni tashkil etishga individual shaxsiy maqsad, jamoa a'zolari intilishini aks ettirish: o'quvchining intilishlari bilan sarf jamoasi oldidagi majburiyatlardagi nomuvofiqlik, tarbiyalanuvchi irodasidagi rivojlanish bilan, tarbiyachining qo'yadigan talablar o'rtasidagi nomuvofiqliklarni ko'rsatish mumkin. Bu qarama-qarshiliklar nomuvofiqliklarni bartaraf etish tarbiyachining shaxsiga tarbiyalanuvchi bilan bo'ladigan munosabatlar xarakteriga va o'z mahoratini - ishga solishiga ko'p jihatdan bog'liq. Mahoratli pedagog o'zining faoliyatida barcha ziddiyatlarni ongli ravishda bolalar jamoasining muomalasiga tayanib hal etadi. O'quvchining o'ziga, boshqalarga, umum ishga javobgarligi, shaxslararo munosabatlar o'zaro hamkorlikda ta'sir ko'rsatish asosida tarkib topib shug'ullanadi.

Har bir o'quvchining jamoadagi o'rnini egallashi va jamoa munosabatlarini shakllantirish quyidagilar asosida olib boriladi:

1. Har bir o'quvchi oldiga eng yaqin pedagogik vazifalarni qo'yib borish;
2. O'zaro fikrlash, yordam va o'rtoqlikni shakllantiruvchi muhit yaratish;
3. Bolalar hayotiga ijobiy omil bo'luvchi jamoatchilikni hurmatlash bilan bog'liq fazilatlar;
4. Oilaning tarbiyaviy ta'sirini hisobga olish;
5. Sinfda jamoa tuzilishi, shaxsning o'ziga xos sifatlari va ularning

o'z o'rni haqidagi axborotdan foydalanish;

6. Bolalar hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish bilan ular aloqasini mustahkamlash asosida ijodiy aktivlikni tarbiyalash.

Faqat o'qish faoliyatiga emas, balki xulq-atvorga ham baho berish va hokazo.

Tarbiyachilar tadbirlarni o'tkazishda turli usullaridan foydalaniladilar: buyruq, namuna kabi shakllardan o'z tajribasida qo'llaydi. Asosan tarbiyachining o'quvchilarga bo'ladigan munosabatlari uch xil turda olib boriladi:

1. Buyruq mavqeda munosabatda bo'lish. Favqulodda holat yuz bergan tarbiyaviy ishlarda bu turdan kam foydalanish zarur.
2. Jalb qilish orqali o'z ishida sobiqligi, ishonchi, jamiyatga foyda ko'rsatishi bilan o'quvchilarning o'qish, mehnat, sport, sayyohlik faoliyati doirasida ish tutadi.
3. Bolalar faoliyatiga aralashmasdan kuzatib ish tutishi nazarda tutiladi.

Pedagogik jarayonda munosabatlar tizimi pedagogik mahoratga tatbiq etilmasa, tarbiya vositalari, metodlari ham samarali natija bermaydi. Pedagogning jamoaning diqqat markazida o'zgarishi sodir bo'ladi. Maktabda, sinfda va ayrim o'quvchilarda bu narsa eng muhimdir. Texnologik tuzum va munosabatlar tizimi tarbiyachining mahorati tizimida yaxshi o'rganilgan bo'lishi mumkin. Lekin yuqori tarbiyaviy natijalar bermasligi mumkin. Tarbiyachi mahorati, mohiyati jamoada faqat muomalani tashkil qilish bo'lmay, balki jamoa uchun qiziqarli ishni tashkil qilish bilan jamoa-ijodkorligini tarkib toptirishdan iboratdir. Jamoa ijodkorligi bolalar ezgu orzularini rivojlantirishi va amaliyotda hayotni o'zgartirish mumkin. Yuksak maqsadlarga erishishda pedagog quyidagi ijobiy ta'sir ko'rsatishga rioya qilishi zarur: tarbiyaning hayot bilan birligi; axloqiy normalar va xulqning birligi, axloq va estetik aloqasi; bolalarga insonlarcha yondashish; talab va ishonch birligi; shaxsni hurmatlash; jinsini hisobga olish; jismoniy va axloqiy sog'lig'i uchun g'amxo'r bo'lishi me'yor prinsipidir.

Etnik tasavvurlar tarbiya texnologiyasi bilan uzviy bog‘lanishi uchun tajribali pedagoglar o‘quvchilar bilan quyidagi mavzular bo‘yicha suhbatlar o‘tkazadi: ona Vatan, keksa avlod, ota-onalar burchlari nimalardan iborat, xohish va burchning uzviyligi kabi suhbatlar olib borish bilan tarbiyachi tarbiyalanuvchilarning harakatlaridagi kamchiliklarni bartaraf qilish, natijada namunali xulqni shakllantirishga muvaffaq bo‘ladi. Bu albatta tarbiyachidan mahorat talab qiladi.

Tarbiyachi mahorati - bu ijodkorlik.

Tarbiyachi bolaga ta‘sir ko‘rsatishda tarbiya vositalarini qidirib, uni ijodiy qo‘llaydi. Tarbiyalanuvchilarni to‘g‘ri tarbiyalashda tarbiyachi pedagogik vazifalarni hal etishda rasmiy bo‘lmagan uslublardan foydalansa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Sinfda tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish. Ma‘lumki rejalashtirish ijodiy jarayon bo‘lib, boshqalarga uning shaklini tavsiya qilish to‘g‘ri emas.

Yosh o‘qituvchilar tajribali rahbaridan ilgari surilgan asosiy g‘oyalarni olishi foydali. Axir ilg‘or tajribali kuzatish individual ijodkorlik uchun asosiy g‘oyadir. Hamma ishlar bo‘lsa, kengaytirilgan reja, katta bilim yoki bilimchalardan iborat bo‘lmay, balki kunlik sxema tarzida bo‘lsa maqsadga muvofiq: nima, kim bajaradi, qanday muddatda. Rejalashtirish joyi perspektiv shaklda olib boriladi.

Tarbiyasi qiyin bolalar bilan ishlash. “Tarbiyasi qiyin”lar bilan ishlash - tarbiyachi uchun eng qiyin, murakkab ish bo‘lib, undan doimo o‘ta diqqatli, sabr-toqatli, mahoratli, ziyraklikni va mehrli bo‘lishni talab qiladi. Bu sohada V.A.Suxomlinskiyning quyidagi metodik tavsiyalarini ko‘rsatish mumkin: “Insonga insonning”, “Inson haqida oila”, “Grajdanning tug‘ilishi”, “Qiyin taqdir” va h.k.

Suxomlinskiy maslahatlariga asoslanib ish tutgan mohir pedagoglar “Tarbiyasi qiyin”lar bilan ishlashda uchta yo‘nalishda ish olib borishni tavsiya etadi: shaxsning maqsadga yo‘nalganligi, umumiy rivojlanish darajasi, axloqiy tarbiyalanganlik darajasi.

N.E.Shukurovaning “Tarbiyasi qiyin” bo‘lgan bolalar bilan

ishlash mazmuni quyidagicha:

a) bolalar ongida qo'zg'alishni uyg'otish orqali "o'z ongini" va o'quvchilarning o'zaro hurmatini shakllantirish;

b) mehnatni ilmiy asosda tashkil etish - bu o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasiga eng yuqori natijaga erishishda o'quvchining vaqtdan samarali foydalanishiga tushuniladi. Tajribasiz o'qituvchi tarbiyaviy ishni tashkil etishda uning mazmuni bilan band bo'lib, ilmiy-pedagogik asosda tashkil qilishni o'z vaqtida bajara olmaydi. Tajribali o'qituvchi bunday tarbiyani olib borishda sharoiti, sinf jamoasining tarbiyalanganligini, olib borilayotgan tarbiyaning maqsadini oldindan rejalashtirib olishi zarur.

Yosh o'qituvchi, tajribani faqat tashkil etishni va uni o'tkazishni nazarda tutadi. Mohir o'qituvchi esa, uni konkret vaqtda bir necha ta'lim-tarbiyaviy maqsadni amalga oshirishda reja asosida ishlab yuqori natijani qo'lga kiritadi. Pedagogik jarayonda vaqtni tejaydi, vosita va mavjud imkoniyatdan maksimal foydalanadi. Masalan: jamoa bo'lib, kinofilm ko'rishni tashkil qilish va h.k. va tarbiya natijasini hisobga olish. Tarbiya natijasi o'quvchining xulq-atvoridagi o'zgarishlar bilan o'qishga, mehnatga bo'lgan munosabatlarida o'z ifodasini topadi. Tarbiyaviy faoliyatning samaradorligini aniqlash juda qiyin va murakkab ishdir. O'quvchilarning tarbiyalanganlik darajasini aniqlashda ular bilan olib borilgan tadbirlar soni bilan emas, balki natijasi bilan xulosa qilish to'g'ri bo'ladi. Tarbiyaviy ishlarda baho berishning asosiy mezonini o'quvchilarning tarbiyalanganlik darajasidir.

O'quvchilar tarbiyalanganlik darajasini qanday sifatlar belgilaydi? Ilmiy tadqiqotchilar V.A.Yarikov, M.N.Plaxovlar quyidagilarga diqqatini qaratadi:

1. O'quvchining o'qishga, o'quv mashg'ulotiga qiziqish va ilmga intilish darajasi va h.k.
2. O'quvchining mehnat faoliyatiga, mehnat topshiriqlarini sifatli qilib bajarishni foydali mehnatda qatnashishi va h.k.
3. O'quvchining bir-biriga, o'rtog'iga, o'zaro hamkorligi, sinf jamoasiga, do'stlariga, maktabdagi o'qituvchilarga

munosabatlariga va h.k.

Nazorat savollari:

1. O'qituvchining ta'lim jarayonidagi mahoratini izohlang.
2. O'qituvchi faoliyatida yaxshi kayfiyat, ko'tarinki ruh kabi holatlarning o'rni deganda nimani tushunasiz?
3. O'qituvchining pedagogik texnologiyalarini qo'llash mahoratini ayting.
4. O'qituvchining darsdan keyingi ijodiy faoliyatini sizningcha qanday tashkil etish mumkin?
5. Pedagogik texnika deganda nimani tushunasiz?
6. Pedagogik texnikaning tarkibiy qismlari haqida so'zlang.
7. Nutq texnikasi nima?
8. Didaktik, tashkilotchilik, konstruktiv, kommunikativ malakalar haqida gapirib bering.
9. O'qituvchining nutq texnikasida ko'ruv diqqati qanday ahamiyatga ega?
10. O'qituvchining shaxsiy intilishi pedagogik mahoratda qanday o'rin egallaydi?
11. O'qituvchining dars berish mahorati haqida nimalarni bilasiz?
12. Darsning an'anaviy metodlariga nimalar kiradi?
13. Tarbiyachi ijodkor deganda nimani tushunasiz?
14. O'qituvchi-tarbiyachining sinfda va maktabda o'tkazadigan tadbirlari necha bosqichda amalga oshiriladi.

GLOSSARIY

Anomaliya (yunoncha - anomal) – me'yordan, umumiy qonuniyatlardan chetlanish, noto'g'ri rivojlanish.

Anomal bolalarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish - korreksion pedagogikaning asosiy tushunchasi bo'lib, nuqsonning darajasi va tuzilishiga mos keladigan metod hamda vositalar yordamida anomal bolalarni faol ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlash, ularda fuqarolik sifatlarini shakllantirish.

Axloq (lotincha "moralis" - xulq-atvor ma'nosini bildiradi) - ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlari yig'indisi.

Axloqiy ong - shaxsga axloqiy me'yorlar va xulq-atvor qoidalari to'g'risidagi nazariy bilimlarni berish asosida hosil qilinuvchi ong shakli.

Axloqiy tarbiya - muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan tartib, odob, o'zaro munosabat, muloqot va xulq-atvor qoidalari, mezonlarini o'quvchilar ongiga singdirish asosida ularda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko'nikmalari va axloqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi.

Aqliy tarbiya - shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi bilimlarni berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkuri va dunyoqarashini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi.

Amaliyotda (praktikada) qo'llash - hayotda bir necha bor qo'llangan o'zining ijobiy hosilasini bergan, ishonchli muammolar yechimi bilan solishtirib, xulosa qilish so'ng tafakkur saviyasiga tayanib yagona yechimini tanlash va undan amaliyotda foydalanishdir.

Anglash - biror bir g'oyani (fikrni) tub mazmuniga tushunib yetish.

Anomal bolalarni tarbiyalash — korreksion pedagogikaning asosiy tushunchasi bo‘lib, uning maqsad va vazifasi nuqsonning darajasi va tuzilishiga mos keladigan metod hamda vositalar yordamida anomal bolalarni faol ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlash, ularda fuqarolik sifatlarini shakllantirishdan iborat. Anomal bolalarni tarbiyalash oila va ta’lim muassasasi o‘rtasidagi yaqin aloqa, bir-birlarini qo‘llab-quvvatlash, bir-biriga yordam ko‘rsatish, talabchanlik hamda oqilona mehribonlik asosida amalga oshiriladi.

Anomaliya (yunoncha — anomal) — me’yordan, umumiy qonuniyatlardan chetlanish, noto‘g‘ri rivojlanish.

Aqliy tarbiya - shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to‘g‘risidagi bilimlarni berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkuri va dunyoqarashini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi.

Axloq - ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo‘lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlari yig‘indisi.

Axloq (lotincha «moralis» — xulq-atvor ma’nosini bildiradi) — ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo‘lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlari yig‘indisi.

Axloqiy ong - ijtimoiy ong shakllaridan biri bo‘lib, jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo‘lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlari, shuningdek, milliy istiqlol g‘oyasining o‘quvchilar ongida aks etishidir.

Axloqiy tarbiya - muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo‘lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlarini o‘quvchilar ongiga singdirish ularda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko‘nikmalari hamda axloqiy madaniyatni shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon bo‘lib, ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri sanaladi.

Baho – ta’lim oluvchilarga ularning ta’lim olishi, bilimlarni o’zlashtirishga nisbatan ijodiy yondashishini rag’batlantirish maqsadida ta’sir ko’rsatish vositasi.

Baholash - ko’nikma va malakalarni o’quv davrida ko’rsatilgan e’talon (ko’rsatkich, qolip, o’lchagich)lar bilan solishtirish.

Bashoratlash - bo’lajak darsni tashkil etilishining turli variantlarini baholash va ulardan qabul qilingan mezonlarga muvofiq eng ma’qulini tanlab olish.

Bilim — shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma’lum obrazlar ko’rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma’lumotlar majmui;

Bilim olish — idrok etish, o’rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko’nikma, malakalarining mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni;

Bilish -obyektiv borliqning inson ongida aks etish shakli; ilmiy bilimlarni o’zlashtirish jarayoni.

Boshqarish - ma’lum bir obyektga tashkiliy, rejali, tizimli ta’sir ko’rsatish demakdir.

Vatanparvarlik (lotincha “**patriotes**” - vatandosh, “**patris**” - **vatan, yurt**) - shaxsning o’zi mansub bo’lgan millat, tug’ilib o’sgan vatani tarixdan g’ururlanishi, buguni to’g’risida qayg’urishi hamda uning porloq istiqboliga bo’lgan ishonchini ifoda etuvchi yuksak insoniy fazilat.

Verbal - bilim (ma’lumot, axborot)larni so’z yordamida (og’zaki) yetkazib berish, ifoda etish.

Gnoseologiya (yunon tilidan “**gnosis**” - bilim, ong, o’rganish) - bilish, ilmiy bilimlarning shakllanishi, xususiyatlari, qonuniyatlari, uslublari, ilmiy tafakkur shakllari, shuningdek, insonga xos bo’lgan borliqni anglash qobiliyati haqidagi nazariya, ta’limot.

Davlat ramzlari - muayyan millat, elatning etnopsixologik xususiyatlari, qarashlari, orzu-umidlari, intilishlari va maqsadi, hududiy, ijtimoiy-g'oyaviy birlik mohiyatini anglatishga xizmat qiluvchi tasviriy belgilar majmui.

Davlat ta'lim standarti - 1) ta'lim olish shaklidan qat'iy nazar bitiruvchilar erishishlari zarur bo'lgan ta'lim darajasini belgilovchi asosiy hujjat; 2) o'quv fani bo'yicha ta'limning yakuniy natijalarini belgilovchi asosiy hujjat; 3) ta'lim dasturlari mazmunining minimumi, o'quvchilar tomonidan bajariladigan o'quv ishlarining maksimal hajmi, shuningdek, bitiruvchilarning tayyorgarlik darajalariga qo'yiluvchi talablar.

Dars - bevosita o'qituvchi rahbarligida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim jarayonining asosiy shakli.

Darslik - muayyan fan bo'yicha ta'lim maqsadi, o'quv dasturi va didaktik talablarga muvofiq belgilangan ilmiy bilimlar to'g'risidagi ma'lumotlarni beruvchi manba.

Didaktika (ta'lim nazariyasi) - (yunoncha “didaktikos” “o'rgatuvchi”, “didasko” - “o'rganuvchi”) – ta'limning nazariy jihatlarini (ta'lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, o'qituvchi va o'quvchi faoliyati mazmuni, ta'lim maqsadi, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari va hokazo muammolari)ni o'rganuvchi fan.

Didaktika tamoyillari (lotin tilidan “printsipium” - har qanday nazariyaning asosiy, boshlang'ich, dastlabki holati) – ta'limni tashkil etishga qo'yilgan me'yoriy talablarni ifodalovchi, shuningdek, ta'lim jarayonining asosiy maqsadi va qonuniyatlariga muvofiq uning dastlabki holatini belgilovchi qarashlari.

Didaktik tashxis maqsadi - o'quv jarayonining samaradorligini aniqlash, baholash va tahlil qilish.

Didaktik tizim (yunoncha “systema” - yaxlit, qismlarda tashkil topgan, birlashtirish) – ma'lum mezonlari asosida ta'lim jarayonining yaxlit holatini belgilash, ajratib ko'rsatish.

Didaktik o‘yin - o‘rganilayotgan obyekt, hodisa va jarayonlarni modellash asosida o‘quvchining bilishga bo‘lgan qiziqishi va faollik darajasini rag‘batlantiruvchi o‘quv faoliyati turi.

Dunyoqarash - tabiat, jamiyat, tafakkur hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va e‘tiqodlar tizimi.

Jazolash - tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga salbiy baho berish usuli. Jamoa (lotincha “kollektivus” so‘zining tarjimai bo‘lib, yig‘ilma, omma, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh kabi ma’nolarni anglatadi) - bir necha a‘zo (kishi)lardan iborat bo‘lib, ijtimoiy ahamiyatga ega umumiy maqsad asosida tashkil topgan guruh.

Jinsiy tarbiya - o‘zida shaxsni jinsiy jihatdan chiniqtirish, ularni tozalik va ozodalikka o‘rgatish, o‘z sog‘ligi uchun g‘amxo‘rlik qilish va mas‘uliyatli bo‘lishni ta‘minlashga qaratilgan pedagogik faoliyat mazmuni.

Jismoniy tarbiya - o‘quvchilarda jismoniy va irodaviy sifatlarni shakllantirish, ularni aqliy va jismoniy jihatdan mehnat hamda Vatan mudofaasiga tayyorlashga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismi.

Joriy nazorat – ta‘lim jarayonida o‘quvchilar tomonidan o‘quv dasturida belgilangan muayyan mavzularni o‘zlashtirilish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini aniqlash, baholash shakli.

Idrok - aniq maqsadga yo‘naltirilgan anglash jarayoni.

Ijtimoiy adallmatsiya (yunoncha adapto - moslashish) - anomal bolalar individual yoki guruhli xulqlarining ijtimoiy qadriyatlar va xulq-atvor qoidalari tizimiga mos kelishi.

Ijtimoiylashuv - ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi asosida shaxsning hayot va ishlab chiqarish jarayoniga moslashuvi. Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar - o‘quvchilarda ma‘naviy-axloqiy sifatlarni, e‘tiqod hamda dunyoqarashni shakllantirish maqsadida ularning ongi, his-tuyg‘usi va irodasiga

ta'sir ko'rsatish usullari.

Ijtimoiy pedagogika - ijtimoiy munosabatlar jarayonida pedagogik g'oyalarning tutgan o'rni va roli, shaxsni kasbiy va ijtimoiy faoliyatga yo'naltirish muammolarini o'rganadi.

Ijtimoiy reabilitatsiya (yunoncha rehabilitas - layoqati, qobiliyatini tiklash) - anomal bolaning psixofiziologik imkoniyatlariga tayangan holda uning ijtimoiy munosabatlar jarayonida ishtirok etishi uchun zarur sharoit yaratish, ijtimoiy faoliyat va mehnatga jalb etish.

Izohlash (tarbiya metodi sifatida) - tarbiyalanuvchiga hissiy-og'zaki ta'sir etish usuli.

Ilmiy dunyoqarash - uzluksiz, izchil ravishda mavjud fanlar asoslarini puxta o'zlashtirib borish, ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etish natijasida barqarorlashgan dunyoqarash shakli.

Individ (lotincha "individium" bo'linmas, yagona, alohida degan ma'nolarni anglatadi) - xatti-harakatlarini shartli refleks yordamidagina tashkil eta oluvchi biologik mavjudot.

Individuallik - shaxsning o'ziga xos xususiyatlari.

Institut - bilimlarning bitta sohasi doirasida aniq yo'nalishlar bo'yicha oliy va qoidaga ko'ra oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasi.

Iqtisodiy tarbiya - o'quvchilarga iqtisodiy bilimlarni berish, ularda iqtisodiy faoliyat (oilalar byudjetini shakllantirish, xo'jalikni yuritish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, ko'paytirish, savdo-sotiq munosabatlarini to'g'ri tashkil etish va hokazolar)ni tashkil etish ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat pedagogik jarayon.

Iqtisodiy ta'lim - o'quvchilarga xo'jalik yuritish tizimi (oilalar byudjetini shakllantirish, xo'jalikni yuritish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, ko'paytirish, savdo-sotiq munosabatlarini to'g'ri tashkil etish va hokazolar) to'g'risidagi nazariy bilimlarni berishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Yosh xususiyatlari - muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash - mutaxassislarning kasb bilimlari va ko'nikmalarini yangilash hamda chuqurlashtirish maqsadida tashkil etiluvchi ta'lim bosqichi.

Kasb-hunar maktabi - o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantiruvchi, tanlab olingan kasb- hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini yaratish maqsadida tegishli davlat ta'lim standartlari doirasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini beruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasi.

Kategoriya - fanning mohiyatini ochib beruvchi eng muhim, asosiy tushuncha.

Kompensatsiya (yunoncha “compensation” - o'rnini to'ldirish, tenglashtirish) - oliy nerv faoliyatining zaxira imkoniyatlariga tayangan holda organizmning buzilgan yoki rivojlanmagan funksiyalarining o'rnini to'ldirish yoki qayta qurish.

Korreksiya (yunoncha “correctio” - tuzatish) - pedagogik uslub va tadbirlardan iborat maxsus tizimi yordamida anomal bolalarning psixik va jismoniy rivojlanishidagi kamchiliklarini qisman yoki to'liq tuzatish.

Korreksion (maxsus) pedagogika (defektologiya - yunoncha “defectus” - nuqson, kamchilik, “logos” - fan, ta'limot) - rivojlanishda jismoniy yoki psixik kamchilikka ega, maxsus, individual tarbiyalash va o'qitish metodlariga asoslangan, salomatlik imkoniyatlari cheklangan bolaning individualligi hamda shaxsini rivojlantirish jarayonini boshqarish mohiyati, qonuniyatlarini o'rganuvchi fan.

Korreksion-pedagogik faoliyat - yaxlit ta'lim jarayonini qamrab oluvchi hamda murakkab psixofiziologik va ijtimoiy-pedagogik chora- tadbirlarning amalga oshirilishini nazarda tutuvchi pedagogik tizim.

Korreksion-tarbiyaviy ishlar - shaxsning anomal rivojlanishi xususiyatlariga ko'ra umumiy pedagogik ta'sir ko'rsatish chora-tadbirlari tizimi.

Ko'nikma - shaxsning muayyan harakat yoki faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati.

Ko'rgazmali metodlar - predmet, hodisa yoki jarayonlar mohiyatini tabiiy holatda namoyish qilish, ularning maketlarini ko'rsatishda qo'llaniluvchi usullar.

Litsey (maktabda) ma'ruza - o'quv materialini o'quvchilarning idrok etish faoliyatlarini faollashtirish uslublari bilan birgalikda davomli og'zaki bayon etish (80-90 daqiqa), berilayotgan materialning sxematik modelini tuzish (asosiy fikrni tezis yoki loyiha ko'rinishida yozib olish) va boshqalar.

Loyihalashtirish (rejalashtirish) - o'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarish dasturini yaratish.

Logopediya (yunoncha "logos" - so'z, nazariya, ta'limot, "paideia" -tarbiyalash) - nutqiy nuqsonlarni o'rganish, ular kelib chiqishining oldini olish va ularni qisman yoki to'liq tuzatish masalalarini o'rganuvchi fan; korreksion pedagogika (defektologiya)ning muhim sohasi.

Magistratura - aniq mutaxassislik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriat negizida ta'lim muddati kamida ikki yil davom etadigan oliy ta'lim.

Madaniyat ("cultura" so'zidan olingan bo'lib, parvarish qilish, ishlov berish ma'nosini bildiradi) - ijtimoiy taraqqiyot davomida insonlarning faoliyati tufayli qo'lga kiritilib, ularning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi moddiy va ma'naviy boyliklar tizimi.

Mazmun (ta'lim (bilim olish) mazmuni) – ta'lim jarayonida shaxs tomonidan o'zlashtirilishi zarur bo'lgan ilmiy bilim, amaliy ko'nikma, malaka, fikrlash hamda faoliyat usullari tizimi.

Malaka - muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning

avtomatlashtirilgan shakli.

Materialni og‘zaki bayon qilish metodlari - o‘quv materialini mohiyatini og‘zaki (hikoya, tushuntirish, maktab ma'ruzasi kabi shakllarda) yoritishda qo‘llaniluvchi usullar.

Mafkura (arabcha “mafkura” - naqtayi nazar va e’tiqodlar tizimi, majmui) - jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, shuningdek, ma’naviy-axloqiy yuksalish, ma’rifiy-tarbiyaviy ishlarning rivojini ta’minlovchi, ularning maqsad va yo‘nalishlarini aniqlashda yetakchi o‘rin tutuvchi g‘oyalar tizimi.

Mashq va o‘rgatish (faoliyatda mashqlantirish) metodlari - muayyan mashq yordamida bolalar faoliyatini oqilona, maqsadga muvofiq va har tomonlama puxta tashkil qilish, ularni axloq me’yorlari va xulq-atvor qoidalarini bajarishga odatlantirish usullari.

Ma’lumot – ta’lim-tarbiya natijasida o‘zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko‘nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui.

Ma’naviyat (arabcha “ma’naviyat” - ma'nolar majmui) - mohiyatiga ko‘ra ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy ta’sir o‘tkazuvchi falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvur, tushuncha va g‘oyalar majmui.

Ma’rifat - shaxs ongiga ilmiy bilim, axloq qoidalari hamda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy me’yorlarni singdirish, ta’lim- tarbiyani takomillashtirish, milliy meros va umuminsoniy qadriyatlarni o‘rganish, ularni targ‘ib etish maqsadida amalga oshiriladigan tadbirlar tizimi.

Ma’ruza - yirik hajmdagi o‘quv materialini og‘zaki bayon qilish shakli.

Menejment - mavjud minimal imkoniyatlardan maksimal natijalarga erishish uchun shaxs (xodim) yoki guruhga ta’sir o‘tkazish asosida ularning faoliyatini tashkil etish tamoyillari, shakllari, metodlari va usullari.

Metod - yunoncha tarjimasi “tadqiqot, usul, maqsadga erishish yo‘li” kabi ma’nolarni anglatadi.

Metodika (fan sifatida) - xususiy fanlarni o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganadi.

Pedagogik talab - turli xatti-harakatlarni bajarish hamda faoliyatda ishtirok etish jarayonida o‘quvchi tomonidan amal qilinishi zarur bo‘lgan ijtimoiy xulq-atvor me’yorlari.

Pedagogik texnologiya – ta’lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, texnologik yondashuv asosida ta’lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolarini o‘rganadi.

Pedagog kadrlar tarkibi - o‘qituvchi, metodist, tarbiyachi, psixolog, defektolog, logoped, sport instruktori, musiqa, badiiy ijodiyot, radiotexnika, sport va boshqa yo‘nalishlarda faoliyat ko‘rsatuvchi to‘garaklarning rahbarlaridan iborat mutaxassislar.

Pedagogik mahorat – ta’lim-tarbiya jarayoniga ongli, ijodiy yondashuv, metodik bilimlarni samarali qo‘llay olish qobiliyati, yuksak pedagogik tafakkur.

Pedagogik talab - turli harakatlarni bajarish, muayyan faoliyat jarayonida ishtirok etishda o‘quvchi amal qilishi zarur bo‘lgan ijtimoiy xulq-atvor me’yorlarini ifodalovchi vazifa; tarbiyaning eng muhim usuli.

Rag‘batlantirish - tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga ijobiy baho berish asosida unga ishonch bildirish, ko‘nglini ko‘tarish va uni qo‘llab-quvvatlash usuli.

Rivojlanish - shaxsning fiziologik va intellektual o‘rishida namoyon bo‘ladigan miqdor va sifat o‘zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

Reyting (baholash, tartibga keltirish, klassifikatsiyalash) - muayyan hodisani oldindan belgilangan shkala bo‘yicha baholash.

Sinf - yoshi va bilimi jihatidan bir xil bo‘lgan, ma’lum o‘quvchilar guruhi.

Surdopedagogika (yunoncha “surdus” - kar) - eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni o‘qitish va tarbiyalash jarayonini o‘rganuvchi fan; korreksion (maxsus) pedagogikaning yana bir muhim sohasi.

Suhbat - savol va javob shaklidagi dialogik ta’lim metodi.

Tamoyil (yunoncha “printsipium”) - biror-bir nazariyaning asosi, negizi, asosiy boshlang‘ich qoidasi; boshqaruvchi g‘oya, faoliyatning asosiy qoidasi; umumlashtirilgan talab.

Tarbiya - muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o‘stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

Tarbiya jarayoni - o‘qituvchi va o‘quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o‘rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo‘naltirilgan samarali hamkorlik jarayoni.

Tarbiya mazmuni - shaxsning shakllanishiga qo‘yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyati.

Tarbiya metodi (yunoncha “metodos” - yo‘l) - tarbiya maqsadiga erishish yo‘li; tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg‘ulari va xulqiga ta’sir etish usullari.

Tarbiya nazariyasi - pedagogikaning muhim tarkibiy qismi; tarbiyaviy jarayon mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari hamda uni tashkil etish muammolarini o‘rganadi.

Tafakkur - ijtimoiy voqea-hodisalarning ongda to‘laqonli aks etishi, inson aqliy faoliyatining yuksak shakli.

Tashxis - didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash.

Ta’lim - o‘quvchilarga nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o‘stirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga yo‘naltirilgan jarayon.

Ta’lim va tarbiya mazmuni - shaxsning aqliy va jismoniy qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish, dunyoqarashi, odobi, xulqi,

ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlik darajasini shakllantirish jarayonining mohiyati.

Ta'lim vositalari - ta'lim samaradorligini ta'minlovchi obyektiv (darslik, o'quv qo'llanmalari, o'quv qurollari, xarita, diagramma, plakat, rasm, chizma, dioproyektor, magnitofon, video-magnitofon, uskuna, televizor, radio, kompyuter va boshqalar) va subyektiv (o'qituvchining nutqi, namunasi, muayyan shaxs hayoti va faoliyatiga oid misollar va hokazolar) omillar.

Ta'lim jarayoni - o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Ta'lim menejeri - ta'lim muassasasi faoliyatini zamonaviy menejment qonuniyatlariga muvofiq boshqaruvchi mutaxassis.

Ta'lim metodlari - ta'lim jarayonida qo'llanilib, uning samarasini ta'minlovchi usullar majmui.

Ta'lim muassasasi ustavi – ta'lim muassasasiga rahbarlik mohiyatini yorituvchi hamda uning faoliyatini boshqarish tizimini aniqlovchi hujjat.

Ta'lim konsepsiyalari (lotin tilidan “conception” - tizim) – ta'lim- tarbiya mazmuni, istiqbolini yorituvchi yaxlit qarashlar tizimi; uzluksiz ta'lim tizimining turli bosqichlarida ta'lim muassasalari faoliyati yo'nalishi, maqsad va vazifalarini belgilashning alohida usuli.

Ta'lim mazmuni - davlat ta'lim standartlari asosida belgilab berilgan hamda ma'lum sharoitda muayyan fanlar bo'yicha o'zlashtirilishi nazarda tutilgan ilmiy bilimlar mohiyati.

Ta'lim maqsadi (o'qish, bilim olish maqsadi) – ta'limning aniq yo'nalishini belgilab beruvchi yetakchi g'oya.

Ta'lim natijasi (ta'lim mahsuli) – ta'lim yakunining mohiyatini qayd etuvchi tushuncha; o'quv jarayonining oqibati; belgilangan maqsadni amalga oshirish darajasi.

Ta'limni boshqarish – ta'lim muassasalarining faoliyatini

yo'lga qo'yish, boshqarish, nazorat qilish hamda istiqbollari belgilash masalalarini o'rganadi.

Ta'limning sinf-dars tizimi - dars shaklida muayyan o'quvchilar guruhi bilan o'quv rejasiga muvofiq tuzilgan aniq jadval bo'yicha olib boriladigan ta'lim jarayoni.

Ta'lim tizimi - davlat siyosatining asosiy tamoyillari asosida yosh avlodga ta'lim tarbiya berish yo'lida faoliyat yurituvchi barcha turdagi ta'lim muassasalari majmui.

Ta'lim shakli – ta'lim jarayonining tashkiliy tuzilmasi.

Tizim (mustaqil tushuncha sifatida) - o'zaro bog'langan ko'plab elementlar (tarkibiy qismlar) o'rtasidagi mustahkam birlik va o'zaro yaxlitlik.

Tiflopedagogika (yunoncha typhlos - ko'r) - ko'rish qobiliyati buzilgan bolalarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish muammolarini o'rganuvchi fan.

Rasmiy adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. “O‘zbekistan”, 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 yil, 6-son, 70-modda.
3. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi inson manfaatlarini ta’minlash taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. “O‘zbekiston”, 2017.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni.

Asosiy adabiyotlar:

5. Hasanboev J., To‘raqulov X., Haydarov M., Hasanboeva O. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. - T., 2008.
6. Kaldibekova A.S. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyotidan laboratoriya mashg‘ulotlari. - T., 2013.
7. Niyozov F., Axmedova M.E. Pedagogika tarixidan seminar mashg‘ulotlari. - T.: Noshir, 2011.
8. Axmedova M.E. Pedagogika nazariyasi va tarixi (O‘quv qo‘llanma) - T.: Tafakkur bo‘stoni, 2011.
9. Ismoilova 3. Pedagogikadan amaliy mashg‘ulotlar. - T., 2001.
10. M.X. Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. Pedagogika darslik. T.: O‘zbekiston faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.
11. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. Darslik. - A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi 2001.
12. To‘ldoshev O‘.J. tahriri ostida. Umumiy pedagogika. – T.: “Fan va texnologiya”, 2017, 376 b.
13. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar – T., 2013. – 279 b.

- 14.Tolipov.O'. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat (O'quv qo'llanma)/ Dilnoz Ro'ziyeva / - Toshkent: "Innovatsiya-ziyo", 2019, 276 b.
- 15.Ibragimov X.I., Abdullaeva Sh.A. Pedagogika (darslik). - T., "Fan va texnologiyalar", 2007, 288 b.
- 16.Shodmonova Sh. va boshqalar. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – T.: "Fan va texnologiya", 2019, 296 b.
- 17.Xoliqov A. Pedagogik mahorat. Darslik. – T.: Iqtisod-moliya, 2011. – 420 b.
- 18.Aholidinov R.Sh. Ta'lim boshqaruvidan saboqlar. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi. – 2014., 440 b.Безрукова В.С. Педагогика. Проектная педагогика. – Екатеринбург: Деловая книга, 1996. – 344с.
- 19.Бизязева А.А. Психология думающего учителя: педагогическая рефлексия - Псков: ПГПИ им.С. М. Кирова, 2004. -216 стр.
- 20.Васильев Ю.В. Педагогическое управление в школе: методология, теория, практика: научное издание. - М. : Педагогика, 1990. - 144с
- 21.Golish L.V., Fayzullaeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. O'quv-uslubiy qo'llanma. – T.: iqtisodiyot nashriyoti, 2011. – 206 b.Комилов Н., Бегматов А., Куронов М. Рахбар ва ходим. – Тошкент: Академия, 1998. – 170 б.
- 22.Mirqosimov M. Maktabni boshqarishning nazariy va pedagogik asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1995. – 159 b.Мусурманов Р. Педагогик тажриба-синов ишларини ташкил этиш ва бошқариш. Тошкент: Фан ва технология, 2011. – 142 б.
- 23.Основы разработки педагогических технологий и инноваций / Под.ред. В.А. Пятина. – Астрахань, 1998. – 380 с.
- 24.Tosheva N.T. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida bilish faoliyatini rivojlantiruvchi o'quv vaziyatlarini tashkillashtirishning didaktik

- shart-sharoitlari // Monografiya – Toshkent: Tafakkur, 2011. 104 b.
- б.Турғунов С.Т. Бошқарув жараёнида тарбиявий муносабатлар // Мактаб ва ҳаёт журнали. – 2006. – № 1. – 20-23 б.
- 25.Turg'unov S.T., Maqsudova L.A. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish. – Toshkent: "Fan", 2008.– 441 s.
- 26.Ушева Т.Ф. Педагогические условия формирования рефлексивных умений студентов в учебном процессе вуза: Дисс.. канд.пед.наук. – Иркутск. - 2009. – 184 с.
- 27.Fozilov J.K. O'zbekistonda mustaqillik sharoitida maktabdan tashqari ta'lim tizimini boshqarishning pedagogik asoslari.: Ped. f.n. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2007. – 22 b.
- 28.Xo'jaev A.A., Xeyki Lentinin. O'zbekiston o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida boshqarish samaradorligini oshirish yo'llari. – Toshkent, 2001. – 126 b.
- 29.Sharifxo'jaev M., Abdullaev Yo. Menejment: Darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2001. – 702 b.
- 30.Qurbonov Sh.E., Seytxalilov E., Quronov M., Ahlidinov R., Majidov I. Milliy istiqlol g'oyasini shakllantirishda tashkiliy-uslubiy yondashuvlar. – Toshkent: Akademiya, 2002. – 280 b.
- 31.Qurbonov Sh.E., Seytxalilov E. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi: ta'limdagi innovasiyalar // Xalq ta'limi jurnali. – 1999. – №.6. – 15-17 b.
- 32.Qo'chqarova F.M.Boshlang'ich sinf darsliklarida o'quv materiallarini konsentrizm prinsipi asosida strukturalashtirish. – T.: Fan va texnologiyalar, 2010. – 72 b.
- Izoh: qo'shimcha adabiyotlar boshqa ilmiy kutubxonalarda mavjud.
- Axborot manbalari:

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.ziyonet.uz
4. www.edu.uz

MUNDARIJA

Kirish.....	3
1-§. Ta'lim tizimini modernizatsiyalashning tashkiliy- metodik asoslari.....	6
2-§. Pedagogning kasbiy mahorati uning o'qituvchi faoliyatida tutgan o'rni va ahamiyati.....	28
3-§. Shaxsda ijodiy tafakkur rivojlanishi. Ijtimoiylashuv jarayonida shaxs sifatlarini tutgan o'rni.....	45
4-§. Pedagogning kasbiy kompetentligi va kreativ rivojlanishi.....	61
5-§. O'qituvchi faoliyatida muloqot madaniyati va psixologiyasi.....	81
6-§. Pedagogik texnika haqida tushuncha. Pedagogik texnikani shakllantirish metodikasi, nutq texnikasi va madaniyati.....	102
7-§. Pedagogik qobiliyat- pedagogik mahoratning asosi.....	132
8-§. Pedagogik jarayonni loyihalash, o'quv loyihalari yaratishning pedagogik imkoniyatlari.....	149
9-§. Zamonaviy ta'lim sohasidagi ilg'or xorijiy tajribalar...	159
10-§. Pedagogik faoliyatda uchraydigan qarama-qarshiliklar va ziddiyatlar.....	178
11-§. O'qituvchining ta'lim jarayonidagi mahorati.....	201
Glossariy.....	227
Foydalanilgan adabiyotlar.....	240

D.U.XOLBO‘TAYEVA

PEDAGOGIK MAHORAT

**60110100 – Pedagogika. Tarbiya fani o‘qituvchisi yo‘nalishi talabalari uchun
o‘quv qo‘llanma**

Nashr etishda qatnashganlar:

B.Rustamov, G.Raxmatullayeva, K.Ergashev, Z.Xakimova, D.Narzullayeva,



“Science and innovation” MCHJ

Litsenziya №:285829 27.05.2024

Bosmaxonaga berildi: 1.11.2024. Bosishga ruxsat etildi: 4.11.2024.

Bichimi 60x84 1/16. Times New Roman garniturası. Ofset bosma.

Shartli bosma taboq: 14.18. Adadi 300 nusxa. Buyurtma № 52

Manzil: 100155, Toshkent shahri, Sergeli tumani, Quruvchi dahasi, 22/43.

www.scientists.uz, info@scientists.uz, +998901259654